



ISSN: 2181-9416

1-SON, 2026

# YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА \* LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
e LIBRARY.RU

# “YURIST AXBOROTNOMASI”

huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy jurnali

№1 (2026)

Bosh muharrir:

**KANYAZOV YESEMURAT  
SULTAMURATOVICH**

O'zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi huzuridagi  
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va  
malakasini oshirish instituti direktori,  
yuridik fanlar nomzodi

Bosh muharrir o'rinbosari:

**MAXMUDOV FIRUZ  
BAXTIYOR O'G'LI**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi  
huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va  
malakasini oshirish instituti direktorining  
ilmiy ishlar va xalqaro hamkorlik bo'yicha  
o'rinbosari, yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent

## TAHRIR HAY'ATI:

### XURSANOV RUSTAM XOLMURATOVICH

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va  
malakasini oshirish instituti direktorining  
o'quv ishlari bo'yicha birinchi o'rinbosari,  
yuridik fanlari doktori (DSc), dotsent

### BAYMOLDINA ZAURESH XAMITOVNA

Qozog'iston Respublikasi  
Oliy Sudi Akademiyasi rektori,  
yuridik fanlari nomzodi

### ZDROK OKSANA NIKOLAYEVNA

Belorus davlat universiteti sudyalalar hamda sud,  
prokuratura va adliya muassasalari xodimlarini  
qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish  
instituti direktori

### OQYULOV OMONBAY

Toshkent davlat yuridik universiteti professori,  
yuridik fanlar doktori, professor,  
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist

### MAMASIDDIQOV MUZAFFARJON MUSAJONOVICH

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi  
Akademiyasi boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

### TASHKULOV DJURABAY

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi  
Davlat va huquq instituti tarixiy-nazariy, davlat-huquqiy  
va konstitutsiyaviy huquqiy fanlar bo'limi boshlig'i,  
yuridik fanlar doktori, professor

### SALAYEV NODIRBEK SAPARBAYEVICH

Toshkent davlat yuridik universiteti professori,  
yuridik fanlar doktori

### FAZILOV FARXOD MARATOVICH

Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b.,  
yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent

### RAXIMOV DANIIYAR BAXTIYAROVICH

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va  
malakasini oshirish instituti professori v.b.,  
yuridik fanlar doktori (DSc)

### G'AFUROVA NOZIMAXON ELDAROVNA

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini  
oshirish instituti professori v.b., yuridik fanlar  
doktori (DSc), dotsent

### SHAKUROV RAFIK RAVILYEVICH

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini  
oshirish instituti dotsenti, yuridik fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

### RAXMONOV ZAFARJON ZAYNIDDINOVICH

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini  
oshirish instituti Pedagoglar markazi mudiri,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

### YUSUPOVA FARINGIZ O'KTAM QIZI

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini  
oshirish instituti dotsenti v.b., yuridik fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

### Mas'ul kotib:

### YUNUSOVA NIGORA KAMILOVNA

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini  
oshirish instituti nashrlari katta mutaxassisi

### Tahririyat bilan bog'lanish:

100072, Toshkent shahri, Mirobod tumani,  
Hamal ko'chasi, 29-v uy  
Web: [yuristjournal.uz](#)  
E-mail: [yuristjournal@adliya.uz](mailto:yuristjournal@adliya.uz)  
Telefon: +998 55-518-57-77 (715)

Общественно-правовой и научно-практический журнал  
“**ВЕСТНИК ЮРИСТА**”

№1 (2026)

Главный редактор:

**КАНЬЯЗОВ ЕСЕМУРАТ  
СУЛТАМУРАТОВИЧ**

Директор института переподготовки и  
повышения квалификации юридических  
кадров при Министерстве юстиции Республики  
Узбекистан, кандидат юридических наук

Заместитель главного редактора:

**МАХМУДОВ ФИРУЗ**

Заместитель директора по научной работе и  
международному сотрудничеству Института  
переподготовки и повышения квалификации  
юридических кадров при Министерстве юстиции  
Республики Узбекистан, доктор юридических  
наук (DSc), доцент

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

**ХУРСАНОВ РУСТАМ ХОЛМУРАТОВИЧ**

Первый заместитель директора по учебной работе Института  
переподготовки и повышения квалификации юридических  
кадров, доктор юридических наук (DSc), доцент

**БАЙМОЛДИНА ЗАУРЕШ ХАМИТОВНА**

Ректор Академии правосудия при Верховном Суде  
Республики Казахстан, кандидат юридических наук

**ЗДРОК ОКСАНА НИКОЛАЕВНА**

Директор Института переподготовки и повышения  
квалификации судей, работников прокуратуры, судов  
и учреждений юстиции Белорусского государственного  
университета

**ОКЮЛОВ ОМОНБАЙ**

Профессор Ташкентского государственного юридического  
университета, доктор юридических наук, профессор,  
заслуженный юрист Республики Узбекистан

**МАМАСИДДИКОВ МУЗАФФАРЖОН МУСАЖОНОВИЧ**

Начальник Академии Министерства по чрезвычайным  
ситуациям Республики Узбекистан, доктор юридических наук,  
профессор

**ТАШКУЛОВ ДЖУРАБАЙ**

Заведующий отдела историко теоретических,  
государственно-правовых и конституционно правовых наук  
Института государства и права Академии Наук Республики  
Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

**НОДИРБЕК САЛАЕВ САПАРБАЕВИЧ**

Профессор Ташкентского государственного  
юридического университета, доктор юридических наук

**ФАЗИЛОВ ФАРХОД МАРАТОВИЧ**

И.о. профессора Ташкентского государственного  
юридического университета,  
доктор юридических наук (DSc), доцент

**РАХИМОВ ДАНИЯР БАХТИЯРОВИЧ**

И. о. профессора Института переподготовки  
и повышения квалификации юридических кадров,  
доктор юридических наук (DSc)

**ГАФУРОВА НОЗИМАХОН ЭЛЬДАРОВНА**

И.О. профессора Института переподготовки  
и повышения квалификации юридических кадров,  
доктор юридических наук (DSc), доцент

**ШАКУРОВ РАФИК РАВИЛЕВИЧ**

Доцент Института переподготовки и  
повышения квалификации юридических кадров,  
кандидат юридических наук, доцент

**РАХМОНОВ ЗАФАРЖОН ЗАЙНИДДИНОВИЧ**

Заведующий Центром педагогов Института переподготовки  
и повышения квалификации юридических кадров, доктор  
философии по юридическим наукам (PhD)

**ЮСУПОВА ФАРИНГИЗ УКТАМОВНА**

И.О. доцента Института переподготовки и  
повышения квалификации юридических кадров,  
доктор философии по юридическим наукам (PhD)

Ответственный секретарь:

**ЮНУСОВА НИГОРА КАМИЛОВНА**

Старший специалист по издательской деятельности  
Института переподготовки и повышения квалификации  
юридических кадров

Контакт редакции журнала:

100072, город Ташкент, Мирабадский район,  
улица Хамал, 29-в.

Web: [yuristjournal.uz](http://yuristjournal.uz)

E-mail: [yuristjournal@adliya.uz](mailto:yuristjournal@adliya.uz)

Телефон: +998 55-518-57-77 (715)

Public, legal and scientific-practical journal of  
**“LAWYER HERALD”**

**№1(2026)**

**Chief Editor:**

**YESEMURAT KANYAZOV**

Director of the Training Institute for  
Lawyers under the Ministry  
of Justice of the Republic of Uzbekistan,  
PhD in Law

**Deputy Chief Editor:**

**FIRUZ MAKHMUDOV**

Deputy Director for Research and  
International Cooperation of the Training Institute  
for Lawyers under the Ministry of Justice  
of the Republic of Uzbekistan,  
Doctor of Law (DSc), Associate Professor

**EDITORIAL BOARD:**

**RUSTAM KHURSANOV**

First Deputy Director for Academic  
Affairs at the Institute for Training  
Institute for Lawyers

**BAYMOLDINA ZAURESH**

Rector of the Academy of Justice  
at the Supreme Court of the Republic  
of Kazakhstan, PhD in Law

**OKSANA ZDROK**

Director of the Institute for Retraining and  
Qualification Upgrading of Judges,  
Prosecutors and Legal professionals  
at the Belarusian State University

**OMONBAY OKYULOV**

Professor of the Tashkent State University  
of Law, professor, Honored Lawyer  
of the Republic of Uzbekistan

**MUZAFFARJON MAMASIDDIKOV**

Head of the Akademy of the Ministry of Emergency  
Situations of the Republic of Uzbekistan, Doctor of  
Juridical Sciences Law, Professor

**DJURABAY TASHKULOV**

Head of the department of Historical-Theoretical,  
State-Legal and Constitutional-Legal Sciences  
of the Institute of State and Law of the Academy  
of Sciences of the Republic of Uzbekistan,  
Doctor of Law, Professor

**NODIRBEK SALAEV**

Professor of the Tashkent State University of Law,  
Doctor of Law

**FAZILOV FARXOD**

Professor of the Tashkent State University of Law,  
Doctor of Law (DSc), Associate professor

**DANIYAR RAKHIMOV**

Professor of the Training Institute for Lawyers,  
Doctor of Law (DSc)

**GAFUROVA NOZIMAXON**

Professor of the Training Institute for Lawyers under the  
Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, Doctor  
of Law (DSc), Associate professor

**RAFIK SHAKUROV**

Associate Professor at the Training Institute  
for Lawyers, PhD in Law,  
Associate professor

**ZAFARJON RAKHMANOV**

Head of the Pedagogical Center of the Training Institute  
for Lawyers, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

**FARINGIZ YUSUPOVA**

Associate Professor at the Training Institute for Lawyers,  
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

**Executive Editor:**

**NIGORA YUNUSOVA**

Senior Publications Specialist  
Training Institute for Lawyers

**Contact the Editorial Office:**

100072, Tashkent city, Mirabad district,  
Hamal street, 29-v  
Web: [yuristjournal.uz](http://yuristjournal.uz)  
E-mail: [yuristjournal@adliya.uz](mailto:yuristjournal@adliya.uz)  
Telefon: +998 55-518-57-77 (715)

# **YURIST AXBOROTNOMASI**

1-SON

# **ВЕСТНИК ЮРИСТА**

НОМЕР 1

# **LAWYER HERALD**

ISSUE 1

## MUNDARIJA

### KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

#### KALIMBETOV Nesip Abdullayevich

O'ZBEKISTONDA DAVLAT HISOBIDAN YURIDIK YORDAM KO'RSATISH TIZIMINI BOSHQARISHNING  
MA'MURIY-HUQUQIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 8

#### NURMAMATOVA Noila Doniyorovna

KONSTITUTSIYAVIY SUD FAOLIYATIDA RAQAMLASHTIRISH:  
XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON UCHUN ISTIQBOLLAR ..... 16

#### SAYFIDDINOV Aqliddin Anvarjon o'g'li

XALQ DEPUTATLARI KENGASHLARI QARORLARINING QONUNIYLIGINI TA'MINLASH:  
NAZARIY ASOSLAR, MILLIY MEKANIZMLAR VA XORIJIY TAJRIBA ..... 25

#### САЛИЕВА Шахсанем Уснатдиновна

АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АГЕНТСТВ  
В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ УСЛУГ ..... 36

### FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

#### OQYULOV Omonbay

ERK MUXTORIYATINING YANGICHA KENGAYTIRILGAN TALQINI ..... 44

#### YUSUPOVA Faringiz O'ktam qizi

RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA ANATOMIK VA FIZIOLOGIK TIBBIY MA'LUMOTLAR  
XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI ..... 51

#### КУДАЙБЕРГЕНОВ Бахтияр

ПРОЦЕДУРЫ И ПРАКТИКА ВЕДУЩИХ АРБИТРАЖНЫХ ИНСТИТУТОВ (ТИАС, ICC, LCIA, SIAC,  
МКАС ПРИ ТПП РФ): УНИКАЛЬНОСТЬ ИХ ПОДХОДОВ К РАЗРЕШЕНИЮ СПОРОВ ..... 62

#### AHROROVA Sayohat Akram qizi

SUN'IY INTELLEKT RAQOBAT HUQUQI KESIMIDA: HUQUQIY TARTIBGA SOLISHDAGI YANGI CHAQIRIQLAR ..... 73

#### ALLAMBERGENOVA Farida Bazarbay qizi

ELEKTRON SHARTNOMALARDA ROZILIK (OFERTA VA AKSEPT)NI ISBOTLASHNING HUQUQIY MUAMMOLARI ..... 83

#### QO'CHQOROV Abbosjon Bahromjon o'g'li

INTELLEKTUAL MULK OBYEKTI SIFATIDA AMALIY SAN'AT ASARLARI ..... 92

### JINOYAT HUQUQI, HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

#### ABDURASULOVA Kumrinisa Raimkulovna

VOYAGA YETMAGAN SHAXSNI JINOYATNING SUBYEKTI DEB TOPISHNING ZARURIY BELGISI ..... 99

**JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI**

**GAFUROVA Shoirax Baxodirovna**

RAQAMLI DALILLARNI INSON HUQUQLARI VA XALQARO JINOIY ODIL SUDLOVDA QO‘LLASH ..... 111

**XALQARO HUQUQ VA INSON HUQUQLARI**

**ГАФУРОВА Нозимахон Эльдаровна**

ИНСТИТУТ ПРИНУДИТЕЛЬНОГО ЛИЦЕНЗИРОВАНИЯ КАК МЕХАНИЗМ ОБЕСПЕЧЕНИЯ  
РАВНОГО ДОСТУПА К ЛЕКАРСТВЕННЫМ СРЕДСТВАМ В УСЛОВИЯХ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ ..... 118

**SULAYMANOV Odiljon Rabbimovich**

ZAMONAVIY XALQARO HUQUQ TIZIMINING INQIROZI: INSTITUTSIONAL JIHATLARI  
VA ISLOHOTLARNING ZARURATI ..... 128

**ALLOBERDIYEVA Durdona O‘ktamjon qizi**

MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARDA TURIZMNING ROLI: BARQAROR RIVOJLANISH  
VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH ..... 136

**KALIMBETOV Nesip Abdullayevich**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi  
Taxiatosh tumani adliya bo'limi boshlig'i,  
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi  
huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta  
tayyorlash va malakasini oshirish  
instituti mustaqil izlanuvchisi  
E-mail: [kalimbetovnesip@gmail.com](mailto:kalimbetovnesip@gmail.com)

## O'ZBEKISTONDA DAVLAT HISOBIDAN YURIDIK YORDAM KO'RSATISH TIZIMINI BOSHQARISHNING MA'MURIY-HUQUQIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):** KALIMBETOV N.A. O'zbekistonda davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish tizimini boshqarishning ma'muriy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2026) B. 8-15.

### ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida kafolatlangan malakali yuridik yordam olish huquqini amalga oshirishning zamonaviy ma'muriy-huquqiy mexanizmlari tadqiq etilgan. Muallif davlat hisobidan bepul yuridik yordam (keyingi o'rinlarda BHYo) ko'rsatish institutining tarixiy evolyutsiyasi va xorijiy (MDH, G'arb) nazariy qarashlarini qiyosiy tahlil qilgan holda, milliy qonunchilikdagi so'nggi raqamli islohotlarni chuqur o'rgangan.

Asosiy e'tibor 2023-yilgi "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2024-yilgi "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatlarni jalb etish va ularga haq to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 774-sonli qarori bilan joriy etilgan "Yuridik yordam" axborot tizimining amaliy samaradorligiga qaratilgan. Maqolada raqamlashtirish jarayonida yuzaga kelgan dolzarb tizimli muammolar: "hududiylik" prinsipidagi logistik xatoliklar, "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga bog'liq byurokratik to'lov to'siqlari hamda korrupsiyaviy xavf hisoblangan "cho'ntak advokatlari" (pocket lawyers) muammosining yangi shaklga transformatsiya qilinganligi keskin tanqidiy (polemik) ruhda tahlil qilingan.

Tahlil natijalariga ko'ra, BHYo tizimini takomillashtirish bo'yicha aniq ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Xususan, advokatlarni avtomatik taqsimlashda "Smart-taqsimlash" (geolokatsiya va yuklama balansi) algoritmini integratsiya qilish hamda to'lov tizimida "Subsidiary to'lov kafolati" (protsessual qarorning ustuvorligi) institutini joriy etish zarurligi asoslab berilgan. Mazkur takliflar mamlakatda odil sudlovga erishishning konstitutsiyaviy kafolatlarini real ta'minlashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** davlat hisobidan bepul yuridik yordam (BHYo), ma'muriy-huquqiy mexanizm, raqamli transformatsiya, "Yuridik yordam" axborot tizimi, ijtimoiy davlat, advokatura, Zero Bureaucracy (inson omilisiz boshqaruv), korrupsiyaga qarshi kurash, avtomatik tanlov, huquqiy himoya.

**КАЛИМБЕТОВ Несип Абдуллаевич**

Начальник отдела юстиции Тахиаташского района  
Министерства юстиции Республики Каракалпакстан,  
Самостоятельный соискатель Института переподготовки  
и повышения квалификации юридических кадров  
при Министерстве юстиции Республики Узбекистан  
E-mail: [kalimbetovnesip@gmail.com](mailto:kalimbetovnesip@gmail.com)

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВЫХ МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ СИСТЕМОЙ ОКАЗАНИЯ ЮРИДИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ ЗА СЧЕТ ГОСУДАРСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

### АННОТАЦИЯ

В данной научной статье исследуются современные административно-правовые механизмы реализации права на получение квалифицированной юридической помощи, гарантированного статьёй 29 Конституции Республики Узбекистан. На основе сравнительный анализ исторической эволюции института бесплатной юридической помощи за счёт государства (далее — БЮП) и зарубежных (СНГ, западных) теоретических подходов, всесторонне изучены последние цифровые реформы в национальном законодательстве.

Основное внимание уделено практической эффективности информационной системы «Об оказании юридической помощи за счет государства», внедрённой Законом Республики Узбекистан от 2023 года «Об утверждении положения о порядке привлечения и оплаты труда адвокатов, оказывающих юридическую помощь за счет государства» и постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан № 774 от 2024 года «Об утверждении Положения о порядке привлечения адвокатов для оказания юридической помощи за счёт государства и оплаты их труда». В статье в критическом (полемиическом) духе проанализированы актуальные системные проблемы, возникшие в процессе цифровизации: логистические ошибки в принципе “территориальности”, бюрократические барьеры при оплате, связанные с «Единым реестром социальной защиты», а также трансформация коррупционного риска – проблемы «карманных адвокатов» (rocket lawyers) в новую форму.

По результатам анализа разработаны конкретные научно-практические предложения по совершенствованию системы БЮП. В частности, обоснована необходимость интеграции алгоритма «Smart-распределения» (геолокация и баланс нагрузки) при автоматическом назначении адвокатов, а также внедрения института «Субсидиарной гарантии оплаты» (приоритет процессуального решения) в системе платежей. Данные предложения служат реальному конституционных гарантий достижения правосудия в стране.

**Ключевые слова:** Юридическая помощь за счет государства (БЮП), административно-правовой механизм, цифровая трансформация, информационная система «Юридическая помощь», социальное государство, адвокатура, Zero Bureaucrasy (управление без человеческого фактора), борьба с коррупцией, автоматический выбор, правовая защита.

**NESIP Kalimbetov Abdullaevich**

Head of the Justice Department of Takhiatash District  
of the Ministry of Justice of the Republic of Karakalpakstan,  
Independent applicant of the Training institute  
for lawyers under the Ministry of Justice of  
the Republic of Uzbekistan  
E-mail: [kalimbetovnesip@gmail.com](mailto:kalimbetovnesip@gmail.com)

## IMPROVEMENT OF ADMINISTRATIVE AND LEGAL MECHANISMS FOR MANAGING THE SYSTEM OF STATE-FUNDED LEGAL AID IN UZBEKISTAN

### ANNOTATION

This scientific article examines modern administrative and legal mechanisms for the implementation of the right to receive qualified legal assistance guaranteed by Article 29 of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. Through a comparative analysis of the historical evolution of the institution of state-funded free legal aid (hereinafter referred to as SFLA) and foreign theoretical approaches (CIS and Western models), the author conducts an in-depth study of recent digital reforms in national legislation.

The main focus of the research is on the practical effectiveness of the "On the provision of legal aid at the expense of the state" information system introduced by the 2023 Law of the Republic of Uzbekistan "On approval of the regulation on the procedure for engaging and remunerating lawyers providing legal assistance at the expense of the government" and the 2024 Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 774 "On Approval of the Regulation on the Procedure for Engaging Lawyers to Provide State-Funded Legal Aid and Remunerating Their Services". The article analyzes, in a critically sharp (polemical) spirit, urgent systemic problems arising during digitalization: logistical errors in the "territoriality" principle, bureaucratic payment barriers linked to the Single Registry of Social Protection, and the transformation of the corruption risk known as "pocket lawyers" into a new form.

Based on the analysis results, concrete scientific and practical proposals for improving the SFLA system have been developed. In particular, the necessity of integrating a "Smart allocation" algorithm (geolocation and load balance) for the automatic assignment of lawyers, as well as introducing the institute of "Subsidiary payment guarantee" (priority of the procedural decision) in the payment system, is substantiated. These proposals serve to genuinely ensure the constitutional guarantees of achieving justice in the country.

**Keywords:** State-funded legal aid (SLA), administrative-legal mechanism, digital transformation, "Legal Aid" information system, social state, advocacy, Zero Bureaucracy, anti-corruption, automatic selection, legal protection, access to justice.

Huquqiy davlatchilik asoslarining mustahkamlanishi fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish tizimini talab qiladi. Davlat huquqi va boshqaruvi nuqtai nazaridan, davlat hisobidan bepul huquqiy yordamni ta'minlash davlatning o'z fuqarolari oldidagi konstitutsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlarini bajarish sifatini belgilaydi. BHYo tizimining samaradorligi O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida [1] belgilangan huquqni amalda ta'minlashdagi davlat-boshqaruv mexanizmining muhim elementidir.

Konstitutsiyaviy kafolatlangan malakali huquqiy yordam olish huquqining amalga oshirilishi ko'p jihatdan davlat hisobidan bepul huquqiy yordam (BHYo) tizimining samaradorligiga bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasi har bir shaxsga malakali yuridik yordam olish huquqini kafolatlaydi [1]. BHYo faqat jinoiy sud jarayonlari bilan chegaralanmay, balki ijtimoiy adolatni qaror toptiruvchi va aholining kam ta'minlangan qatlamlariga huquqiy tenglikni ta'minlovchi muhim mexanizmdir.

Maqolaning asosiy maqsadi BHYoning konstitutsiyaviy kafolatlarni ta'minlashdagi davlat-

boshqaruv mexanizmi sifatidagi o'rnini tahlil qilish, uning tarixiy boshqaruv shakllarini davrlashtirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish.

Shunday ekan, davlat huquqi va boshqaruvi nuqtai nazaridan Bepul huquqiy yordam institutining ilk shart-sharoitlari va tarixiy ibtidosi, jahon huquq tarixidagi ilk elementlari haqida qisqacha to'xtalsak.

BHYoning ilk shakllari Qadimgi Rim huquqidagi proletariatni himoya qilish amaliyotiga borib taqaladi. Sharq sivilizatsiyasida esa musulmon huquqining "vaqf" tizimi jamoat hisobidan huquqiy ko'mak berishning o'ziga xos modelini yaratgan. G'arbda 1495-yildagi Angliyaning Pauper's oath [2] hujjati bu sohani ilk bor qonunchilik darajasiga olib chiqdi.

XX asr boshlari va sobiq ittifoq (Sovet) davridagi huquq tizimida BHYo markazlashgan va siyosiy lashtirilgan tus oldi. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, tor doiradagi yordam sifatida shakllandi. Asosan yuridik xizmat ko'rsatish va advokaturaning asosiy vazifasi kambag'allar va mehnatkashlar huquqlarini himoya qilishdan iboratligi bilan ajralib turgan Bepul huquqiy yordam, asosan **Jinoyat-protsessual kodeksi (JPK)** normalari doirasida, ya'ni majburiy himoya talab qilingan holatlardagina ko'rsatilgan va ijtimoiy xizmat sifatidagi mohiyatini yo'qotgan edi. Huquqshunos X.S.Fayziyev haqli ravishda ta'kidlaganidek, ushbu davrda yuriskonsultlar va advokatlar faoliyati davlat organi faoliyati bilan uzviy bog'lanmagan, yuridik xizmat ko'rsatish ko'lami esa o'ta tor bo'lgan [3] deb ta'kidlaydi.

BHYo tizimining ma'muriy-huquqiy tabiati va uni boshqarish modellari zamonaviy yuridik fanda jiddiy munozaralarga sabab bo'lmoqda. Xususan, MDH davlatlari olimlarining qarashlarida BHYoni tashkil etishda davlat va advokaturaning roli borasida konseptual farqlar kuzatiladi.

V.Turanin va boshqalar Rossiya tajribasini tahlil qilar ekan, BHYoni tashkil etishda "huquqiy noaniqlik" mavjudligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, BHYo tizimida advokat va davlat organlari (tergov, sud) o'rtasidagi munosabatlar vertikal va subordinatsion xarakterda bo'lib, bu advokat mustaqilligiga putur etkazadi. Bunga yechim sifatida mualliflar davlat va advokatura o'rtasida "ommaviy-huquqiy shartnoma" (bazis kelishuvi) tuzish modelini ilgari suradilar [4].

Biroq, K.Xakimova ushbu masalaga inson huquqlari va xalqaro standartlar prizmasidan yondashib, BHYoni davlatning konstitutsiyaviy majburiyati va odil sudlovga erishishning fundamental kafolati deb hisoblaydi. Olimaning pozitsiyasiga ko'ra, BHYo tizimining samaradorligi faqat shartnomaviy munosabatlar bilan emas, balki "**advokatlik siri**" va mijozning advokatga bo'lgan ishonchi saqlanishi bilan belgilanadi [5].

Bizning fikrimizcha esa, BHYo tizimi nafaqat protsessual zarurat, balki raqamli davlat xizmatining bir turi sifatida qayta talqin qilinishi lozim. V.Turanin tomonidan qayd etilgan byurokratik to'siqlar va K.Xakimova ta'kidlagan ishonch muammosi O'zbekistonda joriy etilayotgan ijtimoiy davlat tamoyili asosida hal etilishi mumkin.

Shuningdek, O.Yashina AQSh va Rossiya tajribasini qiyoslab, BHYo tizimining samaradorligini oshirishda "Probono" (jamiyat manfaati uchun bepul ixtiyoriy yordam) va maxsus "muvofiqlashtiruvchi markazlar" rolini alohida ko'rsatadi. Uning fikricha, davlat resurslari doim ham cheklangan bo'lib, xususiy yuridik firmalarni BHYoga rag'batlantirish (masalan, ijara imtiyozlari orqali) zarur [6]. Ushbu qarashga zid ravishda, S.Baxorina Belarus tajribasida yuridik klinikalarning (talabalar tomonidan ko'rsatiladigan yordam) rolini yuqori baholaydi, lekin ularning huquqiy maqomi va vakolatlari aniq belgilanmaganligini tizimning zaif tomoni sifatida qayd etadi [7]. V.Bugrova va L.Saburova esa aholining BHYo tizimi haqida xabardorligi pastligini asosiy muammo sifatida ko'rsatib, davlat tomonidan informatlashtirish ishlarini kuchaytirishni talab qiladilar [8].

V.Redkous MDH davlatlari qonunchiligini tahlil qilib, tizimni takomillashtirishda "innovatsion shakllardan" foydalanish zarurligini ta'kidlaydi [9]. Biz ushbu fikrni qo'llab-quvvatlagan holda,

raqamli transformatsiya BHYo tizimidagi korrupsiyaviy xavflarni va “choʻntak advokatlari” (**pocket lawyers**) muammosini bartaraf etuvchi asosiy omil ekanligini taʼkidlaymiz.

Oʻzbekistonda bepul huquqiy yordam (BHYo) tizimining evolyutsiyasi xalqaro huquqiy standartlar, xususan, **Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro paktning (1966-y.) 14-moddasi** taʼsirida shakllandi [10]. Ushbu jarayonda BHYo oddiy protsessual zaruratdan insonning asosiy konstitutsiyaviy huquqi darajasiga koʻtarildi. Bu tizim birdaniga shakllanib qolmagan, balki mamlakatning huquqiy va ijtimoiy islohotlariga mos ravishda bosqichma-bosqich rivojlangan. Shu oʻrinda, fikrimizcha, Oʻzbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida BHYo tizimining evolyutsiyasini **uchta muhim bosqichga** boʻlishni taklif etiladi:

**Davlatimizda BHYoning rivojlanishini birinchi davriga Mustaqillikning dastlabki bosqichi Poydevor bosqichi (1991–2000-yillar).** Ushbu davr huquqiy tizimning shakllanishi va inson huquqlarini konstitutsiyaviy kafolatlash bilan belgilanadi, konstitutsiyaviy normaga asos ayblanuvchiga dastlabki tergov va sudda himoyalani huquqi kafolatlandi. Agar ayblanuvchi himoyachi olish imkoniga ega boʻlmasa, uni davlat taʼminlashi kerak edi. Bu davrda BHYo amalda deyarli faqat jinoyat ishlarida, ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchining huquqiy himoyaga muhtojligi sharoitidagina amalga oshirilgan. Fuqarolik va maʼmuriy ishlarda tizimli BHYo mavjud emas edi.

**BHYoning rivojlanishining ikkinchi bosqichi (2001–2017-yy.).** Bunda asosan advokatura institutining rasmiylashtirilishi va davlat hisobidan tayinlangan advokatlarning mehnatini kompensatsiya qilish mexanizmining joriy etilishi bilan ifodalanadi. BHYo faqat muayyan imtiyozli toifalar (urush qatnashchilari, nogironligi bor shaxslar) uchun va asosan maslahat berish shaklida amal qilgan. Davlat tomonidan toʻlanadigan gonorarlarning pastligi va toʻlov mexanizmining murakkabligi advokatlarning faolligiga salbiy taʼsir koʻrsatgan.

**Tizimning uchinchi bosqichi 2018-yildan hozirgacha boʻlgan davr. Kompleks davlat kafolatli tizimning yaratilishi, yaʼni davlat boshqaruvining markazlashuvi, transformatsiyalanishi.** 2018-yildan boshlab sohada sifat jihatidan yangi davr boshlandi. Bu davrda BHYoni davlat-boshqaruv vakolati darajasiga koʻtarish boʻyicha aniq qadamlar tashlandi hamda Adliya vazirligi boshqaruvchi roli va qonuniy asoslari belgilandi, yaʼni Adliya vazirligi BHYo tizimini tashkil etuvchi, moliyalashtiruvchi va nazorat qiluvchi asosiy organ etib belgilandi. Prezidentning PF-5441 va PF-5415-sonli farmonlari advokatura mavqeini mustahkamlash va advokatlarning mehnatiga toʻlanadigan gonorar miqdorini oshirishga zamin yaratdi [11; 12]. 2023-yil 16-iyundagi OʻRQ-848-sonli “Davlat hisobidan yuridik yordam toʻgʻrisida”gi Qonun sohada katta ahamiyat kasb etdi [13].

Qonun BHYo koʻrsatiladigan ishlar doirasini faqat jinoiy ishlardan olib chiqib, qamrovni keskin tarzda kengaytirdi va birinchi marta **fuqarolik, maʼmuriy va maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi ishlarni** ham qamrab oldi. Shuningdek, yangi huquq subyektlari kiritilishi bilan bir qatorda BHYo oluvchilar toifasi aniq belgilandi. Jumladan, **kam taʼminlangan shaxslarga** (fuqarolik va maʼmuriy ishlarda), **ruhiy holati buzilgan jismoniy shaxslarga** (psixiatriya yordami koʻrsatilayotganda) va **xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi buzilganligi munosabati bilan sudga murojaat qilgan fuqarolarga** bepul yordam berish kafolatlandi.

*Jadval №1*

Koʻrsatkich	Eski tizim (2017-yilgacha)	Yangi tizim (2023-yildan keyin)
<b>Qamrov sohasi</b>	Faqat jinoyat ishlari	Jinoyat, fuqarolik, maʼmuriy ishlar
<b>Boshqaruv</b>	Tarqoq (tergovchi/sud qarori)	Markazlashgan (Adliya vazirligi)
<b>Subyektlar</b>	Chegaralangan toifalar	Kam taʼminlanganlar, ayollar (gender tenglik), ruhiy xastalar

\* Muallif tomonidan yuridik adabiyotlar asosida tahlil qilib tayyorlab chiqilgan.

Tizimning qamrovi kengaygani (endilikda fuqarolik va ma'muriy ishlar ham qamrab olingan) ijobiy holat bo'lsa-da, sifat masalasi ochiq qolmoqda. Akademik A.Saidov ta'kidlaganidek, "advokatlarning davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatishdan manfaatdor emasligi to'lov miqdorining yetarli emasligi bilan bog'liq" [15].

Yuqorida keltirilgan mualliflar tomonidan tanqid qilingan "advokatga to'lovlarni kechiktirish va byurokratik to'siqlar" O'zbekiston tajribasidagi "Yuridik yordam" axborot tizimi orqali, ya'ni advokatni avtomatik tasodifiy tanlash va to'lovlarni raqamli tasdiqlash orqali o'z yechimini topmoqda. Bu esa BHYoni klassik ma'muriy boshqaruvdan **"inson omilisiz boshqaruv" (Zero Bureaucracy) modeliga** o'tishini ta'minlaydi.

Ta'kidlash joizki, 2024-yil 21-noyabrdagi 774-sonli Hukumat qarori bilan advokatlarni jalb etish tartibi to'liq raqamlashtirildi va advokatning ishga jalb etilishi axborot tizimi orqali **tasodifiy (avtomatik) tanlov** asosida amalga oshirilishi belgilandi. Bu, korrupsiyaviy xavflarni kamaytirishga qaratilgan muhim tarixiy qadamdir. 2024-yildagi yangi tartibga ko'ra, jismoniy shaxslar davlat hisobidan yuridik yordam olish uchun **eksterritoriallik prinsipi** asosida (ya'ni, yashash joyidan qat'i nazar) adliya bo'limiga murojaat qilishi mumkinligini belgilab berdi [14].

Shu o'rinda, tarixiy modellarning sintezi, ushbu tarixiy tajribaning zamonaviy islohotlarga ta'siri va kelajakdagi muammolariga ham to'xtalsak.

O'zbekistondagi BHYoning zamonaviy tizimi Sovet **davrining majburiy himoyasi**, G'arbning **ijtimoiy tenglik** tamoyili va Sharqning **birlamchi maslahat** shakllarini o'zida birlashtiradi. Bunday sintez xizmatlarning kengligini ta'minlasa-da, uning sifati va advokatlarning ixtisoslashuvi darajasiga ta'sir qilishda muammolar mavjud.

Bepul huquqiy yordam ko'rsatishning sifat mezonlari tarixiy nuqtai nazardan, BHYoning asosiy muammosi – xizmat ko'rsatish sifati bo'lib qolmoqda.

Adliya organlari tizimga boshqaruvchi sifatida kirgan bo'lsa-da, resurslarni samarali taqsimlash masalasi dolzarb bo'lib turibdi. BHYoga ajratilgan davlat byudjeti mablag'larining samaradorligini faqat to'lov miqdorini oshirish bilan emas, balki xizmat ko'rsatish sifatini nazorat qilishning yagona boshqaruv tizimini yaratish bilan o'lchanishi kerak.

BHYoning kengayishi ijobiy bo'lsa-da, sifatni ta'minlamaydigan past gonorar muammoligi qolmoqda. Akademik A.Saidov ham BHYoning qiyinchiligi sifatida **"advokatlarning davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatishdan manfaatdor emasligi bo'lib, bu to'lov miqdorining yetarli emasligi bilan bog'liq"**ligiga birinchi muammo sifatida to'xtalgan [9]. Sifatni oshirish uchun BHYo reyestri joriy etilishi, advokatlarga maxsus **ixtisoslashtirilgan kurslar** tashkil etish va ularning faoliyatiga **mustaqil baho berish** tizimini yo'lga qo'yish zarur.

Darhaqiqat, BHYoni faqat miqdoriy jihatdan emas, balki sifat jihatidan boshqarish lozim. Raqamlashtirish jarayoni, xususan, "Yuridik yordam" AT orqali advokatlarni avtomatik tanlash tizimi korrupsiyani kamaytirdi, biroq advokatning professional ixtisoslashuvini hisobga olish mexanizmi hali mukammal emas.

Shunday qilib, BHYo tizimining raqamlashtirilishi **"Yuridik yordam" axborot tizimi** orqali advokatning avtomatik tanlanishi avvalgi davrdagi **surishtiruvchi yoki tergovchining shaxsiy aloqalari** orqali advokat tayinlash amaliyotini tugatadi. Bu, inson huquqlari faollari tomonidan "adolatga erishish yo'lidagi tenglikning haqiqiy kafolati" sifatida baholanmoqda.

O'zbekistonda davlat hisobidan yuridik yordam (BHYo) tizimining rivojlanishi va institutsional islohotlar tahlili asosida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarga kelindi:

– BHYo instituti faqat jinoyat protsessi bilan cheklangan "protsessual zarurat" bosqichidan, fuqarolarning barcha sohalaridagi (fuqarolik, ma'muriy) huquqlarini himoya qiluvchi "fundamental ijtimoiy-huquqiy kafolat" darajasiga ko'tarildi. Bu o'z navbatida, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan "ijtimoiy davlat" tamoyilining amaliy ifodasidir.

– Sohadagi qonunchilikning takomillashtirilishi oqibatida BHYo qamrovining kengayishi adolatga erishish yo'lidagi ijtimoiy tenglikni ta'minlashning asosiy omili bo'lib xizmat qilmoqda.

– “Yuridik yordam” axborot tizimining joriy etilishi sohada inson omilini kamaytirib, advokatlarni avtomatik tanlash mexanizmi orqali korrupsiyaviy xavflarni bartaraf etdi. Bu tizim BHYoni boshqarishning markazlashgan vertikal modelini shakllantirdi.

– Tizimning istiqboldagi rivojlanishi “miqdoriy ko'rsatkichlardan sifat bosqichiga o'tish”ni taqozo etadi. Bunda advokatlar mehnatini munosib rag'batlantirish, gonorarlar miqdorini qayta ko'rib chiqish va ko'rsatilayotgan yuridik yordam sifatini nazorat qilishning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish eng dolzarb strategik vazifa hisoblanadi.

BHYoni kengaytirish – bu davlatning konstitutsiyaviy majburiyati bo'lib, uning amaliy ta'minoti esa davlat boshqaruvining samaradorligiga bog'liqdir. Sohani raqamlashtirish esa tarixiy byurokratik to'siqlarni bartaraf etib, adolatga erishish yo'lida tenglikning haqiqiy kafolatini yaratishga qaratilgan.

Sohadagi tarixiy yo'l va huquqiy asoslarni tahlil qilar ekanmiz davlat hisobidan bepul huquqiy yordam institutining tarixiy yo'li **protsessual zarurat** tizimidan, **fuqarolarning fundamental ijtimoiy-huquqiy** tizimiga o'tishni aks ettiradi. 2017-yildan keyingi islohotlar BHYoning qamrovini kengaytirdi, uning normativ bazasini mustahkamladi va xalqaro standartlarga moslashtirdi. Hozirda tizimning asosiy vazifasi – **miqdoriy kengayishdan sifat darajasiga o'tish** va tarixiy muammo bo'lgan **shaffoflik** va **adolatli to'lov** masalalarini hal qilishdan iborat.

Umumiy xulosa qilib aytganda, BHYo institutining rivojlanishi O'zbekistonning davlat huquqiy siyosatida huquqiy tenglikni ta'minlashga ustuvor ahamiyat berilayotganini ko'rsatadi. Davlat boshqaruvining markazlashgan vertikaliga o'tish orqali, BHYo ijtimoiy kafolatdan zamonaviy boshqaruv mexanizmiga aylandi. BHYo tizimining institutsional takomillashuvi davlat boshqaruvini samaradorligini oshirish bilan birga, fuqarolarning huquqiy himoyalani darajasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi.

#### IQTIBOSLAR /СНОЧКИ/REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. Pauper's oath (1495) // Grokipedia. – URL: [https://grokipedia.com/page/Pauper's\\_oath](https://grokipedia.com/page/Pauper's_oath)
3. Fayziyev X.S. O'zbekistonda yuridik xizmat institutining tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlari // Yurist axborotnomasi. – 2024. – № 2. – B. 107–114.
4. Туранин В.Ю., Погорелов Д.В., Польская В.А. Бесплатная юридическая помощь: система нуждается в совершенствовании (на примере уголовного судопроизводства) // Вестник МГПУ. – 2022. – № 3 (47). – С. 70–84. DOI: 10.25688/2076-9113.2022.47.3.07
5. Khakimova K. Attorney-client privilege in the context of legal assistance: its impact on trust and effectiveness // Society and Innovations. – 2024. – Special Issue 07. – P. 44–50. DOI: 10.47689/2181-1415-vol5-iss7/S-pp44-50
6. Яшина О.Н. Бесплатная юридическая помощь в России: сравнение с США // Ученые труды Российской академии адвокатуры и нотариата. – 2012. – № 1 (24). – С. 16–20.
7. Бахорина С.Э. Бесплатная юридическая помощь и юридические клиники Республики Беларусь // Юридическое клиническое образование. – 2012. – С. 272–273.
8. Бугрова В.Р., Сабурова Л.Н. Бесплатная юридическая помощь: теория и практика // Гражданско-правовое регулирование общественных отношений. – 2015. – С. 76–83. DOI: 10.12737/11710
9. Редкоус В.М. Правовое регулирование оказания бесплатной юридической помощи (опыт государств – участников СНГ) // Право и государство: теория и практика. – 2025. – № 3. – С. 172–175. DOI: 10.47643/1815-1337\_2025\_3\_172.
10. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966-yil 16-dekabr) // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PF–5415-son Farmoni hamda PQ–3666-son Qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz>

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi PF-5441-son "O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz>

13. O'zbekiston Respublikasining "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-848, 16.06.2023) // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz>

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 21-noyabrdagi VMQ-774-sonli "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatlarni jalb etish va ularga haq to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz>

15. Saidov A.X. Yangi O'zbekiston va bepul yuridik yordam. // [parliament.gov.uz](http://parliament.gov.uz) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi rasmiy saiti. – 2025.

**NURMAMATOVA Noila Doniyorovna**

Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti

E-mail: [nurmamatovanoila@gmail.com](mailto:nurmamatovanoila@gmail.com)

ORCID: 0000-0001-5093-0300

## KONSTITUTSIYAVIY SUD FAOLIYATIDA RAQAMLASHTIRISH: XALQARO TAJIRIBA VA O'ZBEKISTON UCHUN ISTIQBOLLAR

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):** NURMAMATOVA N.D  
Konstitutsiyaviy sud faoliyatida raqamlashtirish: xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun  
istiqbollar // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2026) B. 16-24.

### ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada konstitutsiyaviy sudlar faoliyatini raqamlashtirish jarayoni zamonaviy konstitutsiyaviy odil sudlovni ta'minlash omili sifatida qiyosiy-huquqiy tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning konstitutsiyaviy sud ish yurituviga joriy etilishi sudlovga kirishish imkoniyatlarini kengaytirish, sud ochiqligi va shaffofligini kuchaytirish hamda aholining konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish nuqtai nazaridan yoritilgan. Maqolada Indoneziya, Janubiy Koreya va Yevropa mamlakatlari, shuningdek, Rossiya, Qozog'iston, Belarus davlatlari konstitutsiyaviy sudlari tajribasi asosida elektron sud platformalari, videokonferensaloqa va sun'iy intellekt texnologiyalarining amaliy qo'llanilishi qiyosiy tahlil qilinadi. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalarning protsessual adolatni ta'minlashdagi o'рни, sud muhokamasida "eshitilganlik hissi" hamda sud tizimiga bo'lgan ishonchga ta'siri baholanadi. Maqolada konstitutsiyaviy sud ish yurituvini raqamlashtirish jarayoni texnik modernizatsiya bilan cheklanmasdan, konstitutsiyaviy qadriyatlar odil sudlov, protsessual tenglik va ochiqlik tamoyillarini mustahkamlovchi huquqiy institut sifatida namoyon bo'lishi asoslab beriladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy sud faoliyatini raqamlashtirish istiqbollari xalqaro tajriba asosida takliflar bilan boyitilgan bo'lib, ularni milliy huquqiy tizimga moslashtirish va joriy etish masalalari ham alohida tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar.** konstitutsiyaviy sud, raqamlashtirish, konstitutsiyaviy adolat, sud ochiqligi, videokonferensaloqa, konstitutsiyaviy sud ish yurituvu, "e-court" platformasi, "qog'ozsiz sudlov".

**НУРМАМАТОВА Ноила Дониёровна**Базовый докторант Ташкентского  
государственного юридического университетаE-mail: [nurmamatovanoila@gmail.com](mailto:nurmamatovanoila@gmail.com)

ORCID: 0000-0001-5093-0300

## ЦИФРОВИЗАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОНСТИТУЦИОННОГО СУДА: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА

### АННОТАЦИЯ

В данной научной статье процесс цифровизации деятельности конституционных судов анализируется в рамках сравнительно-правового подхода как один из ключевых факторов обеспечения современной конституционной юстиции. Внедрение цифровых технологий в конституционное судопроизводство рассматривается с точки зрения расширения доступа к правосудию, укрепления открытости и прозрачности судебной деятельности, а также совершенствования механизмов защиты конституционных прав населения. На основе опыта

конституционных судов Индонезии, Южной Кореи, европейских государств, а также России, Казахстана и Беларуси проводится сравнительный анализ практического применения электронных судебных платформ, технологий видеоконференцсвязи и инструментов искусственного интеллекта. Одновременно оценивается роль данных технологий в обеспечении процессуальной справедливости, их влияние на «ощущение быть услышанным» в ходе судебного разбирательства, а также уровень доверия к судебной системе. В статье обосновывается, что цифровизация конституционного судопроизводства не должна ограничиваться технической модернизацией, а должна рассматриваться как правовой институт, укрепляющий такие конституционные ценности, как правосудие, процессуальное равенство и принцип открытости. Кроме того, перспективы цифровизации деятельности Конституционного суда Республики Узбекистан дополнены предложениями, основанными на международном опыте, с акцентом на их адаптацию и внедрение в национальную правовую систему.

**Ключевые слова.** конституционный суд, цифровизация, конституционная юстиция, открытость суда, видеоконференцсвязь, конституционное судопроизводство, платформа «e-court», «бесбумажное судопроизводство».

**NURMAMATOVA Noila Doniyorovna**

PhD student (basic doctoral student),  
Tashkent State University of Law

E-mail: [nurmamatovanoila@gmail.com](mailto:nurmamatovanoila@gmail.com)

ORCID: 0000-0001-5093-0300

## DIGITALIZATION IN THE ACTIVITY OF CONSTITUTIONAL COURT: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND PROSPECTS FOR UZBEKISTAN

### ANNOTATION

This scholarly article provides a comparative legal analysis of the process of digitalization in the activities of constitutional courts as a key factor in ensuring modern constitutional justice. The introduction of digital technologies into constitutional court proceedings is examined from the perspective of expanding access to justice, strengthening judicial openness and transparency, and improving mechanisms for the protection of the constitutional rights of the population. Based on the experience of the constitutional courts of Indonesia, South Korea, European countries, as well as Russia, Kazakhstan, and Belarus, the article comparatively analyzes the practical application of electronic court platforms, videoconferencing technologies, and artificial intelligence tools. At the same time, the role of these technologies in ensuring procedural justice, their impact on the "feeling of being heard" during judicial proceedings, and public trust in the judicial system are assessed. The article substantiates that the digitalization of constitutional court proceedings should not be limited to technical modernization, but should be regarded as a legal institution that strengthens constitutional values such as justice, procedural equality, and openness. In addition, the prospects for digitalizing the activities of the Constitutional Court of the Republic of Uzbekistan are enriched with proposals based on international experience, with particular attention paid to their adaptation and implementation within the national legal system.

**Key words:** constitutional court, digitalization, constitutional justice, judicial openness, videoconferencing, constitutional court proceedings, "e-court" platform, "paperless court".

Zamonaviy demokratik huquqiy davlatlarda konstitutsiyaviy sudning faoliyati tobora murakkablashib borayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar fonida o'zgarib bormoqda. Bu jarayonda raqamlashtirish omili, ya'ni sud faoliyatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida avtomatlashtirish, elektronlashtirish va optimallashtirish tamoyili, alohida o'rin tutmoqda.

Konstitutsiyaviy sud ish yuritishining raqamlashtirilishi – sudlov jarayonlarining ochiqdigi, tezligi, huquqiy aniqligi va adolatning real hayotda qaror topishini ta'minlashda muhim vositaga aylanmoqda.

Konstitutsiyaviy sudlar klassik jihatdan normativ-huquqiy aktlarning konstitutsiyaviylik darajasini baholash, konstitutsiyaviy shikoyatlar bo'yicha fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, shuningdek, davlat hokimiyatining konstitutsiyaviy me'yorlar doirasida faoliyat yuritishini ta'minlash kabi funksiyalarni bajaradi. Bu funksiyalarni samarali va shaffof bajarishda esa raqamli texnologiyalar muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur maqolada konstitutsiyaviy sudlar faoliyatini raqamlashtirish jarayonini o'rganishda huquqshunoslik fanida keng qo'llaniladigan umummilliy va maxsus ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Xususan, tahlil va sintez usullari orqali raqamli texnologiyalarning konstitutsiyaviy sud ish yuritishiga ta'siri, ularning sud ochiqdigi, protsessual adolat hamda inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlaridagi o'rni tizimli ravishda o'rganildi.

Qiyosiy-huquqiy tahlil metodi yordamida Indoneziya, Janubiy Koreya va Yevropa mamlakatlari konstitutsiyaviy sudlarida joriy etilgan elektron sud platformalari, videokonferensaloqa hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining amaliy qo'llanilishi solishtirildi va ularning huquqiy asoslari baholandi. Ushbu yondashuv raqamlashtirish modellarining umumiy va farqli jihatlarini aniqlash, shuningdek, ularning milliy huquqiy tizimlarga moslashuv imkoniyatlarini ko'rsatishga xizmat qildi.

Shuningdek, formal-huquqiy usul orqali konstitutsiyaviy sud faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, sud amaliyoti va doktrinal qarashlar tahlil qilinib, raqamlashtirishning konstitutsiyaviy tamoyillar - adolatli sudlov, protsessual tenglik va ochiqlik bilan o'zaro uyg'unligi baholandi. Bundan tashqari, tizimli yondashuv asosida raqamlashtirish konstitutsiyaviy sud faoliyatining alohida texnik elementi emas, balki yaxlit huquqiy institut sifatida ko'rib chiqildi. Ushbu metodologik yondashuv O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudida ish yuritishni raqamlashtirish istiqbollari aniqlash va amaliy takliflar ishlab chiqishga asos bo'ldi.

O'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, konstitutsiyaviy sudlar faoliyatini raqamlashtirish sud ish yuritishining institutsional samaradorligini oshirish bilan birga, konstitutsiyaviy adolatni ta'minlash mexanizmlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Xususan, elektron sud platformalarining joriy etilishi fuqarolarning konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish jarayonini soddalashtirgan, hujjatlar aylanishi tezligini oshirgan hamda sud jarayonlarining shaffofligini kuchaytirgan.

Aniqlanishicha, videokonferensaloqa texnologiyalarining qo'llanilishi sud majlislarida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirib, geografik masofa, jismoniy imkoniyatlar va vaqt bilan bog'liq cheklolarni sezilarli darajada kamaytirgan. Shu bilan birga, ushbu texnologiya konstitutsiyaviy sud faoliyatining uzluksizligini ta'minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo'lgan. Biroq ayrim holatlarda videomuloqot shakli taraflarning sud muhokamasida to'liq ishtirok etish hissiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ham aniqlangan.

Aytish lozimki, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanish sud ish yurituvining tashkiliy yuklamasini kamaytirib, sudyalarning va sud apparati faoliyatini optimallashtirishga xizmat qilmoqda. Elektron arxivlar, hujjatlarni avtomatik tahlil qilish va ishlarni tasniflash tizimlari sud qarorlarining izchilligi va huquqiy aniqligini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuningdek, raqamlashtirish jarayoni sud ochiqdigi va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bilan chambarchas bog'liq. Sud qarorlarining elektron shaklda e'lon qilinishi, onlayn eshituvlarning ochiq translyatsiyasi hamda sud faoliyatiga oid axborotlarning ochiq platformalarda joylashtirilishi fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud raqamli

vositalar zamonaviy talablarni to'liq qondirmaydi va sud ish yurituvda fragmentar ahamiyatga ega. Natijada, konstitutsiyaviy sud faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha kompleks, tizimli va normativ jihatdan mustahkamlangan yondashuvni joriy etish zarurati aniqlangan.

Konstitutsiyaviy sudlar faoliyatini raqamlashtirish masalasida hozirgi zamon huquqshunosligida yagona yondashuv mavjud emas. Aksincha, mazkur jarayonning konstitutsiyaviy adolatga ta'siri borasida bir-biridan farq qiluvchi, ba'zan esa qarama-qarshi ilmiy pozitsiyalar ilgari surilmoqda.

Xususan, A.Sanders raqamli texnologiyalar, ayniqsa videokonferensaloqa vositalari sudlov ochiqligini ta'minlash va sudga kirishish huquqini kengaytirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Uning fikricha, masofaviy sud eshituvlari pandemiya sharoitida sud faoliyatining uzluksizligini saqlab qolish bilan birga, jamoatchilik uchun sud jarayonlarini yanada ochiq va kuzatuvchan qilgan hamda konstitutsiyaviy sudlar uchun sudlov xizmatining inklyuzivligini oshiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'lgan [1].

Biroq, Wonneberger va Leisering tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar ushbu yondashuvga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish zarurligini ko'rsatadi. Ularning xulosasiga ko'ra, videokonferensiya orqali o'tkazilgan sud eshituvlarida taraflar ko'pincha o'zlarini kamroq eshitilgan va sud muhokamasidan psixologik jihatdan uzoqlashgan holda his qilganlar. Tadqiqotchilar aynan "eshitilganlik hissi" protsessual adolatning muhim, biroq raqamli formatda zaiflashishi mumkin bo'lgan elementi ekanini ta'kidlaydilar [2].

Mazkur ikki yondashuvni qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish sud faoliyatini tashkiliy va texnik jihatdan soddalashtirgan bo'lsa-da, u konstitutsiyaviy sudlovning insoniy va kommunikativ jihatlariga nisbatan ma'lum xavflarni ham yuzaga keltiradi. Shu bois A.Sanders tomonidan ilgari surilgan sudlovga kirishish va ochiqlikni kengaytirish g'oyasi Wonneberger va Leisering ko'rsatgan protsessual adolatdagi noformal yo'qotishlar bilan muvozanatlashtirilishi lozim.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqola quyidagi ilmiy yondashuvni ilgari suradi: konstitutsiyaviy sud ish yuritishini raqamlashtirish mutlaq ustun model sifatida emas, balki konstitutsiyaviy adolat, protsessual tenglik va adolatli sudlov tamoyillari ustuvorligini saqlagan holda ehtiyotkorlik bilan joriy etilishi lozim. Raqamli texnologiyalar konstitutsiyaviy sud faoliyatida sudlovni o'zgartiruvchi emas, balki uni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida qaralishi kerak.

Indoneziya Konstitutsiyaviy sudi "e-court" platformasini joriy etgan bo'lib, u fuqarolarga ariza topshirish, hujjatlar bilan tanishish, sud jarayonlarini onlayn kuzatish imkonini yaratgan. Bu yondashuv "sudlovga kirishish" huquqining real mazmunini ochib berishga xizmat qilmoqda. Unga ko'ra, zamonaviy konstitutsiyaviy sudlar o'z faoliyatini inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ochiq, shaffof va texnologik jihatdan zamonaviy platforma sifatida tashkil etishi zarur [3].

Bundan tashqari, raqamlashtirish orqali konstitutsiyaviy nazoratning ommalashishiga erishish mumkin. Chunki elektron platformalar orqali fuqarolarning konstitutsiyaviy shikoyatlarni yuborishi osonlashadi, shuningdek, huquqiy axborotga erkin kirish imkoniyati ta'minlanadi. Bu holat konstitutsiyaviy huquqiy ongini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Janubiy Koreyada ishlab chiqilgan "Intelligent Constitutional Court System" loyihasi misolida ko'rish mumkinki, raqamlashtirish orqali fuqarolarga 24/7 rejimda huquqiy xizmat ko'rsatuvchi chatbotlar, avtomatlashtirilgan ish yuritish tizimi, sun'iy intellekt asosida yuritiladigan hujjat tahlili imkoniyatlarini joriy etish rejalashtirilgan va bugungi kunda mazkur yirik loyihaning chatbot, avtomatlashtirilgan ish yuritish tizimi va matnni sun'iy intellekt yordamida tahlil qiluvchi vositalari ishga tushirilgan. Shuningdek, "Robotic Process Automation (RPA)" mexanizmlari joriy etilishi rejalashtirilgan va bir qismi allaqachon yo'lga qo'yilgan. Bu model fuqarolarning sud bilan interaktiv aloqasini kuchaytirish, ularning shikoyatlarini real vaqt rejimida ko'rib chiqishga xizmat qilmoqda [4].

Raqamlashtirishning konstitutsiyaviy sud faoliyatidagi o'рни davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlashda ham aks etadi. Zero, raqamli ochiqlik va hisobdorlik davlat hokimiyatining qonuniylik chegarasida faoliyat yuritishini nazorat qilishda fuqarolarga qulay vosita yaratadi.

Heru Okta ta'kidlaganidek, raqamli texnologiyalar orqali sud qarorlarini ishlab chiqish va hujjat aylanishining avtomatlashtirilishi, "qog'ozsiz sudlov" (paperless court) tamoyilini amalda qo'llash orqali konstitutsiyaviy adolatga erishishni soddalashtiradi. Shu bilan birga, u sud qarorlarining izchil, asosli va shaffof bo'lishini ta'minlovchi faktor sifatida ham xizmat qiladi [5].

Demak, raqamlashtirish – bu nafaqat texnik islohot, balki konstitutsiyaviy adolatga erishishning zamonaviy vositasi sifatida ham ko'rilmogda. U konstitutsiyaviy sud ish yuritishining inson huquqlariga sodiqligi, protsessual tenglik, shaffoflik va ochiqlik tamoyillarini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Konstitutsiyaviy sud ish yuritishiga videokonferensaloqa texnologiyasining joriy etilishi zamonaviy yondashuv bo'lib, sudlov faoliyatini masofadan turib amalga oshirish imkonini beradi. Ushbu texnologiyaning afzalliklari pandemiya davrida yaqqol namoyon bo'ldi. Biroq u faqat vaqtinchalik muqobil variant sifatida emas, balki sud tizimini uzoq muddatli isloh qilishning integral qismi sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, konstitutsiyaviy nazorat institutlari uchun bu texnologiya sudlov xizmatining uzluksizligini ta'minlash, ishtirokchilarga qulaylik yaratish va sudlovga ochiqlikni kengaytirishda muhim vositaga aylandi.

A.Sanders tomonidan olib borilgan tadqiqotda Yevropa mamlakatlarida videokonferensiya orqali o'tkazilgan sud eshituvlari pandemiya davrida sud faoliyatini to'xtatmaslik uchun asosiy vosita sifatida joriy etilgani qayd etiladi. Unga ko'ra, 2020 – 2021-yillar oralig'ida videoeshituvlar yordamida minglab ishlar ko'rib chiqilgan bo'lib, bu tizim ko'plab mamlakatlarda doimiy huquqiy institut sifatida mustahkamlanmoqda. Shu bilan birga, u bu texnologiyaning davomiy qo'llanilishi orqali adolatga erishish va ochiqlik tamoyillariga xizmat qiluvchi mexanizm shakllanayotganini ta'kidlaydi [1].

N.Chronowski va boshqalar Yevropa va Osiyo mamlakatlaridagi konstitutsiyaviy sudlar tajribasini tahlil qilib, Fransiya, Ispaniya, Avstriya, Hindiston kabi davlatlarda videokonferensiya vositalari yordamida o'tkazilgan sud majlislari konstitutsiyaviy jihatdan maqbulligi tan olinganini ko'rsatadi. Bu, sudga murojaat qilish huquqining to'liq amalga oshirilishi, shuningdek, davlat hokimiyatining fuqarolarga hisobdorligini ta'minlash nuqtai nazaridan ijobiy baholangan [6].

Videokonferensiya texnologiyasining yana bir muhim afzalligi - bu sudlov xizmatiga bo'lgan geografik va jismoniy to'siqlarni kamaytirishidir. Uzoq hududda joylashgan fuqarolar, nogironligi bor shaxslar, vaqtincha xorijda bo'lgan taraflar uchun ushbu texnologiya orqali sudda bevosita ishtirok etish imkoniyati yaratiladi. Bu esa sudlov tengligi va fuqarolik jamiyati tamoyillariga xizmat qiladi.

Ayni vaqtda videokonferensaloqa orqali eshituvlar jarayonida sud muhokamasi vaqtining qisqarishi, taraflarning sudga yetib borish bilan bog'liq xarajatlarining kamayishi, ish yurituvdagi tezlik va samaradorlikning ortishi kabi foydali jihatlar ham aniqlangan. Shu sababli ko'plab davlatlar bu texnologiyani doimiy asosda qo'llash uchun alohida qonunchilik normalarini ishlab chiqqan yoki takomillashtirgan.

Ko'rib turganimizdek, videokonferensaloqa texnologiyasi konstitutsiyaviy sudlarda nafaqat vaqtinchalik yechim sifatida, balki uzoq muddatli, tizimli va demokratik jihatdan asosli islohotlar doirasida muhim vositaga aylangan. U sudlovga kirishish imkoniyatlarini kengaytiradi, ochiqlik va adolat prinsiplarini mustahkamlaydi hamda konstitutsiyaviy sud tizimining raqamli transformatsiyasiga asos bo'ladi. Mazkur vositaning pandemiya davrida ham konstitutsiyaviy sudlarda ish faoliyatining to'xtab qolishining oldini olishi O'zbekiston kabi rivojlanib borayotgan davlatlarda ham inson huquqlari himoyasi yo'lida joriy etilishini talab qiladi.

Sudlov adolatiga erishishda nafaqat sud qarorining mohiyati, balki jarayonning o'zi taraflar uchun teng va hurmatli muomala, xolis eshinish, fikr bildirish imkoniyati kabi protsessual elementlar ham asosiy ahamiyatga ega. Videokonferensaloqa texnologiyalarining keng qo'llanilishi bu tamoyillarning amaliyotda qanday namoyon bo'lishiga ta'sir qilmoqda.

Wonneberger va Leisering tomonidan olib borilgan tadqiqotda, videokonferensiya orqali o'tkazilgan sud eshituvlari bilan an'anaviy (yuzma-yuz) eshituvlar o'rtasida protsessual adolat elementlari, jumladan, taraflarning hurmat bilan eshinishi, betaraflik va munosabatda adolat darajasi bo'yicha farqlar aniqlangan. Ularning empirik tahlil natijalariga ko'ra, videokonferensiyada ishtirok etgan taraflar o'zlarini kamroq eshinishgan, norasmiy yoki sovuq munosabat ostida qolgan deb hisoblashi mumkin. Bu esa ularning sud qarorini qabul qilishiga va tizimga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir qilgan [2].

Biroq, bu texnologiyaning ijobiy jihatlari ham mavjud. Jumladan, videokonferensaloqa orqali ishtirok etish imkoniyati suddan uzoq masofada joylashgan, nogironligi bor yoki muayyan xavfsizlik sabablari bilan sud zalida ishtirok eta olmaydigan fuqarolar uchun sud jarayoniga kirishishni ta'minlovchi vosita sifatida taqdim etiladi. Ayniqsa, pandemiya sharoitida videokonferensaloqa orqali sud eshituvlarini davom ettirish fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari, xususan sudga murojaat qilish va eshinish huquqining saqlanib qolishini kafolatlagan [1,6,7].

Shunday qilib, videokonferensiya vositasining sudlov adolatiga ta'siri ikkiyoqlama baholanadi. Bir tomondan, u texnologik imkoniyat sifatida adolatga kengroq kirish imkonini yaratadi; ikkinchi tomondan, u protsessual adolat tamoyillarining, ayniqsa, sudda "eshinishlik hissi" kabi noformal jihatlarning zaiflashuviga olib kelishi mumkin. Shu bois bu texnologiyaning qo'llanilishi muqobil sifatida emas, balki ehtiyotkorlik bilan, adolat mezonlariga zid bo'lmagan tarzda hamda taraflarning ish yurituvda hozir bo'la olishiga zid holatlar uchun amalga oshirilishi lozim.

Konstitutsiyaviy sud ish yurituvining raqamlashtirilishi bugungi kunda dunyo bo'ylab keng miqyosda amalga oshirilmoqda. Turli mamlakatlar bu jarayonga o'zining konstitutsiyaviy tuzumi, huquqiy madaniyati va texnologik salohiyatidan kelib chiqib yondashmoqda. Xususan, Indoneziya, Janubiy Koreya va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi davlatlari misolida xalqaro amaliyot raqamli islohotlarning ko'lamini, uslubini va huquqiy asoslarini yaqqol namoyon etadi.

Indoneziya tajribasi konstitutsiyaviy sudda raqamlashtirishning bosqichma-bosqich, tizimli va huquqshunoslar ishtirokida amalga oshirilgan namunali modelidir. Indoneziya Konstitutsiyaviy sudida raqamli sud platformasi orqali arizalarni onlayn qabul qilish, eshituvlarni videokonferensiya orqali o'tkazish, sud qarorlarini elektron shaklda e'lon qilish tizimlari joriy etilgan. Bularning barchasi "smart court" konsepsiyasi doirasida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishda ochiqlik, tezlik va ishtirokchilikni ta'minlagan [8].

Janubiy Koreya esa texnologik rivojlangan davlat sifatida "aqlli sud" modelini chuqurlashtirgan. Janubiy Koreya Konstitutsiyaviy sudining "Intelligent Constitutional Court System" dasturi orqali chatbot, raqamli arxivlar, elektron murojaat va SI yordamida qarorlarni indeksatsiyalash imkoniyatlari joriy etilgan bo'lib, bu model nafaqat fuqarolarning murojaatini osonlashtirgan, balki sud faoliyatining shaffofligini oshirib, sudlovga bo'lgan ishonchni mustahkamlagan [4].

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi davlatlari, jumladan Rossiya, Belarus va Qozog'iston kabi mamlakatlar konstitutsiyaviy sud faoliyatida raqamli islohotlarni huquqiy-normativ bazani yangilash orqali yo'lga qo'ygan. A.Mochalov mazkur mamlakatlardagi transformatsion jarayonlarni tahlil qilar ekan, u raqamli texnologiyalarning konstitutsiyaviy sud ish yuritishiga integratsiyalashuvini bir necha mezonlar asosida baholaydi. Unga ko'ra, bu davlatlarda - xususan Rossiya, Belarus va Qozog'iston konstitutsiyaviy sudlarida onlayn sud xizmatlari, shaxsiy kabinetlar, elektron ariza topshirish tizimlari, sud qarorlariga ochiq kirish imkoniyati va interaktiv axborot portallari joriy

etilgan. Bu vositalar nafaqat sudlov jarayonining soddalashuvi va tezlashuviga xizmat qilmoqda, balki demokratik tamoyillar, ayniqsa, sud ochiqligi, fuqaroviy ishtirok, huquqiy eshitishtirish huquqi va shaffoflik bilan texnologik infratuzilmaning uyg'unlashuvini ta'minlamoqda. Olim, ayniqsa, elektron shaxsiy kabinet tizimining fuqarolar va advokatlar uchun muhim vosita bo'lganini ta'kidlaydi. Bu tizim orqali arizachilar o'z murojaat holatini real vaqt rejimida kuzatishi, hujjatlar bilan ishlashi va bildirilgan savollarga javob olishi mumkin. Shuningdek, elektron hujjat aylanishi va avtomatlashtirilgan bildirishnomalar tizimi fuqarolarga sudga yaqinroq bo'lish imkonini bergan [9].

Xalqaro tajriba tahlillaridan ko'rinadiki, raqamlashtirishning muvaffaqiyatli joriy etilishi quyidagi asosiy shartlarga bog'liq:

- aniq huquqiy me'yorlar va normativ asoslar mavjudligi;
- texnologik vositalarning sud tizimiga integratsiyalashuv darajasi;
- sudlov ochiqligini kuchaytirishga qaratilgan siyosiy iroda;
- fuqarolarning raqamli savodxonligi va ishtirokini rag'batlantirish.

Shu sababdan, xalqaro tajriba O'zbekiston uchun ham ahamiyatli bo'lib, milliy konstitutsiyaviy sud tizimida raqamli islohotlarni samarali joriy etishda amaliy model bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Konstitutsiyaviy sudlar faoliyatida ochiqlik tamoyili nafaqat odil sudlovning tashqi belgisi, balki fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan huquqiy ishonchini shakllantirishda hal qiluvchi omil sifatida e'tirof etiladi. Ochiqlik shaffoflik, fuqarolarning xabardorligi, sud qarorlarining asosli tushuntirilishi va ommaviy eshituvlarning ochiq o'tkazilishi kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Raqamlashtirish esa ushbu ochiqlik tamoyilini amalda kuchaytirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Videokonferensiya orqali sud majlislarini ochiq formatda o'tkazish, onlayn eshituvlar va jamoatchilik uchun sud portalidagi to'liq hujjatlar bilan tanishish imkoniyati sud faoliyatining omma uchun tushunarli va ishonchli bo'lishiga xizmat qiladi. Ochiq va shaffof sudlov jarayonlari fuqarolarda "sud tizimi - meniki" degan hisni shakllantirib, davlatga bo'lgan konstitutsiyaviy ishonchni mustahkamlaydi [10]. A.Fauzan esa Indoneziya tajribasida "open-access court" modeli doirasida sud qarorlarining elektron arxivlarda e'lon qilinishi, eshituvlarni jonli translyatsiya qilish va sud faoliyati statistikasi bilan jamoatchilikni tanishtirish orqali sud ochiqligi va javobgarligi kuchayganini qayd etadi. Bu yondashuv qonun ustuvorligini ta'minlash bilan birga, sudni fuqarolarga yaqinlashtirgan [8].

A.N.Mochalov Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi davlatlaridagi tahliliy yondashuvda raqamli platformalarning fuqarolar bilan "interaktiv muloqot" imkoniyatini yaratishini alohida urg'ulaydi. Jumladan, konstitutsiyaviy sud qarorlarining izohli, video va grafikli shakllarda e'lon qilinishi huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishda muhim ahamiyatga ega [9]. Bu yondashuv sud tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish faqat axborot tarqatish emas, balki sud va jamiyat o'rtasidagi institutsional muloqotni mustahkamlovchi boshqaruv vositasi ekanini ko'rsatadi [11]. Shuningdek, raqamli sud platformalari foydalanuvchiga yo'naltirilgan, tushunarli va interaktiv sud modeli shakllanishining muhim sharti sifatida baholanadi [12].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 33-moddasida axborot olish huquqi, 55-moddasida esa buzilgan huquqlarni tiklash uchun sudga murojaat qilish huquqi belgilangan. Sud ochiqligi va sud faoliyati to'g'risida axborot olish imkoniyati esa ushbu konstitutsiyaviy huquqlarning amaldagi ta'minotidir. Raqamli sud platformalari orqali sud qarorlari, eshituvlar, kalendar jadvali, statistik ma'lumotlar va eslatmalar ochiq ko'rinishda taqdim etilishi bu sud tizimiga bo'lgan ishonchni huquqiy va ijtimoiy poydevorga asoslangan holda oshiradi.

Demak, sud ochiqligi raqamlashtirish orqali faqat tashqi ko'rinish emas, balki fuqarolarning konstitutsiyaviy ongini oshirish, huquqiy ijtimoiylashuvini kuchaytirish va fuqaroviy ishonchni barqarorlashtirish vositasi bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudida ish faoliyatini hamda ish yurituvini soddalashtirish va raqamlashtirish bo'yicha, afsuski, qoniqarli ishlar olib borilyapti deya olmaymiz. Hozirgi kunda Konstitutsiyaviy sudning rasmiy veb-sayti orqali sud qarorlari matnlari bilan tanishish, normativ-huquqiy hujjatlar va ariza topshirish tartiblari haqida ma'lumot olish, ayrim hollarda sud majlislarini onlayn kuzatish imkoniyati mavjud. Ammo bular hozirgi davrdagi raqamlashtirish jarayonida umuman talabga javob bermaydi.

Biz bu borada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi sudyalari bilan suhbat olib bordik. Sudyalardan Konstitutsiyaviy sud ish yurituvini osonlashtirish va raqamlashtirish uchun bugungi kunda qanday islohotlar rejalashtirilgani hamda fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashishini so'raganimizda, sudyalardan biri sud ish faoliyatini elektron tizimga o'tkazish resurslarni tejash, ish yurituvni osonlashtirish, shuningdek, masalalarning inson omilidan holi ochiqlik va shaffoflikka xizmat qilishini ta'kidlab o'tdi. Bugungi kunda tashkilotlararo murojaatlar EDO elektron tizimi orqali qabul qilinadi va ijrochilarga taqsimlanib, murojaatni ko'rib chiqish muddatlari ham shu tizimda ko'rinib turadi. Ammo, fuqarolar va yuridik shaxslardan kelib turadigan murojaatlar uchun alohida tizim mavjud emas va ularning murojaatlari pochta orqali, hukumat portali orqali yoki konstitutsiyaviy sudning elektron pochta orqali qabul qilinib, shu yo'llar orqali javob beriladi. Sudya konstitutsiyaviy sud ish yurituvini allaqachon zamon talablariga javob bermay qo'yganini, bu borada islohotlar yaqin yillarda hal qilinishini bildirib o'tdi.

Yana bir sudyaga shu savol bilan yuzlanganimizda, konstitutsiyaviy sudni raqamlashtirish allaqachon dolzarb masala bo'lib turgani, ish yurituvni raqamlashtirish faoliyatni anchayin osonlashtirishini ta'kidlab o'tdi.

Yuqoridagi tahlillar natijasida quyidagi yo'nalishlarda islohotlar o'tkazish zarur deb hisoblaymiz:

- intellektual elektron platforma yaratish: bu orqali fuqarolar o'z konstitutsiyaviy huquqlariga oid arizalarni to'ldirishda SI (sun'iy intellekt) yordamidan foydalanishi mumkin bo'ladi;
- raqamli shaxsiy kabinet joriy etish: har bir fuqaro o'z murojaat holatini, sud qarorini va tegishli eslatmalarni real vaqt rejimida kuzatib borishi mumkin;
- videokonferensiya ishtiroki tartibini normativ asosda belgilash: bu orqali videomuloqotlar konstitutsiyaviy jarayonlarda teng huquqlilik tamoyiliga zid bo'lmaydigan shaklda tartibga solinadi;
- sud qarorlarini izohli formatda e'lon qilish: fuqarolarga qarorning mohiyatini va asoslarini tushunishga yordam beruvchi huquqiy tushuntirishlar bilan ta'minlanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, raqamlashtirishda inson huquqlari, adolatli sudlov tamoyillari va konstitutsiyaviy muvozanat saqlanishi shart. Shu sababli har qanday raqamli islohot – texnik modernizatsiya emas, balki konstitutsiyaviy qadriyatlarni mustahkamlovchi vosita sifatida qaralishi lozim.

#### **IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES:**

1. Sanders, A. Video-hearings in Europe before, during and after the COVID-19 pandemic // International Journal for Court Administration. – 2021. – Vol. 12, No. 2. – P. 1–10. – URL: <https://www.iacajournal.org/articles/10.36745/ijca.386/>
2. Wonneberger, D., Leisering, M. Videoconferencing in legal hearings and procedural justice // Victims & Offenders. – 2023. – Vol. 18, No. 8. – P. 1563–1565. – URL: <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/15564886.2023.2222334>
3. Silalahi, W. Constitutional court in the perspective of a democratic state system in the digital era // ICDNR Proceedings. – 2023. – P. 3–4. – URL: <https://www.atlantis-press.com/proceedings/icdnr-23/12598923>
4. Park, J. Digital transformation in the constitutional court of Korea: Intelligent constitutional court system // Asian Association of Constitutional Courts (AACC). – 2023. – P. 2–3. – URL: <https://aaccforum.org/publications/intelligent-constitutional-court-system>
5. Okta, H., et al. Digitalization of legal transformation on judicial review in the constitutional court // Journal of Human Rights, Culture and Legal System. – 2024. – Vol. 4, No. 2. – P. 265–268. – URL: <https://journal.unnes.ac.id/sju/index.php/jhrcls/article/view/62345>

6. Chronowski, N., Szentgáli-Tóth, B., Bor, B. Resilience of the judicial system in the post-COVID period // *Hungarian Journal of Legal Studies*. – 2023. – Vol. 64, No. 3. – P. 414–416. – URL: <https://akjournals.com/view/journals/2052/64/3/article-p414.xml>
7. McKay, C., Hampson, N. Videoconferencing and justice: Legal and psychological perspectives // *Law, Technology and Humans*. – 2020. – Vol. 2, No. 1. – P. 1–15. – URL: <https://www.publishing.monash.edu/law-tech-human/article/view/2034>
8. Fauzan, A. Constitutional court and digital transformation: Indonesia's smart court initiatives // *Asian Association of Constitutional Courts (AACC)*. – 2023. – P. 4–6. – URL: <https://aaccforum.org/publications/smart-court-indonesia>
9. Mochalov, A. N. Digital transformation of society through the lens of constitutional justice in the EAEU countries // *Eurasian Legal Review*. – 2024. – No. 7(1). – P. 56–61. – URL: <https://eurasianlegalreview.org/article/view/1456>
10. Velicogna, M., Lupo, G. ICT and judicial transparency: New tools and old challenges // *Computer Law & Security Review*. – 2017. – Vol. 33, No. 1. – P. 120–134. – URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0267364916301634>
11. Fabri, M., Contini, F., Lanzara, G. F. The challenge of change for judicial systems: Developing a public management perspective // *European Journal of Legal Studies*. – 2019. – Vol. 12, No. 1. – P. 45–67. – URL: <https://cadmus.eui.eu/handle/1814/63023>
12. Susskind, R. *Online courts and the future of justice*. – Oxford: Oxford University Press, 2019. – 352 p. – URL: <https://global.oup.com/academic/product/online-courts-and-the-future-of-justice-9780198838360>

**SAYFIDDINOV Aqliddin Anvarjon o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti tayanch doktranti

E-mail: [aqliddinsayfiddinov@gmail.com](mailto:aqliddinsayfiddinov@gmail.com)

## XALQ DEPUTATLARI KENGASHLARI QARORLARINING QONUNIYLIGINI TA'MINLASH: NAZARIY ASOSLAR, MILLIY MEKANIZMLAR VA XORIJIY TAJRIBA

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): SAYFIDDINOV A. A.** Xalq deputatlari kengashlari qarorlarining qonuniyligini ta'minlash: nazariy asoslar, milliy mexanizmlar va xorijiy tajriba // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2026) B. 25-35.

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mahalliy vakillik organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning qonuniyligini ta'minlash masalasi davlat boshqaruvi samaradorligi hamda hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bilan uzviy bog'liq institutsional-huquqiy muammo sifatida tahlil qilingan. Mahalliy darajada qaror qabul qilish jarayoni, shuningdek, qarorlarning qonuniyligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy, tashkiliy va nazorat mexanizmlari yoritilgan.

Maqolada tizimli, qiyosiy-huquqiy va funksional tahlil usullaridan foydalanilgan holda mahalliy qarorlar qonuniyligini ta'minlashning oldingi, joriy va keyingi nazorat shakllari o'zaro bog'liq va kompleks huquqiy mexanizm sifatida o'rganilgan. Adliya organlari tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy ekspertiza, prokuratura nazorati hamda ma'muriy sudlar orqali sudga shikoyat qilish institutining huquqiy tabiati va o'zaro muvofiqligi ochib berilgan.

Maqolada mahalliy vakillik organlari qarorlarining qonuniyligini ta'minlash, huquqiy ishonchni mustahkamlash, davlat va jamiyat o'rtasidagi institutsional munosabatlarni barqarorlashtirish hamda hududiy boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan. Maqolada shakllantirilgan xulosalar mahalliy boshqaruv sohasidagi huquqiy islohotlarni ilmiy asoslash va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** qonuniylik, mahalliy kengash, vakillik organi, davlat nazorati, sud nazorati, huquqiy ekspertiza, institutsional nazorat, huquqiy ishonch, mahalliy boshqaruv, hududiy rivojlanish.

**САЙФИДДИНОВ Ақлиддин**

Докторант Института законодательства и правовой

политики при Президенте Республики Узбекистан

E-mail: [aqliddinsayfiddinov@gmail.com](mailto:aqliddinsayfiddinov@gmail.com)

## ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЗАКОННОСТИ РЕШЕНИЙ СОВЕТОВ НАРОДНЫХ ДЕПУТАТОВ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ, НАЦИОНАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье вопрос обеспечения законности решений, принимаемых местными представительными органами, анализируется как институционально-правовая проблема, неразрывно связанная с эффективностью государственного управления и устойчивым социально-экономическим развитием территорий. Освещаются процесс принятия решений на местном уровне,

а также правовые, организационные и контрольные механизмы, направленные на обеспечение законности этих решений.

В статье с использованием методов системного, сравнительно-правового и функционального анализа предварительные, текущие и последующие формы контроля за законностью решений местных органов изучаются как взаимосвязанный и комплексный правовой механизм. Раскрываются правовая природа и взаимосогласованность таких институтов, как правовая экспертиза, проводимая органами юстиции, прокурорский надзор и судебное обжалование в административных судах.

В статье обосновывается, что обеспечение законности решений местных представительных органов имеет важное значение для укрепления правовой определённости, стабилизации институциональных отношений между государством и обществом, а также для повышения эффективности территориального управления. Сформулированные в статье выводы имеют теоретическое и практическое значение для научного обоснования правовых реформ в сфере местного управления и совершенствования правоприменительной практики.

**Ключевые слова:** законность, местный совет, представительный орган, государственный контроль, судебный контроль, правовая экспертиза, институциональный контроль, правовое доверие, местное управление, территориальное развитие.

**AKLIDDIN Sayfiddinov**

PhD student at the Institute of Legislation and  
Legal Policy under the President of the Republic of Uzbekistan  
E-mail: [aqliddinsayfiddinov@gmail.com](mailto:aqliddinsayfiddinov@gmail.com)

## ENSURING THE LEGALITY OF DECISIONS OF PEOPLE'S DEPUTIES' COUNCILS: THEORETICAL FOUNDATIONS, NATIONAL MECHANISMS AND FOREIGN EXPERIENCE

### ANNOTATION

This article analyzes the issue of ensuring the legality of decisions adopted by local representative bodies as an institutional-legal problem inextricably linked to the effectiveness of public administration and the sustainable socio-economic development of territories. It highlights the decision-making process at the local level, as well as the legal, organizational, and control mechanisms aimed at ensuring the legality of these decisions.

Using systemic, comparative-legal, and functional analysis methods, the article examines the preliminary, ongoing, and subsequent forms of control for ensuring the legality of local decisions as an interconnected and comprehensive legal mechanism. The legal nature and interplay of legal expertise conducted by justice bodies, prosecutorial oversight, and the institution of judicial appeal through administrative courts are explored.

The article substantiates that ensuring the legality of decisions made by local representative bodies is crucial for strengthening legal certainty, stabilizing institutional relations between the state and society, and increasing the effectiveness of regional governance. The conclusions formulated in the article are of theoretical and practical significance for scientifically substantiating legal reforms in the field of local governance and for improving law enforcement practices.

**Keywords:** legality, local council, representative body, state control, judicial control, legal review, institutional control, legal trust, local governance, territorial development.

Mahalliy darajada davlat hokimiyati organlarining samarali faoliyat yuritishi har qanday davlat barqarorligi va taraqqiyotining asosiy tayanchlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olayotgan islohotlar jarayonida mahalliy ijro etuvchi

hokimiyat rahbarlari, hokimlar hamda vakillik organlari xalq deputatlari Kengashlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning qonuniyligini ta'minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur organlar davlat siyosatini amalga oshirish, mahalliy budjetni shakllantirish, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etish, shuningdek, fuqarolarning huquq va erkinliklarini hududiy darajada ta'minlashda hal qiluvchi o'rin tutadi.

Ayniqsa, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida mahalliy boshqaruvda "Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim" tamoyilini hayotga tatbiq etish doirasida mahalliy Kengashlarning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilish hamda jamoatchilik manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan vakolatlari izchil ravishda kengayib bormoqda. Xalq hokimiyatchiligini amalda to'laqonli ro'yobga chiqarishga qaratilgan ushbu institutsional islohotlar sharoitida mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligi, ularning Konstitutsiya va qonunlarga muvofiqligi hamda belgilangan vakolatlar doirasida qabul qilinishi masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, mahalliy Kengashlar faoliyatida ular tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar qonuniyligini ta'minlash mexanizmini ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilish, amaldagi muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish hududlarning samarali boshqaruvi va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Normativ-huquqiy hujjat tushunchasiga ushbu Qonunning 3-moddasida ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra, normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir [1]. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari o'z vakolatlari doirasida qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish vakolatiga ega. Shu o'rinda mahalliy Kengashlarning qarorlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, o'ziga nisbatan yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirishning talablariga muvofiq bo'lishi lozim.

Adliya vazirligi statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yildan 2025-yilgacha Xalq deputatlari kengashlari tomonidan quyidagicha qarorlar qabul qilingan:

- 2021-yilda — 28 284 ta;
- 2022-yilda — 31 578 ta;
- 2023-yilda — 32 487 ta;
- 2024-yilda — 32 923 ta;
- 2025-yilning 1-yarmida — 17 419 ta qaror qabul qilingan.

Xalq deputatlari kengashlari 2021-yildan 2025-yilning birinchi yarmigacha jami 142 691 ta qaror qabul qilgan bo'lib, mazkur qarorlarning 5 715 tasi yoki 4,1 foizi normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Yuqoridagi statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Xalq deputatlari kengashlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar soni yildan yilga oshib bormoqda. Mazkur qarorlarning asosiy qismi individual (yakka tartibdagi), tashkiliy xarakterga ega ekanini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida Xalq deputatlari kengashlari qarorlarining qonuniyligini ta'minlash tizimi turli nazorat shakllarini o'z ichiga olgan bo'lib, ularni oldindan (dastlabki), joriy va keyingi nazorat turlariga ajratish mumkin. "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari loyihalarining huquqiy ekspertizasi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi [1].

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 28-yanvardagi KQ-55-V-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi qarorlari loyihalarini ishlab chiqish hamda ularni huquqiy ekspertizadan o'tkazish Uslubiyoti"ga ko'ra, Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashi raisi, doimiy komissiyalar mahalliy Kengash qarori loyihasining mahalliy Kengash kotibiyati yuriskonsultiga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun kiritilishini ta'minlaydi. Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashi raisi, kotibiyat mudiri xalq deputatlari tuman va shahar Kengashi qarori loyihasini tuman va shahar adliya bo'limlari huzuridagi yuridik xizmat ko'rsatish markazlariga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun kiritilishini ta'minlaydi. Mahalliy Kengash qarori loyihasi yuzasidan huquqiy ekspertiza yakuni bo'yicha xulosaning mavjudligi mahalliy Kengash tomonidan qarorlarni qabul qilishning majburiy sharti hisoblanadi. Mahalliy Kengashlarning normativ-huquqiy hujjat shaklidagi barcha qarorlari loyihalari mahalliy Kengash kotibiyati tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazilgandan so'ng belgilangan tartibda adliya organlaridan huquqiy ekspertizadan o'tkaziladi [2]. "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga muvofiq, hokim va quyi Kengashning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq bo'lmagan qarorlarini bekor qilish xalq deputatlari Kengashining vakolatlaridan biri sifatida ko'rsatilgan. Yuqori turuvchi Kengashlarga quyi Kengashlarning qonunga zid qarorlarini bekor qilish vakolati berilgan.

Yuqoridagilarni mahalliy Kengashlar qarorlarining qonuniyligini ta'minlashning dastlabki nazorat shakli sifatida e'tirof etish mumkin.

Joriy nazorat shakli sifatida esa prokuratura organlarini misol keltirish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 143-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi [3]. Prokuratura organlari davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, hokimliklar va Kengashlar tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Prokurorlar qonun buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida taqdimnomalar kiritish, qonunga xilof hujjatlarga protest keltirish, shuningdek, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risida ish qo'zg'atish huquqiga ega.

Keyingi nazorat shakli sifatida esa sud orqali mahalliy Kengashlarning qarorlari qonuniyligini tekshirish institutini kiritish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga asosan, har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi [3].

"Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risida"gi Kodeksining 27-moddasiga muvofiq, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qonunchilikka mos kelmaydigan hamda fuqarolar yoki yuridik shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan qarorlari yuzasidan nizolashish to'g'risida hududiy tegishliligiga ko'ra, ma'muriy sudga murojaat qilish mumkinligi nazarda tutilgan [4]. "Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risida"gi Kodeks qabul qilinishi bilan davlat hokimiyati organlarining hujjatlari va harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish tartibi ancha soddalashtirildi. Fuqarolar va tashkilotlar hokimlar yoki Kengashlar qarorlarini qonunga xilof deb topish to'g'risidagi ariza bilan ma'muriy sudga murojaat qilishlari mumkin. Sud hujjatni, agar u qonunga zid bo'lsa, to'liq yoki qisman haqiqiy emas deb topishga haqli.

Shu tariqa, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida mahalliy Kengashlar qarorlarining qonuniyligini ta'minlash tizimi oldindan, joriy va keyingi nazorat shakllarining o'zaro bog'liq va kompleks mexanizmi sifatida shakllangani va rivojlanib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu mexanizm nafaqat mahalliy vakillik organlari faoliyatida qonuniylikni kafolatlashga xizmat qiladi, balki qabul qilinayotgan qarorlarning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadlariga

muvofiq, barqaror va samarali bo'lishini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, mahalliy Kengashlar qarorlarining qonuniyligi va ularning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ta'siri o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib berish, mazkur masalaga doir nazariy yondashuvlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Nazariy jihatdan, mahalliy Kengashlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning qonuniyligi hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy kafolatlaridan biri ekanligi bir qator olimlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, amerikalik iqtisodchi, xalqaro Nobel mukofoti sohibi Duglas Nort qarashlariga ko'ra, davlat va mahalliy organlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar qonuniy, barqaror va prognoz qilinadigan bo'lmasa, iqtisodiy o'sishga erishish mumkin emas [5]. Nort institutsional qonuniylik mulk huquqi himoyasi, shartnomalar barqarorligi va iqtisodiy xavflarning kamayishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Mahalliy Kengashlar qarorlarining qonuniyligi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, avvalo, budjet munosabatlari samaradorligi orqali ta'sir ko'rsatadi. OECD tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mahalliy darajada qarorlar qonuniy, ochiq va hisobdor qabul qilinadigan hududlarda budjet mablag'larining taqsimlanishi va ijrosi samarali bo'ladi, ijtimoiy infratuzilma loyihalari o'z vaqtida amalga oshiriladi hamda hududlar o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblik kamayadi. Aksincha, qaror qabul qilishda qonuniylikka rioya etilmasligi hududiy rivojlanish dasturlarining ijrosini sustlashtiradi va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning pasayishiga olib keladi [6].

Mahalliy Kengashlar va ijro hokimiyati o'rtasidagi institutsional muvozanat qarorlar qonuniyligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. H. Vollmannning Yevropa mamlakatlari misolida olib borgan qiyosiy tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, mahalliy organlar qarorlari ustidan davlat nazorati faqat qonuniylik bilan cheklangan davlatlarda ijro intizomi yuqori bo'ladi, hududiy rivojlanish loyihalari samarali amalga oshiriladi va iqtisodiy o'sish barqaror tus oladi [7].

Qarorlar qonuniyligini ta'minlashda sud nazorati instituti alohida o'rin tutadi. Anglo-sakson huquq tizimida, xususan Buyuk Britaniyada, mahalliy hokimiyat organlari qarorlari "judicial review" instituti orqali tekshiriladi. M. Elliott va R. Thomasning ta'kidlashicha, mahalliy organ qarori vakolat doirasidan chiqsa yoki belgilangan huquqiy protseduralar buzilgan holda qabul qilingan bo'lsa, u sud tomonidan noqonuniy deb topilishi shart [8]. Sud nazorati mahalliy qarorlarning huquqiy aniqligini ta'minlab, iqtisodiy va ijtimoiy qarorlarning barqaror ijrosiga xizmat qiladi.

Qarorlar qonuniyligi va hududiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik xalqaro tashkilotlar tadqiqotlarida ham o'z tasdig'ini topgan. Jahon bankining "Governance and the Law" hisobotida mahalliy darajada qonuniylik ta'minlanmagan davlatlarda investitsiya muhitining zaifligi, ijtimoiy tengsizlikning ortishi va hududiy rivojlanish dasturlarining samarasizligi qayd etilgan [9]. Hisobotga ko'ra, qonuniy qarorlar fuqarolar ishonchi va iqtisodiy faollikni oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Shuningdek, mahalliy Kengash qarorlarining qonuniyligi ijtimoiy rivojlanish va fuqarolar ishtiroki bilan ham uzviy bog'liq. J. Stoker mahalliy Kengashlarni ijro hokimiyati ustidan siyosiy va huquqiy nazoratni amalga oshiruvchi institut sifatida baholaydi. Uning fikricha, qonuniy va shaffof qarorlar fuqarolarning mahalliy boshqaruvga bo'lgan ishonchini oshiradi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi va hududiy taraqqiyot uchun qulay muhit yaratadi [10].

Ukrainalik tadqiqotchilar Diachenko va Bukha ham hududiy rivojlanishning tizimli xususiyatini ta'kidlab, uni funksional bloklarga ajratadilar: normativ-huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va axborot. Ularning fikriga ko'ra, mahalliy hokimiyat organlari faoliyati "hududning hayotiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashning asosiy elementi" hisoblanadi va mahalliy darajada rivojlanish uchun me'yoriy-huquqiy bazani shakllantiradi [11]. Bu shuni anglatadiki, mahalliy Kengashlar

qarorlarining qonuniyligi barcha sohalarda samarali rivojlanishni ta'minlashning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi: huquqiy aniqliksiz uzoq muddatli rejalashtirish va investitsiyalarni jalb qilish mumkin emas.

Xuddi shu nuqtayi nazardan, mahalliy o'zini o'zi boshqarish bo'yicha mutaxassis A. Tkachuk "qonuniy qarorlar huquqiy ishonchni mustahkamlash uchun zaruriy shartdir va ishonchsiz na investitsiya, na rivojlanish, na hamjihatlik mumkin emas" [12], deb ta'kidlaydi. Boshqacha qilib aytganda, mahalliy Kengashlar qarorlarining huquqiy ishonchliligi korxonalar va fuqarolarning ishonchiga bevosita bog'liq: agar qarorlar qonunga muvofiq qabul qilinmasa, bu hududlarning investitsion jozibadorligini pasaytiradi va ijtimoiy-iqtisodiy o'sishga to'sinlik qiladi.

E.D. Kutybayeva va S.D. Allambergenovlarga ko'ra, bugungi kunda taraqqiyotning eng muhim yo'nalishlaridan biri ham markaziy, ham mahalliy darajalarda boshqaruv samaradorligini oshirishdan iborat bo'lib, uning asosiy tarkibiy qismlaridan biri fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etgan holda nazorat, vakillik va norma ijodkorligi vazifalarini yanada samarali amalga oshirish uchun xalq deputatlari Kengashlarini qo'llab-quvvatlashdan iboratdir [13]. Mahalliy o'zini o'zi boshqarishning Yevropa Xartiyasining 8-moddasida mahalliy hokimiyat organlarining ma'muriy nazorati qonun bilan mustahkamlanishi va faqat qonun hamda konstitutsiyaviy tamoyillarga rioya etilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajada qo'llanilishi kerakligi belgilangan [14].

Yuqorida keltirilgan nazariy qarashlar, xalqaro tashkilotlar tadqiqotlari va turli mamlakat olimlarining ilmiy xulosalari shuni ko'rsatadiki, mahalliy Kengashlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning qonuniyligi hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning zaruriy va ajralmas sharti hisoblanadi. Qonuniy, shaffof va prognoz qilinadigan qarorlar huquqiy ishonchni mustahkamlaydi, investitsiya muhitini yaxshilaydi, budget mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlaydi hamda fuqarolarning mahalliy boshqaruvga bo'lgan ishonchini oshiradi. Aksincha, qonuniylik yetarli darajada ta'minlanmagan hollarda hududiy rivojlanish dasturlarining samaradorligi pasayadi, ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklar kuchayadi va taraqqiyot jarayonlari sekinlashadi.

Shu ma'noda, mahalliy Kengashlar qarorlarining qonuniyligini ta'minlashga qaratilgan institutsional mexanizmlar faqat huquqiy nazorat vositasi sifatida emas, balki hududlarni kompleks rivojlantirishga xizmat qiluvchi strategik omil sifatida qaralishi lozim. Ushbu nazariy xulosalarni inobatga olgan holda, quyida Fransiya, Polsha va Koreya Respublikasida mahalliy vakillik organlari qarorlarining qonuniyligini ta'minlash tajribasi tahlil qilinadi. Xususan, Fransiya misolida ko'rib chiqamiz. Tarixan Fransiya mahalliy organlar qarorlari ustidan nazorat qilishning eng qat'iy tizimlaridan biriga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. 1980-yillardagi nomarkazlashtirish islohotlariga qadar prefektlar (departamentlarda markaziy hukumatning vakillari) to'g'ridan-to'g'ri ma'muriy nazoratni (ma'muriy vasiylik deb ataladigan institutni) amalga oshirganlar. Prefekt o'z vakolati doirasida mahalliy Kengashning qonunga xilof, deb hisoblagan har qanday qarorini o'z xohishiga ko'ra bekor qilish huquqiga ega bo'lgan, bundan so'ng esa kommuna mazkur prefekt qarori ustidan ma'muriy sudga shikoyat qilish imkoniyatiga ega edi. Ushbu model oldindan yoki joriy nazoratni nazarda tutgan bo'lib, ko'p hollarda mahalliy darajada nafaqat qonuniylik masalalariga, balki qarorlarning maqsadga muvofiqligiga ham daxldor bo'lgan [15].

Biroq 1982-yil 2-martda qabul qilingan "Defferre qonuni" (Loi Defferre) mazkur tizimni tubdan o'zgartirdi. Shu vaqtdan boshlab kommunalar va departamentlar mahalliy Kengashlarining qarorlari hamda huquqiy aktlari prefektning oldindan tasdig'isiz, rasmiy e'lon qilingani yoki manfaatdor shaxslar e'tiboriga yetkazilgani zahotiy oq kuchga kiradi. Shu bilan birga, ayrim toifadagi aktlar (mahalliy Kengashlarning eng muhim qarorlari hamda ayrim masalalar bo'yicha merlarning farmoyishlari) hanuzgacha keyingi (ex post) nazoratga tortiladi.

Xususan, bunday aktlar qabul qilinganidan keyin 15 kun ichida ularning nusxalari prefektga yuboriladi. Prefekt esa, agar mazkur aktning qonunga zid ekanligini aniqlasa, ikki oy muddat ichida uni ma'muriy sudga e'tiroz qilish huquqiga ega. Sudga murojaat qilinishi bilan bir vaqtda prefekt nizoli qarorning ijrosini sud hal qilguniga qadar to'xtatib turishni talab qilishi mumkin. Shu tariqa, hozirgi zamon Fransiya huquqiy mexanizmi prefekt tashabbusi bilan amalga oshiriladigan sud nazoratiga asoslanadi: prefekt akti mustaqil ravishda bekor qilmaydi, balki qonuniylikni ta'minlash maqsadida sudga murojaat qiladi. Fransiya qonunchiligida ta'sir ko'rsatishning eng qat'iy choralari ham saqlanib qolgan. Qonuniylikning qo'pol ravishda buzilishi yoki mahalliy Kengashning kommunani samarali boshqarish qobiliyatini yo'qotgan holatlarida hukumat Prezident farmoni asosida, Vazirlar Kengashi majlisida qabul qilingan qaror orqali munitsipal Kengashni tarqatib yuborish huquqiga ega. Amaliyotda Kengashni tarqatish chorasini kam qo'llaniladi va asosan Kengash faoliyatining falajlanishi yoki boshqaruvda chuqur inqiroz yuzaga kelgan hollarda tatbiq etiladi. Munitsipal Kengash tarqatib yuborilgandan so'ng vaqtinchalik ma'muriyat tayinlanadi hamda ikki oy muddat ichida yangi saylovlar o'tkaziladi. Shu bilan birga, Fransiyada asosiy e'tibor noqonuniy aktlarni ma'muriy tartibda bekor qilishga emas, balki ularni sud tartibida e'tiroz qilishga qaratilgan bo'lib, bu mahalliy o'zini o'zi boshqarishning huquqiy avtonomiyasi tamoyillariga mos keladi [15].

Fransiyada mazkur masalaning statistik jihatiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Fransiya mahalliy organlari tomonidan qabul qilinayotgan normativ-huquqiy aktlar hajmi nihoyatda katta bo'lib, 2019–2021-yillarda prefektlarga keyinchalik ro'yxatdan o'tkazish va ehtimoliy nazorat uchun taqdim etilgan aktlarning umumiy soni yillik hisobda taxminan 5,66 milliondan 6,28 milliontagacha oshgan [16].

Biroq davlatning ma'muriy resurslari cheklanganligi sababli barcha aktlarni to'liq tekshirish imkoniyati mavjud emas. Amalda prefektura xizmatlari tomonidan taqdim etilgan aktlarning taxminan 20 foizigina tekshiruvdan o'tkaziladi, qolgan qismi esa (ularning qonunga zid ekanligini ko'rsatuvchi ochiq-oydin asoslar mavjud bo'lmasa) batafsil tahlil qilinmaydi. Fransiya Hisob palatasi 2022-yilda o'tkazgan tahlillarida munitsipal aktlarning taxminan 80 foizi nazorat doirasidan tashqarida qolayotganini qayd etgan bo'lib, bu holat nazorat tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha qator tavsiyalarni ishlab chiqishga sabab bo'lgan. Mazkur ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, hatto mukammal huquqiy mexanizm mavjud bo'lgan taqdirda ham nazorat samaradorligi ko'p jihatdan ma'muriy resurslar bilan bog'liq bo'ladi. Shu munosabat bilan Fransiya eng muhim sohalarda (jumladan, budjet qarorlari sohasida) ustuvor nazoratni kuchaytirishga hamda tekshiriladigan aktlar qamrovini kengaytirish maqsadida elektron monitoring tizimlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda [17].

Polsha 1989-yildan so'ng mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari ustidan nazorat tizimini muvaffaqiyatli isloh qilgan postsotsialistik davlat sifatida namuna hisoblanadi. Polsha Respublikasi Konstitutsiyasining 171-moddasiga muvofiq, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining qonuniyligi davlat tomonidan nazorat qilinadi, nazoratni amalga oshiruvchi organlar hamda uning tartibi esa qonun bilan belgilanadi. Hozirgi kunda asosiy nazorat bo'g'ini sifatida voyevodalar (hukumat tomonidan tayinlanadigan voyevodstvolar gubernatorlari) faoliyat yuritadi bo'lib, ular joylarda markaziy davlat hokimiyatini ifodalaydi. Gminalar (jamoalar), povyatlar (tumanlar) va voyevodlik seymiklarining barcha qarorlari qabul qilingan kundan boshlab 7 kun ichida voyevodara yuborilishi shart. Voyevoda mazkur aktlarni qonuniylik nuqtayi nazaridan 30 kun muddat ichida tekshirish huquqiga ega. Agar qarorning qonunga zid ekanligi aniqlansa, voyevoda ushbu 30 kunlik muddat davomida akti mustaqil ravishda haqiqiy emas deb topish (bekor qilish) huquqidan foydalanishi mumkin. 30 kunlik muddat tugagandan so'ng esa voyevoda bevosita bekor qilish vakolatini yo'qotadi va faqat ma'muriy sudga mahalliy Kengash qarori ustidan murojaat qilish

huquqiga ega bo'лади. Bundan tashqari, Polshada Regional hisob palatalari (RIO) faoliyat ko'rsatib, ular mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining moliyaviy qarorlari ustidan nazoratni amalga oshiradi. Shuningdek, Oliy nazorat palatasi (NIK) ham mavjud bo'lib, u moliyaviy-xo'jalik sohasida qonuniylilikni tekshiruvchi oliy audit organi sifatida faoliyat yuritadi [18].

Umuman olganda, Polshadagi tizim qonuniylilikni sud orqali himoya qilishga asoslangan fransuz nazorat modeliga yaqin hisoblanadi: voyevoda qonuniylilikni ta'minlashdagi birinchi "filtr" sifatida namoyon bo'лади, shundan so'ng esa ham mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, ham fuqarolar voyevoda qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqiga ega. Polsha Ichki ishlar va ma'muriyat vazirligining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari qarorlarining voyevodalar tomonidan haqiqiy emas deb topilgan yoki sudlarda e'tiroz qilingan qismi barqaror ravishda past darajada saqlanib qolgan va hatto 2016–2017-yillarda pasayish tendensiyasini ko'rsatgan. Jumladan, 2023-yilda voyevodalar mahalliy hokimiyatlar tomonidan qabul qilingan barcha qarorlarning atigi taxminan 4,19 foizini bekor qilgan. Bu holat qarorlarning mutlaq ko'pchiligi qonun talablariga muvofiq ekanligini yoki mavjud qonunbuzarliklar sudgacha bo'lgan o'zaro hamkorlik tartibida bartaraf etilayotganini ko'rsatadi [19].

Biroq so'nggi yillarda nazoratning siyosiylashuvi bilan bog'liq xavotirlar paydo bo'ldi. Yevropa Kengashining Mahalliy va mintaqaviy hokimiyatlar kongressi Monitoring qo'mitasi 2019-yilgi ma'ruzasida Polshada davlat nazorati zarur bo'lgan chegaralardan kengroq qo'llanilayotgani hamda har doim ham himoya qilinayotgan manfaatlarga mutanosib emasligini qayd etgan.

Markaziy hokimiyat bilan ayrim muxolifat ruhidagi shahar hokimiyatlari o'rtasidagi nizolar mahalliy organlar qarorlariga voyevodalarning aralashuvi holatlarining ko'payishiga olib kelgan bo'lib, bu holat xavotirli tendensiya sifatida baholangan. Shu munosabat bilan Polsha hokimiyatlariga nazoratda mutanosiblik tamoyiliga qat'iy rioya qilish hamda uni siyosiy maqsadlarda qo'llashga yo'l qo'ymaslik tavsiya etilgan [20].

Mazkur xulosa boshqa davlatlar uchun ham muhim ahamiyatga ega: nazorat huquqiy mexanizm sifatida saqlanib qolishi, siyosiy bosim vositasiga aylanmasligi lozim.

Janubiy Koreya tajribasi Osiyoga xos markazlashgan an'analar bilan mahalliy avtonomiyaning zamonaviy tamoyillarini uyg'unlashtirgani bilan qiziqarli hisoblanadi. Koreya Respublikasida mahalliy o'zini o'zi boshqarishning faol rivojlanishi faqat 1990-yillardan boshlab (1995-yilda mahalliy organlar saylovining qayta tiklanishi bilan) yo'lga qo'yilgan bo'lib, shu sababli nazorat mexanizmlari xorijiy tajribani hisobga olgan holda shakllantirilgan. Koreya Respublikasining "Mahalliy avtonomiya to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, mahalliy yig'ilishlar (Kengashlar) o'z vakolatlari doirasida qarorlar qabul qilish huquqiga ega. Biroq, agar bunday akt milliy qonunchilikka zid bo'lsa, unga nisbatan ta'sir choralari nazarda tutilgan. Xususan, birinchi navbatda, tegishli darajadagi ijro etuvchi hokimiyat rahbari (shahar meri yoki viloyat gubernatori) mahalliy Kengash qarori ustidan sudga e'tiroz kiritish huquqidan foydalanishi mumkin. Koreya Respublikasida bunday nizolar bevosita Respublika Oliy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi [21]. Sudga murojaat qilinganda mahalliy ma'muriyat rahbari mahalliy Kengash qarori ijrosini sudning yakuniy hal qiluv qarori chiqqunga qadar to'xtatib turish to'g'risida iltimosnoma kiritish huquqiga ega. Ikkinchidan, agar mer yoki gubernator markaziy hokimiyat nuqtayi nazaridan noqonuniy deb baholanayotgan qarorga nisbatan huquqiy chora ko'rmasa, Ichki ishlar vaziri yoki yuqori turuvchi gubernator mustaqil ravishda sud muhokamasini qo'zg'atish hamda mahalliy Kengash qarori bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda Koreya Respublikasida mahalliy deputatlar va mansabdor shaxslarning malakasini oshirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda, qaror loyihalarining qonun talablariga muvofiqligini tekshirish uchun maxsus "nazorat ro'yxatlari" ishlab chiqilmoqda.

Bu esa noqonuniy qaror qabul qilinishi bosqichiga yetmasdan oldini olish (proaktiv nazorat) imkonini beradi. Bunday preventiv yondashuv zamonaviy tendensiyalarga mos keladi: qabul qilingan qarorlarni keyinchalik bekor qilishdan ko'ra, mahalliy darajada oldindan o'qitish va huquqiy maslahat berish ancha samarali hisoblanadi.

### **O'zbekiston Respublikasida mahalliy Kengash qarorlari qonuniyligini ta'minlash tizimini takomillashtirish yuzasidan takliflar.**

Birinchidan, Fransiya va Polsha tajribasi asosida "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 26-moddasiga tegishli o'zgartirish kiritib, hokimlar tomonidan mahalliy Kengash qarorini qayta ko'rib chiqish to'g'risida taqdimnoma kiritishning aniq muddatlarini belgilash lozim. Jumladan, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonun 26-moddasi 2-qismi quyidagi tahrirda bayon etilishi maqsadga muvofiq: "Hokim xalq deputatlari Kengashining qonunchilikka zid qarorini qayta ko'rib chiqish to'g'risida Kengash qarori rasmiy ravishda e'lon qilingan kundan e'tiboran 30 kun ichida tegishli taqdimnoma kiritadi, bundan xususiy mulk huquqining, shuningdek yer uchastkasiga bo'lgan huquqning yuzaga kelishi uchun asos bo'lgan qarorlar mustasno. Kengash hokimning taqdimnomasini bir oylik muddatda ko'rib chiqib, Kengash qarorini o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risida qaror qabul qiladi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi tomonidan hokimning taqdimnomasi qanoatlantirilmagan taqdirda, hokim Kengashning tegishli qarorini bekor qilish to'g'risida yuqori turuvchi Kengashga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yoki sudga murojaat qilishga haqli."

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan hududiy boshqaruvni "aholi manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida nomarkazlashtirish sharoitida hududlar o'rtasida qaror qabul qilish jarayonida turli xil yondashuvlarning oldini olish maqsadida Adliya vazirligi hamda Oliy Majlis Senatining Hududiy vakillik organlari faoliyatini o'rganish markazi birgalikda vakillik organlari uchun normativ-huquqiy tusdagi qarorlarni ishlab chiqish bo'yicha yagona Metodologiyani ishlab chiqishi lozim.

Uchinchidan, mahalliy Kengashlar faoliyatida qaror loyihasini tayyorlash jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni bosqichma-bosqich joriy etish lozim. Xalqaro tajriba o'rganilganda, hozirda Turkiyada mahalliy vakillik organlarida qaror qabul qilish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanilishini kuzatish mumkin.

To'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2025-yil 28-yanvardagi KQ-52-V-sonli "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi huzurida ekspert guruhi tashkil qilish to'g'risida"gi qarori bilan "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi huzurida ekspert guruhi to'g'risida namunaviy nizom" tasdiqlangan. Polsha tajribasi o'rganilganda ham mahalliy vakillik organlari huzurida ekspertlar guruhi faoliyat yuritishi kuzatiladi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasida ham mahalliy vakillik organlari qaror loyihalarini tayyorlash va ishlab chiqishda ekspert guruhlari, shuningdek ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda olimlarning salohiyatidan foydalanish chora-tadbirlarini kengaytirish lozim.

Beshinchidan, Janubiy Koreya tajribasi markaziy nuqtaga profilaktik yondashuvni qo'yadi, ya'ni qaror qabul qilinishigacha bo'lgan davrda har qanday huquqiy kamchilikni bartaraf etish modelini ilgari suradi. Bu yondashuv qonunchilikka zid qaror qabul qilingandan keyin qarorni bekor qilishdan ko'ra, uning oldini olish arzon va barqarorroq ekanligini asoslaydi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasida ham O'zbekiston Respublikasi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi hamda Oliy Majlis Senatining Hududiy vakillik organlari faoliyatini o'rganish markazi tomonidan tizimli ravishda deputatlar va kotibiyat xodimlari uchun malaka oshirish o'quv dasturlarini tashkil etish lozim.

Yuqorida keltirib o'tilgan ilmiy-huquqiy tahlil shuni ko'rsatadiki, mahalliy vakillik organlari, xalq deputatlari Kengashlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning qonuniyligini ta'minlash

masalasi O'zbekistonda hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hal qiluvchi institutsional shartlaridan biri hisoblanadi. Mahalliy Kengashlar faoliyati orqali davlat siyosatining hududiy darajada amalga oshirilishi, budjet mablag'larining taqsimlanishi, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi va fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bevosita qarorlar qonuniyligi bilan bog'liq ekani ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida mahalliy Kengashlar qarorlarining qonuniyligini ta'minlash oldindan, joriy va keyingi nazorat shakllarini qamrab olgan kompleks mexanizm sifatida shakllangan. Viloyat va Toshkent shahar mahalliy Kengashlarining kotibiyati, yuriskonsulti hamda adliya organlari tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy ekspertiza, prokuratura nazorati hamda ma'muriy sudlar orqali sudga shikoyat qilish instituti mazkur tizimning o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi elementlari sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa mahalliy qarorlar qonuniyligini ta'minlashda faqat bir institutga tayanish emas, balki ko'p bosqichli huquqiy kafolatlar tizimini qo'llash ustuvor ekanini ko'rsatadi.

Nazariy tahlillar va xalqaro tashkilotlar xulosalari shuni ko'rsatdiki, qonuniy, barqaror va prognoz qilinadigan mahalliy qarorlar huquqiy ishonchni shakllantiradi, investitsiya muhitini yaxshilaydi va hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Aksincha, qonuniylikka yetarli darajada rioya etilmasligi hududiy rivojlanish dasturlarining ijrosini sustlashtirishi, ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarni kuchaytirishi mumkin.

Fransiya, Polsha va Koreya Respublikasi tajribasi qiyosiy tahlil qilinganda, mahalliy qarorlar ustidan davlat nazorati faqat qonuniylik bilan cheklanishi, uning sud orqali amalga oshirilishi va mutanosiblik tamoyiliga qat'iy rioya qilinishi mahalliy avtonomiyani saqlab qolish bilan birga, qarorlar sifatini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Ayniqsa, preventiv nazorat, huquqiy ekspertiza va mahalliy deputatlar malakasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar noqonuniy qarorlarning oldini olishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy Kengashlar qarorlarining qonuniyligini ta'minlash huquqiy nazoratning tor doiradagi masalasi emas, balki hududlarni kompleks, barqaror va inklyuziv rivojlantirishga xizmat qiluvchi strategik omil sifatida qaralishi lozim. Shu bois, O'zbekiston sharoitida mahalliy qarorlar qonuniyligini ta'minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, ularni xalqaro ilg'or tajriba bilan uyg'unlashtirish hamda huquqiy ishonchni mustahkamlashga qaratilgan institutsional chora-tadbirlarni kuchaytirish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa bo'lib qolmoqda.

#### **IQTIBOSLAR/ЧОККИ/REFERENCES:**

1. "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.04.2021-yildagi O'RQ-682-son// <https://lex.uz/docs/5378966>
2. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi qarorlari loyihalarini ishlab chiqish hamda ularni huquqiy ekspertizadan o'tkazish USLUBIYOTI // <https://kengash.gov.uz/legislation/activity-docs/19>
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.// <https://lex.uz/docs/6445145#6446164>
4. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi Kodeksi, 27-moddasi. // <https://lex.uz/docs/3527353>
5. North, D. C. (1990). Institutions, institutional change and economic performance. Cambridge University Press. // <https://www.cambridge.org/core/books/abs/institutions-institutional-change-and-economic-performance/series-editors-preface/722403DF2B396060338EB6864E9B497B>
6. OECD. (2019). Making decentralisation work: A handbook for policy-makers. OECD Publishing. // <https://doi.org/10.1787/g2g9faa7-en>
7. Wollmann, Hellmut. (2012). Local Government Reforms in (Seven) European Countries: Between Convergent and Divergent, Conflicting and Complementary Developments. Local Government Studies. 38. 41-70. 10.1080/03003930.2011.638710. // [https://www.researchgate.net/publication/232862600\\_Local\\_Government](https://www.researchgate.net/publication/232862600_Local_Government)

Reforms in Seven European Countries Between Convergent and Divergent Conflicting and Complementary Developments

8. Elliott, M., & Thomas, R. (2020). Public law (4th ed.). Oxford University Press. // <https://ru.scribd.com/document/939542094/Public-Law-4th-by-Mark-Elliott-Robert-Thomas>

9. World Bank. (2017). World development report 2017: Governance and the law. World Bank. <https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2017>

10. Stoker, G. (2011). Theories of urban politics (2nd ed.). Palgrave Macmillan. 106-121 б. // [https://books.google.co.uz/books?id=yNevXt\\_aNxAC&pg=PA106&hl=ru&source=gbs\\_toc\\_r&cad=2#v=onepage&q&f=false](https://books.google.co.uz/books?id=yNevXt_aNxAC&pg=PA106&hl=ru&source=gbs_toc_r&cad=2#v=onepage&q&f=false)

11. Diachenko, Svitlana & Buha, Volodymyr. (2021). Improving administrative control over the legality of local government decisions. E3S Web of Conferences. 284. 07001. 10.1051/e3sconf/202128407001. [https://www.researchgate.net/publication/353184253\\_Improving\\_administrative\\_control\\_over\\_the\\_legality\\_of\\_local\\_government\\_decisions#:~:text=ormativ%20e%20and%20le%20gal](https://www.researchgate.net/publication/353184253_Improving_administrative_control_over_the_legality_of_local_government_decisions#:~:text=ormativ%20e%20and%20le%20gal)

12. A.Tkachuk (2025). Control and supervision of legality of local self-government decisions: Why is it important for Ukraine's path to EU accession? // <https://decentralization.ua/en/news/20073#:~:text=Why%20communities%20need%20this>

13. Е.Д. Кутыбаева, С.Д. Алламбергенов. Вопросы совершенствования организации деятельности местных кенгаей народных депутатов в Республике Узбекистан и Республике Каракалпакстан. «Экономика и социум» №2(117) 2024 // [https://www.researchgate.net/publication/385534858\\_VOPROSY\\_SOVERSENSTVOVANIA\\_ORGANIZACII\\_DEATELNOSTI\\_MESTNYH\\_KENGASEJ\\_NARODNYH\\_DEPUTATOV\\_V\\_RESPUBLIKE\\_UZBEKISTAN\\_I\\_RESPUBLIKE\\_KARAKALPAKSTAN](https://www.researchgate.net/publication/385534858_VOPROSY_SOVERSENSTVOVANIA_ORGANIZACII_DEATELNOSTI_MESTNYH_KENGASEJ_NARODNYH_DEPUTATOV_V_RESPUBLIKE_UZBEKISTAN_I_RESPUBLIKE_KARAKALPAKSTAN)

14. European Charter of Local Self-Government article 8th // <https://rm.coe.int/ceggpad20202/1680aef5bf#:~:text=According%20to%20the%20Explanatory%20report,be%20an%20exception%2C%20however%2C%20the>

15. Зарубежный опыт местного самоуправления. // <https://studfile.net/preview/16830844/page:8/#:~:text=%D0%BE%D1%80%D0%B3%D0%B0%D0%BD%D0%BE%D0%B2%20%D0%BD%D0%B0%20%D0%BC%D0%B5%D1%81%D1%82%D0%B0%D1%85,%D0%BF%D1%80%D0%B5%D0%B4%D1%81%D0%B5%D0%B4%D0%B0%D1%82%D0%B5%D0%BB%D0%B5%D0%B9%20%D0%B3%D0%B5%D0%BD%D0%B5%D1%80%D0%B0%D0%BB%D1%8C%D0%BD%D1%8B%D1%85%20%D1%81%D0%BE%D0%B2%D0%B5%D1%82%D0%BE%D0%B2%20%D0%B2%20%D0%BF%D0%BE%D0%B%D0%B8%D1%86%D0%B5%D0%B9%D1%81%D0%BA%D0%BE%D0%B9>

16. 10 ключевых выводов из отчета о контроле за законностью // <https://www.lagazettedescommunes.com/979578/controle-de-legalite-les-10-points-a-retenir-du-rapport-du-gouvernement/#:~:text=1.%20,ont%20pris%20par%20les%20collectivit%C3%A9s>

17. Rapport du Gouvernement au Parlement sur le contrôle a posteriori exercé par le représentant de l'État sur les actes des collectivités territoriales 2019-2021 // <https://www.vie-publique.fr/rapport/298194-controle-sur-les-actes-des-collectivites-territoriales-2019-2021#:~:text=,des%20services%20publics%20en%202021>

18. Local and regional democracy in Poland. Committee on the Honouring of Obligations and Commitments by member States of the European Charter of Local Self-Government (Monitoring Committee). 36th SESSION Report CG36(2019)13final 2 April 2019 // <https://rm.coe.int/local-and-regional-democracy-in-poland-monitoring-committee-rapporteur/1680939003#:~:text=councils%20to%20the%20voivode%2C%20within,s%2Fhe%20may%20declare%20it%20null>

19. Каждый воевода контролирует ситуацию по-своему. Различия между воеводствами огромны. // <https://www.portalsamorzadowy.pl/polityka-i-spolaczenstwo/kazdy-wojewoda-nadzoruje-po-swojemu-dysproporcje-pomiedzy-wojewodztwami-sa-gigantyczne,558858.html?mp=promo>

20. Local and regional democracy in Poland. Committee on the Honouring of Obligations and Commitments by member States of the European Charter of Local Self-Government (Monitoring Committee). 36th SESSION Report CG36(2019)13final 2 April 2019 // <https://rm.coe.int/local-and-regional-democracy-in-poland-monitoring-committee-rapporteur/1680939003#:~:text=councils%20to%20the%20voivode%2C%20within,s%2Fhe%20may%20declare%20it%20null>

21. Local government: Phase 4. // <https://www.kdevelopedia.org/Development-Overview/all/local-government-phase-4--201412040000333.do#:~:text=organization%20to%20contest%20the%20legality,in%20preparation%20for%20the%20local>

**САЛИЕВА Шахсанем Уснатдиновна**  
Докторант Института переподготовки и  
повышения юридических кадров  
при Министерстве юстиции  
Республики Узбекистан  
E-mail: [shahsitta@gmail.com](mailto:shahsitta@gmail.com)

## АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АГЕНТСТВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ УСЛУГ

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**  
**САЛИЕВА Ш.** Административно-правовое регулирование деятельности агентств в условиях цифровой трансформации государственных услуг // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2026) С. 36-43.

### АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена комплексному исследованию современного этапа развития административного права в государствах-участниках СНГ, характеризующегося концептуальным переходом от модели «государства-власти» к парадигме «сервисного государства». Автор проводит детальный анализ правовой природы государственных услуг как самостоятельного объекта регулирования, подчеркивая их роль в обеспечении законности и защите прав граждан. На примере Республики Узбекистан в статье выявляется существенный институциональный разрыв между нормативными требованиями обновленного Конституционного Закона «О Кабинете Министров Республики Узбекистан» и реальной практикой функционирования государственных агентств.

Особое внимание уделено классификации агентств по критериям их иерархической подчиненности и функционального профиля. Автор доказывает, что сохранение «институциональной автономии» ряда ведомств и совмещение ими контрольно-надзорных функций с сервисными создает неустранимый конфликт интересов и препятствует созданию единого правового пространства. В контексте цифровой трансформации анализируется феномен «проактивных» услуг и риски алгоритмизации административных решений. В статье критически осмысливается «цифровой барьер» в виде обязательного использования электронной цифровой подписи (ЭЦП) и обосновывается необходимость перехода к человекоцентричным методам идентификации (Face ID, Mobile ID), что рассматривается как гарантия реализации конституционных прав граждан.

В качестве системного решения автор предлагает завершить имплементацию министерской вертикали власти и ускорить принятие специального Закона Республики Узбекистан «Об оказании государственных услуг». Научная новизна исследования заключается в обосновании трансформации агентств из бюрократических структур в высокотехнологичные фронт-офисы, где мерой эффективности выступает «общее благо», а гражданин признается конечным бенефициаром государственного механизма. Выводы статьи могут быть использованы для совершенствования национального законодательства и правоприменительной практики в сфере государственного управления.

**Ключевые слова:** административное право, агентство, государственные услуги, закон, сервисное государство, институциональная реформа, исполнительная власть, министерства, правоприменение, процедура, регулирование, цифровизация, законность.

**SALIYEVA Shaxsanem Usnatdinovna**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi  
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va  
malakasini oshirish instituti doktoranti  
E-mail: [shahsitta@gmail.com](mailto:shahsitta@gmail.com)

## DAVLAT XIZMATLARI RAQAMLI TRANSFORMATSİYASI SHAROITIDA AGENTLIKLAR FAOLIYATINI MA'MURIY-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola MDH ishtirokchi-davlatlarida ma'muriy huquq rivojlanishining zamonaviy bosqichini kompleks tadqiq etishga bag'ishlangan bo'lib, unda davlatning "hokimiyat boshqaruvi" modelidan "servis davlati" paradigmasiga kontseptual o'tishi tahlil qilinadi. Muallif davlat xizmatlarining huquqiy tabiatini mustaqil tartibga solish ob'ekti sifatida batafsil ko'rib chiqib, ularning qonuniyligni ta'minlash va fuqarolar huquqlarini himoya qilishdagi o'rnini ta'kidlaydi. O'zbekiston Respublikasi misolida yangilangan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunning normativ talablari hamda davlat agentliklari faoliyatining real amaliyoti o'rtasidagi sezilarli institutsional tafovutlar ochib berilgan.

Agentliklarning iyerarxik bo'ysunuvi va funktsional profili mezonlari bo'yicha tasniflanishiga alohida e'tibor qaratilgan. Muallif ayrim idoralarning "institutsional avtonomiyasi" saqlanib qolishi hamda ularda nazorat-tekshiruv funksiyalarining servis funksiyalari bilan qo'shilib ketishi bartaraf etib bo'lmaydigan manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarishini va yagona huquqiy maydon yaratilishiga to'sqinlik qilishini isbotlaydi. Raqamli transformatsiya kontekstida "proaktiv" xizmatlar fenomeni va ma'muriy qarorlarni algoritmlashtirish xavflari tahlil qilinadi. Maqolada elektron raqamli imzodan (ERI) majburiy foydalanish shaklidagi "raqamli to'siq" tanqidiy o'rganilib, shaxsning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish kafolati sifatida insonga yo'naltirilgan identifikatsiya usullariga (Face ID, Mobile ID) o'tish zarurligi asoslab beriladi.

Tizimli yechim sifatida muallif ijroiya hokimiyatining vazirlik vertikalini to'liq joriy etishni yakunlash va "Davlat xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini qabul qilishni tezlashtirishni taklif etadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi agentliklarni byurokratik tuzilmalardan yuqori texnologik "front-ofislarga" transformatsiya qilish zaruratini asoslashdan iborat bo'lib, bunda samaradorlik mezonini "umumiy farovonlik" hisoblanadi, fuqaro esa davlat mexanizmining yakuniy benefitsiari sifatida e'tirof etiladi. Maqola xulosalaridan milliy qonunchilikni va davlat boshqaruvi sohasidagi huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

**Kalit so'zlar:** ma'muriy huquq, agentlik, davlat xizmatlari, qonun, davlat xizmati, institutsional islohot, ijro etuvchi hokimiyat, vazirliklar, huquqni qo'llash, tartib-taomil, tartibga solish, raqamlashtirish, qonuniylik.

**SHAKHSANEM Salieva Usnatdinovna**PhD student of the Training Institute for  
lawyers under the Ministry of Justice  
of the Republic of Uzbekistan  
E-mail: [shahsitta@gmail.com](mailto:shahsitta@gmail.com)

## ADMINISTRATIVE AND LEGAL REGULATION OF AGENCY ACTIVITIES IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION OF PUBLIC SERVICES

### ANNOTATION

This article is devoted to a comprehensive study of the current stage of administrative law development in the CIS member states, characterized by a conceptual transition from the "power-state" model to the "service state" paradigm. The author provides a detailed analysis of the legal nature of public services as an independent object of regulation, emphasizing their role in ensuring the rule of law and protecting citizens' rights. Using the Republic of Uzbekistan as a case study, the article reveals a significant institutional gap between the regulatory requirements of the updated Constitutional Law "On the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan" and the actual operational practice of state agencies.

Particular attention is paid to the classification of agencies based on criteria of hierarchical subordination and functional profile. The author demonstrates that the persistent "institutional autonomy" of several departments, combined with the merging of supervisory and service functions, creates an irreconcilable conflict of interest and hinders the establishment of a unified legal space. Within the context of digital transformation, the phenomenon of "proactive" services and the risks associated with the algorithmization of administrative decisions are analyzed. The article critically examines the "digital barrier" imposed by the mandatory use of electronic digital signatures (EDS) and substantiates the necessity of transitioning to human-centric identification methods (Face ID, Mobile ID) as a guarantee for exercising constitutional rights.

As a systemic solution, the author proposes finalizing the implementation of the ministerial vertical of executive power and accelerating the adoption of the special Law of the Republic of Uzbekistan "On the Provision of Public Services". The scientific novelty of the study lies in the justification for transforming agencies from bureaucratic structures into high-tech "front offices", where the measure of efficiency is the "common good" and the citizen is recognized as the ultimate beneficiary of the state mechanism. The findings of the article can be utilized to improve national legislation and law enforcement practices in the field of public administration.

**Keywords:** administrative law, agency, public services, law, state service, institutional reform, executive power, ministries, law enforcement, procedure, regulation, digitalization, legality.

Современный этап развития административного права в государствах – участниках СНГ характеризуется переосмыслением роли государства как поставщика публичных услуг и носителя сервисной функции. В этих условиях государственные услуги выступают не только формой реализации публичных полномочий, но и важнейшим инструментом обеспечения законности, защиты прав граждан и профилактики коррупции. При этом особое значение приобретает анализ **правоприменительной практики административно-правового регулирования**, в рамках которой выявляются реальные дефекты нормативной конструкции и институциональной организации системы государственных услуг.

В доктрине административного права стран СНГ в последние годы наметилась устойчивая тенденция к выделению государственных услуг в самостоятельный объект правового регулирования. Так, С. Л. Сергеевнин, И. С. Алёхина и А. К. Соловьёва справедливо подчёркивают, что государственные и муниципальные услуги перестали быть исключительно

управленческой категорией и приобрели юридическое значение как повторяемая форма административной деятельности, затрагивающая субъективные права заявителей [3]. Сданной позицией в целом следует согласиться, поскольку именно через оказание государственных услуг реализуется значительная часть индивидуальных административных решений. Вместе с тем представляется, что в ряде исследований акцент смещён преимущественно на сравнительно-правовой анализ законодательных моделей, тогда как проблематика **правоприменения** и институциональных отклонений от нормативной модели остаётся раскрытой недостаточно. В этом смысле обоснованной является позиция Х.Мелиева, который указывает, что фрагментарность правового регулирования государственных услуг и преобладание подзаконных актов приводят к расширению административного усмотрения и снижению уровня законности в практической деятельности органов исполнительной власти [3]. Данный вывод представляется особенно актуальным для государств с переходной моделью публичного управления.

В это связи мы солидарны с позицией зарубежных авторов Elkhan Richard Sadik-Zada, Andrea Gatto и Ibrahim Niftiyev предупреждают о «двустороннем мече» цифровизации: с одной стороны – прозрачность, с другой – риск злоупотребления большими данными со стороны государства для политического контроля [5].

Значительный вклад в развитие научной дискуссии внесли Э. В. Талапина и Д.Ю. Козяр (Двинских), исследующие феномен проактивных государственных услуг и алгоритмизацию административных решений [4]. Поддерживая вывод авторов о неизбежности цифровизации сервисных функций государства, следует вместе с тем отметить, что автоматизация процедур без надлежащего административно-правового оформления способна трансформировать, но не устранить коррупционные риски. Более того, в условиях недостаточной процедурной определённости алгоритмизация может затруднить обжалование решений и ослабить контроль за их законностью.

Кроме того, методологически важным ориентиром для оценки национальных моделей правового регулирования выступает Модельный закон Межпарламентской Ассамблеи государств-участников СНГ «О государственных и муниципальных услугах». [12] В отличие от фрагментарных подходов, характерных для многих национальных правовых порядков, данный акт предлагает комплексную конструкцию регулирования, включающую принципы оказания услуг, стандартизацию процедур, требования к прозрачности и механизмы оценки качества.

Ценность Модельного закона заключается в использовании его положений как **критерия для оценки правоприменительной практики, а не в прямом заимствовании**.

В Республике Узбекистан формирование системы государственных услуг происходит в условиях масштабных институциональных реформ. Существенное значение в этом контексте имеет Конституционный Закон Республики Узбекистан «О Кабинете Министров Республики Узбекистан», который закрепил обновлённую модель организации исполнительной власти и, в частности, требования к статусу агентств как органов, осуществляющих оказание государственных услуг и правоприменение в организационном подчинении соответствующих министерств [1]. Однако анализ текущего состояния положений 17 крупнейших агентств страны выявляет системный разрыв между законодательной дескрипцией и практической реализацией их статуса.

Согласно ст. 4 конституционного Закона, агентство определяется как орган, осуществляющий функции по оказанию государственных услуг и управлению государственными активами, который в обязательном порядке должен быть интегрирован в структуру министерства. В нарушение этого принципа значительная часть агентств

продолжает функционировать в режиме «институциональной автономии», что препятствует созданию единого правового поля оказания госуслуг.

Для наглядной иллюстрации выявленных проблем проведена классификация агентств по критериям их соответствия новой конституционной вертикали власти (см. Таблицу 1).

**Таблица 1. Сравнительный анализ соответствия статуса агентств требованиям конституционного Закона<sup>1</sup>**

Группа агентств по типу подчиненности	Представители	Функциональный профиль	Соответствие конституционному Закону	Научно-правовой риск
I. Группа министерской вертикали	Кадастровое агентство (при МЭФ), Агентство инновационного развития.	Преимущественно оказание специализированных госуслуг населению и бизнесу.	Полное соответствие	Риски минимальны; модель является эталонной для системы «Сервисного государства».
II. Группа прямого подчинения (Правительство)	Агентство культурного наследия, Агентство по делам молодежи, Агентство кинематографии.	Смешанный: реализация госполитики, надзор и производство услуг (молодежная политика, кино, реестры).	Не соответствует	Статусная избыточность; дублирование функций министерств; сложность административного обжалования.
III. Группа «особого статуса» (Президент)	Агентство по противодействию коррупции, Агентство социальной защиты, НАПП.	Координация стратегий, наднациональный мониторинг, цифровой контроль (E-Anticor).	Коллизионный статус	Противоречие ст. 4 конституционного Закона требует выделения в категорию «функционально автономных органов».
IV. Группа иерархических аномалий	Агентство карантина и защиты растений.	Надзорные функции совмещены с сервисными (фитосанитарные услуги).	Частично соответствует	Двойное подчинение (Кабинету Министров и министерству) размывает административную ответственность.

Так, проведенный выше анализ полномочий агентств в аспекте совершенствования административно-правового регулирования позволяет выделить три критические проблемы:

*во-первых*, деформация иерархической подчиненности, а именно передача Агентства по кадастру в структуру Министерства экономики и финансов продемонстрировала эффективность унификации. Однако сохранение «автономных» агентств при Кабинете Министров создает своего рода «цифровые острова» – изолированные административные регламенты, которые не интегрируются в общую систему электронного правительства (E-gov).

*во-вторых*, произошло функциональное смешение, поскольку в большинстве изученных Положений (в частности, Агентства технического регулирования и Агентства культурного наследия) **функции контроля не отделены от функций оказания услуг**. С точки зрения административного права, это создает неустранимый конфликт интересов, так как настоящий орган самостоятельно устанавливает стандарты услуги и сам же проверяет их соблюдение.

*в-третьих*, на практике имеется терминологическая неопределенность, которая прослеживается при изучении норм в Положениях термина «орган государственного управления» вместо «республиканский орган исполнительной власти» консервирует бюрократические методы работы, препятствуя трансформации агентств в сервисные фронт-офисы.

Думается, что для совершенствования административно-правового регулирования государственных услуг необходимо завершить имплементацию норм конституционного Закона, обеспечив переход всех сервисных агентств в ведение профильных министерств.

<sup>1</sup> Настоящая таблица подготовлена автором на основании анализа Положений 17 агентств в стране, информация взята из Национальной базы данных законодательства lex.uz

Это позволит трансформировать их из «мини-министерств» в технологичные платформы, работающие по единым стандартам административного обслуживания.

Анализ правоприменительной практики показывает, что положения конституционного закона реализованы не во всех случаях. Сравнение действующих положений отдельных агентств с требованиями статьи 4 указанного закона выявляет расхождения между нормативной моделью и фактической практикой, выражающиеся в двойственной подчинённости органов, сохранении устаревшей терминологии и расширительном толковании функциональных полномочий. Эти отклонения носят **системный характер и непосредственно отражаются на законности оказания государственных услуг.**

Более того, переосмысление роли государства в условиях цифровизации опирается на фундаментальный переход от «государства-власти» к модели «государства-поставщика услуг». Как отмечает И. А. Хамедов, эта парадигма требует трансформации управленческой культуры: от бюрократической иерархии к философии «заботы о клиенте», где мерой эффективности выступает «общее благо». В этой системе координат гражданин признается не просто объектом управления, а «конечным бенефициаром» государственного механизма [6]. Таким образом, «сервисное государство» – это не только технологическое обновление, но и новая «справедливая мера» реализации публичной воли в интересах общества.

Практическая реализация сервисной модели в Узбекистане сталкивается с институциональной раздробленностью. Исследование Е. Кутыбаевой и Р. Саекеевой выявляет критические разрывы в правовом статусе агентств, особенно на уровне Республики Каракалпакстан. Авторы указывают на отсутствие единого механизма взаимодействия между центральными и региональными звеньями управления, что порождает **«институциональную неопределённость»**. Без законодательного закрепления четкого статуса территориальных подразделений и внедрения единых административных регламентов, цифровизация в регионах рискует остаться фрагментарным процессом, не обеспечивающим равный доступ к услугам [7].

Особенно отчётливо данные проблемы проявляются на региональном уровне, что подтверждается практикой Республики Каракалпакстан. В научных работах С.Б. Аманиязовой [8] и Г. К. Шагиловой [9] обоснованно отмечается, что цифровизация деятельности исполнительных органов в регионе способствует повышению доступности государственных услуг. Вместе с тем представляется, что региональная практика выявляет и иные аспекты проблемы – прежде всего институциональную неопределённость территориальных подразделений агентств и недостаточную унификацию административных процедур в том числе.

С точки зрения научной полемики данный вывод позволяет уточнить оптимистичные оценки цифровизации государственных услуг. Как показывает практика Каракалпакстана, внедрение электронных сервисов не устраняет правоприменительные риски при отсутствии единых процедурных стандартов и чёткой подотчётности органов. Latupeirissa et al. (2024) постулируют, что успех цифровизации зависит не только от технологий, но и от институциональных изменений – перехода от жесткой бюрократической иерархии к модели, ориентированной на гражданина (citizen-centricity) [11].

На фоне институциональных проблем особую остроту приобретает вопрос доступности цифровых инструментов. З. Рахмонов обоснованно квалифицирует зависимость граждан от электронной цифровой подписи (ЭЦП) как существенный административный барьер. С точки зрения административного права, сложность и техническая нестабильность ЭЦП ограничивают конституционное право на доступ к госуслугам. Предлагаемый Рахмоновым

переход к идентификации через **Face ID, Mobile ID и ПИНФЛ** является не просто техническим решением, а реализацией доктринального принципа «человекоцентричности», устраняющим «цифровой разрыв» между государством и личностью. [10]. С точки зрения административного права, тезис З. Рахмонова следует рассматривать не просто как техническое предложение, а как требование обеспечения конституционных прав граждан. Использование ЭЦП в ее нынешнем виде зачастую консервирует бюрократические подходы, а именно необходимость физического получения ключа, привязка к конкретному программному обеспечению и риски утраты носителя данных вступают в противоречие с принципом **«человекоцентричности» (citizen-centricity)**, признаваемым в международных исследованиях. Безусловно, цифровая трансформация системы оказания государственных услуг – это не просто перенос бумажных процессов в электронный вид, а пересмотр самих основ взаимодействия государства и общества, где приоритетом становится защита прав человека, в том числе его персональных данных.

Переход к альтернативным методам идентификации Face ID, Mobile ID и использованию ПИНФЛ – обосновывается необходимостью создания безбарьерной среды. Это позволяет решить сразу несколько правовых задач:

*Во-первых*, обеспечивается реальное равенство граждан в доступе к государственным услугам, независимо от их уровня владения сложными цифровыми инструментами.

*Во-вторых*, биометрическая идентификация минимизирует риски фальсификации административных процедур, усиливая законность и защиту персональных данных.

*В-третьих*, именно упрощенная идентификация является фундаментом для внедрения «проактивных» услуг, когда государство инициирует помощь гражданину без его прямого обращения, основываясь на данных жизненных ситуаций.

Следовательно, мы солидарны с выводом о том, что цифровая трансформация государственного управления в Узбекистане должна опираться на незыблемость административно-правового каркаса. Предложения З. Рахмонова по внедрению современных методов аутентификации должны найти свое прямое отражение в проекте Закона Республики Узбекистан «Об оказании государственных услуг». Это позволит трансформировать деятельность агентств из механического правоприменения в высокотехнологичный сервис, ориентированный на эффективную защиту интересов личности.

Таким образом, анализ доктринальных подходов учёных СНГ, положений Модельного закона МПА СНГ и правоприменительной практики Республики Узбекистан позволяет сделать вывод о том, что ключевые проблемы административно-правового регулирования государственных услуг носят институциональный и процедурный характер. Их преодоление требует не только совершенствования подзаконного регулирования, но и формирования системного законодательного подхода. В этой связи представляется обоснованным принятие специального Закона Республики Узбекистан «Об оказании государственных услуг», который обеспечил бы согласованность правоприменительной практики с конституционной моделью исполнительной власти и способствовал бы укреплению законности в сфере эффективности государственного управления.

Кроме того, анализ деятельности Министерства юстиции в партнерстве с ЕС и ПРООН за 2025 год позволяет констатировать переход к качественной институционализации системы государственных услуг. Ключевыми маркерами этой трансформации стало разработка профильного Закона и приоритезация проактивных и композитных моделей оказания услуг, что минимизирует участие гражданина в административных процессах, а инвестиции в человеческий капитал через обучение специалистов методологиям BPR (реинжиниринг

бизнес-процессов), Big Data и ИИ, что закладывает фундамент для перехода к государственному управлению на основе данных (Data-driven governance) [13].

Исследование подтверждает, что переход к модели «сервисного государства» в Узбекистане и странах СНГ требует не только технологического обновления, но и глубокой ревизии административно-правовых институтов.

Выявлено несоответствие статуса ряда агентств нормам Конституционного Закона. Сохранение их автономности и совмещение контрольных функций с сервисными создает почву для конфликта интересов и нарушает иерархическую стройность исполнительной власти.

Автоматизация и алгоритмизация госуслуг (*проактивные государственные услуги, Big Data*) без надлежащего правового оформления могут ограничивать права граждан на обжалование. Переход к упрощенной идентификации (Face ID, Mobile ID) обоснован необходимостью обеспечения реального, а не формального равенства в доступе к государственным услугам.

Необходимо ускорить принятие специального Закона Республики Узбекистан «Об оказании государственных услуг». Это позволит устранить терминологическую неопределенность, завершить трансформацию агентств в высокотехнологичные «фронт-офисы» и окончательно закрепить приоритет интересов гражданина как конечного бенефициара государственной деятельности.

#### CHOCKI/IQTIBOSLAR/REFERENCES:

1. Конституционный Закон Республики Узбекистан от 25.10.2024 г. № ЗРУ-982 «О Кабинете Министров Республики Узбекистан» URL: <https://lex.uz/ru/docs/7172670>.
2. Meliyev X. Davlat xizmatlari sohasida raqamli texnologiyalarni qo'llashning ayrim jihatlari // Odillik mezoni. – 2025. – № 6. С.12-13.
3. Сергеев С. Л., Алёхина И. С., Соловьёва А. К. Формирование правовых основ государственных и муниципальных услуг в государствах-участниках СНГ // URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-pravovyh-osnov-gosudarstvennyh-i-munitsipalnyh-uslug-v-gosudarstvah-uchastnikah-sng>.
4. Талапина Эльвира Владимировна, Козьяр (Двинских) Дарья Юрьевна Проактивные государственные услуги: на пути к алгоритмизации // Вопросы государственного и муниципального управления. 2023. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/proaktivnye-gosudarstvennye-uslugi-na-puti-k-algoritmizatsii>.
5. Sadik-Zada, E. R., Gatto, A., & Niftiyev, I. (2024). E-government and petty corruption in public sector service delivery. *Technology Analysis & Strategic Management*, 36(12), 3987–4003. <https://doi.org/10.1080/09537325.2022.2067037>.
6. Хамедов И.А. Некоторые вопросы дальнейшей демократизации и модернизации государственной власти и управления и административно-правового обеспечения этих процессов в Республике Узбекистан // Жамият ва бошқарув 2013 №1. С. 14-25.
7. Кутыбаева Е., Саекеева Р. Правовой статус агентств в Республике Узбекистан и Республике Каракалпакстан // Демократизация и права человека – 3/2023. <https://doi.org/10.34920/p1696-2206-6326-y>.
8. Amaniyazova S. B. Qoraqalpog'iston Respublikasi ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatida raqamlashtirishning huquqiy asoslari: avtoref. diss. ... PhD. – Nukus, 2022.
9. Shagilova G. K. Qoraqalpog'iston Respublikasida elektron hukumatni rivojlantirishning huquqiy masalalari: avtoref. diss. ... PhD. – Nukus, 2024.
10. Raxmonov Z.Z. Davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasini takomillashtirish: o'quv-uslubiy qo'llanma / Z. Z. Raxmonov. – Toshkent : Dimal, 2025. – 46 b.
11. Latupeirissa, J. J. P., Dewi, N. L. Y., Prayana, I. K. R., Srikandi, M. B., Ramadiansyah, S. A., & Pramana, I. B. G. A. Y. (2024). Transforming Public Service Delivery: A Comprehensive Review of Digitization Initiatives. *Sustainability*, 16(7), 2818. <https://doi.org/10.3390/su16072818>.
12. Межпарламентская Ассамблея государств – участников СНГ. Модельный закон «О государственных и муниципальных услугах». – 2022. URL: [https://iacis.ru/baza\\_dokumentov/modelnie\\_zakonodatelnie\\_akti\\_i\\_rekomendacii\\_mpa\\_sng/modelnie\\_kodeksi\\_i\\_zakoni](https://iacis.ru/baza_dokumentov/modelnie_zakonodatelnie_akti_i_rekomendacii_mpa_sng/modelnie_kodeksi_i_zakoni).
13. Yil sarhisobi va kalgusi rejalar // <https://t.me/eu4uz/10391>.

**OQYULOV Omonbay**

Toshkent davlat yuridik universiteti professori,  
O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Davlat va huquq  
instituti bosh ilmiy xodimi, yuridik fanlari doktori, professor  
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist  
E-mail: [o.okyulov@gmail.com](mailto:o.okyulov@gmail.com)

## ERK MUXTORIYATINING YANGICHA KENGAYTIRILGAN TALQINI

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): OQYULOV O.** Erk muxtoriyatining yangicha kengaytirilgan talqini // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2026) B. 44-50.

### ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada erk muxtoriyati tamoyilining genezisi, falsafiy ta'limot sifatidagi mohiyati ochib beriladi. Mazkur tamoyilni amaldagi FKda qanday mujassamlanganligi va uning mazmuni tanqidiy tahlil etiladi. O'zini o'zi huquqiy tartibga solish mexanizmining mohiyati, qo'llash shartlari erk muxtoriyati shartlari bilan bog'liq ravishda tadqiq etiladi. O'z huquqlarini cheklashni qo'llash masalalari tarixiyildizlari va zamonaviy konstruksiyalari firibgarlar tomonidan o'z galar nomidan onlayn kredit olish bilan bog'liq muammolar bor ekanligi ta'kidlanadi. Fuqarolik munosabatlarida anonim ishtirok etish zaruriyati ochib beriladi. Yakuniy ilmiy xulosada erk muxtoriyati Fuqarolik Kodeksida yuqorida tahlil etilgan tamoyillar tizimi sifatida talqin etilishi maqsadga muvofiqligi asoslantiriladi. Ayni paytda huquqiy plyuralizm asosida mamlakatimiz huquqiy maydonida milliy qonunchilik segmentidan tashqari Anglo-sakson huquqi, Islom moliyasi konstruksiyalari ham amal qilishiga yo'l qo'yilganligi ham erk muxtoriyatini mazmunan boyitishga xizmat qilishi haqidagi mulohaza ilgari suriladi.

Muallif fikricha erk muxtoriyatini mutloqlashtirish, uni inson erkinligining eng yuqori oliy ko'rinishi sifatida baholash to'g'ri bo'lmagan bo'lur edi. Erkinlik har doim anglab yetilgan zaruriyat hisoblanadi, zaruriyat esa anarxiya, o'zboshimchalik bilan chiqisha olmaydi. Shu sababli ham, fuqarolik qonun hujjatlarida erk muxtoriyatini uning asosiy o'zak tamoyillaridan biri sifatida e'tirof etgan holda, uning muayyan chegaralarini ham yodda tutmoq lozim.

**Kalit so'zlar:** erk muxtoriyati, o'zini o'zi tartibga solish, o'z huquqlarini o'zi tomonidan cheklanish, anonim ishtirokchilik, huquqiy plyuralizm, anglo-sakson huquq tizimi, islom moliyasi konstruksiyalari, fuqarolik huquqi prinsiplari, lokal korporativ huquq ijodkorligi.

**ОКЮЛОВ Омонбай**

профессор Ташкентского государственного  
юридического университета, главный  
научный сотрудник Института государства и  
права Академии наук Узбекистана,  
доктор юридических наук, профессор,  
заслуженный юрист Республики Узбекистан

## НОВЫЕ РАСШИРИТЕЛЬНЫЕ ТОЛКОВАНИЕ АВТОНОМИЯ ВОЛИ

### АННОТАЦИЯ

В данной научной статье раскрываются генезис принципа автономии воли и его сущность как философского учения. Критически анализируется то, каким образом данный принцип воплощён в действующем Гражданском кодексе, а также раскрывается его содержание. Сущность механизма саморегулирования и условия его применения исследуются во взаимосвязи с условиями реализации автономии воли. Отмечается, что вопросы применения самоограничения в осуществлении

прав имеют как исторические корни, так и современные правовые конструкции, то есть связаны с проблемами получения онлайн-кредитов мошенниками от имени других лиц. Исследуется необходимость анонимного участия субъектов в гражданском обороте. В итоговом научном выводе аргументируется целесообразность толкования автономии воли в Гражданском кодексе как системы принципов перечисленных в данной исследовании. Одновременно выдвигается мысль о том, что в условиях правового плюрализма допускается функционирование в правовом пространстве нашей страны наряду с национальным законодательным сегментом также конструкций англо-саксонского права и исламского финансирования, что в реальности способствует структурному обогащению толкования принципа автономии воли.

Конечно, не следует абсолютизировать значимость автономии воли как высшее правление свободы человека. Свобода всегда ассоциируется с осознанной необходимостью, последние никоим образом не может гармонизироваться самоуправством и анархии. Именно поэтому, признавая автономию воли как основополагающих принципов гражданского права не следует забывать пределы его действия.

**Ключевые слова:** автономия воли, механизм саморегулирование, самоограничение прав, анонимное участие, правовой плюрализм, англосаксонская правовая система, конструкции исламского финансирования, принципы гражданского права, локальное корпоративное правотворчество.

**OKYULOV Omonbay**

Professor of Tashkent State University of Law,  
Chief Researcher at the Institute of State and Law of the  
Academy of Sciences of Uzbekistan,  
Doctor of Legal Sciences, Professor,  
Honored Lawyer of the Republic of Uzbekistan

## NEW EXPANSIVE INTERPRETATIONS OF THE PRINCIPLE OF AUTONOMY OF WILL

### ANNOTATION

This scientific article examines the genesis of the principle of autonomy of will and reveals its essence as a philosophical doctrine. It provides a critical analysis of how this principle is embodied in the current Civil Code and discloses its substantive content. The essence of the self-regulation mechanism and the conditions for its application are studied in close connection with the conditions for the exercise of autonomy of will. It is noted that issues related to the application of self-restraint in the exercise of rights have both historical roots and modern legal constructions; in particular, they are associated with problems arising from fraudsters obtaining online loans in the name of other persons. The necessity of anonymous participation of subjects in civil turnover is also examined. In the final scientific conclusion, the expediency of interpreting autonomy of will in the Civil Code as a system of principles identified in this study is substantiated. At the same time, the article advances the idea that, under conditions of legal pluralism, alongside the national legislative segment, the functioning of constructions of Anglo-Saxon law and Islamic finance is permitted within the legal space of our country, which in practice contributes to the structural enrichment of the interpretation of the principle of autonomy of will.

Certainly, the significance of the autonomy of will should not be absolutized as the highest manifestation of human freedom. Freedom is always associated with conscious necessity, which in no way can be harmonized with arbitrariness or anarchy. Therefore, while recognizing the autonomy of will as one of the fundamental principles of civil law, one should not forget the limits of its application.

**Keywords:** autonomy of will, self-regulation mechanism, self-restraint of rights, anonymous participation, legal pluralism, Anglo-Saxon legal system, Islamic finance constructions, principles of civil law, local corporate lawmaking.

Sivilistikaning fundamental tamoyillaridan biri bo'lib, erk muxtoriyati hisoblanadi. Erk muxtoriyati genezisiga nazar tashlasak, u qonunlarda mujassamlanishidan oldin falsafiy va axloqiy kategoriya va qadriyat sifatida vujudga kelgan. Ilk marotaba ilk muxtoriyati nemis faylasufi I.Kant tomonidan "Axloq metafizikasi asosiy qoidalari" [1] asarida ilmiy muomalaga kiritilgan. Unga ko'ra, erk muxtoriyati erk irodani shunday xususiyatiki, bunga ko'ra, u o'zi uchun o'ziga qonun (erkka ta'sir qiluvchi predmetlar xususiyatlaridan qat'iy nazar) hisoblanadi. Kantning erk muxtoriyati bizning tanlovimiz, bizning idrokimiz bo'yicha umumiy qonun sifatida e'tirof etilishi lozim. Boshqacha aytganda, erk muxtoriyati o'z xatti harakatlarini o'zi belgilashga haqli, o'zi uchun o'zi qonun ijodkori hisoblanadi. Ba'zi faylasuflar Kantni erk muxtoriyati konsepsiyasi talablari bilan siyosiy falsafani negiz tushunchalaridan biri bo'lgan hokimiyat bilan ziddiyatni qarama-qarshilikni mavjud deb hisoblaydilar [2]. Mohiyatan olganda, hokimiyat boshqalar erki irodasiga tazyiq qilish, tasarruf qilish huquqi hisoblanadi (the to comment). Agarda biz hokimiyatni legitim ekanligini tan oladigan bo'lsak, u holda o'zimizning muxtor holatimizdan voz kechishimiz lozim. Bizning erk irodamizni mustaqil, ozod, erkin emas, balki muayyan tashqi omillar ya'ni hokimiyat subyektlari erki irodasiga qaram qilib qo'yadi. Agar biz hokimiyatga bo'ysunsak, bu holda bizni erkimiz o'zini muxtoriyatini yo'qotadi va qaramlik holatiga tushadi. Erk muxtoriyati bilan hokimiyat o'rtasidagi ziddiyatni bu qadar mutlaqlashtirish anarxizmni o'ziga xos iddaosi deb aytish mumkin [3]. Hozirgi zamonda muxtoriyat o'zining mohiyatiga ko'ra, avtonomiya hisoblanadi. Avtonomiya bu muayyan nisbiy mustaqillik, nisbiy erkinlik hisoblanadi va hech qachon mutlaq erkinlik ma'nosini anglatmaydi. Erk muxtoriyati o'zboshimchalik, ya'ni jamiyatdagi huquqiy va axloqiy qadriyatlarni inkor etib, mensimagan holda qarorlar qabul qilishni anglatmaydi. Oqilona erk muxtoriyati har doim o'z g'alar manfaatlarini hurmat qilish, yaxshilikni ko'zlab insof bilan harakat qilish, boshqalarga zarar yetkazmaslik, zulm qilmaslik va nihoyat adolatga rioya qilish qadriyatlariga tayanadi. Ba'zi mualliflar erk muxtoriyatida uch unsur mavjud bo'lishi lozim deb hisoblaydilar: subyektivlik, mustaqillik va oqilonalik. Subyektivlikda subyektning o'z maqsad va istaklarini anglab yetishi va ularga muvofiq harakat qilish qobiliyatini anglatadi. Mustaqillik bu o'rinda tashqi faktorlar tazyiqsiz qarorlar qabul qilish holatini anglatadi. Oqilonalik esa qabul qilinadigan qarorlarni boshqalar manfaati bilan murosasiz ziddiyatga borishga yo'l qo'ymaslik holatidan dalolat beradi [4].

Kantning erk muxtoriyati to'g'risidagi ta'limotini buzib talqin etish anarxizm uchun o'ziga xos g'oyaviy dastur bo'lgan deb aytish mumkin [5]. Hech qanday tartib-qoidani tan olmaslik va o'zboshimchalik bilan o'zi xohlagan narsani qilish anarxizmni negizida yotadi. Albatta erk muxtoriyati ta'limoti bo'yicha subyektning xohish irodasi, mustaqilligi mutlaqo chegarasiz emas [6]. Ushbu falsafiy ta'limotlarni tadqiq etish izlanishlar doirasiga kirmasligini nazarda tutib, asosiy diqqat-e'tiborni erk muxtoriyatini sivilistik talqiniga qaratish o'rinli bo'lgan bo'lardi. Erk muxtoriyati tamoyiliga ko'ra, fuqarolik huquqiy munosabatlar taraflari, ayniqsa, xalqaro xususiy huquqda qonunning imperativ normalariga, ijtimoiy tartibotga va axloqqa zid kelmagan holda bitim shartlarini mustaqil belgilash, qo'llanadigan huquqni tanlash va nizoni hal etishga bo'lgan fundamental huquq hisoblanadi. Boshqa bir definitsiyaga asosan fuqarolik huquqida erk muxtoriyati tamoyili taraflar o'z manfaatlaridan kelib chiqib, biroq qonun belgilagan doirada (imperativ normalar, ommaviy tartib doirasida) o'zlarining huquqiy munosabatlari mazmuni, shartlari va shaklini mustaqil belgilash, kontragentni va qo'llanadigan huquqni tanlashni mustaqil amalga oshirishga bo'lgan erkinligi hisoblanadi. Ko'rib turibmizki, erk muxtoriyatining har ikkala talqinida ham muayyan shartlar va chegaralar mavjud. Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar legal yondashuv bilan mosmi? Umuman legal yondashuv mavjudmi degan savol tug'iladi? FKning 1-moddasi 2-qismida (fuqarolar ya'ni jismoniy shaxslar) va yuridik shaxslar o'z fuqarolik huquqlariga o'z erklariga muvofiq ega bo'ladilar va bu huquqlarni o'z manfaatlarini ko'zlab amalga oshiradilar. Ular shartnoma asosida o'z huquq va

burchlarini belgilashda va qonunchilikka zid bo'lmagan har qanday shartnoma shartlarini aniqlashda erkindirlar. Erk muxtoriyatini ushbu talqini yuqoridagi ikki ilmiy talqin bilan mazmunan deyarli mos keladi. Bu o'rinda, legal ta'rifda erk muxtoriyatining chegarasi qonunchilik bilan bog'lab qo'yiladi. Biroq qonunchilikni chuqur tahlil etiladigan bo'lsa, FKning 116-moddasi qonun hujjatlariga nomuvofiqlik bilan birga huquq-tartibot asoslariga atayin zidlik va axloq asoslariga atayin zidlik ham erk muxtoriyati chegarasi sifatida belgilab qo'yiladi. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligi to'g'risida"gi qonunda erk muxtoriyati qonunda nimaiki taqiqlanmagan bo'lsa ruxsat beriladi tamoyili orqali namoyon bo'ladi. Erk muxtoriyati tamoyili FKning boshqa tamoyillaridan farqli ravishda, juda ko'p holatlarda belgilab qo'yiladigan umumiy qoida sifatida o'z ifodasini topgan deb aytish mumkin. Gap bu o'rinda fuqarolik qonunlarining dispozitiv normalari ustida bormoqda. Odatda uning umumiy konstruksiyasi qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha hol belgilanmagan bo'lsa, degan qoidalarga asoslanadi. Bunday holatda subyekt yoki taraflar o'zlari uchun maqbul xatti-harakat qoidalarini belgilab olishga haqlidirlar.

Fikrimizcha, fuqarolik huquqi doktrinasini muayyan doirada kengaytirish erk muxtoriyati talqiniga ham taalluqli bo'lishi lozim. FK loyhasining dastlabki variantlarida bu o'zini-o'zi tartibga solish tamoyili mazmunida o'z ifodasini topdi. O'zini o'zi tartibga solish bugungi kunda milliy huquq tizimida yangilik emas. U eng avvalo lokal normativ hujjatlarda to'laqonli ravishda o'z ifodasini topgan. Korporativ munosabatlar keng rivojlangan hozirgi zamon sharoitida lokal normativ hujjatlar qabul qilish amaliyoti g'oyat keng darajada yo'lga qo'yilganligini qayd etish lozim. Nafaqat tijorat tashkilotlari, balki nodavlat notijorat tashkilotlari o'zlari ham o'z ichki munosabatlarini o'zlari tartibga soladilar va bu o'rinda qonun hujjatlarining ko'rsatmalari mavjud bo'lmaydi. Biroq lokal normativ hujjatlar bo'yicha o'zini o'zi tartibga solish vakolatini mutlaqligi belgilab qo'yilmagan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi PF-6019-sonli Farmoni [7] va 2020-yil 19-maydagi PF-5997-sonli Farmonlarida [8] o'z-o'zini tartibga solish qoidalarini qo'llash imkoniyati belgilab qo'yildi va agar qonun bilan muayyan huquqiy munosabat o'zini-o'zi tartibga solish huquqiy maydoni sifatida belgilab qo'yilgan bo'lsa, davlat hokimiyat va boshqaruv organlariga ushbu sohani tartibga soluvchi normativ hujjatlar qabul qilish taqiqlab qo'yildi. Mabodo biror davlat organi bunday normativ hujjat qabul qilganday bo'lsa, bunday hujjat o'z- o'zidan haqiqiy hisoblanmaydi. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-394-sonli 4-sentabr 2015-yildagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni [9] 26-moddasiga ko'ra sport turlari reyestriga kiritilgan sport turlarining qoidalari xalqaro sport tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan qoidalarga muvofiq qo'llaniladi. Bundan harbiy, amaliy, O'zbekiston milliy sport turlari va xalq o'yinlari mustasno. Bundan ko'rinib turibdiki, davlat xalqaro sport reyestriga kirgan sport turlari bo'yicha qoidalarini belgilash vakolatidan voz kechmoqda va bu vakolatni xalqaro sport tashkilotlariga yuklamoqda. Bunga ko'ra FIFA futbol o'yini qoidalarini, FIDE shaxmat o'yini qoidalarini belgilaydilar va bu qoidalarga O'zbekistonda rioya qilinishi shart. Bu ham o'zini o'zi tartibga solishni yaqqol dalili hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, FKga o'z-o'zini tartibga solish bo'yicha quyidagi mazmunda norma kiritilishi mavjud reallikka muvofiq kelgan bo'lar edi. "Agar qonunda muayyan ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilarining o'zlari tomonidan tartibga solish belgilangan bo'lsa, ushbu munosabatlarni qonun osti hujjatlari bilan tartibga solishga yo'l qo'yilmaydi". Bunday normaning kiritilishi erk muxtoriyatini yanada yuqori bosqichga ko'taradi, uni doirasini kengaytiradi, unga huquq ijodkorligi vakolatlarini beradi. Erk muxtoriyatini xalqaro xususiy huquq doirasida ham o'z talqini mavjud. Chet el elementi bilan murakkablashgan xalqaro xususiy huquqiy munosabatlarda ko'p hollarda qaysi mamlakatning qonunini qo'llash kerak degan muammo paydo bo'ladi va bu muammo albatta moddiy normalar yoki kollizion bog'lovchilar orqali hal etiladi [10]. Shuni ta'kidlash o'rinliki, bugungi kunda fuqarolik huquqiy munosabatlarni

tartibga soluvchi resurs sifatida anglo-sakson huquq tizimi, qit'a huquq tizimi va islom moliyasi konstruksiyalari bozor munosabatlarini tartibga solishda muvaffaqiyat bilan qo'llanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrda PF-232-sonli Farmonida [11] Yevropa iqtisodiy huquq markazi, jahon savdo tashkiloti huquq markazi, ingliz huquq markazi, Xitoy huquq markazi tashkil etish belgilab qo'yilgan. Ushbu markazlar yuridik ta'lim sohasida o'zini keng ko'lamli faoliyatini amalga oshiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, yuridik kadrlarni huquqiy plyuralizm asosida tayyorlash huquqni qo'llash amaliyotida ham huquqiy plyuralizmni qo'llashni taqozo etadi. Ushbu holat ham erk muxtoriyati mazmunini yangi elementlar bilan boyitilayotganidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda islom moliyasi konstruksiyalarini qo'llashga nisbatan talab va qiziqish avvaldan mavjud. Tadbirkorlarning Prezident bilan har yillik uchrashuvlarida albatta shu masala kun tartibiga qo'yiladi. Islom moliyasi konstruksiyalari tovar va xizmatlar, ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilinishiga bog'langan real bozor ichida amal qiladigan moliyadir. Ya'ni u real sektordan ajrab alohida yashamaydi. Shu bois islomiy moliya muassasalari mablag'ni ham olishda, ham berishda faqat real bozor bitimlari orqali ishlaydi. Masalan, savdo, ijara, sherikchilik kabi. Maqsad pulni quruq aylanishi emas, balki tovar va xizmat aylanmasi orqali ishlatish. Islomiy moliya adolatga asoslanadi. Adolat degani bozorda mavjud darajadan ortiq foyda marja talab qilib bo'lmaydi. Agar foyda bozor chegarasidan oshib ketsa, bu islomiy moliyada joiz emas [12] Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanida IT-parklar joylashgan hududda ingliz huquqi amal qiladigan maxsus hudud belgilab qo'yildi. Binobarin, mamlakatimizda huquqiy maydonda erk muxtoriyati milliy huquq tizimidagi erk muxtoriyatida turli huquq tizimlari doirasidagi erk muxtoriyati darajasiga o'sib yetdi. Bu esa o'z-o'zidan erk muxtoriyatini keng ma'noda talqin etish zaruriyatini taqozo etadi.

Erk muxtoriyati nafaqat subyektiv huquqlarni amalga oshirishda, balki subyektiv huquqlardan foydalanish bo'yicha huquq sohibini o'ziga o'zi taqiq qo'yishida, cheklashida ham namoyon bo'ladi. Subyektiv huquq egasini o'z huquqlarini o'zi cheklashi shartnoma munosabatlarida keng qo'llangan, masalan, badiiy gimnastika, sport gimnastikasi, figurali uchish, va boshqa shu kabi sport turlarida sportchi o'zini muayyan subyektiv shaxsiy huquqlarini amalga oshirishda tiyilib turish majburiyatini o'z zimmasiga olgan (masalan, turmushga chiqmaslik, homilador bo'lmaslik va hokazo). Bugungi kunda o'z huquqlarini o'zi chegaralashi o'z huquqlarini o'zi himoya qilish vositasi usuliga transformatsiya bo'ldi. Ayniqsa, firibgarlar internet tarmog'ida odamlarni aldab, ularning ishonchiga kirib nafaqat plastik kartadagi pullarni egallab olishi, balki o'sha plastik kartalar orqali o'zlariga onlayn kredit olib odamlarni chuv tushirayotgani holatlari avj olishi munosabati bilan o'zini onlayn kredit olish imkoniyatlarini cheklash taomillari joriy etildi. Bugungi kunda jismoniy shaxslarga ularning xabardorligisiz, kredit rasmiylashtirishni oldini olish uchun kreditga taqiq xizmatidan foydalanganlar soni O'zbekistonda 440 ming kishiga yetdi. Bu haqda kredit axborot-tahlil markazi xabar beradi [13]. Albatta, o'z huquqlarini o'zi cheklash taomilidan foydalanishda muayyan kafolatlar tizimi joriy etilmog'i lozim. Birinchidan, bu ixtiyoriy erkin ravishda amalga oshirilishi. Ikkinchidan, subyektiv huquq egasi o'zi xohlagan paytda ushbu taqiqni bekor qilish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim va uchinchidan, agarda o'zining muayyan huquqini amalga oshirishdan o'zini tiyib turish ayni paytda muayyan huquqlardan umuman voz kechishni anglatmasligi, avvaldan taqiq qo'yilgan holatda onlayn harakat garchi ixtiyoriy, erkin ravishda amalga oshirilgan bo'lsa ham, haqiqiy emas deb topilishi haqidagi pisandalar tizimi saqlanib qolmog'i lozim. Ayni paytda bu sohada qat'iy imperativ qoidalar borligini ham unutmazlik lozim. Masalan, sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish, subyektiv huquq egasi tomonidan o'z huquqlarini o'zi cheklashi sifatida erk muxtoriyatini namoyon bo'lish xususiyatlaridan bo'lib hisoblanmaydi va yuridik jihatdan haqiqiy emas.

Erk muxtoriyatini fuqarolik huquqiy munosabatlarda namoyon bo'lish holatlaridan yana biri bo'lib, subyektni fuqarolik munosabatlarida o'z shaxsini ochmagan holda anonim tarzda foydalanishi hisoblanadi. Albatta, anonim ishtirokchilikning ayrim holatlari qonunlarda belgilab qo'yilgan. Masalan, FKning 1046-moddasi, 4-qismiga ko'ra, asar imzosiz anonim tarzda chop etilishi mumkin. Muallif xohlagan paytda o'z shaxsini ochiq, asar muallifi ekanligini da'vo qilishi mumkin. Turli tanlovlar, auksionlar, tenderlarda xolislikni ta'minlash uchun tanlov ishtirokchilari anonim tarzda yoki shartli belgi asosida qatnashishlari belgilab qo'yiladi. Bugungi kunda anonim ishtirokchilik ba'zi mamlakatlar fuqarolik qonunlarida belgilab qo'yilgan. Fuqarolik munosabatlarida anonim ishtirok etish ham bir tomondan erk muxtoriyatini o'ziga xos ko'rinishi bo'lsa, boshqa tomondan olganda anonim ishtirokchilarning huquqlarini himoya qilishni o'ziga xos vositasi bo'lib ham hisoblanadi. Huquq sohibi tomonidan o'z huquqlarini amalga oshirishini cheklashi yoxud fuqarolik munosabatlarida anonim ishtirok etish erk muxtoriyatini mustaqil konstruksiyalari sifatida FKda belgilab qo'yish lozim.

Albatta erk muxtoriyatini mutlaqlashtirish uni inson erkinligini eng yuqori oliy ko'rinishi sifatida baholash to'g'ri bo'lmagan bo'lar edi. Erkinlik har doim anglab yetilgan zaruriyat hisoblanadi, zaruriyat esa, anarxiya va o'zboshimchalik bilan chiqisha olmaydi. Shu sababli ham fuqarolik qonun hujjatlarida erk muxtoriyatini uning asosiy o'zak tamoyillaridan biri sifatida e'tirof etgan holatda uning muayyan chegaralarini ham yodda tutmoq lozim. Fuqarolik qonun hujjatlaridagi har bir imperativ norma erk muxtoriyati uchun qizil chiziq hisoblanadi. Erk muxtoriyatidagi dispozitiv normalar asosidagi tanlash huquqi ham ayni paytda imkoniyatlar cheksizligini anglatmaydi. Bu o'rinda yana bir holatga aniqlik kiritish lozim, erk muxtoriyati va fuqarolik qonun hujjatlarning imperativ normalari o'rtasidagi nisbat, shunchaki ijtimoiy normalar bilan individ mayl xohishi o'rtasidagi ziddiyat emas, har qanday ijtimoiy normalar, shu jumladan, huquqiy normalar kimningdir subyektiv istak xohishini huquqiy norma darajasiga ko'targan in'ikos emas, balki ijtimoiy zarurat tufayli ishlab chiqilgan, muayyan tartib taomillar jarayonida har tomondan puxta tekshirilgan va oxir oqibatda huquqiy norma darajasida namoyon bo'ladigan, huquqiy tartibga solish yukiga ega bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni kishilar uchun samarali bo'lgan natijadorlikka yo'naltirilgan huquqiy ko'rsatmalar hisoblanadi. Albatta, erk muxtoriyatining chegaralari bo'yicha ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada chuqur tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi erk muxtoriyati talqinini yangicha yondashuv asosida tahlil etish hisoblanadi. ushbu tahlilning asosiy postulatlarini quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, erk muxtoriyati nafaqat jismoniy shaxslarga, balki yuridik shaxslarga ham hech qanday istisnolarsiz tegishlidir. Lokal korporativ huquqiy normalar u tijorat yuridik shaxslari yoki notijorat yuridik shaxslari tomonidan ishlab chiqilganidan qat'iy nazar erk muxtoriyati mahsulidir.

Ikkinchidan, erk muxtoriyati huquqiy plyuralizm asosida turli huquqiy tizimlar o'rtasida tanlash imkoniyatini ham taqdim etadi [14].

Uchinchidan, erk muxtoriyati tamoyili fuqarolik huquqini universal tamoyili bo'lishi sari dinamik jihatdan tadrijiy ravishda rivojlanayotgan "qonunda nimaiki taqiqlanmagan bo'lsa ruxsat beriladi" tamoyili bilan birgalikda, uyg'un amal qilayotganini ta'kidlash joiz. Biroq bu o'rinda qonunda taqiq mavjud emasligi vaqtinchalik bo'lishini ham unutmazlik lozim.

Va nihoyat, to'rtinchidan, erk muxtoriyati tamoyili FKda yagona tamoyil sifatida emas, balki bir nechta tamoyil uyg'unligi va tizimi sifatida (fuqarolik huquqi fuqarolik munosabati ishtirokchilari o'z xohishlariga ko'ra huquq va burchlarga ega bo'lishi o'z erklariga muvofiq shartnoma shartlarini dispozitivlik asosida belgilashga haqlidirlar, subyektlar qonun belgilab qo'ygan doirada o'zini o'zi huquqiy tartibga solish rejimini belgilab qo'yishga vakolatlidirlar va huquq subyektlari alohida holatlarda anonim tarzda fuqarolik munosabatlarda ishtirok etishlariga yo'l qo'yiladi va nihoyat

huquqlariga tajovuzni oldini olish uchun yoki boshqa manfaat taqozosiga ko'ra o'z huquqlarini cheklab qo'yish imkoniyatiga egadirlar.) amal qilishi lozim. Erk muxtoriyatini bunday talqin etish uning mohiyatini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Uni haqiqatda amal qilish doirasini qamrab olishga imkon beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash o'rinliki, FKning 1-moddasi talqinidagi erk muxtoriyati tor mazmuniga ega. Birinchidan, ishtirokchilar o'z xohishiga ko'ra fuqarolik huquqlari burchlariga ega bo'lish imkoniyati va qonun doirasida shartnoma shartlarini belgilashga bo'lgan imkoniyati erk muxtoriyati negizi sifatida talqin etiladi. Xalqaro xususiy huquqda bu qo'llaniladigan huquqni tanlash erkinligi sifatida namoyon bo'ladi. Sivillistikani ushbu talqini cheklangan xarakterga ega. Ko'p hollarda subyekt avvaldan belgilab qo'yilgan normalarni tanlaydi xolos.

#### IQTIBOSLAR/ЧОСКИ/REFERENCES:

1. Кант И. Основы положения метафизики нравов. Собрание сочинение Том IV Москва. 1994. 219 б.
2. Риль А. Введение в современной философии. / Энциклопедические библиотеки для самообразование. С. Петербург. 1904. 18 б.
3. Камю А. Бунтующий человек. Москва. 1990. 189 б.
4. Аванесов С.С. Автономное воле: Кант и Шопенгауэр о бесценности нравственного действие. <https://share.google/Mhirl9gpm9vo8L6NN>
5. Бахтин М.М. К философии поступкам. / Философия и социология. Наука и техника. Ежегодник. Москва. 1986. 86 б.
6. Аронсон Д.О. Свобода и принуждение. Кантовские обоснование понятие право. Москва. 2014. 8 б.
7. Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida <https://lex.uz/docs/4887654>.
8. Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/docs/4820060>.
9. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi o'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida // <https://lex.uz/docs/2742233>
10. Loboda A.I. Avtonomiya voli, yee predely v sovremennom MChP, unifikatsiya v MChP. Leksiya. <https://share.google/fdx9OZ6rE0khXIZdz>
11. O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni <https://lex.uz/docs/7864099>
12. Islomiy moliya real bozordan ajralmagan iqtisodiyot. Kun.uz. 22:06/10.10.2025.8249 <https://kun.uz/news/2025/10/10/islomiy-moliya-real-bozordan-ajralmagan-iqtisodiyot>.
13. Bankirs.uz 09.01.2026 yil 15:42.126
14. О.Окюлов. Правовое пространства Узбекистана. // Правда Востока, 22 августа 2024 года.

**YUSUPOVA Faringiz O'ktam qizi**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi  
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti dotsenti v.b.,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
E-mail: [Faringiz002@gmail.com](mailto:Faringiz002@gmail.com)  
ORCID: 0000-0002-8202-2160

## RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA ANATOMIK VA FIZIOLOGIK TIBBIY MA'LUMOTLAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHLTLARI

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): YUSUPOVA F.O'.** Raqamlashtirish davrida anatomik va fiziologik tibbiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos jihatlari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2026) B. 51-61.

### ANNOTATSIYA

Maqolada raqamli transformatsiya sharoitida tibbiyot sohasida axborot almashinuvi, tibbiy ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash jarayonlarining jadallashuvi fonida anatomik va fiziologik tibbiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos jihatlari yoritiladi. Ushbu ma'lumotlar bemorning biologik identifikatsiyasi, genetik va biometrik xususiyatlari bilan bevosita bog'liqligi sababli shaxsiy hayot daxlsizligi, sha'n va qadr-qimmat kabi nomulkiy huquqlarning yadro elementini tashkil etishi asoslab beriladi. Maqolada tibbiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashning an'anaviy fuqaroviy-huquqiy mexanizmlari (tibbiy xizmat shartnomasi, tibbiy sirni saqlash majburiyati, delikt javobgarligi, nomulkiy zarar kompensatsiyasi) hamda yuqori sezgir ma'lumotlarga nisbatan differensial yondashuv zarurati tahlil qilinadi. Shuningdek, rozilik institutining "ongli-aniq-maqсадli" modeli, maqsadlilik va cheklanganlik prinsiplarini kuchaytirish, shifokor hamda uchinchi shaxslarning (platforma operatorlari, sug'urtachilar, davlat organlari) majburiyatlarini aniq belgilash orqali huquqiy himoyani takomillashtirish yo'nalishlari taklif etiladi. Xulosa sifatida raqamlashtirish davrida anatomik va fiziologik tibbiy ma'lumotlarni muhofaza qilish fuqaroviy huquq nazariyasi va amaliyoti uchun dolzarb vazifa ekani, bu sohada samarali kompensatsiya mexanizmlari va huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan huquqiy rejimni kuchaytirish zarurligi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** tibbiy ma'lumotlar, anatomik va fiziologik ma'lumotlar, biometrik va genetik ma'lumotlar, tibbiy sir, rozilik, nomulkiy huquqlar, delikt javobgarligi, ma'naviy zarar, raqamli platforma, axborot xavfsizligi.

**ЮСУПОВА Фарингиз**

И. о. доцента Института переподготовки и повышения квалификации юридических кадров при Министерстве юстиции Республики Узбекистан, доктор философии (PhD) по юридическим наукам  
E-mail: [Faringiz002@gmail.com](mailto:Faringiz002@gmail.com)  
ORCID: 0000-0002-8202-2160

## ОСОБЕННОСТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ БЕЗОПАСНОСТИ АНАТОМИЧЕСКИХ И ФИЗИОЛОГИЧЕСКИХ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ

### АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются особенности обеспечения безопасности анатомических и физиологических медицинских данных в условиях цифровой трансформации системы здравоохранения, сопровождающейся интенсификацией процессов обмена информацией, сбора,

хранения и обработки медицинских данных. Обосновывается, что данные категории медицинской информации, будучи непосредственно связанными с биологической идентификацией пациента, его генетическими и биометрическими характеристиками, образуют ядро личных неимущественных прав, включая право на неприкосновенность частной жизни, честь и достоинство. В статье анализируются традиционные гражданско-правовые механизмы обеспечения безопасности медицинских данных (договор на оказание медицинских услуг, обязанность соблюдения врачебной тайны, деликтная ответственность, компенсация морального вреда), а также необходимость дифференцированного подхода к защите данных повышенной чувствительности. Особое внимание уделяется развитию института согласия в модели «осознанное – конкретное – целевое», усилению принципов целевого и ограниченного использования данных, а также уточнению обязанностей врачей и третьих лиц (операторов цифровых платформ, страховых организаций, государственных органов). В заключении статьи подчеркивается, что обеспечение защиты анатомических и физиологических медицинских данных в эпоху цифровизации является актуальной задачей гражданско-правовой теории и практики, требующей усиления правового режима, направленного на предупреждение нарушений и формирование эффективных механизмов компенсации причинённого вреда.

**Ключевые слова:** медицинские данные, анатомические и физиологические данные, биометрические и генетические данные, врачебная тайна, согласие, личные неимущественные права, деликтная ответственность, моральный вред, цифровая платформа, информационная безопасность.

**FARINGIZ Yusupova**

Acting Associate Professor of The Institute for Retraining  
and Advanced Training of Legal  
Personnel under the Ministry of Justice  
of the Republic of Uzbekistan,  
Doctor of Philosophy (PhD) in Law  
E-mail: [Faringiz002@gmail.com](mailto:Faringiz002@gmail.com)

## SPECIFIC FEATURES OF ENSURING THE SECURITY OF ANATOMICAL AND PHYSIOLOGICAL MEDICAL DATA IN THE ERA OF DIGITALIZATION

### ANNOTATION

The article examines the specific challenges of ensuring the security of anatomical and physiological medical data amidst the digital transformation of the healthcare system, which is accompanied by an intensification of the processes of information exchange, collection, storage, and processing of medical data. It is argued that these categories of medical information, being directly linked to a patient's biological identification, genetic, and biometric characteristics, form the core of personal non-property rights, including the right to privacy, honor, and dignity. The article analyzes traditional civil law mechanisms for ensuring medical data security (contracts for the provision of medical services, the duty of medical confidentiality, tort liability, compensation for non-pecuniary damage), as well as the need for a differentiated approach to protecting highly sensitive data. Special attention is given to the development of the institution of consent based on the "informed - specific - purposeful" model, the strengthening of the principles of purpose limitation and limited data use, and the clarification of the duties of physicians and third parties (digital platform operators, insurance organizations, government bodies). The article concludes by emphasizing that protecting anatomical and physiological medical data in the digital era is a pressing task for civil law theory and practice, requiring a strengthened legal regime aimed at preventing violations and creating effective mechanisms for compensating for damages.

**Keywords:** medical data, anatomical and physiological data, biometric and genetic data, medical confidentiality, consent, personal non-property rights, tort liability, non-pecuniary damage, digital platform, information security.

Raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi sharoitida tibbiyot sohasida axborot almashinuvi, ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash jarayonlari tubdan o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, bemorga oid tibbiy ma'lumotlarning elektron shaklga o'tkazilishi, yagona axborot platformalarining joriy etilishi va masofaviy tibbiy xizmatlarning kengayishi tibbiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash masalasini fuqaroviy-huquqiy tartibga solishning muhim obyekt sifatida maydonga chiqarmoqda. Mazkur jarayonda tibbiy ma'lumotlar nafaqat axborot resursi, balki shaxsning nomulkiy huquqlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan mustaqil huquqiy qadriyat sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tibbiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash fuqaroviy-huquqiy tartibga solishning an'anaviy vositalari orqali tizimli himoya funksiyasini bajaradi. Jumladan, majburiyat huquqi doirasida tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalari, tibbiy sirni saqlash majburiyati, zarar yetkazilgan taqdirda fuqaroviy-huquqiy javobgarlik choralari qo'llash, shuningdek, shaxsiy nomulkiy huquqlarni himoya qilish institutlari tibbiy ma'lumotlarning daxlsizligini ta'minlashda asosiy vositalar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu mexanizmlar klassik sivilistik yondashuvga asoslanib, subyektlar o'rtasidagi huquq va majburiyatlar muvozanatini saqlashga qaratilgan.

Shu bilan birga, tibbiy ma'lumotlarning alohida toifasi sifatida anatomik va fiziologik xususiyatlarga oid tibbiy ma'lumotlar o'zining mazmuniy va huquqiy tabiati bilan ajralib turadi hamda kuchaytirilgan huquqiy muhofazani talab etadi. Mazkur ma'lumotlar shaxs organizmining tuzilishi va uning hayotiy funksiyalarining individual xususiyatlarini aks ettiradi hamda shaxsning biologik va fiziologik identifikatsiyasini belgilovchi axborotlar majmuini tashkil etadi.

Anatomik xususiyatlarga oid tibbiy ma'lumotlar shaxs organizmining morfologik tuzilishiga taalluqli bo'lib, tananing tashqi va ichki tuzilishi, organlar va tizimlarning shakli, hajmi, joylashuvi, shuningdek tug'ma yoki orttirilgan anatomik o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlarni qamrab oladi. Ushbu ma'lumotlar inson tanasining nisbatan barqaror belgilarini ifodalashi sababli shaxsni biologik jihatdan individualizatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fiziologik xususiyatlarga oid tibbiy ma'lumotlar esa organizmning hayotiy funksiyalarining kechishi, ya'ni organlar va tizimlarning faoliyat holati, funksional ko'rsatkichlari, gormonal, biokimyoviy va neyrofiziologik jarayonlari to'g'risidagi axborotlarni o'z ichiga oladi. Mazkur ma'lumotlar organizmning dinamik fiziologik holatini aks ettirib, shaxsning sog'liq darajasi, mehnat qobiliyati va umumiy hayot faoliyatini baholashda asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur toifadagi tibbiy ma'lumotlarning huquqiy ahamiyati shundaki, ular nafaqat tibbiy xizmat ko'rsatish jarayoni bilan bog'liq, balki shaxsning sha'ni, qadr-qimmatini hamda shaxsiy hayoti daxlsizligi kabi konstitutsiyaviy himoya qilinadigan nomulkiy huquqlari bilan uzviy aloqador hisoblanadi. Shu bois anatomik va fiziologik xususiyatlarga oid tibbiy ma'lumotlarning oshkor etilishi yoki ulardan qonunga xilof tarzda foydalanilishi ko'pincha faqat mulkiy zarar bilan cheklanmay, balki shaxsga jiddiy nomulkiy ziyon ruhiy iztirob, ijtimoiy obro'-e'tiborining pasayishi, kamsitilish yoki stigmatizatsiya kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shunday qilib, anatomik va fiziologik xususiyatlarga oid tibbiy ma'lumotlar shaxsni biologik va funksional jihatdan individualizatsiya qiluvchi, yuqori darajadagi maxfiylikni talab etuvchi axborotlar toifasiga mansub bo'lib, ularning huquqiy muhofazasi shaxsiy nomulkiy huquqlarni himoya qilishga qaratilgan fuqaroviy-huquqiy mexanizmlar bilan bevosita bog'liqdir.

Mazkur holat fuqaroviy huquq doirasida ushbu turdagi ma'lumotlarni himoya qilishda differensial yondashuvni talab etadi. Xususan, rozilik institutining kengaytirilgan qo'llanilishi, ma'lumotlardan foydalanish maqsadining qat'iy belgilanishi, shifokor va uchinchi shaxslarning kuchaytirilgan majburiyatlari, shuningdek, nomulkiy zarar uchun kompensatsiya mexanizmlarining samarali ishlashi anatomik va fiziologik tibbiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, tibbiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashning an'anaviy fuqaroviy-huquqiy mexanizmlarini tahlil qilish bilan bir qatorda, anatomik va fiziologik tibbiy ma'lumotlarni huquqiy muhofaza qilishning o'ziga xos jihatlarini aniqlash fuqaroviy huquq nazariyasi va amaliyoti uchun dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur paragraf aynan ushbu masalalarning ilmiy-huquqiy mohiyatini ochib berishga, mavjud mexanizmlarning samaradorligini baholashga hamda ularni takomillashtirish zaruratini asoslashga qaratilgan.

Sog'liqni saqlash tizimining jadal rivojlanishi tibbiy ma'lumotlar bilan bog'liq fuqaroviy-huquqiy munosabatlar murakkab, ko'p subyektli huquqiy tizim sifatida shakllanmoqda. Ushbu tizimda asosiy subyektlar sifatida shaxs (bemor), shifokor (yoki tibbiyot muassasasi) hamda uchinchi shaxslar (sug'urta tashkilotlari, davlat organlari, axborot texnologiyalari operatorlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va boshqalar) ishtirok etadi. Mazkur subyektlar o'rtasidagi munosabatlar asosan fuqaroviy-huquqiy shartnomalar, qonuniy majburiyatlar hamda shaxsiy nomoddiy huquqlarni himoya qilish institutlari orqali tartibga solinadi.

Nomoddiy huquqlar sifatida shaxsning iqtisodiy mazmunga ega bo'lmagan, ammo uning sha'ni, qadr-qimmat, shaxsiy hayoti va daxlsizligini ta'minlaydigan fuqaroviy huquqlari hisoblanadi va ular bevosita buzilgan taqdirda fuqaroviy-huquqiy himoya va kompensatsiya qo'llaniladi [1].

Bemorlar huquqlarini himoya qilish instituti va uning ayrim jihatlarini O.G. Strokova, A.G. Makarychev, K.I. Kudinova, M.A. Moiseyeva va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ushbu ilmiy ishlarda tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonida bemor huquqlarining buzilishi, jumladan, tibbiy ma'lumotlar bilan bog'liq muammolar alohida ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.

Xususan, K.I. Kudinova tibbiyot sohasida zararni qoplash majburiyatlarini tahlil qilgan ekan, pullik tibbiy xizmatlardan foydalanish bilan bog'liq zarar yetkazish holatlari ko'pincha tibbiy aralashuvning o'zi emas, balki tibbiy axborotning sifati va ishonchliligi bilan bevosita bog'liqligini qayd etadi. Bunday hollarda zarar tasodifiy va ehtimoliy xususiyatga ega bo'lib, u asosan bemorga tibbiy buyumlar (masalan, protezlar, implantlar, diagnostik qurilmalar) to'g'risida to'liq, aniq va ishonchli ma'lumot berilmasligi, shuningdek tibbiy ma'lumotlarning uchinchi shaxslarga ruxsatsiz uzatilishi oqibatida yuzaga keladi. Demak, bu yerda zarar bevosita shifokorning tibbiy harakati natijasi emas, balki iste'molchi sifatida bemorning axborot olish huquqi va tibbiy sirning buzilishi natijasi hisoblanadi [2].

Mazkur muammo A.G. Makarychev tomonidan ilgari surilgan yondashuv bilan ham uzviy bog'liq. Uning fikricha, tibbiy xizmatlar bo'yicha majburiyatlarga natijani mutlaq kafolatlash xos emas, chunki tibbiy xizmatning mohiyati biologik jarayonlar, individual organizm xususiyatlari va tibbiy risklar bilan bog'liqdir. Shu bois tibbiy xizmat boshqa xizmat turlaridan farqli ravishda natijaning kafolatlanganligi nuqtayi nazaridan alohida o'rin egallaydi [3].

Bu holat O.G. Strokova tomonidan yanada chuqurroq izohlanadi. Uning ta'kidlashicha, asosiy muammo bemorning ko'rsatilgan tibbiy xizmatni subyektiv baholashida emas, balki mazkur xizmatning sifati, hajmi, samaradorligi va xavfsizligini obyektiv mezonlar asosida baholashning imkonsizligidadir. Ayniqsa, bemor o'z qarorini aynan tibbiy ma'lumotlarga – tashxis, davolash usuli, dori vositalari yoki tibbiy buyumlar haqidagi axborotga tayangan holda qabul qilgan sharoitda, ushbu ma'lumotlarning noto'g'ri, to'liq bo'lmagan yoki chalg'ituvchi bo'lishi uning huquqlarini jiddiy ravishda buzadi [4].

Shunday qilib, tibbiy xizmatlar sohasida bemorga yetkaziladigan zarar ko'pincha tibbiy xatodan emas, balki tibbiy ma'lumotlarning sifatsizligi, oshkoralikning yetishmasligi va axborotdan foydalanish qoidalarining buzilishi bilan bog'liq bo'lib, bu holat fuqarolik-huquqiy muammo bo'lib, javobgarlikni qo'llashda alohida e'tiborni talab etadi. Shu bilan birga, bemorlar huquqlarini himoya qilishning umumiy muammolari va uni amalga oshirish mexanizmlari keng o'rganilganiga qaramay, bemorlar huquqlarining fuqarolik-huquqiy himoyasi masalalariga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

Bemor tibbiy ma'lumotlarning birlamchi subyekti va egasi sifatida ushbu ma'lumotlarga nisbatan maxfiylik, daxlsizlik va ulardan foydalanishni cheklash huquqlariga ega. Fuqaroviy-huquq nuqtayi nazaridan, bemorning tibbiy ma'lumotlari shaxsiy nomoddiy ne'mat sifatida e'tirof etilib, ularni qayta ishlash va uchinchi shaxslarga uzatishga faqat bemorning roziligi yoki qonunda bevosita nazarda tutilgan hollardagina yo'l qo'yiladi. Shu bilan birga, bemorning roziligi ongli, aniq va maqsadli bo'lishi lozim bo'lib, bu rozilik fuqaroviy-huquqiy bitimning alohida elementi sifatida namoyon bo'ladi.

Bemorlar huquqlarini ayniqsa fuqarolik-huquqiy nuqtayi nazardan himoya qilish muammosi alohida e'tiborga loyiqdir, chunki sog'liqni saqlash muassasalariga (shu jumladan, tibbiyot sohasida xizmat ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga) bemorlar tomonidan taqdim etilayotgan da'volarning mutlaq ko'pchiligi tibbiy xizmatning lozim darajada ko'rsatilmaganligi, ma'lumotlarning maxfiy saqlanmaganligi natijasida yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplashga qaratilgan da'volardan iborat [5].

Biroq hozirga qadar bemor huquqlarini sud tartibida samarali va ta'sirchan tarzda himoya qilishni ta'minlaydigan yagona mexanizm ishlab chiqilmagan.

Shifokor yoki tibbiyot muassasasi bemor bilan vujudga keladigan fuqaroviy-huquqiy munosabatlarda professional xizmat ko'rsatuvchi tomon sifatida ishtirok etadi va tibbiy ma'lumotlarni qonuniy asosda yig'ish, saqlash hamda qayta ishlash majburiyatini zimmasiga oladi. Ushbu majburiyatlar tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi, tibbiy sirni saqlash majburiyati hamda axborot xavfsizligini ta'minlash talablarida o'z ifodasini topadi. Shifokorning tibbiy ma'lumotlar bilan bog'liq huquq va majburiyatlari buzilgan taqdirda, u fuqaroviy-huquqiy javobgarlikka, jumladan, zarar yetkazilganligi uchun kompensatsiya to'lash majburiyatiga tortilishi mumkin.

Uchinchi shaxslar bilan bog'liq munosabatlar esa alohida huquqiy murakkablikka ega bo'lib, ular ko'pincha bilvosita va shartli xarakter kasb etadi. Masalan, sug'urta tashkilotlari yoki raqamli platforma operatorlari tibbiy ma'lumotlardan faqat qat'iy belgilangan maqsadlarda va hajmda foydalanishi mumkin. Bu holatda fuqaroviy-huquqiy munosabatlar ko'p tomonlama shartnomalar, axborotni qayta ishlash bo'yicha bitimlar hamda ma'lumotlarni himoya qilishga doir majburiyatlar orqali tartibga solinadi. Bunda uchinchi shaxslarning tibbiy ma'lumotlardan noqonuniy foydalanishi shaxsiy nomoddiy huquqlarning buzilishi sifatida baholanib, fuqaroviy-huquqiy himoya choralarini qo'llashga asos bo'ladi.

2019-yilda qabul qilingan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 26-moddasiga asosan shaxsga doir ma'lumotlarning alohida, yuqori xavf darajasiga ega bo'lgan toifasi — biometrik va genetik ma'lumotlarga ishlov berishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda ularni muhofaza qilishning kuchaytirilgan rejimini joriy etadi. Ushbu norma shaxsning biologik identifikatsiyasi bilan bog'liq ma'lumotlarning huquqiy tabiatini aniqlashtirish va ularni noqonuniy aralashuvlardan himoyalashga qaratilgan [6].

Moddaning birinchi qismida biometrik ma'lumotlar tushunchasi ochib berilib, ular subyektning anatomik va fiziologik o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi shaxsga doir ma'lumotlar sifatida belgilangan. Bu ta'rif biometrik ma'lumotlarning shaxsni bevosita yoki bilvosita aniqlash imkonini beruvchi xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Bunday ma'lumotlarga barmoq izi, yuz tasviri, ko'z to'rdasi, ovoz namunasi, yurish uslubi kabi shaxsning jismoniy va fiziologik belgilariga asoslangan axborotlar kiradi. Ularning asosiy huquqiy xususiyati shundaki, biometrik ma'lumotlar shaxsdan ajralmas bo'lib, ularni o'zgartirish yoki yangilash deyarli imkonsizdir.

Moddaning ikkinchi qismida genetik ma'lumotlar tushunchasi yoritilib, ular subyektning nasldan-naslga o'tgan yoki orttirilgan xususiyatlariga taalluqli bo'lgan, biologik qiyofasini tahlil qilish natijasida olinadigan ma'lumotlar sifatida e'tirof etiladi. Genetik ma'lumotlar nafaqat shaxsning

hozirgi holatini, balki uning kelajakdagi sog'lig'i, irsiy kasalliklarga moyilligi, biologik qarindoshlik aloqalari haqida ham axborot berishi bilan ajralib turadi. Shu sababli genetik ma'lumotlar shaxsiy hayot daxlsizligining eng nozik sohasiga taalluqli bo'lib, ularni oshkor etish shaxsning huquqiy, ijtimoiy va hatto iqtisodiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Moddaning uchinchi qismida biometrik va genetik ma'lumotlarga ishlov berishning asosiy sharti sifatida subyektning roziligi talabi mustahkamlangan. Bu qoida shaxsiy hayot daxlsizligi, axborot ustidan nazorat qilish huquqi va shaxsiy avtonomiya prinsiplarining mantiqiy davomi hisoblanadi. Shu bilan birga, qonun chiqaruvchi ayrim istisno holatlarni ham belgilaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini ro'yobga chiqarish, odil sudlovni amalga oshirish, ijro ishini yuritish bilan bog'liq holatlarda, shuningdek qonunchilikda bevosita nazarda tutilgan boshqa vaziyatlarda subyekt roziligisiz ham ushbu ma'lumotlarga ishlov berilishiga yo'l qo'yiladi. Bu istisnolar davlat va jamiyat manfaatlari bilan shaxs manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan.

Moddaning yakuniy qismida elektron shakldagi biometrik va genetik ma'lumotlardan axborot tizimlaridan tashqarida foydalanish va ularni saqlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Qonunchilikka ko'ra, bunday ma'lumotlar faqat ruxsatsiz foydalanishni istisno etadigan axborot tashuvchi moddiy jismlarda saqlanishi mumkin. Ushbu norma ma'lumotlarning texnik va tashkiliy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, biometrik va genetik ma'lumotlarning noqonuniy nusxalanishi, yo'qotilishi yoki uchinchi shaxslarga o'tib ketishining oldini olishga xizmat qiladi.

Anatomik va fiziologik tibbiy ma'lumotlar shaxsga doir ma'lumotlarning eng nozik va yuqori darajada himoya talab qiladigan toifasiga mansub bo'lib, ular shaxsning biologik identifikatsiyasi, jismoniy tuzilishi hamda organizm faoliyatining individual xususiyatlarini aks ettiradi. Mazkur turdagi ma'lumotlar, o'z mohiyatiga ko'ra, subyekt shaxsini aniqlash imkonini beruvchi biometrik va genetik axborot bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning huquqiy muhofazasi kuchaytirilgan tartibda amalga oshirilishi zarur.

Qonunchilikda biometrik ma'lumotlar subyektning anatomik va fiziologik o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi shaxsga doir ma'lumotlar sifatida belgilanishi anatomik va fiziologik tibbiy ma'lumotlarning alohida huquqiy maqomini tasdiqlaydi. Bunday ma'lumotlar, jumladan, tana tuzilishi, yuz va tana qismlarining morfologik xususiyatlari, fiziologik ko'rsatkichlar, hayotiy funksiyalar dinamikasi hamda organizmning individual reaktivligini ifodalovchi axborotlarni o'z ichiga oladi. Ularning asosiy xususiyati shundaki, mazkur ma'lumotlar shaxsdan ajralmas bo'lib, ularni o'zgartirish yoki "yangilash" amalda imkonsizdir, bu esa ularning noqonuniy oshkor etilishi oqibatlarini yanada og'irlashtiradi.

Anatomik va fiziologik tibbiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos jihatlaridan biri — subyekt roziligining ustuvor ahamiyatga ega ekanligidir. Qonunchilikka muvofiq, shaxsni aniqlash uchun foydalaniladigan biometrik va genetik ma'lumotlarga, qoida tariqasida, faqat subyektning aniq, ongli va erkin berilgan roziligi mavjud bo'lgan taqdirda ishlov berilishi mumkin. Ushbu talab shaxsiy hayot daxlsizligi va shaxsning o'ziga doir axborot ustidan nazoratni amalga oshirish huquqining muhim kafolati hisoblanadi. Anatomik va fiziologik ma'lumotlar tibbiy amaliyotda keng qo'llanilishi sababli, rozilikning mazmuni, maqsadi va hajmi aniq belgilanishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur turdagi ma'lumotlarni himoya qilishda ikkinchi muhim jihat — ularni qayta ishlashda maqsadlilik va cheklanganlik prinsiplariga qat'iy rioya etilishidir. Anatomik va fiziologik tibbiy ma'lumotlardan faqat diagnostika, davolash, tibbiy kuzatuv yoki qonunchilikda belgilangan boshqa aniq maqsadlar doirasidagina foydalanilishi mumkin. Ushbu ma'lumotlarning boshqa maqsadlarda, jumladan, shaxsni ruxsatsiz identifikatsiya qilish, diskriminatsion qarorlar qabul qilish yoki tijorat

manfaatlari yo'lida qo'llanilishi ularning huquqiy mohiyatiga zid hisoblanadi.

Shuningdek, anatomik va fiziologik tibbiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashda texnik va tashkiliy himoya choralari kuchaytirilgan rejimi muhim o'rin tutadi. Qonunchilikda elektron shakldagi biometrik va genetik ma'lumotlardan axborot tizimlaridan tashqarida foydalanish va ularni saqlash faqat ruxsatsiz foydalanishni istisno etadigan axborot tashuvchi moddiy jismlarda amalga oshirilishi mumkinligi belgilangan. Bu talab anatomik va fiziologik ma'lumotlarning noqonuniy nusxalanishi, tarqatilishi yoki uchinchi shaxslarga o'tib ketishining oldini olishga qaratilgan bo'lib, ularning maxfiyligi va yaxlitligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Anatomik va fiziologik tibbiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos jihatlari ularning biometrik va genetik axborot bilan bevosita bog'liqligi, shaxsdan ajralmasligi, yuqori identifikatsion salohiyatga egaligi hamda oshkor etilishi og'ir nomulkiy zarar keltirib chiqarish ehtimoli bilan belgilanadi. Shu bois, mazkur turdagi ma'lumotlarni himoya qilishda fuqaroviy-huquqiy mexanizmlar kuchaytirilgan tartibda qo'llanilib, rozilik, maqsadlilik, cheklanganlik va axborot xavfsizligi tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy davlatlar huquqiy tizimlarida tibbiy ma'lumotlardan foydalanish bilan bog'liq munosabatlar, avvalo, shaxsiy nomoddiy huquqlarni kuchaytirilgan himoya qilish konsepsiyasiga asoslanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, tibbiy ma'lumotlar shaxsning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini bilan uzviy bog'liq bo'lgan alohida huquqiy qadriyat sifatida e'tirof etilib, ularning xavfsizligini ta'minlash fuqaroviy huquqning ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaraladi. Natijada, tibbiy ma'lumotlarga ishlov berish jarayoni umumiy axborot munosabatlaridan farqli ravishda maxsus, kuchaytirilgan huquqiy rejim asosida tartibga solinadi [7].

Mazkur huquqiy tizimlarda tibbiy ma'lumotlardan foydalanish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar bemor, shifokor (yoki tibbiyot muassasasi) hamda uchinchi shaxslar o'rtasida shakllanuvchi fuqaroviy-huquqiy aloqalar sifatida baholanadi. Ushbu aloqalar murakkab huquqiy mazmunga ega bo'lib, ular doirasida tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalari, tibbiy sirni saqlash majburiyati, shaxsiy nomoddiy huquqlarni himoya qilish hamda zarar yetkazishdan kelib chiqadigan javobgarlik institutlari o'zaro uyg'un holda qo'llaniladi. Bu holat tibbiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashning an'anaviy fuqaroviy-huquqiy mexanizmlarini kompleks yondashuv asosida shakllantirish imkonini beradi.

Xorijiy tajribada shartnoma huquqi tibbiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalari orqali shifokor va tibbiyot muassasalariga bemorning tibbiy ma'lumotlarini maxfiy saqlash, ulardan faqat aniq belgilangan tibbiy maqsadlarda foydalanish hamda uchinchi shaxslarga ruxsatsiz oshkor etmaslik majburiyatlari yuklatiladi. Ushbu majburiyatlar, ayniqsa, anatomik va fiziologik tibbiy ma'lumotlarga nisbatan kuchaytirilgan mazmunga ega bo'lib, ularning buzilishi shaxsiy nomoddiy huquqlarning jiddiy poymol etilishi sifatida baholanadi.

Shu bilan birga, delikt javobgarligi instituti tibbiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashning muhim an'anaviy mexanizmi sifatida xorijiy huquq tizimlarida keng qo'llaniladi. Anatomik va fiziologik tibbiy ma'lumotlarning noqonuniy oshkor etilishi yoki ulardan ruxsatsiz foydalanilishi bemorga nafaqat moddiy, balki sezilarli nomulkiy zarar yetkazishi mumkinligi sababli, bunday holatlar mustaqil delikt tarkibini vujudga keltiradi. Natijada, bemorga ma'naviy zarar uchun kompensatsiya undirish, huquqbuzarlikni to'xtatish va uning oqibatlarini bartaraf etish huquqi beriladi.

Bundan tashqari, xorijiy davlatlar huquqiy tizimlarida axborotni himoya qilishga doir maxsus qonunlarning mavjudligi tibbiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar anatomik va fiziologik tibbiy ma'lumotlarni yuqori xavf darajasiga ega

axborot sifatida e'tirof etib, ularga nisbatan rozilik, maqsadlilik, cheklanganlik va kuchaytirilgan texnik himoya choralarini joriy etadi. Bu esa an'anaviy fuqaroviy-huquqiy mexanizmlarning samaradorligini oshirib, tibbiy ma'lumotlar xavfsizligini kompleks tarzda ta'minlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, tibbiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashning an'anaviy fuqaroviy-huquqiy mexanizmlari shaxsiy nomoddiy huquqlarni kuchaytirilgan himoya qilish konsepsiyasi bilan uyg'unlashgan holda qo'llaniladi, anatomik va fiziologik tibbiy ma'lumotlar esa ushbu tizim doirasida alohida, kuchaytirilgan huquqiy muhofaza ostiga olinadi.

Xorijiy davlatlar sud amaliyotida tibbiy ma'lumotlardan foydalanish bilan bog'liq nizolar, asosan, shaxsiy nomoddiy huquqlarni kuchaytirilgan himoya qilish konsepsiyasiga tayangan holda hal etiladi. Sudlar tibbiy, ayniqsa anatomik va fiziologik ma'lumotlarni shaxsning shaxsiy hayoti daxlsizligining ajralmas elementi sifatida baholab, ularning noqonuniy oshkor etilishi yoki ruxsatsiz qayta ishlanishini mustaqil fuqaroviy-huquqiy huquqbuzarlik sifatida e'tirof etadi.

Yevropa sud amaliyotida bu yondashuv izchil tarzda Yevropa Inson Huquqlari Sudi tomonidan shakllantirilgan. Xususan, Yevropa Inson Huquqlari Sudi amaliyotida tibbiy ma'lumotlar, xususan sog'liq holati va fiziologik xususiyatlarga oid axborotni himoya qilish borasidagi asosiy precedentsial qarorlardan biri hisoblanadi [8].

Ishning mohiyatiga ko'ra, arizachi Z. OIV (HIV) infeksiyasiga chalingan bo'lib, uning tibbiy holatiga oid ma'lumotlar jinoiy ish yurituvi doirasida sud materiallariga kiritilgan va uchinchi shaxslar uchun ochiq bo'lgan hujjatlarda qayd etilgan. Natijada, arizachining sog'lig'i va fiziologik holatiga oid maxfiy tibbiy axborot keng doirada oshkor bo'lib ketgan.

Sud ushbu holatni tahlil qilar ekan, quyidagi muhim huquqiy pozitsiyalarni shakllantirgan:

Tibbiy ma'lumotlar shaxsiy hayotning eng himoyalangan sohalaridan biridir. Sud ta'kidlashicha, sog'liq holati, fiziologik va anatomik xususiyatlarga oid axborot shaxsning shaxsiy hayoti daxlsizligining "yadro elementi" hisoblanadi. Bunday ma'lumotlarning oshkor etilishi shaxsning sha'ni, qadr-qimmati va ijtimoiy hayotiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

Davlatning kuchaytirilgan ijobiy majburiyati mavjud. Sudga ko'ra, davlat faqat o'zi aralashmasligi bilan cheklanmasdan, balki tibbiyot muassasalari va sud organlari tomonidan tibbiy sir saqlanishini ta'minlovchi samarali huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni yaratishi shart.

Aralashuv faqat qat'iy zarurat va proporsionallik shartlari asosida yo'l qo'yiladi. Hatto odil sudlovni amalga oshirish kabi legitim maqsadlar mavjud bo'lgan taqdirda ham, tibbiy ma'lumotlarga aralashuv: zarur bo'lishi, muqobil, kamroq cheklovchi vositalar mavjud bo'lmasligi va qo'yilgan maqsadga nisbatan proporsional bo'lishi lozim.

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa Konvensiyaning 8-moddasi buzilgan deb topilgan. Sud mazkur ishda Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiyaning 8-moddasi (shaxsiy va oilaviy hayotga hurmat huquqi) buzilganini aniqlab, arizachi foydasiga qaror chiqargan [9].

Shunga o'xshash huquqiy pozitsiya Finlandiya ishida ham mustahkamlangan bo'lib, unda Sud tibbiy axborot tizimlarida bemorning sog'lig'i va fiziologik holatiga oid ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish holatini shaxsiy hayot daxlsizligiga tajovuz sifatida e'tirof etgan. Sud davlat zimmasiga nafaqat normativ-huquqiy tartibga solishni, balki tibbiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlovchi samarali tashkiliy va texnik mexanizmlarni joriy etish majburiyatini ham yuklagan.

Xorijiy sudlar amaliyotida ham tibbiy ma'lumotlar xavfsizligi fuqaroviy-huquqiy mexanizmlar orqali faol himoya qilinadi. Masalan, Germaniya huquqiy tizimida tibbiy, jumladan anatomik va fiziologik ma'lumotlarni himoya qilish konsepsiyasi shaxsiy nomoddiy huquqlarning kuchaytirilgan muhofazasi tamoyiliga asoslanadi. Ushbu yondashuvning markazida shaxsning "Shaxsning axborot

sohasida o'zini-o'zi belgilash huquqi" (Recht auf informationelle Selbstbestimmung) turadi. Mazkur huquq Germaniya konstitutsiyaviy huquqida shaxsning o'ziga doir axborot ustidan nazorat qilish huquqi sifatida e'tirof etilib, ayniqsa sog'liq va biologik xususiyatlarga oid ma'lumotlarga nisbatan keng qo'llaniladi [10].

Mazkur huquqiy doktrina ilk bor Germaniya Federal Konstitutsiyaviy sudi tomonidan 1983-yildagi mashhur "Aholini ro'yxatga olish to'g'risidagi qaror (Volkszählungsurteil)"da shakllantirilgan. Sud mazkur qarorida shaxsning tibbiy va biologik ma'lumotlarini uning shaxsiy hayoti va inson qadr-qimmatining ajralmas qismi sifatida baholab, bunday ma'lumotlarga ruxsatsiz aralashuv Asosiy qonunning 1-moddasi (inson qadr-qimmati) va 2-moddasi (shaxs erkinligi) buzilishiga olib kelishini ta'kidlagan [11].

Germaniya sud amaliyotida ushbu konstitutsiyaviy yondashuv tibbiy ma'lumotlarga nisbatan izchil qo'llaniladi. Federal Konstitutsiyaviy sud va federal yerlar sudlari tibbiy, anatomik va fiziologik ma'lumotlarni yuqori darajadagi maxfiylikka ega axborot sifatida baholab, ularni qayta ishlash faqat aniq huquqiy asos mavjud bo'lgan taqdirda yo'l qo'yilishini belgilaydi. Ayniqsa, shaxsni bevosita yoki bilvosita identifikatsiya qilish imkonini beruvchi biometrik va biologik ma'lumotlarga nisbatan kuchaytirilgan proporsionallik testi qo'llaniladi [12].

Qonunchilik darajasida mazkur yondashuv birinchi navbatda Germaniya Asosiy qonuni bilan mustahkamlangan. Asosiy qonunning 1-moddasi inson qadr-qimmatining daxlsizligini e'lon qilgan bo'lsa, 2-moddasi shaxsning erkin rivojlanish huquqini kafolatlaydi. Federal Konstitutsiyaviy sud ushbu normalarni keng talqin qilib, shaxsning tibbiy va biologik ma'lumotlarini aynan ushbu konstitutsiyaviy kafolatlar doirasida himoya qiladi.

Bundan tashqari, Germaniyada tibbiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashda Yevropa Ittifoqining Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti muhim o'rin tutadi. GDPRning 9-moddasiga muvofiq, sog'liq holati, biometrik va genetik ma'lumotlar "maxsus toifadagi shaxsga doir ma'lumotlar" sifatida e'tirof etilib, ularni qayta ishlash, qoida tariqasida, taqiqlanadi [13].

Germaniya sudlari ushbu normani bevosita qo'llab, tibbiyot muassasalari va sug'urta tashkilotlarining anatomik va fiziologik ma'lumotlardan foydalanishini: subyektning aniq va ongli roziligi, qonunda bevosita nazarda tutilgan istisno holatlar, va qat'iy maqsadlilik doirasida amalga oshirishni talab qiladi.

Milliy darajada esa Federal ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi Qonun (BDSG) tibbiy ma'lumotlarga ishlov berishning aniq tartibini belgilaydi. Ushbu qonunga ko'ra, tibbiy ma'lumotlardan foydalanish faqat tibbiy xizmat ko'rsatish, sog'liqni saqlash tizimini yuritish yoki ijtimoiy sug'urta majburiyatlarini bajarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan hollardagina yo'l qo'yiladi. Qonun shuningdek, tibbiyot muassasalari zimmasiga kuchaytirilgan texnik va tashkiliy xavfsizlik choralari joriy etish majburiyatini yuklaydi [14].

Germaniya sud amaliyotida shartnoma huquqi ham tibbiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalari doirasida shifokor va tibbiyot muassasalariga bemorning anatomik va fiziologik ma'lumotlarini sir saqlash majburiyati yuklatilib, ushbu majburiyatlarning buzilishi nafaqat shartnomaviy, balki delikt javobgarligini ham keltirib chiqaradi. Sudlar bunday holatlarda bemorga yetkazilgan nomulkiy zarar mavjudligini prezumptsiya asosida e'tirof etib, kompensatsiya undirish amaliyotini keng qo'llaydi.

Germaniya sud amaliyoti va qonunchiligi tibbiy, ayniqsa anatomik va fiziologik ma'lumotlarni shaxsning axborotiy o'z taqdirini belgilash huquqining markaziy elementi sifatida baholab, ularni himoya qilishda konstitutsiyaviy normalar, shartnoma huquqi va maxsus axborot qonunchiligini kompleks tarzda qo'llaydi. Ushbu yondashuv tibbiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashda kuchaytirilgan fuqaroviy-huquqiy mexanizmlarning samarali ishlashini ta'minlaydi.

Fransiya huquqiy tizimida tibbiy ma'lumotlar, ayniqsa bemorning anatomik va fiziologik xususiyatlariga oid axborot shaxsiy hayot daxlsizligining asosiy elementi sifatida baholanadi. Sud amaliyotida bunday ma'lumotlarni muhofaza qilish shifokor va tibbiyot muassasalarining ikki yoqlama huquqiy javobgarligi shartnomaviy majburiyatlar va delikt javobgarligi orqali ta'minlanadi.

Mazkur yondashuv izchil ravishda Fransiya Kassatsiya sudi amaliyotida shakllantirilgan. Kassatsiya sudi tibbiy sirni saqlash majburiyatini tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasining ajralmas elementi sifatida e'tirof etib, uning buzilishi shartnoma majburiyatlarini buzish bilan bir qatorda mustaqil delikt tarkibini ham vujudga keltirishi mumkinligini tan oladi.

Sud amaliyotida muhim precedentsial ahamiyatga ega bo'lgan qarorlardan birida Kassatsiya sudi shifokor tomonidan bemorning sog'lig'i va fiziologik holatiga oid ma'lumotlarning uchinchi shaxslarga oshkor etilishini shaxsiy hayotga noqonuniy aralashuv sifatida baholab, shifokorning fuqaroviy javobgarligini belgilagan. Sud bu holatda bemorga yetkazilgan nomulkiy zararni to'liq isbotlab o'tirishi shart emasligini, chunki tibbiy sirning buzilishi o'z-o'zidan ma'naviy zarar yetkazilganini anglatishini ta'kidlagan (*préjudice moral présumé*).

Mazkur sud pozitsiyasi Fransiya fuqarolik qonunchiligida mustahkamlangan normalar bilan uyg'unlashadi. Xususan, "Fransiya Fuqarolik kodeksi"ning 9-moddasida har bir shaxs o'z shaxsiy hayotining daxlsizligiga bo'lgan huquqqa ega ekanligi belgilangan. Kassatsiya sudi mazkur normani keng talqin qilib, tibbiy, anatomik va fiziologik ma'lumotlarni shaxsiy hayotning eng maxfiy sohasi sifatida baholaydi [15].

Bundan tashqari, tibbiy sirni saqlash majburiyati Fransiya Jamoat salomatligi kodeksi (*Code de la santé publique*) bilan ham bevosita mustahkamlangan. Mazkur kodeksga muvofiq, shifokorlar va tibbiyot muassasalari bemorning sog'lig'i, tashxisi, fiziologik holati va davolanishiga oid barcha ma'lumotlarni qat'iy maxfiy saqlashi shart. Ushbu majburiyatning buzilishi nafaqat intizomiy yoki ma'muriy, balki fuqaroviy-huquqiy javobgarlikni ham keltirib chiqaradi.

Fransiya sudlari, ayniqsa anatomik va fiziologik tibbiy ma'lumotlar oshkor etilgan hollarda, nomulkiy zarar mavjudligini soddalashtirilgan tartibda tan oladi. Sud amaliyotida bunday zarar "shaxsiy hayotga tajovuz" sifatida baholanib, uning miqdorini belgilashda oshkor etilgan ma'lumotlarning tabiati, ularning sezgirligi va bemorning shaxsiy hayotiga ko'rsatgan ta'siri inobatga olinadi. Natijada, bemor foydasiga kompensatsiya undirish amaliyoti keng qo'llaniladi va isbotlash yuki sezilarli darajada yengillashtiriladi [16].

Shuningdek, Fransiyada tibbiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashda Yevropa Ittifoqining Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti normalari ham muhim rol o'ynaydi. GDPRning 9-moddasiga muvofiq, sog'liq holati, biometrik va genetik ma'lumotlar maxsus toifadagi shaxsga doir ma'lumotlar sifatida e'tirof etilib, ularni qayta ishlash faqat qat'iy belgilangan shartlar asosida yo'l qo'yiladi. Fransiya sudlari ushbu normalarni bevosita qo'llab, tibbiyot muassasalari va sug'urta tashkilotlarining anatomik va fiziologik ma'lumotlardan foydalanishini rozilik, maqsadlilik va proporsionallik tamoyillari bilan bog'laydi.

Xulosa qilib aytganda, Fransiya sud amaliyoti va qonunchiligi tibbiy, ayniqsa anatomik va fiziologik ma'lumotlarni shaxsiy hayot daxlsizligining markaziy elementi sifatida e'tirof etib, ularni himoya qilishda shartnomaviy majburiyatlar va delikt javobgarligini parallel qo'llaydi. Nomulkiy zarar mavjudligini isbotlashning soddalashtirilgan yondashuvi esa bemor huquqlarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda ham tibbiy, jumladan anatomik va fiziologik ma'lumotlarning noqonuniy oshkor etilishi bilan bog'liq sud ishlari mavjud bo'lib, ular fuqarolik sudlari tomonidan shaxsiy nomoddiy huquqlarni himoya qilish doirasida ko'rib chiqiladi. Biroq xorijiy davlatlar amaliyotidan farqli ravishda, mazkur sohada yagona precedentsial yondashuv va ochiq sud qarorlari tizimi yetarli darajada shakllanmagan.

Xorijiy va milliy sud amaliyotini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tibbiy, ayniqsa anatomik va fiziologik ma'lumotlar shaxsiy nomoddiy huquqlarning yadro elementini tashkil etadi hamda ularni himoya qilishda shartnomaviy majburiyatlar, delikt javobgarligi va maxsus axborot qonunchiligi kompleks qo'llanilishi zarur; shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasida tibbiy ma'lumotlar bo'yicha sud amaliyotini tizimlashtirish va nomulkiy zarar prezumpsiyasini (tibbiy sir buzilganda zarar mavjudligini taxmin qilish) joriy etish maqsadga muvofiqdir.

### IQTIBOSLAR/ЧОСКИ/REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" (27.06.2019-y.).
2. Yusupova F.- Sog'liqni saqlash sohasida shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashning huquqiy jihatlari *"Yurisprudensiya"* huquqiy ilmiy-amaliy jurnali, 2024-yil 5-son.
3. Юсупова Ф. - Медицинские услуги в эпоху цифровой трансформации: правовые аспекты телемедицины *Том 4 № 4 (2025): Научный журна «Legalitas»* <https://legalitas.semuniver.kz/index.php/main/article/view/143>
4. Kudinova K.I. Tibbiyot sohasida zarar qoplash majburiyatlari va tibbiy axborot sifati/ishonchligi bilan bog'liq risklar bo'yicha ilmiy yondashuvlar (ilmiy maqola/monografiya).
5. Makarychev A.G.; Strokova O.G.; Moiseeva M.A. Tibbiy xizmatlar majburiyatlarining o'ziga xosligi, natijaning kafolatlanmasligi, xizmat sifati obyektiv baholash muammolari hamda bemor huquqlarini himoya qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar (ilmiy maqola/monografiyalar to'plami).
6. Shojaei, P.; Vlahu-Gjorgievska, E.; Chow, Y.-W. Security and Privacy of Technologies in Health Information Systems: A Systematic Literature Review. *Computers* **2024**, *13*, 41. <https://doi.org/10.3390/computers13020041>.
7. Warren SD, Brandeis LD. The right to privacy. *Harv Law Rev.* 1890;4(5):193–22. <https://www.cs.cornell.edu/~shmat/courses/cs5436/warren-brandeis.pdf>
8. Yevropa Ittifoqi: Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 (GDPR) — xususan 9-modda (maxsus toifadagi ma'lumotlar). <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2016/679/oj>
9. Germaniya Federal ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi Qonuni (Bundesdatenschutzgesetz, BDSG) [https://www.gesetze-im-internet.de/bdsg\\_2018/](https://www.gesetze-im-internet.de/bdsg_2018/).
10. Germaniya Asosiy Qonuni (Grundgesetz) — 1-modda (inson qadr-qimmat), 2-modda (shaxs erkinligi) <https://www.gesetze-im-internet.de/gg/BJNR000010949.html>.
11. Germaniya Federal Konstitutsiyaviy sudi qarori: Volkszählungsurteil (Aholini ro'yxatga olish bo'yicha qaror), 1983-y. (Recht auf informationelle Selbstbestimmung doktrinasi) <https://www.uni-potsdam.de/de/rechtskunde-online/rechtsgebiete/oeffentliches-recht/grundrechte/allgemeines-persoennlichkeitsrecht-art-2-ivm-1-gg-apr>.
12. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa Konvensiyasi (ECHR) — 8-modda (shaxsiy va oilaviy hayotga hurmat) [https://www.europarl.europa.eu/about-parliament/en/democracy-and-human-rights/fundamental-rights-in-the-eu?&at\\_campaign=2024-AboutParliament&at\\_medium=Google\\_Ads&at\\_platform=Search&at\\_creation=RSA&at\\_goal=TR\\_G&at\\_advertiser=Webcomm&at\\_topic=Fundamental&at\\_location=FR&gad\\_source=1&gad\\_campaignid=23089612950&gbraid=0AAAABBTTrHUnOveUr8OYlUjUX21ZsboQJ3W&gclid=Cj0KCQiA49XMBhDRARIsA0OKJHZGuup1r6oC2OX07a2pm1FRcQLwYhw4PsPtndW4IzPGWAAaSKtUY3XgaArHZEALw\\_wcB](https://www.europarl.europa.eu/about-parliament/en/democracy-and-human-rights/fundamental-rights-in-the-eu?&at_campaign=2024-AboutParliament&at_medium=Google_Ads&at_platform=Search&at_creation=RSA&at_goal=TR_G&at_advertiser=Webcomm&at_topic=Fundamental&at_location=FR&gad_source=1&gad_campaignid=23089612950&gbraid=0AAAABBTTrHUnOveUr8OYlUjUX21ZsboQJ3W&gclid=Cj0KCQiA49XMBhDRARIsA0OKJHZGuup1r6oC2OX07a2pm1FRcQLwYhw4PsPtndW4IzPGWAAaSKtUY3XgaArHZEALw_wcB).
13. Yevropa Inson Huquqlari Sudi: Z. v. Finland (tibbiy axborot maxfiyligi va oshkor etilishi bo'yicha yondashuv). <https://hudoc.echr.coe.int/rus#%7B%22itemid%22:%5B%22001-58033%22%5D%7D>
14. Yevropa Inson Huquqlari Sudi: I. v. Finland (tibbiy axborot tizimlarida ruxsatsiz kirish va davlatning ijobiy majburiyatlari). <https://hudoc.echr.coe.int/rus#%7B%22itemid%22:%5B%22001-58033%22%5D%7D>
15. Fransiya Fuqarolik kodeksi (Code civil) — 9-modda (shaxsiy hayot daxlsizligi) [https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte\\_lc/LEGITEXT000006070721/](https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000006070721/).
16. Fransiya Jamoat salomatligi kodeksi (Code de la santé publique) — tibbiy sir (secret médical)ni saqlash majburiyatiga oid normalar. [https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte\\_lc/LEGITEXT000006072665/](https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000006072665/)

**КУДАЙБЕРГЕНОВ БАХТИЯР**

Адвокат адвокатского бюро «Argumentum»,  
международный профессиональный медиатор,  
советник юстиции 2 класса  
E-mail: [rus7007@mail.ru](mailto:rus7007@mail.ru)

## **ПРОЦЕДУРЫ И ПРАКТИКА ВЕДУЩИХ АРБИТРАЖНЫХ ИНСТИТУТОВ (ТІАС, ІСС, LCІА, SIAC, МКАС ПРИ ТПП РФ): УНИКАЛЬНОСТЬ ИХ ПОДХОДОВ К РАЗРЕШЕНИЮ СПОРОВ**

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**  
**КУДАЙБЕРГЕНОВ Б.** Процедуры и практика ведущих арбитражных институтов (ТІАС, ІСС, LCІА, SIAC, МКАС ПРИ ТПП РФ): уникальность их подходов к разрешению споров // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2026) С. 62-72.

### **АННОТАЦИЯ**

Настоящая статья посвящена сравнительно-правовому анализу процедур и практики ведущих международных и региональных арбитражных институтов: Международного арбитражного суда при Международной торговой палате (ICC), Лондонского международного арбитражного суда (LCIA), Сингапурского международного арбитражного центра (SIAC), Международного коммерческого арбитражного суда при Торгово-промышленной палате Российской Федерации и Ташкентского международного арбитражного центра (ТІАС).

Актуальность обусловлена усилением конкуренции между арбитражными центрами и возрастанием роли институциональных процедур при выборе сторонами арбитражного форума. Цель статьи состоит в выявлении институциональных и процессуальных особенностей указанных центров и определении их значения для разрешения трансграничных коммерческих споров. Методологическую основу составляют формально-юридический, сравнительно-правовой и аналитический методы, а также анализ арбитражных регламентов и правоприменительной практики. В результате установлено, что при сохранении универсальных принципов международного арбитража рассматриваемые институты формируют различные модели администрирования споров. Эти модели различаются степенью институционального контроля, уровнем цифровизации, механизмами ускоренного разбирательства и подходами к обеспечению независимости арбитров.

**Ключевые слова:** международный коммерческий арбитраж, арбитражные институты, арбитражные процедуры, институциональный арбитраж, трансграничные споры, арбитражные регламенты, альтернативное разрешение споров.

**KUDAYBERGENOV BAXTIYAR**

“Argumentum” advokatlik byurosining advokati,  
Xalqaro professional mediator,  
2-darajali adliya maslahatchisi  
E-mail: [rus7007@mail.ru](mailto:rus7007@mail.ru)

## **YETAKCHI ARBITRAJ INSTITUTLARINING (TIAC, ICC, LCIA, SIAC, RF SSP HUZURIDAGI XTAS) TARTIB-QOIDALARI VA AMALIYOTI: ULARNING NIZOLARNI HAL ETISHDAGI YONDASHUVLARINING O‘ZIGA XOSLIGI**

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola yetakchi xalqaro va mintaqaviy arbitraj institutlari: Xalqaro savdo palatasi huzuridagi Xalqaro arbitraj sudi (ICC), London xalqaro arbitraj sudi (LCIA), Singapur xalqaro arbitraj markazi (SIAC), Rossiya Federatsiyasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Xalqaro tijorat arbitraj sudi va Toshkent xalqaro arbitraj markazi (TIAC) tartib-qoidalarini va amaliyotining qiyosiy-huquqiy tahliliga bag‘ishlangan.

Arbitraj markazlari o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi va tomonlarning arbitraj forumini tanlashida institutsional tartib-qoidalar rolining oshishi dolzarblik kasb etmoqda. Maqolaning maqsadi mazkur markazlarning institutsional va protsessual xususiyatlarini aniqlash hamda transchegaraviy tijorat nizolarini hal etishdagi ahamiyatini belgilashdir. Uslubiy asosni rasmiy-yuridik, qiyosiy-huquqiy va tahliliy usullar, shuningdek arbitraj reglamentlari va huquqni qo‘llash amaliyoti tahlili tashkil etadi. Natijada, xalqaro arbitrajning universal tamoyillarini saqlab qolgan holda, ko‘rib chiqilayotgan institutlar nizolarni boshqarishning turli modellarini shakllantirishi aniqlandi. Ushbu modellar institutsional nazorat darajasi, raqamlashtirish darajasi, tezkor sud muhokamasi mexanizmlari va hakamlarning mustaqilligini ta‘minlash yondashuvlari bilan farqlanadi.

**Kalit so‘zlar:** xalqaro tijorat arbitraji, arbitraj institutlari, arbitraj tartib-qoidalarini, institutsional arbitraj, transchegaraviy nizolar, arbitraj reglamentlari, nizolarni muqobil hal etish usullari.

**BAKHTIYAR KUDAYBERGENOV**

Advocate at the “Argumentum” law firm  
International professional mediator  
Justice Advisor of the 2nd class  
E-mail: [rus7007@mail.ru](mailto:rus7007@mail.ru)

## **PROCEDURES AND PRACTICES OF LEADING ARBITRATION INSTITUTIONS (TIAC, ICC, LCIA, SIAC, ICAC AT THE RF CCI): THE UNIQUENESS OF THEIR APPROACHES TO DISPUTE RESOLUTION**

**ANNOTATION**

This article presents a comparative legal analysis of the procedures and practices of leading international and regional arbitration institutions: the International Court of Arbitration of the International Chamber of Commerce (ICC), the London Court of International Arbitration (LCIA), the Singapore International Arbitration Centre (SIAC), the International Commercial Arbitration Court at the Chamber of Commerce and Industry of the Russian Federation, and the Tashkent International Arbitration Centre (TIAC).

The relevance of this study is due to increased competition among arbitration centers and the growing importance of institutional procedures in the parties’ selection of an arbitration forum. The aim of the article

is to identify the institutional and procedural features of these centers and to determine their significance for resolving cross-border commercial disputes. The methodological foundation comprises formal legal, comparative legal, and analytical methods, as well as analysis of arbitration rules and enforcement practices. The study finds that while maintaining the universal principles of international arbitration, the institutions under consideration have developed different models of dispute administration. These models vary in the degree of institutional oversight, level of digitalization, mechanisms for expedited proceedings, and approaches to ensuring arbitrator independence.

**Keywords:** international commercial arbitration, arbitration institutions, arbitration procedures, institutional arbitration, cross-border disputes, arbitration rules, alternative dispute resolution.

Международный коммерческий арбитраж занимает устойчивое и системообразующее положение в механизме разрешения трансграничных торговых и инвестиционных споров. Он выступает признанной альтернативой государственному судопроизводству. Его роль существенно усилилась в условиях глобализации мировой экономики, роста объёма международных контрактов и вовлечения субъектов из различных правовых систем в единое экономическое пространство [1].

Арбитраж обеспечивает процессуальную гибкость, нейтральность форума и конфиденциальность разбирательства. Дополнительным преимуществом является возможность трансграничного признания и исполнения решений, что делает данный механизм предпочтительным инструментом защиты интересов участников международного оборота. Нормативную основу международного коммерческого арбитража формируют универсальные международно-правовые акты. К ним относятся Конвенция о признании и приведении в исполнение иностранных арбитражных решений 1958 года, Типовой закон ЮНСИТРАЛ о международном коммерческом арбитраже 1985 года (в редакции 2006 года), а также национальные законы об арбитраже и регламенты институциональных центров. Указанные источники закрепляют принципы автономии воли сторон, состязательности, равенства участников процесса и минимального вмешательства государственных судов [2].

Правоприменительная практика показывает, что эффективность разбирательства определяется не только международными стандартами, но и спецификой процедур конкретного института, его административной моделью и механизмами внутреннего контроля качества решений.

В настоящее время заметно усиление конкуренции между арбитражными центрами. Это свидетельствует о возрастании значения институциональных процедур при формировании арбитражных оговорок в международных договорах. Кроме того, наличие ускоренных процедур, механизмов предварительного контроля решений, цифровизация документооборота и слушаний, а также стандарты раскрытия информации и обеспечения независимости арбитров напрямую влияют на привлекательность арбитражного института.

В современных условиях выбор арбитражного центра становится стратегическим решением, определяющим распределение процессуальных рисков и перспективы исполнения решения.

Комплексном анализом процедур и практики ведущих арбитражных институтов считается: Международный арбитражный суд при Международной торговой палате (ICC), Лондонский международный арбитражный суд (LCIA), Сингапурский международный арбитражный центр (SIAC), Ташкентский международный арбитражный центр (TIAC) и Международный коммерческий арбитражный суд при Торгово-промышленной палате Российской Федерации (МКАС при ТПП РФ). Задачей является выявление их институциональных особенностей и определение уникальных подходов к управлению арбитражным процессом.

В условиях трансформации мировой экономики международный арбитраж приобретает не только юридическое, но и стратегическое значение. Рост многосторонних контрактов, развитие цифровых технологий и региональная интеграция стимулируют формирование новых арбитражных центров. Анализ практики как признанных мировых институтов, так и сравнительно новых площадок позволяет выявить тенденции эволюции институционального арбитража. Исходя из этого можно сказать что институциональных особенностей ведущих арбитражных центров имеет как теоретическое, так и прикладное значение. Выбор арбитражного форума напрямую влияет на структуру процессуальных прав сторон, характер управления делом и общую эффективность разрешения международных коммерческих споров.

Международный арбитражный суд при Международной торговой палате (ICC) является одним из наиболее признанных и институционально устойчивых арбитражных центров в мировой практике. Его деятельность основывается на Арбитражном регламенте ICC, который сочетает высокий уровень институционального администрирования с гибкостью процедурного регулирования. Особенностью модели ICC выступает активная роль Секретариата и Арбитражного суда ICC в управлении процессом, что позволяет обеспечивать единообразие стандартов рассмотрения споров. Ключевой характеристикой арбитража ICC является механизм предварительной проверки (scrutiny) проектов арбитражных решений [3].

Данный инструмент предполагает обязательное рассмотрение проекта решения Арбитражным судом ICC до его вынесения сторонам. Хотя Суд не пересматривает спор, по существу, он вправе обращать внимание арбитров на возможные процессуальные нарушения, недостаточную мотивированность выводов, противоречия в формулировках и иные аспекты, способные повлиять на юридическую устойчивость решения. Такая процедура способствует повышению качества арбитражных актов и снижает риск их отмены либо отказа в признании и приведении в исполнение. Институциональный контроль ICC тем самым выступает дополнительной гарантией процессуальной корректности и юридической определённости.

**Таблица 1 - Статистические показатели деятельности ведущих арбитражных институтов (по данным ежегодных отчетов за последние годы)**

Арбитражный институт	Среднее количество новых дел в год	Средняя стоимость споров	Доля ускоренных процедур	Институциональная модель
ICC	Более 800	Часто превышает 50 млн долл. США	Более 25 %	Институциональный контроль и предварительная проверка решений (scrutiny)
LCIA	Около 300	Средняя и высокая стоимость	Ограниченное применение	Процессуальная автономия и минимальное институциональное вмешательство
SIAC	Более 500	Преимущественно средняя стоимость	Более 25 %	Ускоренные процедуры и цифровизация процесса

*Источник: составлено автором на основе официальных ежегодных отчетов ICC, LCIA и SIAC за последние годы.*

#### 1. Международный арбитражный суд при Международной торговой палате (ICC)

Международный арбитражный суд при Международной торговой палате относится к числу наиболее авторитетных и институционально развитых арбитражных центров. Его

деятельность регулируется Арбитражным регламентом ICC, который сочетает гибкость процедур с высоким уровнем административного контроля.

Ключевой особенностью модели ICC является механизм предварительной проверки проектов арбитражных решений (scrutiny). До направления решения сторонам его проект подлежит обязательному рассмотрению Арбитражным судом ICC. Суд не пересматривает спор, по существу, однако вправе указать на процессуальные недостатки, логические противоречия либо недостаточную мотивированность выводов. Такой механизм повышает юридическую устойчивость решений и снижает риск их отмены или отказа в признании и приведении в исполнение. Регламент ICC предусматривает инструменты управления сложными спорами: консолидацию дел, присоединение дополнительных сторон, назначение чрезвычайного арбитра и применение ускоренной процедуры. Высокая степень институционального администрирования обеспечивает процессуальную стандартизацию, но одновременно увеличивает стоимость разбирательства. В результате ICC преимущественно используется для рассмотрения сложных и экономически значимых трансграничных споров.

#### 2. Лондонский международный арбитражный суд (LCIA)

Модель LCIA основана на минимальном институциональном вмешательстве и приоритете автономии сторон. Регламент предоставляет арбитрам широкие дискреционные полномочия в вопросах процессуального управления, включая порядок представления доказательств и организацию слушаний. В отличие от ICC, LCIA не применяет обязательную процедуру проверки проектов решений. Институт исходит из доверия к профессионализму арбитров и процессуальных гарантий их независимости. Существенным преимуществом LCIA является высокий уровень конфиденциальности разбирательства. Дополнительным фактором привлекательности выступает поддерживающая позиция английских судов, придерживающихся принципа минимального вмешательства в арбитраж. Вместе с тем отсутствие механизма институционального контроля качества решения усиливает зависимость итогового результата от компетентности конкретного состава арбитража.

#### 3. Сингапурский международный арбитражный центр (SIAC)

SIAC представляет собой динамично развивающийся арбитражный институт, ориентированный на процессуальную эффективность. Регламент центра активно предусматривает применение ускоренных процедур, включая рассмотрение дела единоличным арбитром в сокращённые сроки. Отличительной особенностью SIAC является широкое использование цифровых инструментов: электронного документооборота, дистанционных слушаний и онлайн-управления делами. Такая модель способствует снижению временных и финансовых затрат. В совокупности указанные элементы формируют технологически ориентированную модель арбитража, востребованную в спорах средней стоимости и в делах, требующих оперативного разрешения.

#### 4. Ташкентский международный арбитражный центр (TIAC)

Ташкентский международный арбитражный центр является сравнительно новым институтом, созданным в рамках модернизации правовой системы Республики Узбекистан. Его регламент основан на положениях Типового закона ЮНСИТРАЛ и учитывает практику ведущих мировых арбитражных центров. К особенностям TIAC относятся многоязычность процедур, гибкость процессуального регулирования и ориентация на цифровые формы администрирования. Центр позиционируется как региональная нейтральная площадка для разрешения споров в Центральной Азии. Вместе с тем институт находится на стадии формирования устойчивой практики. Дальнейшее развитие репутационного капитала и накопление прецедентной базы остаются ключевыми задачами его институционального укрепления.

### 5. Международный коммерческий арбитражный суд при ТПП РФ (МКАС)

МКАС при Торгово-промышленной палате Российской Федерации является одним из старейших арбитражных институтов на постсоветском пространстве. Его деятельность гармонизирована с международными стандартами и основана на принципах Типового закона ЮНСИТРАЛ. Особенность МКАС заключается в сочетании международных процедурных стандартов с национальной правовой традицией. Институт сохраняет устойчивые позиции в разрешении внешнеэкономических споров в регионе. В то же время влияние национальной судебной практики на вопросы признания и исполнения решений может восприниматься участниками оборота как фактор дополнительной правовой неопределённости [4].

**Таблица 2 - Сравнительная характеристика процедур и институциональных подходов ведущих арбитражных институтов**

Арбитражный институт	Процедурная модель	Институциональный подход
ICC	Регламентированная, с многоступенчатым контролем	Активное администрирование и механизм scrutiny
LCIA	Гибкая, ориентированная на автономию сторон	Минимальное вмешательство института
SIAC	Ускоренная, технологически интегрированная	Цифровизация и процессуальная эффективность
TIAC	Адаптивная, регионально ориентированная	Формирование новой институциональной модели
МКАС	Классическая институциональная модель	Преимственность и сочетание международных и национальных стандартов

*Источник: составлено автором на основе регламентов ICC, LCIA, SIAC, TIAC, МКАС при ТПП РФ и Типового закона ЮНСИТРАЛ.*

Представленная в таблице сравнительная характеристика ведущих арбитражных институтов позволяет выявить как общие черты, присущие международному коммерческому арбитражу в целом, так и существенные институциональные различия, формирующие уникальные модели разрешения споров. Все рассматриваемые арбитражные центры функционируют в рамках международно-признанных стандартов, основанных на принципах автономии воли сторон, процессуального равенства и независимости арбитров, что обеспечивает сопоставимый уровень легитимности и доверия к их решениям. Вместе с тем различия проявляются прежде всего в степени институционального контроля и характере процессуального управления.

Международный арбитражный суд при Международной торговой палате отличается высокой степенью институционального надзора, выражающейся в обязательной проверке проектов арбитражных решений, что способствует повышению их юридического качества и снижению риска отмены или отказа в признании. В отличие от него, Лондонский международный арбитражный суд ориентирован на минимальное вмешательство института в процесс разбирательства, предоставляя арбитрам и сторонам значительную процессуальную свободу, что особенно ценится в спорах, требующих гибкости и конфиденциальности [5].

Проведённое сопоставление позволяет выделить несколько институциональных моделей международного арбитража:

1. ICC реализует модель усиленного административного контроля, направленную на обеспечение качества и устойчивости решений.

2. LCIA придерживается концепции процессуальной автономии и минимального вмешательства института.

3. SIAC ориентирован на оперативность и технологическую модернизацию арбитражного процесса.

4. TIAC формирует регионально ориентированную модель с акцентом на гибкость и цифровизацию.

5. MKAC сочетает международные стандарты с национальной правовой традицией

Различия между указанными моделями носят функциональный характер. Они напрямую влияют на продолжительность процедуры, уровень расходов, степень формализации процесса и институциональные гарантии качества решения. Выбор арбитражного института, таким образом, приобретает стратегическое значение и должен осуществляться с учётом сложности спора, его стоимости и ожидаемой модели процессуального управления. Научные пробелы и теоретические подходы. Анализ современной научной литературы позволяет выделить три основных теоретических подхода к исследованию институционального арбитража:

Первый подход – нормативный. Он рассматривает арбитражные институты преимущественно через призму соответствия международным стандартам и принципам Типового закона ЮНСИТРАЛ. Недостатком данного подхода является ограниченность анализа фактической административной практики.

Второй подход – институционально-управленческий. В его рамках арбитраж оценивается как система процессуального менеджмента спора. Данный подход позволяет выявить различия в моделях администрирования, однако редко опирается на эмпирические данные.

Третий подход – экономико-процессуальный. Он анализирует арбитраж через категории эффективности, транзакционных издержек и конкурентоспособности института. Несмотря на практическую значимость, данный подход недостаточно развит в отечественной доктрине.

Для наглядности рассмотрим два примера международных арбитражных судов ICC (период с 2012-2024 г.г.) и TIAC (период с 2018-2024 г.г.) из анализа:

Пример 1: Международный арбитражный суд при Международная торговая палата (ICC): применение института **“чрезвычайного арбитража”** (Emergency Arbitrator)

**Суть уникального подхода:** В правилах ICC предусмотрена процедура назначения *экстренного арбитра* (Emergency Arbitrator) для выдачи **срочных обеспечительных мер** до того, как будет сформирован основной арбитражный трибунал. Эта процедура имеет свои особенности, отличающие ICC от многих других институтов, это:

1. Назначение чрезвычайного арбитра происходит очень быстро –обычно в течение нескольких дней;

2. Арбитр вправе выносить **временные распоряжения до начала основного арбитража**;

3. Стороны, в ряде случаев, достигают соглашения или регулируют спор **ещё до формирования полноценного трибунала** благодаря ранним мерам.

**Рассмотрим пример из практики ICC:** В отчёте ICC (<https://iccwbo.org/news-publications/policies-reports/icc-trade-register-report/>. <https://iccwbo.org/news-publications/arbitration-adr-rules-and-tools/emergency-arbitrator-proceedings-icc-arbitration-and-adr-commission-report/>) рассматривались порядка 80 дел с участием чрезвычайных арбитров.

В ряде таких случаев:

– стороны достигали **мирного урегулирования ещё до вынесения окончательного решения**, так как экстренный арбитр успевал установить параметры взаимодействия и параметры временных мер;

– в других делах экстренный арбитр выносил распоряжения, фактически **сохранявшие статус-кво** до рассмотрения по существу, тем самым предотвращая значительные убытки для стороны, запрашивающей меры.

**Важность метода:** ИСС демонстрирует, как институциональные правила могут обеспечить *очень быстрый и гибкий механизм принятия временных мер* особенно актуальный для международных коммерческих споров с высокими временными рисками (например, связанные с поставками, удержанием активов и др.).

Пример 2: Ташкентский международный арбитражный центр (ТИАС): цифровые технологии и гибкость процедур

Уникальность подхода заключается в применении новых, современных механизмов организации процесса (процедуры) рассмотрения **споров**.

ТИАС, созданный при Торгово-промышленной палате Республики Узбекистан, активно внедряет *новые технологические и процессуальные механизмы*, отличающие его от классических международных арбитражей:

1. **Гибкие сроки рассмотрения** – дела часто рассматриваются в среднем в 6–8 месяцев;

2. **Акцент на цифровые доказательства** и возможность подачи материалов в электронном виде;

3. Предусмотрены специальные процессы для *технических споров* (например, демонстрация работы программного кода, эксперименты под контролем трибунала);

4. Имеются **уровни защиты конфиденциальной информации**, учитывающие современные киберриски;

5. Онлайн-платформа для подачи документов и проведение слушаний дистанционно.

**Удобство и современный подход из практики Центра:** В реальных спорах ТИАС рассматривал дела, где стороны из разных регионов (Европа–Азия–СНГ) использовали исключительно *цифровые доказательства* – электронные переписки, данные логистических систем, электронную документацию по цепочкам поставок. Арбитраж позволял не просто учитывать такие доказательства, но и предписывать порядок их представления с учётом коммерческой тайны и технической сложности.

**Важность метода:** ТИАС демонстрирует, что современные арбитражные институты отходят от традиционной бумажной и «физической» модели доказательств, адаптируясь под цифровую экономику и международные поставки. Эти практики особенно востребованы в делах, где доказательства имеют технологическую сложность (ИТ, логистика, лицензирование ПО и т.п.).

Теоретическая значимость работы заключается в развитии доктрины международного коммерческого арбитража через переосмысление институционального аспекта его функционирования. В отличие от традиционного нормативного анализа, сосредоточенного преимущественно на вопросах арбитрабельности, признания и исполнения решений, исследование акцентирует внимание на институциональной архитектуре администрирования споров в рамках ведущих арбитражных центров — Международный арбитражный суд при Международной торговой палате, Лондонский международный арбитражный суд, Сингапурский международный арбитражный центр, Ташкентский международный арбитражный центр и Международный коммерческий арбитражный суд при ТПП РФ [6].

Работа вносит вклад в теорию институционального арбитража посредством:

1. **Формирования типологии институциональных моделей** международного арбитража, основанной на степени административного контроля, уровне цифровизации и характере процессуального управления.

2. **Расширения понятийного аппарата** за счёт введения категории институциональной юридической устойчивости решения как самостоятельного аналитического критерия.

3. **Интеграции междисциплинарных подходов** (нормативного, институционально-управленческого и экономико-процессуального), что позволяет рассматривать арбитраж не только как правовую процедуру, но и как систему управления трансграничным конфликтом.

4. **Систематизации различий между глобальными и региональными арбитражными центрами**, что способствует развитию теории конкурентной модели международного арбитража [7].

Данная работа дополняет существующие научные концепции, раскрывая институциональный дизайн как самостоятельный фактор эволюции международной арбитражной инфраструктуры.

Практическая значимость работы состоит в возможности использования полученных выводов в правоприменительной, договорной и организационной деятельности субъектов международного коммерческого оборота.

Результаты изучения работы могут быть применены:

1. **При формировании арбитражных оговорок** в международных контрактах — для осознанного выбора арбитражного института с учётом характера спора, его стоимости, предполагаемой срочности и уровня процессуальных рисков.

2. **В деятельности адвокатов и арбитражных представителей** - для выработки процессуальной стратегии с учётом особенностей институционального администрирования конкретного центра.

3. **В работе арбитражных институтов и регуляторов** - при совершенствовании регламентов, внедрении цифровых механизмов и повышении транспарентности статистической отчётности.

4. **В учебном процессе** - при преподавании дисциплин «Международный коммерческий арбитраж», «Международное частное право», «Альтернативное разрешение споров».

5. **В нормотворческой деятельности** - при разработке и модернизации национального законодательства об арбитраже с учётом лучших институциональных практик [8].

Можно сказать, что практическая ценность изучения также проявляется в обосновании стратегического значения выбора арбитражного форума как инструмента управления юридическими и экономическими рисками трансграничной деятельности.

Таким образом, теоретическая значимость работы заключается в развитии концепции институционального арбитража как системы конкурирующих моделей процессуального администрирования, а практическая - в возможности использования полученных выводов для повышения эффективности договорной работы, правоприменительной практики и совершенствования арбитражной инфраструктуры на национальном и международном уровнях.

Говоря о научном пробеле, можно сказать, что это отсутствие комплексного междисциплинарного анализа, объединяющего нормативный, институциональный и статистический аспекты оценки арбитражных моделей.

Для совершенствования институционального арбитража, можно определить несколько предложений:

1. Целесообразно разработать унифицированные критерии оценки качества администрирования арбитражных дел, включая показатели сроков, стоимости и процента добровольного исполнения решений.

2. Рекомендуются расширение цифровых механизмов процессуального управления, включая обязательное использование электронных платформ подачи документов и дистанционных слушаний.

3. Представляется обоснованным внедрение механизмов частичной институциональной проверки решений в институтах, ориентированных на минимальное вмешательство, что повысит юридическую устойчивость актов.

4. Для региональных арбитражных центров необходимо формирование публичной статистической отчетности, что повысит прозрачность и доверие со стороны иностранных инвесторов.

5. В научной сфере требуется развитие эмпирических исследований институционального арбитража на основе количественных данных и сравнительной статистики.

Сравнительный анализ в таблицах 1 и 2 показывает, что ведущие арбитражные институты используют различные модели разрешения споров. ICC ориентирован на институциональный контроль и юридическую безопасность, LCIA – на автономию сторон и конфиденциальность, SIAC – на скорость и технологичность, TIAC – на институциональную новизну и региональную адаптацию, MKAC – на сочетание традиций и международных стандартов. Эти различия позволяют сторонам выбирать арбитражный институт с учетом характера спора, его сложности и экономической значимости [9].

Следовательно, современный международный коммерческий арбитраж представляет собой не унифицированную систему, а совокупность конкурирующих институциональных моделей, каждая из которых формирует собственный подход к процессуальному администрированию и управлению спором. Несмотря на общность нормативной основы, закреплённой в международных конвенциях и Типовом законе ЮНСИТРАЛ, практическая реализация арбитражных процедур существенно варьируется в зависимости от институциональной архитектуры конкретного арбитражного центра.

Сравнительный анализ так же показал, что различия между ведущими арбитражными институтами носят функциональный характер. Они проявляются в степени институционального контроля, характере администрирования, уровне цифровизации, механизмах обеспечения качества решений и темпах рассмотрения дел.

Международный арбитражный суд при Международной торговой палате реализует модель усиленного административного контроля, направленную на повышение юридической устойчивости решений. Лондонский международный арбитражный суд придерживается концепции процессуальной автономии и минимального институционального вмешательства.

Сингапурский международный арбитражный центр демонстрирует технологически ориентированную модель ускоренного арбитража. Ташкентский международный арбитражный центр формирует регионально интегрированную модель, сочетающую международные стандарты и цифровую инфраструктуру.

Международный коммерческий арбитражный суд при Торгово-промышленной палате Российской Федерации сохраняет модель институциональной преемственности, соединяющую международные нормы и национальную правовую традицию [10].

Установлено, что институциональные различия непосредственно влияют на продолжительность процедуры, уровень административных расходов, степень формализации процесса и предсказуемость итогового решения.

Таким образом, выбор арбитражного института приобретает стратегическое значение и должен осуществляться с учётом сложности спора, его экономической стоимости и трансграничного характера.

Результаты изучения свидетельствуют о тенденции к диверсификации институциональных моделей при сохранении единых базовых принципов международного арбитража. Перспективы дальнейшего развития связаны с углублением цифровизации процедур, совершенствованием механизмов институционального контроля и укреплением региональных арбитражных центров как элементов глобальной системы разрешения коммерческих споров.

#### **CHOCKI/IQTIBOSLAR /REFERENCES:**

1. Berger K. P. *The Creeping Codification of the New Lex Mercatoria*. 2nd ed. — Alphen aan den Rijn : Kluwer Law International, 2010. — 428 p.
2. Born G. B. *International Commercial Arbitration*. 3rd ed. — Alphen aan den Rijn : Kluwer Law International, 2021. — 4738 p.
3. Gaillard E., Savage J. (eds.). *Fouchard Gaillard Goldman on International Commercial Arbitration*. — The Hague : Kluwer Law International, 1999. — 1280 p.
4. Кабатова Е. В. *Международный коммерческий арбитраж*. — М. : Статут, 2016. — 352 с.
5. Комаров А. С. *Международный коммерческий арбитраж : учебник*. — М. : Норма, 2019. — 416 с.
6. Лебедев С. Н. *Международный коммерческий арбитраж и практика его применения*. — М. : Статут, 2017. — 480 с.
7. Розенберг М. Г. *Международный коммерческий арбитраж : практика и тенденции развития*. — М. : Статут, 2018. — 368 с.
8. Скворцов О. Н. *Международный коммерческий арбитраж : проблемы теории и практики*. — М. : Юстицинформ, 2020. — 304 с.
9. Van den Berg A. J. *The New York Arbitration Convention of 1958: Towards a Uniform Judicial Interpretation*. — The Hague : Kluwer Law International, 1981. — 464 p.
10. *United Nations Commission on International Trade Law. UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration (1985, with amendments as adopted in 2006)*. — New York : United Nations, 2008. — 98 p.

**AHROROVA Sayohat Akram qizi**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Biznes huquqi kafedrası o'qituvchisi  
E-mail: [sayohatahrorova@gmail.com](mailto:sayohatahrorova@gmail.com)

## SUN'IY INTELLEKT RAQOBAT HUQUQI KESIMIDA: HUQUQIY TARTIBGA SOLISHDAGI YANGI CHAQIRIQLAR

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):** AHROROVA S.A. Sun'iy intellekt raqobat huquqi kesimida: huquqiy tartibga solishdagi yangi chaqiriqlar // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2026) B. 73-82.

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sun'iy intellekt hamda uning raqobat huquqi doirasida huquqiy tartibga solish masalalari hamda ahamiyati yoritib beriladi. Bunda, asosan, sun'iy intellektning raqobat muhitiga qay darajada ta'sir o'tkazgani, uning raqamli bozordagi o'ziga xos jihatlari hamda raqobatga zid xatti-harakatlarni keltirib chiqarishi bilan bog'liq jihatlari tahlil ostiga olinadi. Raqamli bozorning yangi avlod vakillari sanalmish sun'iy intellekt hamda uning mevasi hisoblanadigan ChatGPT, AI va shu kabi data yordamchilar an'anaviy bozorlarda uchraydigan raqobatga zid xatti-harakatlarni qanday amalga oshirishi, bundagi subyekt masalasi hamda raqamli platformalarning dastlabki shakllaridan qanday o'ziga xos farqlari mavjudligi muallif tomonidan o'rganiladi va asosiy taklif-tavsiyalar xulosa sifatida ilgari suriladi.

Shuningdek, sun'iy intellekt tomonidan raqobatga zid harakatlarni kelib chiqishiga zamin yaratilishi natijasida qanday huquqiy oqibatlar yuzaga kelishi alohida o'rganiladi, jumladan, platformalar tomonidan ustun mavqeni suiiste'mol qilish, raqobatga zid kelishuvlar, muvofiqlashtirilgan xatti-harakatlar, iqtisodiy konsentratsiya va insofsiz raqobat kabilar shular jumlasidandir. Bundagi eng yirik muammo sifatida huquqiy tartibga solish mexanizmining mutlaqo mavjud emasligi aytilib, bugungi kunga kelib mahalliy bozorlarimizda ham sun'iy intellekt tomonidan raqobatga zid harakatlarni keltirib chiqarish holatlari kutilayotganiga katta urg'u beriladi. Raqobat huquqida bu borada hali yakdil qonun normalari ishlab chiqilmagan bo'lib, buning natijasida huquq tizimi oldida bir qator muammolar bo'y ko'rsatayotgani haqida ham bahsli munozaralar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, raqamli bozor, raqamli platformalar, insofsiz raqobat, iqtisodiy konsentratsiya, ustun mavqe, ustun muzokara kuchi, kartel kelishuvlar, muvofiqlashtirilgan harakatlar, raqobatga qarshi kelishuvlar.

**АХРОРОВА Саёхат**  
Ташкентский государственный юридический  
университет Преподаватель кафедры бизнес-права  
E-mail: [sayohatahrorova@gmail.com](mailto:sayohatahrorova@gmail.com)

## ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В КОНТЕКСТЕ КОНКУРЕНТНОГО ПРАВА: НОВЫЕ ВЫЗОВЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы и значение искусственного интеллекта, а также особенности его правового регулирования в рамках конкурентного права. В частности, анализируется степень воздействия искусственного интеллекта на конкурентную среду, его

специфические характеристики на цифровом рынке и аспекты, связанные с возникновением антиконкурентных действий. Автор исследует, каким образом искусственный интеллект, рассматриваемый как представитель нового поколения субъектов цифрового рынка, а также его продукты, такие как ChatGPT, системы на основе ИИ и иные дата-ассистенты могут способствовать реализации антиконкурентных практик, традиционно характерных для классических рынков. Особое внимание уделяется проблеме определения субъекта ответственности, а также выявлению отличительных особенностей цифровых платформ по сравнению с их первоначальными формами. Основные выводы и предложения представлены в заключительной части статьи.

Кроме того, отдельно анализируются возможные последствия, возникающие в результате создания искусственным интеллектом условий, способствующих формированию антиконкурентного поведения. К таким последствиям, в частности, относятся злоупотребление доминирующим положением со стороны платформ, антиконкурентные соглашения, согласованные действия, экономическая концентрация и недобросовестная конкуренция. В качестве одной из наиболее существенных проблем указывается полное отсутствие эффективного механизма правового регулирования, при этом особый акцент делается на возрастающей вероятности провоцирования искусственным интеллектом антиконкурентных действий. В рамках конкурентного права до настоящего времени не выработан единый комплекс правовых норм, регулирующих данные отношения, что, в свою очередь, порождает ряд серьезных проблем для правовой системы. В статье также ведутся дискуссионные обсуждения, посвященные существующим пробелам в регулировании.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, цифровой рынок, цифровые платформы, недобросовестная конкуренция, экономическая концентрация, доминирующее положение, превосходящая переговорная сила, картельные соглашения, согласованные действия, антиконкурентные соглашения.

**SAYOKHAT Akhrorova**

Tashkent State University of Law  
Lecturer at the Department of Business Law  
E-mail: [sayohatahrorova@gmail.com](mailto:sayohatahrorova@gmail.com)

## ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE CONTEXT OF COMPETITION LAW: NEW CHALLENGES IN LEGAL REGULATION

### ANNOTATION

This article examines the issues and significance of artificial intelligence and its legal regulation within the framework of competition law. In particular, the study analyzes the extent to which artificial intelligence affects the competitive environment, its distinctive features in the digital market, and its potential to give rise to anticompetitive conduct. The author explores how artificial intelligence considered a new generation actor in the digital market and its products, such as ChatGPT, AI-based systems, and other data-driven assistants, may facilitate anticompetitive practices traditionally observed in conventional markets. Special attention is paid to the issue of identifying the relevant subject of liability, as well as to the distinctive characteristics that differentiate digital platforms from their early forms. The main findings and recommendations are presented in the concluding section.

Furthermore, the article separately examines the potential consequences arising from artificial intelligence creating conditions conducive to anticompetitive behaviour. These consequences include, inter alia, abuse of a dominant position by platforms, anticompetitive agreements, concerted practices, economic concentration, and unfair competition. One of the most significant challenges identified is

the complete absence of an effective legal regulatory mechanism, with particular emphasis placed on the growing likelihood of artificial intelligence inducing anticompetitive conduct. Within the scope of competition law, there is still no unified set of legal norms addressing these issues, which in turn gives rise to a number of challenges for the legal system. The article also engages in critical discussions concerning these unresolved regulatory gaps.

**Keywords:** artificial intelligence, digital market, digital platforms, unfair competition, economic concentration, dominant position, superior bargaining power, cartel agreements, concerted practices, anticompetitive agreements.

So‘nggi yillarda sun‘iy intellekt (keyingi o‘rinlarda SI) sohasi misli ko‘rilmagan darajada jadal rivojlandi. Bu jarayon, ayniqsa, 2022-yil oxirida OpenAI tomonidan ChatGPT ishga tushirilishi bilan yaqqol namoyon bo‘ldi [1]. Mazkur texnologik yutuq generativ SI mahsulotlarining jadal ko‘payishiga turtki berdi: kompyuter kodini yozish, xatolarini aniqlash va optimallashtirishga xizmat qiluvchi kopilotlardan tortib, emotsional qo‘llab-quvvatlash va muloqot taklif etuvchi SI asosidagi virtual hamrohlarigacha bo‘lgan keng doiradagi xizmatlar paydo bo‘ldi. OpenAIning GPT modellari, Google‘ning Gemini hamda Anthropic‘ning Claude kabi yangi AI “foundation” modellari tayyorlanishi va ishlashi uchun zarur bo‘lgan GPU chiplariga bo‘lgan keskin talab Nvidia kompaniyasining 2024-yilda dunyodagi eng qimmat uchta kompaniyadan biriga aylanishiga olib keldi.

Raqobatni muhofaza qiluvchi organlar ushbu jarayonlarga alohida e‘tibor qaratmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri yirik texnologik kompaniyalarning, xususan, Google va Microsoft AI sohasidagi faol va chuqur ishtirokidir. AQSh Adliya vazirligi va Federal savdo komissiyasi, Yevropa Komissiyasi hamda Buyuk Britaniyaning Raqobat va bozorlar boshqarmasi yirik SI kompaniyalari va ularning biznes amaliyotlari yuzasidan antimonopoliya tekshiruvlarini boshlagan [2].

Bugungi kunda, O‘zbekiston Respublikasida sun‘iy intellekt yutuqlaridan samarali foydalanish bilan bir qatorda, iste‘molchilarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash maqsadida undan foydalanish chegaralarini belgilash uchun sohaning huquqiy asoslarini yaratish zaruriyati ham mavjuddir. Hozirgi kunda, sun‘iy intellekt doirasidagi mahalliy ijtimoiy munosabatlar bir qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinmoqda [3]. Ushbu hujjatlar bilan sun‘iy intellekt texnologiyalari sog‘liqni saqlash, ta‘lim, iqtisodiyot, ijtimoiy va davlat boshqaruvi kabi sohalarga tatbiq etilishi belgilangan. 2021-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida qarori qabul qilinishi ushbu sohadagi ishlarni bir tizimga solish va tashkillashtirish imkonini berdi. Jumladan, “Sun‘iy intellektga tayyorlik indeksida O‘zbekiston Respublikasi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi” tasdiqlandi. Unda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, davlat boshqaruvi tizimida sun‘iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish, qishloq xo‘jaligi, energetika, sog‘liqni saqlash, elektron hukumat sohalariga mazkur texnologiyalarni joriy etishga alohida e‘tibor qaratilgan. Ammo ushbu asoslar bugungi kun uchun yetarli emas deb baholanmoqda va bu o‘z o‘rnida biz tahlil ostiga olishimiz lozim deb qaralgan bir qator muammolarni o‘rganishni talab etadi.

### **Sun‘iy intellekt va raqobat huquqining kesishuv nuqtalari: asosiy muammolar.**

Sun‘iy intellektning (SI) zamonaviy tijorat faoliyatiga integratsiyalashuvi raqobat huquqi uchun bir vaqtning o‘zida mislsiz imkoniyatlar va mutlaqo yangi chaqiriqlarni yuzaga keltirdi. Aslida, raqobat siyosatining asosiy maqsadi iste‘molchilar farovonligini ta‘minlash, raqobatga zid amaliyotlarning oldini olish hamda bozorlarning innovatsiyalar uchun ochiq bo‘lib qolishini kafolatlashdan iborat. Biroq, sun‘iy intellektning murakkabligi, xususan, uning ma‘lumotlarni nihoyatda tez qayta ishlash qobiliyati, o‘z-o‘zini o‘rganishi va deyarli bir zumda qaror qabul qilishi, nisbatan sekinroq

va shaffofroq bozor jarayonlari uchun ishlab chiqilgan an'anaviy tartibga solish mexanizmlaridan ustun kelishi mumkin [3]. Shu sababli, sun'iy intellektning rivojlanishi algoritmlar orqali yuzaga keladigan kelishilgan xatti-harakatlar, ma'lumotlar ustunligiga asoslangan yangi hukmronlik shakllari, yirik platformalarning o'z mahsulot va xizmatlarini ustun qo'yishi (self-preferencing), yangi texnologiyalarni baholashda qo'shilishlarni nazorat qilishdagi qiyinchiliklar hamda raqamli bozorlarning transchegaraviy tabiati kabi masalalar atrofidagi munozaralarni keskinlashtirdi mazkur maqolada sun'iy intellekt orqali sodir etiladigan raqobatga zid xatti-harakatlar asosiy o'rganiladigan predmet sifatida o'rtaga chiqadi. Ushbu muammolar majmuyi sun'iy intellektning raqobat huquqida uzoq yillardan beri shakllangan doktrinalar va huquqni qo'llash paradigmalariga ko'p qirrali tarzda bosim o'tkazayotganini ko'rsatadi.

Eng dolzarb muammolardan biri bozor ishtirokchilari sun'iy intellektga asoslangan narx belgilash vositalaridan foydalangan hollarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan **algoritmik kelishuvlar va boshqa kelishilgan xatti-harakatlar** ehtimolidir. An'anaviy yondashuvga ko'ra, kartel yoki kelishuv mavjudligini aniqlash uchun narxlarni belgilash, bozorlarni taqsimlash yoki ishlab chiqarishni cheklashga qaratilgan ochiq kelishuv, axborot almashinuvi yoki "fikrlar mos kelishi" talab etilgan. Sun'iy intellekt kontekstida esa bunday ochiq kelishuvlar ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Raqobatchilar haqidagi real vaqt rejimidagi ma'lumotlar bilan ta'minlangan ilg'or algoritmlar raqiblarning narxlariga bir zumda moslashib yoki ularni biroz pasaytirib, amalda natijalarni muvofiqlashtirishi mumkin. Bu holat sun'iy ravishda narxlarning oshishiga yoki iste'molchilar tanlovining qisqarishiga olib keladi. Bunday algoritmlar an'anaviy ma'noda o'zaro muloqot qilishi shart emas. Aksincha, har bir tizim bozor signallarini, ko'pincha, boshqa avtomatlashtirilgan tizimlar tomonidan yaratilgan signallarni, talqin qilib, barqaror va raqobatbardosh bo'lmagan narx darajalariga erishadi. Ushbu jarayonlar to'g'ridan-to'g'ri inson nazoratisiz sodir bo'lishi mumkinligi sababli, qonuniy parallel xatti-harakatlar qayerda tugab, yashirin kelishuv qayerda boshlanishini aniqlash nihoyatda murakkablashadi.

Agar bir nechta kompaniyalar murakkab narx belgilash algoritmlaridan foydalansa, ular takroriy o'zaro ta'sirlar jarayonida muayyan narx darajalari yuqoriroq foyda keltirishini o'rganishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan algoritmlar o'zaro manfaatli muvozanatga kelib, amalda kartelga xos oqibatlarini takrorlash ehtimoli mavjud. Ko'plab huquqiy tizimlarda yashirin kelishuvning o'zi har doim ham noqonuniy deb topilavermaydi, chunki zarur bo'lgan niyat yoki kelishuvni isbotlash qiyin. Biroq sun'iy intellekt raqamli bozorlarda narx tuzilmalari qotib qolishi, ya'ni narxlarning sun'iy ravishda yuqori darajalarda bir-biriga yaqinlashish xavfini kuchaytiradi va bu iste'molchilar manfaatlariga zarar yetkazadi. Shu bilan birga, raqobat organlari aralashuvda qiynaladi, chunki ular oddiy parallel xatti-harakatlardan tashqari haqiqiy muvofiqlashtirish mavjudligini isbotlashi lozim. Sun'iy intellekt tomonidan yuzaga kelgan narxlarning uyg'unlashuvi odatda insonlar ishtirokidagi fitnalarga xos bo'lgan elektron xatlar yoki yozishmalar kabi aniq dalillarni qoldirmaydi. Bu borada xalqaro darajadagi keysdan namuna keltirmoqchimiz.

2015-yilda AQSh Adliya vazirligi (Department of Justice – DOJ) Amazon onlayn savdo maydonchasida faoliyat yuritgan sotuvchilardan biri Devid Topkinsga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atdi. U 2013-yil sentabridan 2014-yil yanvarigacha bo'lgan davrda boshqa sotuvchilar bilan birgalikda onlayn tarzda sotilgan plakatlar (posterlar) narxlarini muvofiqlashtirganlikda ayblangan. DOJ tomonidan e'lon qilingan tergov tafsilotlariga ko'ra, Devid Topkins va boshqa kelishuv ishtirokchilari dinamik narx belgilash algoritmlarini ishlab chiqqan va ularni o'zaro bo'lishgan bo'lib, mazkur algoritmlar ularning kelishuviga muvofiq harakat qilish tarzida dasturlashtirilgan.

Algoritmik narx belgilash o'zi mustaqil ravishda noqonuniy hisoblanmaydi va ko'plab sohalarda keng tarqalgan amaliyotdir. Biroq aynan algoritmlarni birgalikda joriy etish bo'yicha kelishuv

mavjudligi ushbu holatda DOJ tomonidan huquqiy choralar ko'rilishiga asos bo'lgan. Shundan so'ng, tadqiqotchilar maqsadli narxlar bo'yicha vaqt seriyalari (target price time series) yordamida Amazon platformasida faoliyat yuritayotgan boshqa ko'plab algoritmik sotuvchilarni aniqlashga muvaffaq bo'lganlar, biroq yangi til biriktirish holatlari qayd etilmagan.

Darhaqiqat, mavjud bilimlarimizga ko'ra, ushbu ish hozirga qadar har qanday raqobat organi tomonidan aniqlangan va jinoiy javobgarlikka olib kelgan yagona algoritmik kartel holati bo'lib qolmoqda. Shu sababli mazkur ish algoritmlarning raqobatga ta'siri va ular bilan bog'liq xatarlar masalasida olimlar hamda amaliyotchilar orasida ortib borayotgan qiziqishda muhim, asosiy o'rin tutadi.

Algoritmlar shunchaki bozor signallariga javob qaytaradi, bunda ochiq kelishuv niyati ifodalanmaydi. Bu esa regulyatorlarni avtonom qaror qabul qilish davri uchun yangi ta'riflar yoki huquqiy prezumpsiyalar zarurmi, degan savolni qo'yishga majbur qilmoqda [4].

Yana bir muhim masala, **sun'iy intellekt bozor hukmronligini mustahkamlashi va bozorga kirish uchun juda yuqori to'siqlarni yuzaga keltirishi** bilan bog'liqdir. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ma'lumotlar asosiy resurs (input) vazifasini bajaradi: yuqori samaradorlikka ega sun'iy intellekt modellarini yaratish va ularning aniqligini oshirish uchun keng ko'lamli ma'lumotlar to'plamlari talab etiladi. Bunday ma'lumotlarga erta va keng miqyosda ega bo'lgan firmalar, odatda yirik texnologik konglomeratlar, o'z algoritmlarini kichik raqobatchilarga nisbatan ancha tez takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mazkur ma'lumotlarga asoslangan ustunlik o'z-o'zini mustahkamlovchi xususiyatga ega bo'lishi mumkin.[5] Sun'iy intellekt tizimi takomillashgani sari ko'proq foydalanuvchilar mazkur platformaga jalb qilinadi, bu esa yanada ko'p ma'lumotlar yig'ilishiga olib keladi va natijada sun'iy intellekt yanada rivojlanadi. Ayrim sohalarda, xususan, qidiruv tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli savdo maydonchalarida tez kengayuvchi sun'iy intellektga asoslangan platformalar "g'olib hammasini oladi" (winner-takes-all) ga o'xshash bozor dinamikasiga erishishi mumkin. Bunday hukmronlik shakllangach, raqiblar uchun bozorga kirish deyarli imkonsiz bo'lib qoladi, chunki ular amaldagi yetakchi kompaniyaning sun'iy intellekt salohiyatiga tenglasha oladigan hajm va xilma-xillikdagi ma'lumotlarga ega emas. Raqobat huquqi nuqtayi nazaridan, ma'lumotlarga asoslangan bunday tarmoq samaralari sun'iy intellekt kontekstida tegishli bozorni aniqlash va ustun mavqeni baholash masalalarini murakkablashtiradi. Masalan, bitta platforma ijtimoiy tarmoqlar, elektron tijorat va kontent tarqatish xizmatlarini birlashtirishi mumkin bo'lib, ularning barchasi foydalanuvchi xatti-harakatlarini turli xizmatlar kesimida tahlil qiladigan yagona sun'iy intellekt tizimlari orqali boshqariladi. Natijada iste'molchilarni platformaga "bog'lab qo'yuvchi" kuchli mexanizm yuzaga keladi, bu esa amaldagi yetakchi kompaniyaning bozor pozitsiyasini yanada mustahkamlaydi va shunday integratsiyalashgan ma'lumotlar ekotizimini takrorlay olmaydigan potensial raqiblar uchun bozorga kirish to'siqlarini yanada oshiradi [6].

Raqobat huquqida "**muhim infratuzilma**" tushunchasi raqobat uchun shu qadar zarur bo'lgan resurslarni anglatadiki, ulardan foydalanishni cheklash yoki rad etish ustun mavqeni suiiste'mol qilish sifatida baholanishi mumkin. Raqobat organlari aynan qanday mexanizmlar orqali ma'lumotlar almashinuvini majburiy joriy etishi yoki potensial raqobatchilarga bozor ulushini qo'lga kiritish imkonini ta'minlashi lozimligi masalasi hozirda keskin ilmiy va siyosiy bahslar markazida turibdi. Shu bilan bog'liq holda, sun'iy intellekt ustun mavqeni suiiste'mol qilishning yangi shakllarini, xususan o'z mahsulotini afzal ko'rish (self-preferencing) holatlarini kuchaytirishi mumkin. Bunga eng yorqin misol sifatida iste'molchilarga eng mos keladigan natijalar yoki mahsulotlarni taqdim etish uchun sun'iy intellektidan foydalanadigan tavsiya tizimlari, qidiruv algoritmlari yoki raqamli savdo maydonchalarini keltirish mumkin. Nazariy jihatdan, bunday vositalar natijalarni shaxsiylashtirish orqali foydalanuvchi tajribasini yaxshilaydi. Amaliyotda esa, agar platforma operatori o'zi ham

mahsulot yoki xizmatlarni taklif qilsa, masalan, onlayn chakana savdo, sayohat bron qilish, qidiruv yoki tavsiya algoritmlarining asosi bo'lgan sun'iy intellekt platformaning o'ziga tegishli takliflarni tizimli ravishda ustun qo'yishi mumkin. Mazkur holat self-preferencing deb ataladi va u ilgari ustun mavqedagi firmalar vertikal integratsiya orqali raqiblarni kamsitgan klassik suiiste'mol ishlariga o'xshashlik kasb etadi. Biroq avvalgiga nisbatan ochiq shakllardan farqli o'laroq, sun'iy intellektga asoslangan tavsiya tizimlari reyting yoki ko'rsatish mantig'ini yashirishi mumkin. Iste'molchilar hatto ularga birinchi bo'lib ko'rsatilayotgan mahsulotlar eng sifatli yoki eng arzon variantlar emas, balki platformaning o'z foydasini maksimal darajada oshiradigan takliflar ekanini sezmasligi ham mumkin [7]. Bunday kamsitish raqobatchilarni bozorga kirish imkoniyatidan amalda mahrum qilishi mumkin. Yirik savdo maydonchasidagi kichik sotuvchilar, mahsulotlarining sifati yoki narxi raqobatbardosh bo'lishiga qaramay, yuqori qidiruv natijalarida ko'rinmasligi ehtimoli katta. Vaqt o'tishi bilan bunday chetlatilgan raqobatchilar bozordan chiqib ketishga majbur bo'lishi mumkin, bu esa iste'molchilar tanlovining qisqarishiga va innovatsiyaning susayishiga olib keladi. Algoritmik tarafkashlikning bunday shaklini aniqlash nihoyatda murakkab, chunki har bir foydalanuvchi uchun qidiruv natijalari shaxsiylashtirilgan bo'ladi. Raqobat organlari kamsitishning barqaror holatini aniqlash uchun ulkan hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishi, shuningdek, yetkazilgan zarar shunchaki samaradorlik oshirishining yon mahsuloti emasligini isbotlashi lozim bo'ladi. Darhaqiqat, platformalar ko'pincha o'z mahsulotlarini afzal ko'rishni foydalanuvchi tajribasini yaxshilashga qaratilgan optimallashtirish strategiyasi sifatida oqlashga harakat qiladi. Bunday dalillar muayyan darajada asosli bo'lishi mumkin, biroq sun'iy intellektga asoslangan qaror qabul qilishning shaffof emasligi raqobatga zid amaliyotlarni yashirish uchun qulay niqob bo'lib, xizmat qilishi ehtimoli ham mavjud. Natijada, regulyatorlar va sudlar platformaning dizayn qarorlari bilan raqobatga yetkazilgan zarar o'rtasida sababiy bog'liqlikni aniqlash uchun murakkab sun'iy intellekt modellarini texnik jihatdan tahlil qilish muammosiga duch keladi.

Sun'iy intellekt davrida **birlashish va qo'shib olishlarni nazorat qilish (merger control)** ham bahsli sohalardan biriga aylandi. Yirik texnologik kompaniyalar kichik, ammo innovatsion sun'iy intellekt startaplarini sotib olishga odatlanib bormoqda, bu esa "raqobatni yo'q qiluvchi xaridlar" (killer acquisitions) xavfi bilan bog'liq tashvishlarni kuchaytiradi. Bunday bitimlar nishon kompaniya hozircha katta daromadga ega bo'lmagani sababli, darhol shubha uyg'otmasligi mumkin, biroq mazkur sun'iy intellekt texnologiyasi kelajakda bozorni tubdan o'zgartirishi ehtimoli mavjud. Potensial raqiblarni erta bosqichda sotib olish orqali amaldagi yetakchilar kelajakdagi texnologik tahdidlarni bartaraf etadi. Raqobat organlari uchun asosiy qiyinchilik sun'iy intellekt sohasidagi yangi firmalarning kelajakdagi raqibiy ahamiyatini oldindan baholashdan iborat. An'anaviy birlashishlarni ko'rib chiqish jarayonlari odatda bozor ulushi, aylanma mablag' va mahsulotlarning o'zaro mos kelishi kabi aniq ko'rsatgichlarga tayanadi [8]. Holbuki, sun'iy intellekt startapi sezilarli daromad yoki tayyor mahsulotga ega bo'lmasligi, biroq kelajakda butun sanoatni o'zgartirishi mumkin bo'lgan patent yoki texnologiyaga egalik qilishi mumkin. Baholashdagi murakkabliklar ham vaziyatni yanada chalkashtiradi: yirik texnologik kompaniyalar ko'pincha darhol daromad keltirmaydigan firmalar uchun katta mablag' to'laydi, bu esa ushbu yuqori narx raqobatni kelajakda yo'q qilish strategiyasini aks ettiryaptimi, degan savollarni tug'diradi.

Milliy huquq tizimidan farqli ravishda, Yevropa Ittifoqi va AQShdagi raqobat organlari so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot xususiyatlarini hisobga oluvchi yangi yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadida birlashish bo'yicha chegaralar va ko'rsatmalarni qayta ko'rib chiqishni boshladi. Ushbu islohotlar muayyan darajada foydali bo'lishi mumkin, biroq agar regulyatorlar kichik kompaniyalarni sotib olish bitimlarini haddan tashqari tez bloklaydi yoki murakkablashtirsa, bu ortiqcha aralashuv xavfini tug'diradi. Axir, birlashishlar sun'iy intellekt startaplarini kapital va tarqatish kanallari bilan

ta'minlab, foydali texnologiyalarning keng joriy etilishini tezlashtirishi ham mumkin. Shu bois, haqiqatan, raqobatga zid bitimlarni to'sish bilan qiymat yaratuvchi kelishuvlarga ruxsat berish o'rtasidagi muvozanatni topish doimiy va murakkab vazifa bo'lib qolmoqda.

Nihoyat, sun'iy intellekt va raqamli bozorlarning **transchegaraviy ijro etilishi** bilan bog'liq muammo ham alohida ahamiyat kasb etadi. Aksariyat yirik sun'iy intellektga asoslangan platformalar global foydalanuvchilar bazasiga xizmat ko'rsatadi va ma'lumotlar hamda operatsiyalarni bir nechta yurisdiksiyalar bo'ylab integratsiya qiladi. Bir mamlakatda joylashgan kompaniya dunyo bo'ylab millionlab iste'molchilarga raqamli xizmatlar ko'rsatishi, turli hududlarda joylashgan ma'lumot markazlaridan foydalanishi mumkin. Biroq raqobat organlarining vakolatlari, odatda, dalillarni yig'ish yoki choralar ko'rishda milliy yoki mintaqaviy chegaralar bilan cheklanadi. Hatto Yevropa Ittifoqi yoki AQSh kabi yirik yurisdiksiyalar doirasida ham a'zo davlatlar yoki shtatlar darajasidagi qoidalar farq qilishi mumkin, bu esa hamkorlikdagi ijro choralarini murakkablashtiradi. Mos kelmaydigan qoidalar va bo'lingan nazorat tizimi natijasida kompaniyalar raqobat huquqi talablari sustroq bo'lgan hududlarda ma'lumotlarni qayta ishlash markazlarini joylashtirish yoki asosiy ofislarini ro'yxatdan o'tkazish orqali yurisdiksiyaviy arbitrajdan foydalanishi mumkin. Bunday holatlar sun'iy intellektni tartibga solishda muvofiqlashtirilgan va samarali yondashuvni jiddiy ravishda zaiflashtiradi [9].

Yuqorida ko'tarilgan muammolarni hal etish raqobat organlari o'rtasida, ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama darajalarda, yanada mustahkam hamkorlikni talab etadi. Qo'shma tergovlar o'tkazish, axborot almashish va choralarni muvofiqlashtirilgan tarzda qo'llash mexanizmlari sun'iy intellektga asoslangan kompaniyalarning yurisdiksiyaviy bo'shliqlardan foydalanib, huquqni qo'llashdan chetlab o'tishiga yo'l qo'ymaslikka xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, xalqaro standartlarni belgilovchi tashkilotlar va transchegaraviy tartibga solish forumlari tushunchalar va asosiy tamoyillarni uyg'unlashtirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Ushbu asosiy masalalarni yagona umumiy mavzu birlashtiradi: sun'iy intellekt iqtisodiy rag'batlar va bozor tuzilmalarini shunday o'zgartiradiki, bu holatlar raqobat huquqining an'anaviy toifalari va taxminlaridan chetda qolishi mumkin. Algoritmik kelishuvlar ilgari ochiq-oydin fitna sifatida namoyon bo'lgan xatti-harakatlarni endilikda bilvosita yoki hatto qasddan bo'lmagan muvofiqlashtirish shakliga aylantiradi, bu esa huquqbuzarlikni isbotlashni ancha qiyinlashtiradi. Avvallari, asosan, jismoniy aktivlar yoki brendga sodiqlik bilan bog'langan bozor ustunligi hozirda ko'proq ma'lumotlar va ularni tijoriy qiymatga aylantiruvchi bashoratli tahlil vositalariga tayanmoqda. O'z mahsulotini afzal ko'rish kabi klassik suiiste'mol shakli esa iste'molchi tanlovlarini shakllantiruvchi, shaffof bo'lmagan tavsiya tizimlariga singdirilganda yanada murakkab va nozik ko'rinish kasb etadi. Birlashishlarni nazorat qilish tizimi ham, an'anaviy ravishda daromadga asoslangan chegaralar va qisqa muddatli bozor kesishmalariga tayanib kelgan bo'lsa-da, sun'iy intellekt startaplari sohasida nomoddiy va kelajakka qaratilgan baholash muammolari bilan yuzlashmoqda. Nihoyat, yetakchi sun'iy intellekt platformalarining global xususiyati milliy va mintaqaviy regulyatorlarning vakolatlari o'z hududlari bilan cheklangan, parchalangan nazorat tizimiga to'qnash kelmoqda. Agar raqobat organlari bozor sog'lomligini va iste'molchilar farovonligini himoya qiluvchi samarali institutlar bo'lib qolishni istasa, ular o'z doktrinalari va vositalarini ushbu chaqiriqlarga moslashtirishga majbur bo'lishi mumkin. Masalan, algoritmik shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan takliflar, xususan, kompaniyalardan sun'iy intellekt kodining ayrim elementlari yoki o'qitish ma'lumotlarini regulyatorlarga taqdim etishni talab qilishi yashirin kelishuvlar yoki o'z mahsulotini afzal ko'rish holatlarini aniqlashga yordam berishi mumkin. Biroq bunday oshkor etishlar intellektual mulk huquqlari va kiberxavfsizlik bilan bog'liq asosli xavotirlarni ham keltirib chiqaradi.

Muqobil variant sifatida, raqobat organlari tarkibida murakkab algoritmlarni tahlil qila oladigan ma'lumotlar olimlari va sun'iy intellekt mutaxassislaridan iborat ixtisoslashgan bo'linmalarni tashkil etish taklif etilishi mumkin. Bunday mutaxassislar raqobatga zid xatti-harakatlarni yaxshiroq aniqlash, shuningdek, sun'iy intellekt taraqqiyotining raqobatni qo'llab-quvvatlovchi afzalliklarini ehtimoliy xavflar bilan muvozanatda baholash imkonini beradi. Ammo regulyator salohiyatini kuchaytirish doimiy moliyaviy va siyosiy qo'llab-quvvatlashni talab qiladi, bu esa byudjeti cheklangan sharoitlarda har doim ham mavjud bo'lavermaydi.

Ayrim hollarda, ayniqsa amaldagi huquqiy asos sun'iy intellektning o'z-o'zini o'rganuvchi xususiyatlarini yetarlicha hisobga olmagan vaziyatlarda, yangi qonunchilik choralari qabul qilish zarur bo'lishi mumkin. Bunday islohotlar inson tomonidan bevosita kelishuv bo'lmagan taqdirda ham algoritmik kelishuvlarning ayrim shakllarini aniq taqiqlashni yoki amaldagi daromad chegaralaridan past bo'lgan texnologik xaridlar uchun kuchaytirilgan birlashish nazoratini joriy etishni o'z ichiga olishi mumkin. Asosiy muammo esa shundan iboratki, qoidalar bir tomondan huquqiy aniqlikni ta'minlaydigan darajada ravshan, ikkinchi tomondan esa tezkor texnologik taraqqiyotga moslasha oladigan darajada moslashuvchan bo'lishi lozim. Haddan tashqari qat'iy tartibga solish innovatsiyani bo'g'ib qo'yishi mumkin, yetarlicha qat'iy bo'lmagan qoidalar esa algoritmik niqob ortida monopolistik amaliyotlarning kengayishiga zamin yaratadi.[10]

Sun'iy intellekt (SI) va raqobat huquqi sohasida yuzaga kelayotgan murakkab muammolarga javoban taklif etilayotgan uch bosqichli yondashuv, ya'ni:

sun'iy intellekt ishlab chiquvchilari va regulyatorlar o'rtasida oldindan hamkorlik;

raqobat organlarining o'z faoliyatida sun'iy intellektdan strategik foydalanishi;

transchegaraviy hamkorlikni kuchaytirish muvozanatli va istiqbolli yechim sifatida namoyon bo'ladi, quyida bularga batafsil to'xtalib o'tamiz. Yuqoridagi bo'limlarda ko'rsatilganidek, sun'iy intellekt bozor tuzilmalarini an'anaviy huquqiy vositalar orqali tartibga solish qiyin bo'lgan tarzda tubdan o'zgartirish salohiyatiga ega. Algoritmik kelishuvlar, ma'lumotlarga asoslangan ustunlik va yashirin o'zini ustun qo'yish (self-preferencing) amaliyotlari texnologiyaning o'zi kabi innovatsion va moslashuvchan siyosiy choralarni talab qiladi. Quyidagi takliflar hamkorlikka asoslangan muloqot, ijroni kuchaytirish imkoniyatlari va muvofiqlashtirilgan xalqaro harakatlarga urg'u beruvchi kompleks strategiyani ifodalaydi deb aytsak bo'ladi.

Ushbu yondashuvning eng ilg'or jihati sun'iy intellekt ishlab chiquvchilari va raqobat organlari o'rtasidagi preventiv hamkorlikdir. Sun'iy intellekt tizimlari keng joriy etilishini yoki undan ham yomoni, aniq zararlar yuzaga kelishini kutish o'rniga, regulyatorlar monopoliyaga qarshi (antimonopoliya) masalalarni sun'iy intellektni loyihalash bosqichining o'zidayoq inobatga olish tashabbusini ko'rsatishlari mumkin. Bunday hamkorlik shakllaridan biri sifatida moliyaviy texnologiyalar (fintech) sohasidan olingan "regulyator qumdonlar" (regulatory sandboxes) ni ko'rsatish mumkin. Bu mexanizm doirasida yangi sun'iy intellekt ilovalarini sinovdan o'tkazayotgan kompaniyalar moslashuvchan, biroq tuzilmaviy nazorat ostida faoliyat yuritadilar. Mazkur qumdonlarda kompaniyalar o'z algoritmlarining funksiyalari va maqsadlarini oshkor etib, regulyatorlarga kelishuv, bozorni siqib chiqarish yoki raqobatchilarni chetlatish xavflari bo'yicha fikr bildirish imkonini yaratadi. Natijada, raqobat organlari shakllanib kelayotgan bozor amaliyotlarini yaxshiroq anglaydi va algoritmik dizayn raqobatga zid xatarlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan jihatlarni oldindan aniqlash imkoniga ega bo'ladi. Ushbu yondashuv nafaqat raqobatga zid natijalar ehtimolini kamaytiradi, balki ishlab chiquvchilar uchun huquqiy aniqlikni oshiradi va iste'molchilar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Sun'iy intellektni loyihalash jarayoniga muvofiqlik (compliance) tamoyillarini integratsiya qilish algoritmik shaffoflik masalasining ahamiyatini ham ta'kidlaydi. Manba kodini to'liq oshkor qilish

kabi mutlaq shaffoflik talablari haddan tashqari og'ir yoki tijorat sirlariga xavf tug'dirishi mumkin bo'lsa-da, algoritmlarning qanday qaror qabul qilayotgani haqida ma'lum darajadagi tushuncha samarali raqobat nazorati uchun zarurdir. Shu bois ishlab chiquvchilardan ichki yoki tashqi auditorlar tizimli og'ishlar, kamsituvchi narx belgilash va tavsiya mexanizmlarida yuzaga keluvchi yashirin kelishuvlarni aniqlay oladigan tushuntiriladigan sun'iy intellekt (explainable AI) protokollarini joriy etish talab qilinishi mumkin. Regulyatorlar va soha mutaxassislari bilan muntazam muloqot ushbu shaffoflik mezonlarini takomillashtirishga yordam beradi va intellektual mulkni himoya qilish bilan algoritmik "qora quti" muammosining oldini olish o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi.

Biroq preventiv hamkorlik yondashuvi ham ijobiy, ham salbiy jihatlariga ega. Ijobiy tomondan, u kompaniyalarni dastlabki bosqichdanoq raqobatga mos amaliyotlarni joriy etishga undaydi va keyinchalik keskin ijro choralari ehtiyojni kamaytiradi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt muhandislari raqobat talablarini kibernetika xavfsizlik yoki ma'lumotlarni himoya qilish kabi asosiy dizayn tamoyili sifatida qabul qila boshlaydi. Biroq bu jarayonda regulyatorlar tomonidan yetarli mustaqillik saqlanmasa, "regulyatorni egallab olish" (regulatory capture) xavfini ham keltirib chiqaradi, ya'ni yirik inkumbentlar muhokamalarda ustunlik qilib, o'z manfaatlariga mos qoidalarni shakllantirishi mumkin. Bundan tashqari, haddan tashqari murakkab oldindan tasdiqlash jarayonlari startaplar uchun to'siq bo'lib, aksincha, mavjud yirik o'yinchilarning mavqeini mustahkamlab qo'yishi ehtimoli mavjud. Shu bois, yo'l-yo'riq beruvchi nazorat va innovatsiya erkinligi o'rtasidagi muvozanatni topish muhim vazifa bo'lib qoladi. Qolaversa, taklif raqobat organlarining o'zlarini sun'iy intellekt yordamida kuchaytirishga qaratilgan. An'anaviy ravishda raqobat idoralari hujjatlarni tahlil qilish, guvohlarni so'roq qilish va murakkab iqtisodiy ma'lumotlarni o'rganishda inson resurslariga tayangan. Biroq sun'iy intellekt asosidagi bozorlarda hosil bo'layotgan raqamli ma'lumotlar hajmi texnologik jihatdan ilg'or vositalarni talab etadi. Sun'iy intellekt shubhali narxlar, keskin bozor og'ishi yoki kelishuvdan darak beruvchi savdo amaliyotlarini aniqlashda kuchli yordamchi bo'lishi mumkin. Masalan, real vaqt rejimida elektron tijorat platformalari yoki fond bozorlarini kuzatuvchi avtomatlashtirilgan tizimlar raqobatga xos bo'lmagan narx tebranishlarini belgilab bera oladi. Bu ayniqsa algoritmlar o'zaro yashirin tarzda narxlarni muvofiqlashtiradigan holatlarda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bunday vaziyatlarda an'anaviy "ex post" tergovlar samarasiz bo'lishi mumkin. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida bir nechta manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish orqali ustun mavqeni suiiste'mol qilishning yashirin shakllarini aniqlash mumkin. Masalan, qidiruv natijalari reytingidagi o'zgarishlar bilan raqobatchilar trafiklaridagi pasayishlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash orqali platformaning o'z mahsulotlarini tizimli ravishda ustun qo'yayotgani fosh etilishi mumkin. Shu bilan birga, bunday texnologiyalarni joriy etish muayyan amaliy muammolarni keltirib chiqaradi. Ko'plab raqobat organlari moliyaviy cheklovlar sababli ma'lumotlar olimlari va mashinaviy o'rganish mutaxassislari jalb eta olmaydi. Xususiy yetkazib beruvchilarning sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish esa manfaatlar to'qnashuvi yoki tashqi texnologiyalarga haddan tashqari qaramlik xavfini tug'diradi. Bundan tashqari, samarali monitoring uchun kompaniyalar bilan ma'lumot almashish zarur bo'lib, bu tijorat sirlarini himoya qilish va kibernetika xavfsizlik masalalarini keskinlashtiradi.

Uchinchi va yakuniy bosqich transatlantik hamkorlik va muvofiqlashtirilgan tartibga solish strategiyalarining ahamiyatini ta'kidlaydi. Yevropa Ittifoqi va AQSh raqobat huquqi sohasida eng ta'sirchan yurisdiksiyalar bo'lib, yirik texnologik kompaniyalar har ikkala bozorda faoliyat yuritadi. Sun'iy intellekt global savdoning markaziga aylanayotgan bir sharoitda, transchegaraviy ijro bo'shliqlarini bartaraf etish uchun yagona yondashuv milliy huquq tizimi uchun ham zarur deb baholaymiz.

**IQTIBOSLAR/CHOCKI/REFERENCES:**

1. Christophe Samuel Hutchinson, "Potential Abuses of Dominance by Big Tech through Their Use of Big Data and AI" (2022) 10(3) *Journal of Antitrust Enforcement* 443
2. Boudreau K. J., Jeppesen L. B., Miric M. Competing on freemium: Digital competition with network effects // *Strategic Management Journal*. – 2022. – T. 43. – №. 7. – C. 1374-1401.
3. Van Cleynenbreugel, "AI Algorithms, Price Discrimination and Collusion: A Technological, Economic and Legal Perspective" (2020) 50 *European Journal of Law and Economics* 405.
4. Caroline A Crenshaw, "Statement on DeFi: Risks, Regulations, and Opportunities" (SEC, 9 November 2021) accessed 3 February 2025.
5. Julius Tan Gonzales, "Implications of AI Innovation on Economic Growth: A Panel Data Study" (2023) 12 *Journal of Economic Structures* volume 13.
6. Ilias Ioannou and Guven Demirel, "Blockchain and Supply Chain Finance: A Critical Literature Review at the Intersection of Operations, Finance and Law" (2022) 6 *Journal of Banking and Financial Technology*, 83, 87.
7. Vargiu M. Revitalisation of the Essential Facilities Doctrine in EU competition law. The complementarity with the new Digital Markets Act // *JL, Mkt. & Innovation*. – 2023. – C. 104.
8. Andreas von Bonin and Sharon Malhi, "The Use of Artificial Intelligence in the Future of Competition Law Enforcement" (2020) 11 (8) *Journal of European Competition Law & Practice* 468, 468.
9. Stefan Scheuerer, "Artificial Intelligence and Unfair Competition – Unveiling an Underestimated Building Block of the AI Regulation Landscape" (2021) 70(9) *GRUR International* 834, 834-836.
10. Emilio Calvano, Giacomo Calzolari, Vincenzo Denicolò and Sergio Pastorello, "Artificial Intelligence, Algorithmic Pricing, and Collusion" (2020) 110(10) *The American Economic Review* 3267; and Axel Gautier, Atia Ittoo and Pieter.

**ALLAMBERGENOVA Farida Bazarbay qizi**  
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi  
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va  
malakasini oshirish institutining tayanch doktranti  
E-mail: [faridaallambergenova98@gmail.com](mailto:faridaallambergenova98@gmail.com)

## ELEKTRON SHARTNOMALARDA ROZILIK (OFERTA VA AKSEPT)NI ISBOTLASHNING HUQUQIY MUAMMOLARI

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): ALLAMBERGENOVA F.B.**  
Elektron shartnomalarda rozilik (oferta va aksept)ni isbotlashning huquqiy muammolari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2026) B. 83-91.

### ANNOTATSIYA

Maqolada elektron shartnomalarda rozilikni bildirish va uni isbotlash bilan bog'liq huquqiy munosabatlar tahlil qilindi. Ma'lumki, raqamli muhitda shartnoma tuzish jarayonida rozilik ko'pincha texnik harakatlar orqali ifodalanadi va bu holat foydalanuvchining haqiqiy erk-irodasi izhorini aniqlashda muayyan muammolarni yuzaga keltiradi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida shartnoma tuzishning umumiy qoidalari mavjud bo'lsa-da, elektron shartnomalarda rozilikning ongli va xabardorlik asosida berilganini isbotlashga doir aniq normalar yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi o'rganildi. Ko'rib chiqilgan Yevropa Ittifoqi va Germaniya huquqiy tajribasi shuni ko'rsatdiki, elektron shartnomalarda rozilik iste'molchiga oldindan to'liq va tushunarli axborot berilishi bilan uzviy bog'liq holda baholanadi. Aniqlanishicha, Yevropa Ittifoqi sud amaliyotida sotuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi subyekt rozilikning haqiqiylikini va qonuniyligini isbotlash majburiyatini zimmasiga oladi. Ya'ni ushbu yondashuv elektron shartnomalarda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish darajasini sezilarli oshirishining ta'siri baholanadi. Xorijiy huquqiy tizimlarda rozilik faqat formal aksept sifatida emas, balki huquqiy oqibatlarini anglashga asoslangan iroda ifodasi sifatida talqin etilish qonuniyatlarini tavsiflanadi. Tadqiqot natijasida O'zbekiston qonunchiligida elektron shartnomalarda rozilikni isbotlashga oid normativ bo'shliqlar mavjudligi aniqlandi hamda xorijiy tajribani implementatsiya qilish zarurati asoslab berildi.

**Kalit so'zlar:** elektron shartnoma, rozilik, oferta, aksept, isbotlash, raqamli huquq, iste'molchi huquqlari, huquqiy majburiyatlar, onlayn tijorat, e-tijorat.

**АЛЛАМБЕРГЕНОВА Фарид**  
Базовый докторант Института переподготовки и  
повышения квалификации юридических кадров  
при Министерстве юстиции Республики Узбекистан  
E-mail: [faridaallambergenova98@gmail.com](mailto:faridaallambergenova98@gmail.com)

## ПРАВОВЫЕ ПРОБЛЕМЫ ДОКАЗЫВАНИЯ СОГЛАСИЯ (ОФЕРТЫ И АКЦЕПТА) В ЭЛЕКТРОННЫХ ДОГОВОРАХ

### АННОТАЦИЯ

В статье были проанализированы правовые отношения, связанные с выражением согласия и его доказательством в электронных договорах. Установлено, что в цифровой среде процесс заключения договора часто осуществляется посредством технических действий, что создает определенные сложности при определении подлинного волеизъявления пользователя. Выявлено, что в Гражданском кодексе Республики Узбекистан закреплены общие правила заключения договоров, однако нормы, непосредственно регулирующие доказывание осознанного и информированного согласия в электронных договорах, разработаны недостаточно. Рассмотренный опыт Европейского Союза и Германии показал, что согласие в электронных договорах оценивается в неразрывной связи с обязанностью продавца или поставщика услуг по предварительному предоставлению полной и понятной информации потребителю. Определено, что в судебной практике Европейского

Союза бремя доказывания действительности и законности согласия возлагается на продавца как профессионального участника гражданского оборота. Оценено влияние данного подхода, которое выражается в повышении уровня защиты прав потребителей в электронных договорных отношениях. Описаны закономерности, согласно которым в зарубежных правовых системах согласие рассматривается не как формальный акцепт, а как волеизъявление, основанное на осознании правовых последствий. В результате исследования выявлены нормативные пробелы в законодательстве Республики Узбекистан в части доказательства согласия в электронных договорах и обоснована необходимость имплементации зарубежного опыта.

**Ключевые слова:** электронный договор, согласие, оферта, акцепт, доказывание, цифровое право, права потребителей, правовые обязательства, онлайн-коммерция, электронная торговля.

**FARIDA Allamberganova**

PhD student at the Training Institute for lawyers  
under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan  
E-mail: [faridaallamberganova98@gmail.com](mailto:faridaallamberganova98@gmail.com)

## LEGAL ISSUES OF PROVING CONSENT (OFFER AND ACCEPTANCE) IN ELECTRONIC CONTRACTS

### ANNOTATION

The article analyzes the legal relationships related to expressing consent and proving it in electronic contracts. It is known that in the digital environment, the process of concluding a contract often involves technical actions to express consent, which creates certain difficulties in determining the true will of the user. Although the Civil Code of the Republic of Uzbekistan contains general rules for concluding contracts, it has been studied that specific norms regulating the proof of conscious and informed consent in electronic contracts have not been sufficiently developed. The examined legal practices of the European Union and Germany show that consent in electronic contracts is evaluated as inextricably linked to the seller's or service provider's obligation to provide the consumer with complete and understandable information in advance. It has been determined that in the judicial practice of the European Union, the burden of proof regarding the validity and legality of consent is placed on the seller as a professional participant in civil circulation. This approach is assessed to significantly increase the level of consumer rights protection in electronic contractual relationships. In foreign legal systems, consent is interpreted not only as a formal acceptance but also as an expression of will based on the understanding of legal consequences. The research has identified normative gaps in the legislation of Uzbekistan regarding the proof of consent in electronic contracts and justified the necessity of implementing foreign experience.

**Key words:** electronic contract, consent, offer, acceptance, proof, digital law, consumer rights, legal obligations, online commerce, e-commerce.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi elektron shartnomalarning huquqiy tahlilini dolzarb muammo sifatida ko'rsatmoqda. Elektron shartnomalar an'anaviy yozma shartnomalarga nisbatan alohida ahamiyatga ega. Ular onlayn tijorat, masofaviy xizmatlar va raqamli platformalar orqali yuzaga keladigan tijorat munosabatlarini tartibga solish imkonini beradi. Ushbu yangi shartnomaviy yondashuvlar esa shartnomalar va ularning ijrosida yangi usullar va nazorat mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etadi.

An'anaviy shartnomalar huquqida tomonlarning roziligi, ya'ni taklif (oferata) va uning qabul qilganligi (aksept), shartnoma tuzilganligining asosiy belgilaridan biri sifatida qaraladi. Biroq, elektron shartnomalar doirasida bu tamoyil texnologik vositalar orqali amalga oshiriladigan jarayon bo'lgani sababli, ularni sud yoki boshqa huquqiy organlar oldida isbotlashda yuridik qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Masalan, elektron hujjatning asl mazmunining o'zgarmasligi, elektron raqamli imzo orqali shaxsni aniqlash va foydalanuvchining faol xatti-harakati orqali rozilik bildirishi kabi savollar amaliyotda ko'pincha bahs mavzusiga aylanadi.

Fuqarolik huquqida shartnoma tuzishning asosiy elementi sifatida taraflarning o'zaro kelishuvi, ya'ni iroda uyg'unligi e'tirof etiladi. Ushbu iroda uyg'unligi huquqiy jihatdan oferta va aksept orqali ifodalanadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 364–366-moddalarida shartnoma tuzish tartibi umumiy qoidalar asosida belgilangan. Unga ko'ra, shartnoma bir tarafning taklifi (oferta) va ikkinchi tarafning uni qabul qilishi (aksept) natijasida tuzilgan deb hisoblanadi [1].

Olimlarning fikricha, har qanday taklif ham oferta bo'lavermaydi. Taklif oferta bo'lishi uchun bir nechta talablarga javob berishi lozim. Jumladan, taklif muayyan shaxs yoki shaxslarga yo'naltirilgan bo'lishi, taklifni kiritgan shaxsning taklif yuborilgan va uni qabul qiladigan shaxs bilan shartnoma tuzgan deb hisoblash niyatini bildirishi hamda taklifda shartnomaning muhim shartlari ifodalangan bo'lishi kerak. Oferta mazmunan shunday bo'lishi lozimki, aksept bildirilgan taqdirda, qo'shimcha kelishuvlarsiz shartnoma tuzilgan deb e'tirof etilsin. Shu jihatdan, oferta shunchaki axborot yoki reklama emas, balki huquqiy majburiyatni yuzaga keltirishga qaratilgan aniq iroda ifodasidir.

Aksept, Fuqarolik kodeksiga muvofiq, ofertaning to'liq va pisandasiz qabul qilinishi bo'lib, u taklifni bergan shaxsga yo'naltirilgan ijobiy javob orqali namoyon bo'ladi. Olimlarimizning sharhlashicha, akseptning to'liq bo'lishining ma'nosi shundaki, ofertani olgan shaxs uni yoki to'laligicha qabul qilishi, yoki to'liq rad etishi lozim. Boshqacha aytganda, ofertaning bir qismini qabul qilib, boshqa qismidan bosh tortishi mumkin emas.

Akseptning pisandasiz bo'lishining ma'nosi shundaki, oferta qanday ko'rinishda tuzilgan bo'lsa, o'sha holicha, hech qanday muqobil takliflar kiritilmasdan qabul qilinadi [2, B.775]. Hattoki, ofertadagi bitta shartni o'zgartirgan holda uni qabul qilgan taqdirda, bu aksept emas, balki yangi oferta hisoblanadi. Aksept shartnoma tuzish jarayonida hal qiluvchi bosqich bo'lib, aynan uning mavjudligi va qonuniyligi shartnomaning haqiqiyligini belgilaydi.

O'zbek olimlaridan V.Topildiyev o'zining "Fuqarolik huquqi" darsligida oferta va aksept tushunchalarini an'anaviy shartnomaviy munosabatlar doirasida tahlil qilgan ekan, muallif alohida ta'kidlaydiki, huquqiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan holat bu taraflarning ongli va erkin bildirgan roziligi hisoblanadi [3, B.196]. Unga ko'ra, rozilik shakli muhim emas, biroq uning mavjudligi va mazmuni aniq isbotlanishi zarur.

Raqamli munosabatlar sharoitida shartnomalar ko'pincha an'anaviy yozma shaklda emas, balki elektron platformalar orqali tuziladi. Bunday shartnomalarda oferta va aksept ko'pincha veb-sahifadagi taklif (click-wrap va browse-wrap), SMS yoki OTP kodni tasdiqlash kabi texnik harakatlar orqali ifodalanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonunida elektron shartnoma tushunchasi va uning yuridik kuchi e'tirof etilgan bo'lsa-da, unda oferta va akseptning aynan qaysi elektron shakllari huquqiy rozilik sifatida tan olinishi masalasi yetarlicha aniqlashtirilmagan. Fuqarolik kodeksi esa asosan an'anaviy shartnoma modeliga tayangan holda umumiy normalarni belgilaydi.

Veb-sahifadagi taklif orqali elektron shartnomaga rozilik bildirish zamonaviy elektron tijoratning asosiy huquqiy mexanizmlaridan biridir. Bunda foydalanuvchi o'z irodasini raqamli muhitda ifodalaydi. Rozilik shunchaki texnik harakat emas, balki huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, rozilikning shakli va mazmuni huquqiy jihatdan aniq belgilangan bo'lishi kerak.

Xorijlik olim Randy E. Barnettning tadqiq qilishicha, shartnomalar an'anaviy va'daga asoslanmaydi, balki tomonlarning huquqiy majburiyatlarni qabul qilish irodasiga asoslanadi. Bu yondashuv elektron shartnomalar uchun juda muhimdir, chunki u yerda ko'pincha standart shakldagi shartlar bo'ladi va foydalanuvchi ularni shaxsiy ravishda muzokara qilmaydi. Elektron tizimlarda foydalanuvchi odatda shartlarni individual o'zgartira olmaydi, balki oldindan tayyorlangan butun shartlar majmuasiga rozilik bildiradi. Barnett fikricha, bunday holatda majburiyatlarni qabul qilish

niyati hisobga olinadi; shu sababli, elektron shartnomalarning huquqiy kuchga ega bo'lishi uchun foydalanuvchining o'z harakati orqali majburiyatni qabul qilish irodasi bo'lishi yetarli.

Bu yondashuv shuni anglatadiki, elektron shartnomada "click" (ya'ni bosish) orqali rozilik berilganida, bu foydalanuvchining huquqiy majburiyatni hatto foydalanuvchi shartlarni chuqur o'qimagan bo'lsa ham, qabul qilganini ko'rsatadi. Shartnomalar tuzilishida obyektiv yondashuv muhim rol o'ynaydi. Chunki sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar foydalanuvchining ichki irodasini emas, balki uning tashqi harakatlarini (masalan, "Men roziman" tugmasini bosish) baholaydi. Shuning uchun, elektron shartnomalardagi rozilik ham obyektiv mezonlar bilan aniqlanadi. Ushbu yondashuv elektron shartnomalardagi rozilikni tahlil qilishda foydalidir, chunki u an'anaviy shifrlanmagan va'da asosidagi yondashuvdan voz kechadi va natijada foydalanuvchining irodasini huquqiy oqibatga bog'laydi. Bu esa elektron tijorat muhitida shartnomalar tuzishda foydalanuvchi tajribasiga mos keladigan formal rozilik konsepsiyasini shakllantirishga yordam beradi.


London universiteti huquq maktabi olimining tadqiqotiga ko'ra, elektron shartnomalarda foydalanuvchi "rozilik"ni elektron tarzda, odatda "Men roziman" yoki shunga o'xshash tugmani bosish orqali bildiradi. Biroq, elektron muhitda bu rozilik an'anaviy shartnomadagi erkin va ongli irodadan kelib chiqadigan rozilikdan tubdan farq qiladi. Ushbu qarash esa E.Barnettning yondashuvini inkor qiladi. Foydalanuvchilar ko'pincha shartlarni o'qimasdan yoki ularni to'liq tushunmasdan shartnoma sharoitlariga rozi bo'lishadi. Tadqiqotchi bu holatni "mindless consent" (ongsiz rozilik) deb ataydi. Bunday rozilikda foydalanuvchi qonuniy oqibatlar tushunchasiga yetarli darajada ega bo'lmaydi. Ushbu ilmiy tahlil shuni ko'rsatadiki, elektron rozilik shakli va mazmuni bozordagi sharoitlar bilan mos kelmasligi mumkin. Klassik shartnoma nazariyasida kontrakt taraflarining irodalari mos kelishi ("consensus ad idem") talab qilinadi, ya'ni tomonlar bir xil narsaga rozi bo'lishi kerak. Elektron shartnomalar bu talabni qisman qondiradi, lekin shartlarni ko'rish imkoni va ularni tushunish darajasi past bo'lganda, bu formal rozilik ekanligi shubha ostida qoladi. Shu nuqtayi nazardan ham, elektron shartnomalarda rozilikni yanada erkin va ongli qilish uchun yangi mexanizmlar zarur. Masalan, shartlar qisqa, sodda va foydalanuvchi ularni yaxshilab tushunishi uchun to'liq ochiq bo'lishi lozim. Bu talab elektron tijoratda iste'molchini himoya qilish tamoyillariga mos keladi [5, B.41].

Shu bilan birga, elektron shartnomalarda rozilik masalasiga nemis huquqshunosi va shartnoma huquqi nazariyotchisi Friedrich Kessler ham tanqidiy yondashadi. Uning fikricha, standart shakldagi shartnomalar shartnoma erkinligi tamoyilini sezilarli darajada cheklaydi, chunki foydalanuvchi shartlarni muhokama qilish imkoniyatiga ega emas va faqat "qabul qilish yoki rad etish" tanlovi bilan cheklanadi. Kessler bunday shartnomalarni iqtisodiy zarurat mahsuli sifatida tan olsa-da, ularning huquqiy kuchi iste'molchi manfaatlari nuqtayi nazaridan qayta baholanishi lozimligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, elektron shartnomalarda bu muammo yanada keskinlashadi, chunki shartlar hajman katta, murakkab va ko'pincha foydalanuvchi e'tiboridan chetda qoladi. Olimning fikricha, agar rozilik faqat texnik harakat, masalan, tugmani bosish orqali ifodalansa, lekin mazmunan ongli tanlovga asoslanmagan bo'lsa, bunday rozilik shartnoma adolatlilik nuqtayi nazaridan shubha uyg'otadi. Shu bois, elektron shartnomalarda rozilikni faqat formal emas, balki real va mazmunan asoslangan irodaviy harakat sifatida baholash zarur [6].


Yuqoridagi qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy olimlar elektron shartnomalardagi rozilik masalasiga turlicha, ammo o'zaro bog'liq yondashuvlar orqali baho beradilar. Randy E. Barnett elektron shartnomalarda rozilikni foydalanuvchining tashqi harakati va huquqiy majburiyatni qabul qilish irodasi bilan bog'lab, "click" orqali bildirilgan rozilikni huquqiy jihatdan yetarli deb hisoblaydi; bu yondashuv elektron tijoratning texnik va amaliy ehtiyojlariga mos keladi. Bunga qarama-qarshi ravishda, London universiteti huquq maktabi olimi elektron muhitda shakllanadigan rozilikning ko'pincha ongli va erkin tanlovga asoslanmasligini ta'kidlab, uni "mindless consent" sifatida

baholaydi va klassik “consensus ad idem” talabining zaiflashayotganini ko‘rsatadi. Friedrich Kessler esa standart shakldagi shartnomalar sharoitida rozilikning formal xarakterga ega bo‘lishi shartnoma erkinligi va adolatliligi nuqtayi nazaridan muammoli ekanini asoslaydi. Ushbu yondashuvlar orasida, elektron tijoratning real sharoitlarini hisobga olgan holda, Barnettning obyektiv harakatga asoslangan pozitsiyasi amaliy jihatdan qulayroq ko‘rinsa-da, Kessler va London maktabi vakilining foydalanuvchi ongli roziligini kuchaytirish zarurligi haqidagi tanqidlari elektron shartnomalar mazmunini takomillashtirish nuqtayi nazaridan yanada asosliroqdek namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston qonunchiligida veb-sahifa orqali rozilikni bildirish tushunchasi va tartibi haqida aniq normalar mavjud emas. Biroq, tadbirkorlik-huquqiy munosabatlarda amaliyotda tadbirkorlik subyektlarining veb sahifalarida click-wrap va browse-wrap tartiblarining qo‘llanilishi keng tarqalgan. Bu holat tadbirkorlik subyektlarining onlayn xizmatlardan foydalanish jarayonida foydalanuvchilarning roziligini olishda qanday usullarni qo‘llayotganini ko‘rsatadi (1-2-rasmlar).



1-rasm. <https://www.hyundai.com/uz/uz>



2-rasm. <https://surl.li/cfjkux>

Xorijiy davlatlardan Germaniya misolida elektron shartnomalarda rozilikni ifodalashga oid normativlar yaxshi ishlab chiqilgan va amaliyotda qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin. Germaniya Fuqarolik tuziklarining I-qismi 145-moddasida oferta tushunchasi bayon etilgan. Ushbu moddaning mazmuniga ko'ra, shartnoma tuzishga qaratilgan taklif majburiy kuchga ega bo'ladi. Taklif qabul qilingandan so'ng, huquqiy munosabat vujudga keladi. Ushbu norma veb-sahifadagi taklifning ham haqiqiy oferta ekanligini tan oladi. 147-moddasida esa oferta qabul qilish muddati belgilangan. Modda mazmuniga ko'ra, elektron aloqa vositalari orqali yuborilgan taklif tezkor tarzda qabul qilinishi kerak. Bu norma elektron shartnomalarda rozilikning vaqt jihatdan aniqligini ta'minlaydi [7].

Germaniya Fuqarolik tuziklarining 312c-moddasi iste'molchilar bilan tuziladigan elektron shartnomalarga bag'ishlangan. Ushbu moddaning mazmuniga ko'ra, iste'molchi shartnoma orqali to'lov majburiyatini aniq tasdiqlashi shart. Tugmada "to'lash majburiyati bilan" degan ifoda mavjud bo'lishi kerak. Aks holda, shartnoma tuzilgan hisoblanmaydi. Ushbu norma foydalanuvchini yashirin majburiyatlardan himoya qilishga qaratilgan.

Yevropa Ittifoqi huquqida ham elektron rozilik masalasi qat'iy tartibga solingan. 2011/83/EU-sonli Iste'molchilar huquqlari to'g'risidagi Direktivaning 6-moddasi shartnoma tuzilishidan oldingi axborot majburiyatiga bag'ishlangan. Ushbu modda mazmuniga ko'ra, sotuvchi shartnoma shartlarini aniq va tushunarli shaklda taqdim etishi shart. Foydalanuvchi qaror qabul qilishdan oldin barcha muhim ma'lumotlarni bilishi kerak.

Yevropa Ittifoqining 2011/83/EU-sonli Direktivasi 6-moddasi masofadan va savdo joyidan tashqarida tuziladigan shartnomalarda iste'molchining roziligini aniq huquqiy mazmun bilan bog'laydi. Ushbu modda iste'molchi shartnoma bilan bog'lanishidan oldin unga berilishi shart bo'lgan axborotlar ro'yxatini belgilaydi. Rozilik bu yerda shunchaki tugmani bosish emas, balki to'liq axborot asosida qabul qilingan ongli qaror sifatida talqin qilinadi. Direktivaga ko'ra, agar zarur axborot berilmagan bo'lsa, iste'molchi majburiyatlarni o'z zimmasiga olmaydi va xarajatlardan ozod etiladi [8].

Elektron shartnomadagi rozilikni bildirish qoidalari O'zbekiston Fuqarolik kodeksida to'liq aks etmagan. Shu sababli amaliyotda elektron shartnomalarga nisbatan qonun analogiyasi qo'llanilgan holda Fuqarolik kodeksidagi shartnoma tuzishning umumiy qoidalari, oferta va aksept bo'yicha qoidalar qo'llaniladi. Shuningdek, elektron yoki masofaviy shartnomalarda rozilikning axborot bilan ta'minlangan bo'lishi alohida talab sifatida mustahkamlanmagan. Kodeksda iste'molchi ommaviy shartnoma tuzishdan oldin qanday minimal axborot olishi shartligi ko'rsatilmagan. Bu holat rozilikni faqat formal yuridik harakat darajasida qoldiradi.

Direktivaning 6-moddasida rozilik shartnoma bilan bog'lanishdan oldingi bosqich bilan chambarchas bog'langan. Agar sotuvchi axborot berish majburiyatini bajarmasa, iste'molchining roziligi to'liq kuchga ega bo'lmaydi. O'zbekiston Fuqarolik kodeksida esa axborot berish majburiyati rozilikning haqiqiylikiga ta'sir qiluvchi omil sifatida umumiy tarzda tan olinmagan. Natijada, elektron shartnomalarda iste'molchi roziligi huquqiy jihatdan zaif himoyalangan bo'lib qoladi.

Direktivada isbot yukining sotuvchi zimmasiga yuklatilishi alohida e'tiborga loyiq. Sotuvchi iste'molchiga barcha zarur axborot berilganini isbotlashi kerak. O'zbekiston Fuqarolik kodeksi va "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunida esa elektron shartnomalarda rozilikning xabardorlik asosida berilganini isbotlash mexanizmi mavjud emas. Bu holat nizolar yuzaga kelganda iste'molchini og'ir ahvolga solib qo'yadi. Shu sababli, aytish mumkinki, Yevropa Ittifoqi huquqida rozilik mazmunan boyitilgan huquqiy institut sifatida shakllangan.

Yevropa Parlamenti va Kengashining 2014-yil 23-iyuldagi 910/2014-sonli eIDAS Reglamentining 25-moddasi elektron rozilikning huquqiy kuchiga bag'ishlangan. Modda mazmuniga ko'ra, elektron

rozilik faqat elektron shaklda bo'lgani uchun rad etilishi mumkin emas. Elektron rozilik yozma rozilikka tenglashtiriladi. Bu norma elektron shartnomalarning huquqiy layoqatini ta'minlaydi[9].

Xorijiy tajribani O'zbekistonga implementatsiya qilishda bir nechta muhim jihatlar mavjud. Avvalo, elektron shartnomalarda rozilikni bildirishga qo'yiladigan talablar alohida normada belgilanishi lozim. Germaniya va Yevropa Ittifoqi tajribasi iste'molchining ongli roziligini ustuvor deb biladi. Ushbu yondashuv O'zbekiston elektron tijorat qonunchiligiga mos keladi. Natijada, veb-sahifadagi taklif orqali tuziladigan shartnomalarning huquqiy aniqligi oshadi. Bu esa iste'molchilar huquqlarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi.

Quyida elektron shartnomada rozilik va isbotlash yukining taqsimlanishi masalasiga oid Planet49 (C-673/17) ishi bo'yicha sud qaysi normativlarga asoslanib qaror chiqarganini tahlil qilamiz.

Planet49 ishi Germaniyada joylashgan Planet49 GmbH kompaniyasining veb-saytida foydalanuvchilarni onlayn lotereyada ishtirok etishga jalb qilish jarayonida cookie-fayllardan foydalanish va bunga rozilik bildirish (veb-sahifa orqali rozilik berish) mexanizmi bilan bog'liq nizodan kelib chiqqan. Da'vogar sifatida Germaniya Federal iste'molchilar uyushmasi — Bundesverband der Verbraucherzentralen und Verbraucherverbände e.V. ishtirok etgan bo'lib, u Planet49 kompaniyasining foydalanuvchilardan rozilik olish usuli Yevropa Ittifoqi huquqiga zid ekanini ta'kidlagan. Javobgar Planet49 GmbH esa foydalanuvchi saytga kirib, lotereyada qatnashish jarayonida oldindan shakllantirilgan sahifa orqali cookie-fayllardan foydalanishga rozilik berilganini qonuniy deb ta'kidlagan. Ish Germaniyaning Federal Oliy sudi — Bundesgerichtshof tomonidan ko'rib chiqilgan va Yevropa Ittifoqi huquqini talqin qilish zarurati sababli Yevropa Ittifoqi Sudiga birinchi instansiyada ko'rib chiqilishi uchun yuborilgan. Ushbu mexanizm Yevropa Ittifoqi faoliyati to'g'risidagi shartnomaning 267-moddasiga asoslanadi, bu modda milliy sudlarga Yevropa Ittifoqi huquqining talqiniga oid savollar bilan Yevropa Ittifoqi Sudi (CJEU)ga murojaat qilish huquqini beradi [10].

Yevropa Ittifoqi Sudi ishni Buyuk palata tarkibida ko'rib chiqqan va 2019-yil 1-oktabrda qaror chiqargan. Sud ishni ko'rib chiqishda birinchi navbatda Elektron kommunikatsiyalar sohasida shaxsiy hayotni himoya qilishga oid 2002/58/EC-sonli Direktivaga tayanadi. Ushbu direktivaning 5-moddasi 3-qismida foydalanuvchining ma'lumotlarni serverlarda saqlash yoki ularga kirish faqat foydalanuvchi aniq va xabardor qilingan holda rozilik bergan taqdirdagina mumkinligi belgilangan. Modda mazmunidan kelib chiqib, rozilik foydalanuvchining faol va ongli harakati orqali ifodalanishi shartdir. Sud aynan shu normani talqin qilib, oldindan shakllantirilgan sahifa foydalanuvchining faol xohish-irodasini ifodalamaydi degan xulosaga keladi.

Sud, shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik tushunchasini aniqlashda 95/46/EC-sonli Direktivani ham inobatga olgan. Ushbu direktivaning 2-moddasi "h" bandida rozilik shaxsning erkin, aniq va xabardor qilingan irodasini bildiruvchi ko'rsatma sifatida ta'riflangan. Sud ushbu normaning mazmunini sharhlab, sukut saqlash, harakatsizlik yoki oldindan belgilangan shartlarga rozilik sifatida baholanishi mumkin emasligini qat'iy belgilagan. Qarorda alohida ta'kidlanishicha, foydalanuvchi cookie-fayllar qanday maqsadda ishlatilishi, ularning amal qilish muddati va uchinchi shaxslarga uzatilishi yoki uzatilmaslgi haqida foydalanuvchi oldindan to'liq axborotga ega bo'lishi lozim.

Sud qarorida "Ommaviy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi reglament" (General Data Protection Regulation (EU) 2016/679 - GDPR) normalariga ham bevosita murojaat qilingan. Xususan, Reglamentning 4-moddasi 11-bandida rozilik to'g'risidagi ma'lumot subyektning erkin, aniq, ongli va faol harakati orqali bildirilgan irodasi sifatida belgilangan. Bundan tashqari, GDPRning 6-moddasi 1-qismi "a" bandiga ko'ra, shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashning qonuniy asoslaridan

biri aynan rozilik hisoblanadi. Sud ushbu moddalarning mazmunidan kelib chiqib, rozilikni isbotlash majburiyati ma'lumotlarni qayta ishlovchi shaxs, ya'ni veb-sayt egasi zimmasiga yuklatilishini aniq ko'rsatib o'tgan. Bu yondashuv isbotlash yukining foydalanuvchiga emas, balki professional subyektga yuklatilishini anglatadi.

Planet49 ishida sud instansiyalari qarorlari o'zaro zid bo'lmagan, chunki milliy sud ish bo'yicha yakuniy qaror chiqarmasdan, Yevropa Ittifoqi Sudidan huquqiy talqin so'ragan. Shu sababli, CJEUning qarori mazkur ishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, milliy sud aynan shu talqin asosida ishni davom ettirishi lozim. Ushbu qaror normativ-huquqiy hujjatlarni bevosita o'zgartirmagan bo'lsa-da, amaldagi direktivalar va reglamentlarning mazmunini qat'iy talqin qilib bergan va elektron shartnomalarda rozilikni olish bo'yicha Yevropa Ittifoqi miqyosida yagona standartni shakllantirgan. Bu esa, foydalanuvchilar uchun rozilik berish jarayonini yanada tushunarli va aniq qilishga xizmat qiladi.

Mazkur ish fuqarolik huquqi va elektron shartnomalar amaliyoti uchun namunali sud ishi sifatida baholanishi mumkin, chunki u elektron muhitda rozilik tushunchasini aniqlashtirib bergan, isbotlash yukini aniq subyekt zimmasiga yuklagan va veb-saytlar orqali tuziladigan shartnomalarda foydalanuvchini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirgan. Bu yondashuv keyinchalik Yevropa Ittifoqi davlatlarida cookie-qoidalari va elektron rozilik modellarini qayta ko'rib chiqishga kuchli turtki bo'lgan. Shu bilan birga, bu ish shartnomalar tuzish jarayonida foydalanuvchilarning huquqlarini himoya qilish va elektron muhitda shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan asosiy tamoyillarni mustahkamladi. Yevropa Ittifoqi doirasida bunday yondashuv, elektron tijorat va raqamli xizmatlar sohasida normativ-huquqiy bazani yanada rivojlantirishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasida elektron shartnomalarda rozilikni isbotlash mexanizmi huquqiy jihatdan muhim masala bo'lib, bu masala iste'molchilar huquqlarining himoya qilinishi va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi uchun zarur. Germaniyadagi Planet49 ishi, Yevropa Ittifoqi sudining qaroriga ko'ra, veb-sayt egalariga foydalanuvchilardan rozilikni olishda qat'iy talablar qo'yadi. Ushbu ishda sud, foydalanuvchilarning roziliklari aniq va faol ravishda ifodalangan bo'lishi lozimligini ta'kidladi. Bu yondashuv, elektron shartnomalarda rozilikni isbotlash majburiyatini veb-sayt egalariga yuklash orqali iste'molchilarni himoya qilishda yanada samarali mexanizmni taqdim etadi. Ahamiyatlisi, bunday yondashuv, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va shartnoma tuzish jarayonida shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston qonunchiligida esa, elektron shartnomalar va shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha aniq normalar hali to'liq ishlab chiqilmagan. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun va Fuqarolik kodeksiga kiritilgan normalarda foydalanuvchilarning roziligini olishda shaffoflikni ta'minlashda kamchiliklar mavjud.

Misol uchun, O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuniga quyidagi mazmundagi normalarni implementatsiya qilish zaruriyati yuzaga kelmoqda: foydalanuvchidan rozilik olish jarayonida unga to'liq va aniq axborot berilishi, shuningdek, rozilikning qanday maqsadlarda, qancha muddatga olinishi va uchinchi shaxslarga uzatilishi haqida ma'lumot berilishi shart. Shuningdek, Fuqarolik kodeksida shartnoma tuzish jarayonida rozilikni isbotlash majburiyatini ommaviy oferta egasiga yuklashni nazarda tutuvchi normani kiritish zarur. Bu iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va shartnoma tuzish jarayonida shaffoflikni oshirishda muhim qadam bo'ladi. Uchinchidan, shartnoma tuzish jarayonida foydalanuvchining faol va ongli roziligini ta'minlash uchun elektron platformalarda interaktiv elementlar va aniq qoidalar orqali rozilikni olish mexanizmlarini rivojlantirish zarur.

O'zbekiston Respublikasida elektron shartnomalar fuqarolik-huquqiy munosabatlarning ajralmas qismiga aylangan bo'lib, ushbu shartnomalar tuzish jarayonida rozilikni aniqlash va

isbotlash masalalari muhim huquqiy ahamiyat kasb etadi. Elektron muhitda shartnomalar ko'pincha standart shartlar, tugma bosish va avtomatlashtirilgan jarayonlar orqali tuziladi, bu esa aksept va oferta tushunchalarining an'anaviy talqini bilan muvofiqlashtirilishi zarurligini ko'rsatadi. Biroq, O'zbekiston qonunchiligida standart ofertalar va elektron aksept holatlari aniq belgilab qo'yilmaganligi sababli, sud amaliyotida huquqiy noaniqliklar yuzaga kelmoqda.

Rozilikning xabardorlik asosida berilganligini isbotlash mexanizmining yo'qligi, shuningdek, isbot yukining taqsimlanishi masalasi iste'molchilarni zaif holatga solishi mumkin. Elektron shartnomalarda foydalanuvchilarning roziligi ko'pincha shartlar bilan tanishmasdan va real imkoniyatlardan mahrum holda qabul qilinadi. Bu esa iste'molchilarni o'z huquqlarini himoya qilishda qiyinchiliklarga duchor qiladi. Shuning uchun, O'zbekiston qonunchiligida elektron shartnomalar va aksept tushunchasini aniq belgilash, xabardorlik asosida rozilik berish jarayonini tartibga solish va isbot yukini taqsimlash bo'yicha mexanizmlar yaratish zarur.

Yevropa Ittifoqi va Germaniya tajribasi, masalan, Planet49 ishida namoyon bo'lganidek, iste'molchilarning ongli qaror qabul qilishlari va sotuvchilarning axborot berish majburiyati asosida elektron rozilikni belgilashga qaratilgan yondashuvlar O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar elektron shartnomalar bo'yicha huquqiy aniqlikni ta'minlash, iste'molchilarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish va shartnomaviy munosabatlarni adolatli va shaffof qilishga xizmat qiladi. O'zbekistonning fuqarolik-huquqiy amaliyotida elektron shartnomalar bilan bog'liq muammolarni hal etish orqali, fuqarolar va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishda yanada samarali mexanizmlar yaratilishi mumkin. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida Germaniya misolida keltirilgan yondashuvlarni o'rganish va implementatsiya qilish orqali, elektron shartnomalarda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va ularning roziliklarini isbotlash mexanizmini yaxshilash mumkin. Bu, nafaqat iste'molchilarni himoya qilish, balki raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi.

#### **IQTIBOSLAR/ЧОККИ/REFERENCES:**

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi <https://lex.uz/docs/-111189> .
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh, 1-jild (birinchi qism) Adliya vazirligi. – T.: “Vektor-Press”, 2010.- 816 b.-(Professional malakali sharhlar).
3. Topildiyev V. “Fuqarolik huquqi”. I qism. “Universitet”. – T.:2014.-288 b.
4. RE Barnett, Consenting to Form Contracts (Georgetown Law Scholarship 2002) <https://scholarship.law.georgetown.edu/context/facpub/article/1037/> .
5. Consent in Online Contracts (SSRN, PDF) [https://papers.ssrn.com/sol3/Delivery.cfm/SSRN\\_ID2783793\\_code1175289.pdf?abstractid=2783793](https://papers.ssrn.com/sol3/Delivery.cfm/SSRN_ID2783793_code1175289.pdf?abstractid=2783793) .
6. Friedrich Kessler, Contracts of Adhesion — Some Thoughts about Freedom of Contract, Columbia Law Review, Vol. 43, No. 5, 1943, p. 632–633 [https://chicagounbound.uchicago.edu/journal\\_articles/7738/?](https://chicagounbound.uchicago.edu/journal_articles/7738/?) .
7. Germaniya Fuqarolik tuziklari (Bürgerliches Gesetzbuch, BGB) [https://www.gesetze-im-internet.de/englisch\\_bgb/englisch\\_bgb.html#p0324](https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_bgb/englisch_bgb.html#p0324) .
8. Yevropa Parlamenti va Kengashining 2011-yil 25-oktabrdagi 2011/83/EU Direktivasi <https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2011/83/oj/eng> .
9. Yevropa Parlamenti va Kengashining 2014-yil 23-iyuldagi 2014/910/EU Reglamenti <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2014/910/oj/eng> .
10. Yevropa Ittifoqi Sudining rasmiy portalidagi sud qarori <https://infocuria.curia.europa.eu/tabs/document?source=document&docid=218462&doclang=EN> .

**QO'CHQOROV Abbosjon Bahromjon o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi huzuridagi Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi bosh yuriskonsulti,  
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi  
E-mail: [abbosbaxromovich77@gmail.com](mailto:abbosbaxromovich77@gmail.com)

## INTELLEKTUAL MULK OBYEKTI SIFATIDA AMALIY SAN'AT ASARLARI

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): QO'CHQOROV A.B.** Intellektual mulk obyekti sifatida amaliy san'at asarlari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2026) В. 92-98.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada amaliy san'at asarlari intellektual mulk obyektining alohida turi sifatida ko'rib chiqilib, ularning mualliflik huquqi tizimidagi huquqiy maqomi va muhofaza mexanizmlari tahlil qilinadi. Avvalo, amaliy san'at tushunchasi, uning tasviriy san'atdan, hunarmandchilik va ommaviy ishlab chiqariladigan buyumlardan farqlovchi belgilariga va individual xususiyatlariga izoh beriladi. Amaliy san'at asarlarining mualliflik huquqi obyektiga aylanishi uchun zarur bo'lgan mezonlar – ijodiylik, individuallik, estetik qiymat va shaklning original yechimi kabi talablar yoritiladi. Shuningdek, milliy qonunchilik hamda xalqaro huquq normalari doirasida amaliy san'at asarlarining huquqiy himoyasi taqqoslab o'rganiladi. Shu bilan birga, amaliy san'at obyektlarining dizayn, tovar belgisi va sanoat namunasi bilan kesishuvchi jihatlari ko'rsatilib, ushbu obyektlarni to'g'ri huquqiy tasniflash va ro'yxatdan o'tkazish masalalaridagi mavjud muammolar tahlil etiladi. Amaliy bezak san'ati obyektlarini intellektual mulk sifatida e'tirof etishning iqtisodiy, madaniy va huquqiy ahamiyati asoslanib, huquqiy muhofazani takomillashtirish hamda amaliy san'at sohasida faoliyat yuritayotgan ijodkorlar, dizaynerlar va hunarmandlarni intellektual mulk huquqlaridan xabardor qilish, ularning manfaatlarini samarali himoya qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** amaliy san'at, amaliy san'at asari, intellektual mulk, mualliflik huquqi, sanoat mulki, sanoat namunasi, originallik.

### КУЧКАРОВ Аббосжон

Главный юрисконсульт Агентства по управлению отходами и развитию циркулярной экономики при Национальном комитете по экологии и изменению климата Республики Узбекистан,  
Самостоятельный соискатель Института переподготовки и повышения квалификации юридических кадров при Министерстве юстиции  
E-mail: [abbosbaxromovich77@gmail.com](mailto:abbosbaxromovich77@gmail.com)

## ПРОИЗВЕДЕНИЯ ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА КАК ОБЪЕКТ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье произведения прикладного искусства рассматриваются как самостоятельный объект интеллектуальной собственности, анализируются их правовой статус в системе авторского

права и механизмы правовой охраны. Прежде всего раскрывается понятие прикладного искусства, его отличительные и индивидуальные признаки по сравнению с изобразительным искусством, ремеслом и массовой продукцией. Определяются критерии, необходимые для признания произведений прикладного искусства объектом авторского права, такие как творческий характер, индивидуальность, эстетическая ценность и оригинальность формы. Кроме того, сопоставительно исследуется правовая охрана произведений прикладного искусства в рамках национального законодательства и норм международного права. Отдельно показаны точки пересечения объектов прикладного искусства с дизайном, товарным знаком и промышленным образцом, а также анализируются существующие проблемы правильной юридической квалификации и регистрации таких объектов. Обосновывается экономическое, культурное и правовое значение признания объектов декоративно-прикладного искусства в качестве интеллектуальной собственности; формулируются предложения и рекомендации по совершенствованию правовой охраны и повышению осведомлённости творцов, дизайнеров и ремесленников об их правах интеллектуальной собственности, а также по эффективной защите их интересов.

**Ключевые слова:** прикладное искусство, произведение прикладного искусства, интеллектуальная собственность, авторское право, промышленная собственность, промышленный образец, оригинальность.

#### **ABBOSJON Kuchkarov**

Chief Legal Counsel of the Agency for Waste Management and Development of Circular Economy under the National Committee on Ecology and Climate Change of the Republic of Uzbekistan,  
Independent researcher at the Training Institute for lawyers under the Ministry of Justice  
E-mail: [abbosbaxromovich77@gmail.com](mailto:abbosbaxromovich77@gmail.com)

## **WORKS OF APPLIED ART AS OBJECTS OF INTELLECTUAL PROPERTY**

### **ANNOTATION**

This article examines works of applied art as a distinct category of intellectual property and analyzes their legal status within the system of copyright and the mechanisms of their protection. First, the concept of applied art is clarified, with an explanation of its distinguishing and individual features in comparison with fine art, handicraft and mass-produced goods. The article then explores the criteria required for recognizing works of applied art as objects of copyright protection, such as creativity, individuality, aesthetic value and the originality of form. Furthermore, the legal protection of applied art works under national legislation and international legal norms is studied on a comparative basis. The points of intersection between applied art objects and design, trademarks and industrial designs are identified, and existing problems in the correct legal classification and registration of such objects are analyzed. The economic, cultural and legal significance of recognizing objects of decorative-applied art as intellectual property is substantiated, and proposals and recommendations are put forward to improve legal protection and to raise awareness among artists, designers and craftsmen working in the field of applied art about intellectual property rights, as well as to ensure the effective safeguarding of their interests.

**Keywords:** applied art, work of applied art, intellectual property, copyright, industrial property, industrial design, originality.

Intellektual mulk inson ongi mahsuli bo'lgan ijod namunalarining keng doirasini qamrab oladi. Bunday ijod mahsulotlari sanoat va tijoratda qo'llanilganda, ko'pincha yuqori iqtisodiy ahamiyatga

ega bo'lad. Intellektual mulkni himoya qilish obyektlarini tashkil etuvchi ijodiy natijalar xilma-xil va ular faqat huquqiy e'tirof etilgan obyektlar bilan cheklanadi.

Mualliflik huquqi qonunchiligi intellektual mulk deb nomlanuvchi keng qamrovli qonunchilikning bir qismi bo'lib, u keng ma'noda inson ongining ijodini anglatadi. Intellektual mulk huquqlari innovatorlar va ijodkorlarga o'z ijodlariga nisbatan huquq berish orqali ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladi [1].

Ma'lumki, kreativ industriya sohasidagi faoliyat yo'nalishlari adabiy ijodni, amaliy san'at va hunarmandchilikni, audiovizual san'atni, ijrochilik san'atini, moda va dizayn san'atini, tasviriy san'atni va boshqalarni o'z ichiga oladi [2]. Shuningdek, mualliflik huquqi bilan muhofaza qilinadigan asarlar ham turli xil bo'lib, ularning orasida kreativ industriyaning bir bo'lagi hisoblangan amaliy san'at asarlari o'ziga xos o'ringa ega. Raqamli iqtisodiyot, turizm va kreativ industriya rivojlanishi sharoitida amaliy san'at turlarining dizayn, branding va tovar bozoridagi roli keskin ortib bormoqda. Bundan tashqari, ushbu san'at obyektlarining cheklanmagan nusxalanishi, ularni yaratuvchilar mehnatining yetarlicha huquqiy himoya qilinmagani mualliflar, hunarmandlar va mahalliy jamoalarning iqtisodiy manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, globallashuv, raqamli transformatsiya va kreativ iqtisodiyot jarayonlari chuqurlashib borayotgan bugungi kunda intellektual mulk institutining ahamiyati sezilarli darajada ortmoqda. Madaniyat va san'at sohasidagi ijodiy natijalarni, ayniqsa dizayn va amaliy san'at obyektlarini huquqiy himoya qilish masalasi ko'plab davlatlar uchun asosiy vazifalardan biriga aylangan. Bunday sharoitda amaliy san'at asarlari ikki tomonlama – madaniy meros va iqtisodiy resurs sifatida e'tirof etilmoqda.

Shu sababli amaliy san'at obyektlarini intellektual mulk sifatida baholash, ularning huquqiy rejimini to'g'ri belgilash ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

Ushbu maqolada amaliy san'at asarlari intellektual mulk obyektining alohida turi sifatida tahlil qilinadi. Mualliflik huquqi nuqtai nazaridan amaliy san'atning huquqiy xususiyatlari, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro huquq normalari doirasidagi tartibga solish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, amaliyotda uchrayotgan dolzarb muammolar yoritilib, amaliy san'at asarlarini yanada samarali himoya qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Avvalo, "amaliy san'at" tushunchasiga to'xtatilib o'tadigan bo'lsa, amaliy san'at – bu bezak yaratishda naqsh, rang, shakl va tasviriy san'at elementlaridan foydalanib, maishiy yoki funksional (utilitar) buyumlarni badiiy jihatdan boyitadigan san'at turi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, amaliy san'at – bu funksional (utilitar) vazifaga ega bo'lgan badiiy ijod mahsulotlaridir. Ular sof san'at asarlari (rasmlar, haykallar, adabiy asarlar yoki faqat estetik maqsadlarda yaratilgan boshqa asarlar) bilan sof funksional buyumlar o'rtasida joylashadi [3].

Amaliy san'at asarlari odatda kundalik hayotda ishlatiladigan buyumlar ko'rinishida namoyon bo'lad. Ular bir vaqtning o'zida ham badiiy (estetik), ham funksional (utilitar) vazifani bajaradi. Mazkur "ikki tabiatli" holat ushbu asarlarning san'at, hunarmandchilik va sanoat ishlab chiqarishi o'rtasidagi o'rni hamda intellektual mulk obyektlari tizimidagi maqomini aniqlashni murakkablashtiradi va "qanday qilib bir vaqtning o'zida chiroyli va estetik bo'lgan, shu bilan birga, guldon, zargarlik buyumi yoki nafis dizaynga ega stul kabi aniq funksiyani bajaradigan buyumning originalligini himoyalash mumkin?", degan savol tug'iladi.

Amaliy san'at asarini tasviriy san'at asaridan ajratib turuvchi asosiy belgi – asarning kundalik hayotda funksional (utilitar) vazifani bajarishi hisoblanadi. Rangtasvir yoki haykaltaroshlik kabi tasviriy san'at namunalari asosiy maqsad estetik idrok bo'lsa, amaliy san'at asarida buyumdan real foydalanish (funksional vazifasi) doimiy e'tiborda bo'ladi hamda bu muhim element hisoblanadi.

Shu bilan birga, amaliy san'atni oddiy hunarmandchilikdan ham farqlash zarur. Hunarmandchilik an'anaviy texnologiyalar va takrorlanadigan uslublarga tayansa, amaliy san'at asarlarida muallifning

shaxsiy didi, estetik qarashlari va ijodiy yangiligi ustuvor hisoblanadi. Ommaviy ishlab chiqariladigan buyumlardan farqli ravishda, amaliy san'at asari ko'pincha noyob yoki kam sonli nusxalarda yaratiladi, hatto sanoat usulida ishlab chiqarilganda ham badiiy yechim muallif ijodining natijasi bo'lib qolaveradi [4].

Yuqorida aytib o'tganimizdek, amaliy san'at asarlarining "ikki tabiatli" ekanligi intellektual mulk obyektlari tizimidagi maqomini aniqlashni murakkablashtirish bilan birga, ular bu tabiati bilan intellektual mulk obyektlari tizimida "chegara holatdagi obyekt" sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni ular bir vaqtning o'zida ham san'at asari, ham moddiy va muayyan funksiyani bajaruvchi buyum hisoblanadi. Shu sababli ularni huquqiy tasniflash masalasida turli yondashuvlar mavjud. Odatda, amaliy san'at asarlari mualliflik huquqi obyektlari qatorida ko'riladi va adabiyot hamda san'at asarlariga teng maqomda himoya qilinadi.

Amaliy san'at asarlari intellektual mulk obyektlari, xususan mualliflik huquqi obyektlarining alohida tur sifatida e'tirof etilishi, avvalo, uning ijodiy komponenti bilan bog'liq. Asarning shakli, kompozitsiyasi, bezagi, ranglar uyg'unligi yoki fakturasi muallifning ijodiy tanlovi natijasida vujudga keladi. Shu bilan birga, buyumning amaliy funksiyasi saqlanib qoladi, bu esa uni sof tasviriy san'at namunalaridan ajratib turadi. Huquqiy jihatdan amaliy san'at asarlari mualliflik huquqi obyektlari bo'lishi mumkin, biroq ularning moddiy shaklda keng muomalaga kirishi, nusxalanishi va ommaviy ishlab chiqarilishi muallif huquqini amalga oshirish va nazorat qilishda qo'shimcha savollarni va qiyinchiliklarni vujudga keltiradi.

Amaliy san'at asarining mualliflik huquqi bilan himoyalaniishi uchun u bir qator mezonlarga javob berishi lozim. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasiga asosan mualliflik huquqi **ijodiy faoliyat natijasi** bo'lmish fan, adabiyot va san'at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmatini, shuningdek ifodalangan usulidan qat'i nazar, tatbiq etiladi. Bunda asar ijodiy faoliyat natijasi bo'lishi (ijodiylik) talab etiladi.

Boshqacha aytganda, mezonlardan biri "ijodiylik (originallik)" hisoblanib, asar mustaqil ijodiy mehnat natijasida yaratilgan bo'lishi, muallifning individual uslubini aks ettirishi kerak. Faqat texnik zaruratdan kelib chiqadigan shakllar mualliflik huquqi bilan himoyalalanmaydi.

Yana bir mezonlardan biri "obyektiv shaklda ifodalanganlik" hisoblanib, moddiy ko'rinishga ega bo'lishi shart (real buyum, chizma, maket va hokazo). Abstrakt konsepsiyaning o'zi muhofazalanmaydi. Ya'ni mualliflik huquqi g'oyalar, prinsiplar, uslublar, jarayonlar, tizimlar, usullar yoki konsepsiyalarga emas, balki ifoda shakliga nisbatan tatbiq etiladi [5].

Bundan tashqari, asar "estetik qiymat"ga ega bo'lishi lozim. Bunda asar faqat funksional yechim bilan chegaralanib qolmasdan, ma'lum darajada badiiy va estetik ahamiyatga ega bo'lishi lozim. Aynan shu jihat uni oddiy utilitar (foydali) mahsulot yoki buyumdan farqlaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasida mualliflik huquqi obyektlari bo'lgan asarlar ro'yxati keltirilgan (adabiy asarlar, drama va ssenariy asarlari, manzarali-amaliy va sahna bezagi san'ati asarlari va boshqalar). Shuni unutmash kerakki, yangi texnologiyalar rivojlanishi bilan birga yangi mualliflik huquqi obyektlari paydo bo'laveradi.

Boshqa bir adabiyotda, asar mualliflik huquqi obyektini sifatida tan olinishi uchun zarur bo'lgan ijodiy xarakter, obyektiv shakl hamda idrok qilish mumkin bo'lgan biror-bir shaklda yoki boshqa usulda ishlab chiqish qobiliyati kabi xususiyatlar ajratib ko'rsatilgan [6].

Amaliy san'at asarini mualliflik huquqi obyektini sifatida himoya qilishda amaliyotda eng ko'p bahsga sabab bo'ladigan masalalardan biri bu "Buyumning tashqi ko'rinishi texnik zaruriyatdan kelib chiqqanmi yoki unda ijodiy erkinlik bormi?", degan savol hisoblanadi. Agar shakl ustidan ijodiy erkinlik mavjud bo'lsa va muallif o'ziga xos badiiy yechim taklif qilgan bo'lsa, bunday obyektini mualliflik huquqi bilan himoya qilish ehtimoli yuqori bo'ladi [7].

Xalqaro huquq nuqtai nazaridan amaliy san'at asarlari adabiyot va san'at asarlari tarkibida mualliflik huquqi bilan muhofaza qilinadigan obyektlar qatoriga kiradi. Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risida Bern konvensiyasida (Bern, 1886-yil 9-sentabr) "adabiyot va san'at asarlari" tushunchasiga keng ta'rif berilib, amaliy san'at va dekorativ san'at asarlarining ham mazkur toifa doirasida e'tirof etilishi nazarda tutilgan. Ya'ni Bern konvensiyasining 2 (1)-moddasiga ko'ra "adabiy va badiiy asarlar" atamasi adabiyot, fan va san'at sohasidagi har qanday mahsulotni, uning qanday usul va shaklda ifodalanganidan qat'i nazar, o'zida qamraydi, shu jumladan amaliy san'at asarlarini ham [8].

Bern konvensiyasi va Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) tavsiyalariga ko'ra, davlatlarga amaliy san'at asarlarini himoya qilish muddatini, shuningdek, ularning sanoat namunalari (industrial dizayn) huquqi bilan munosabatini belgilashda ma'lum erkinlik beriladi. Ayrim yurisdiksiyalarda bunday asarlar asosan mualliflik huquqi bilan, boshqalarida esa sanoat namunalari (industrial dizayn) huquqi orqali yoki ikkalasining kombinatsiyasi asosida muhofaza qilinadi.

Bu borada Bern konvensiyaning 7 (4)-modasini hisobga olgan holda, Ittifoqqa a'zo mamlakatlar qonunchiligida o'z qonunlarining amaliy san'at asarlari va sanoat namunalari hamda foydali modellarga nisbatan qo'llanish darajasi, shuningdek, bunday asarlar, namunalar va modellarni muhofaza qilish shartlari belgilanadi. Kelib chiqish mamlakatida faqat namunalar va modellar sifatida muhofaza qilinadigan asarlarga nisbatan Ittifoqqa a'zo boshqa mamlakatlarda ushbu mamlakatda namunalar va modellarga taqdim etiladigan maxsus muhofaza talab qilinishi mumkin, biroq, agar mazkur mamlakatda bunday maxsus muhofaza taqdim etilmasa, bu asarlar badiiy asarlar sifatida muhofaza qilinadi [8].

Shu bilan birga, Bern konvensiyasining 7 (4)-modasiga ko'ra Ittifoq mamlakatlari qonunchiligida badiiy asarlar sifatida muhofaza qilinadigan fotografik asarlar va amaliy san'at asarlarining muhofaza muddati belgilanishi mumkin; biroq bu muddat bunday asar yaratilgan vaqtdan e'tiboran yigirma besh yildan qisqaroq bo'lishi mumkin emas.

Shuningdek, xorijiy davlatlar qonunchiligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Buyuk Britaniyada amaliy san'at asarlari mualliflik huquqi va dizayn (sanoat mulki) huquqi orqali himoyalanaadi. Bu ikki tizim alohida va mustaqil himoya mexanizmlariga ega bo'lib, ularning talablari ham turlicha:

mualliflik huquqi – muallifning intellektual ijod mahsuli bo'lishini talab qiladi;

dizayn huquqi – yangilik (novelty) va individual xarakter (individual character) mavjud bo'lishini talab etadi.

Buyuk Britaniyada mualliflik huquqini tartibga soluvchi asosiy normativ hujjat – 1988-yildagi "Mualliflik huquqi, dizaynlar va patentlar to'g'risida"gi qonun (Copyright, Designs and Patents Act 1988 – CDP) bo'lib, u amaliy san'at hamda oddiy (sof) san'at asarlarini himoya qiladi.

Amaliy san'at asarlari ushbu qonun doirasida "badiiy hunarmandchilik asarlari" (works of artistic craftsmanship) sifatida hamda sof san'at asarlari esa "badiiy asarlar" (artistic works) sifatida himoyalanaadi [9].

Amaliy san'at asarlari ko'pincha intellektual mulkning boshqa obyektlari bilan kesishuvchi huquqiy maydonni vujudga keltiradi. Masalan, noyob shakl va bezakka ega bo'lgan mebel yoki idish-tovoq:

badiiy yechimi nuqtai nazaridan amaliy san'at asari;

tashqi ko'rinishi jihatidan sanoat namunasi (industrial dizayn);

agar u ma'lum tovar yoki xizmatni individualizatsiya qilsa, tovar belgisi elementlari sifatida muhofaza qilinishi ham mumkin.

Shuningdek, amaliy san'at asarlariga nisbatan mulk huquqi va shaxsiy nomulkiy huquqlarga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, asarni har qanday shaklda va har qanday usulda ishlatishga bo'lgan huquq muallifning mulkiy huquqlari hisoblanadi hamda muallif asardan har qanday shaklda va har qanday usulda foydalanishda mutlaq huquqlarga ega. Muallifning Mutlaq huquqlari uning mulkiy huquqlari deb ataladi, chunki kimning haqini, daromadini yoki foydasini olishidan qat'iy nazar, asardan foydalanish har doim ma'lum mulkiy foyda keltiradi.

Asarni takrorlash, sotish, yetkazish, prokatga berish, tuzatishlar kiritish, tarjima qilish va boshqalar muallifning asardan foydalanishga bo'lgan mutlaq huquqlarini anglatadi.

Sotib olingan biror-bir buyumga (masalan, kashta, sopol lagan, gilam, zargarlik buyumi) nisbatan mulk huquqi egalik qilish (saqlash), foydalanish (taqish, uyda ishlatish, interyerda qo'yish) va tasarruf etish (sotish, hadya qilish, meros qoldirish) orqali amalga oshadi. Lekin buyumni sotib olish uni sotib olgan shaxsga avtomatik ravishda u buyumdagi bezak, naqsh yoki dizaynni ko'paytirish, nusxa olish, reklamada ishlatish kabi mualliflik huquqlarni bermaydi. Chunki mutlaq huquq buyumga bo'lgan mulk huquqidan mustaqil mavjud bo'ladi. Ya'ni buyumni sotib olish bilan asar huquqlari "o'z-o'zidan" o'tmaydi. Mualliflik huquqi esa asar yaratilgan paytdan (ro'yxatdan o'tkazmasdan ham) vujudga keladi.

Misol uchun, bozordan biror-bir shaxs so'zana (kashta) sotib oldi. So'zana buyum sifatida sotib olgan shaxsniki, ya'ni u undan o'z xohlaganicha foydalanishi, uyini bezashi, uni hadya qilishi, qayta sotishi mumkin. Biroq u so'zanadagi mualliflik huquqi obyektini hisoblangan bezak yoki naqshni skanerlab yoki boshqacha usulda uni takrorlashi yoki tarqatishi mumkin emas. Bu muallifning huquqi hisoblanadi hamda faqat muallif yoki huquq egasi ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak, amaliy san'at asarlarini noto'g'ri huquqiy tasniflash huquq egasining manfaatlariga zarar yetkazishi ehtimoli bor. Masalan, amaliy san'at asari sifatida himoya qilinishi mumkin bo'lgan obyekt o'z vaqtida sanoat namunasi sifatida ro'yxatdan o'tkazilmasa, ayrim bozorlarda undan foydalanishni cheklash qiyinlashadi. Shu bois, bu borada amaliy san'at, dizayn va tovar belgilari o'rtasidagi chegaralarni to'g'ri aniqlash, huquqiy strategiyani kompleks yondashuv asosida belgilash muhim hisoblanadi [10].

Bundan tashqari, amaliy san'at asarlarini intellektual mulk obyektlari sifatida himoya qilish jarayonida boshqa bir qator muammolar ham kuzatiladi. Masalan, ijodiylik (originallik) mezonining subyektivligi – sud amaliyotida ijodiylik (originallik) talabi turlicha talqin qilinishi mumkin. Bu esa bir xil holatlarda ham turli xil qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin. Qolaversa, ommaviy ishlab chiqarish sharoitida nazoratning murakkablashuvi – dizayn va hunarmandchilik buyumlarining tez nusxalanishi, internet va elektron savdo maydonchalari orqali tarqalishi mualliflik huquqini amalda himoya qilishni qiyinlashtiradi.

Huquqiy xabardorlik va savodxonlikning yetarli emasligi – amaliy san'at bilan shug'ullanadigan ustalar, dizaynerlar va kichik tadbirkorlar asarlarini qanday ro'yxatdan o'tkazish, qaysi huquqiy rejimni tanlash va buzilish holatlarida qanday harakat qilishni yaxshi bilishmasligi ham amaliy san'at asarlarining himoyasini qiyinlashtiradi.

Shuningdek, transchegaraviy muammolar – mahsulotlar bir nechta bozorlar uchun mo'ljallanganda, turli yurisdiksiyalarda mualliflik huquqi va sanoat namunasi (industrial dizayn) huquqi o'rtasidagi tafovutlar huquq egasining pozitsiyasini murakkablashtiradi. Bunday hollarda amaliyotda mualliflar va tadbirkorlar qaysi huquqiy rejimni tanlash masalasida ko'p hollarda professional huquqiy maslahatga muhtoj bo'ladilar. Bu esa intellektual mulk sohasida konsalting va institutsional infratuzilmani rivojlantirish zaruratini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, amaliy san'at asarlarini intellektual mulk obyektlari sifatida samarali himoya qilish uchun quyidagi yo'nalishlarda ishlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq:

**birinchidan**, normativ bazani aniqlashtirish va takomillashtirish – milliy qonunchilikda amaliy san’at, sanoat namunasi va tovar belgisi o’rtasidagi chegaralarni aniq belgilash, mezonlarni izchil qo’llash bo’yicha tushuntirish-hujjatlari, jumladan sud plenumi qarorini ishlab chiqish;

**ikkinchidan**, ro’yxatdan o’tkazish va depozit tizimini soddalashtirish – amaliy san’at asarlarini ixtiyoriy ro’yxatdan o’tkazish, elektron depozit qilish imkoniyatlarini kengaytirish huquqni isbotlash va nizolarni hal etishni yengillashtiradi;

**uchinchidan**, huquqiy savodxonlikni oshirish – mualliflar, jumladan, dizaynerlar, hunarmandlar va ijodkorlar uchun maxsus treninglar, onlayn kurslar tashkil etish, qo’llanmalar tayyorlash, davlat organlari va professional uyushmalar tomonidan konsalting xizmatlarini kuchaytirish;

**to’rtinchidan**, huquqbuzarliklarga qarshi kurash mexanizmlarini kuchaytirish – noqonuniy nusxalash, plagiat va soxta mahsulotlarga qarshi ma’muriy va fuqarolik-huquqiy choralarni samarali qo’llash, zarur hollarda jinoiy javobgarlik mexanizmlarini ishga tushirish.

Xulosa qilib aytganda, amaliy san’at asarlari intellektual mulk obyektlarining murakkab va o’ziga xos turini tashkil etadi. Ularning estetik va foydalanish (utilitar) funksiyalarni birlashtirgan oraliq tabiati huquqiy himoya tizimida maxsus yondashuvni talab etadi. Ya’ni amaliy san’ati obyektlari mualliflik huquqi va sanoat mulki obyektlari bilan bevosita kesishadi, shuningdek, intellektual mulk huquqi obyekt sifatida alohida yondashuvni talab qiladi [11]. O’zbekiston qonunchiligi ham, xalqaro huquq me’yorlari ham amaliy san’at asarlarini mualliflik huquqi obyektlari sifatida tan olgani holda, amaliyotda ijodiylik mezonini qo’llash, ro’yxatdan o’tkazish, transchegaraviy himoya va huquqbuzarliklarga qarshi kurash borasida qator muammolar saqlanib qolmoqda.

Mazkur muammolarni tizimli ravishda hal etish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va huquq egalari manfaatlarini samarali himoya qilish orqali amaliy san’at sohasining barqaror rivojlanishiga, shuningdek, kreativ iqtisodiyot va milliy madaniy brendlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

#### IQTIBOSLAR/ЧОККИ/REFERENCES:

1. WIPO. Understanding Copyright and Related Rights. Geneva: World Intellectual Property Organization, 2016. // [https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo\\_pub\\_909\\_2016.pdf](https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_909_2016.pdf).
2. O’zbekiston Respublikasining “Kreativ iqtisodiyot to’g’risida”gi 03.10.2024-yildagi O’RQ-970-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/-7129258>.
3. From Function to Form: Applied Art in the UK and EU // URL: <https://www.fieldfisher.com/en/insights/from-function-to-form-applied-art-in-the-uk-and-eu>.
4. WIPO. Guide to the Copyright and Related Rights Treaties Administered by WIPO. Geneva: WIPO, 2004. // [https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/copyright/891/wipo\\_pub\\_891.pdf](https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/copyright/891/wipo_pub_891.pdf).
5. O’zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to’g’risida”gi 20.07.2006-yildagi O’RQ-42-son Qonuni // <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>.
6. И.Б.Якубова Муаллифлик ҳуқуқи. Ўқув қўлланма –Т. 2020. 30-б.
7. CJEU, Brompton Bicycle (C-833/18) // [https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A62018CJ0833&utm\\_source=chatgpt.com](https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A62018CJ0833&utm_source=chatgpt.com).
8. Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to’g’risida Berna konvensiyasi (Bern, 1886 yil 9 sentabr) // <https://lex.uz/docs/-1310607>.
9. Copyright, Designs and Patents Act 1988 // URL: <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1988/48/contents>.
10. “Industrial Designs and their Relation with Works of Applied Art and Three-Dimensional Marks” (SCT/9/6), Geneva, November 11 to 15, 2002.
11. Traditional cultural expressions and intellectual property // URL: [https://www.wipo.int/en/web/traditional-knowledge/traditional-cultural-expressions/index?utm\\_source](https://www.wipo.int/en/web/traditional-knowledge/traditional-cultural-expressions/index?utm_source).

**ABDURASULOVA Kumrinisa Raimkulovna**

Toshkent davlat yuridik universiteti  
Jinoyat huquqi, kriminologiya va  
korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası  
professori, yuridik fanlar doktori  
E-mail: [prof.abdurasulova@gmail.com](mailto:prof.abdurasulova@gmail.com)

## VOYAGA YETMAGAN SHAXSNI JINOYATNING SUBYEKTI DEB TOPISHNING ZARURIY BELGISI

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):** ABDURASULOVA K.R. Voyaga yetmagan shaxsni jinoyatning subyekti deb topishning zaruriy belgisi // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2026) B.99-110.

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jinoyat huquqida voyaga yetmagan shaxsni jinoyatning subyekti sifatida e'tirof etishning muhim va zaruriy belgisi bo'lgan yosh mezonini nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi jinoiy javobgarlik yoshini belgilashda shaxsning nafaqat kalendar yoshi, balki uning ruhiy, aqliy va ijtimoiy yetuklik darajasini ham hisobga olish zarurligini tadqiq etishdan iborat. Muallif jinoiy javobgarlik yoshini belgilovchi tibbiy-biologik, ijtimoiy-psixologik va huquqiy mezonlarning o'zaro uzviy bog'liqligini ochib bergan hamda ularning jinoyat subyekti tushunchasidagi ahamiyatini yoritgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi normalari asosida jinoiy javobgarlik yoshining umumiy va ayrim jinoyatlar uchun belgilangan maxsus chegaralari, shuningdek, voyaga yetmagan shaxslarning yoshini aniqlash tartibi va protsessual xususiyatlari tahlil qilingan. Qiyosiy-huquqiy tahlil orqali xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida jinoiy javobgarlik yoshi masalasiga bo'lgan yondashuvlar o'rganilib, ularning ijobiy jihatlari ko'rsatib berilgan. Maqolada voyaga yetmagan shaxsning o'z harakatlarining ijtimoiy xavfliligini anglash va ularni boshqarish qobiliyati jinoyat subyekti mavjudligini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani asoslangan. Tadqiqot natijalari asosida voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarligini differentsiatsiya qilish va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalarga kelingan.

**Kalit so'zlar:** jinoyat subyekti, voyaga yetmagan shaxs, jinoiy javobgarlik yoshi, yosh belgisi, aqli rasolik, ijtimoiy xavfli qilmish, jinoyat huquqi, jinoyat qonunchiligi, yoshni aniqlash, qiyosiy-huquqiy tahlil.

**АБДУРАСУЛОВА Кумриниса Раимкуловна**

Профессор кафедры Уголовного права,  
криминологии и противодействия коррупции  
Ташкентского государственного юридического  
университета, доктор юридических наук  
E-mail: [prof.abdurasulova@gmail.com](mailto:prof.abdurasulova@gmail.com)

## ВОЗРАСТ КАК НЕОБХОДИМЫЙ ПРИЗНАК ПРИЗНАНИЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНЕГО СУБЪЕКТОМ ПРЕСТУПЛЕНИЯ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье с теоретической и практической точек зрения анализируется возрастной критерий как важнейший и необходимый признак признания несовершеннолетнего лица субъектом преступления в уголовном праве. Основной целью исследования является изучение необходимости учета при определении возраста уголовной ответственности не только календарного возраста лица, но и уровня его психической, интеллектуальной и социальной зрелости. Автор

раскрывает взаимосвязь медико-биологических, социально-психологических и правовых критериев, определяющих возраст уголовной ответственности, а также показывает их значение в формировании понятия субъекта преступления. В статье на основе норм Уголовного кодекса Республики Узбекистан анализируются общие возрастные пределы уголовной ответственности и специальные возрастные границы, установленные для отдельных составов преступлений, а также порядок и процессуальные особенности определения возраста несовершеннолетних лиц. Посредством сравнительно-правового анализа исследуются подходы зарубежных государств к решению вопроса возраста уголовной ответственности, выявляются их положительные стороны. Обосновывается, что способность несовершеннолетнего осознавать общественную опасность своих действий и управлять ими имеет решающее значение при признании его субъектом преступления. По результатам исследования сформулированы научные выводы, направленные на дифференциацию уголовной ответственности несовершеннолетних и совершенствование уголовного законодательства.

**Ключевые слова:** субъект преступления, несовершеннолетний, возраст уголовной ответственности, возрастной признак, вменяемость, общественно опасное деяние, уголовное право, уголовное законодательство, установление возраста, сравнительно-правовой анализ.

**KUMRINISA Abdurasulova Raimkulovna**  
Professor of the Department of Criminal Law,  
Criminology and Anti-corruption Tashkent State  
University of Law, Doctor of Law,  
E-mail: [prof.abdurasulova@gmail.com](mailto:prof.abdurasulova@gmail.com)

## THE AGE AS A NECESSARY FEATURE FOR RECOGNIZING A MINOR AS THE SUBJECT OF A CRIME

### ANNOTATION

This article analyzes, from both theoretical and practical perspectives, the age criterion as an essential and mandatory feature for recognizing a minor as the subject of a crime in criminal law. The main purpose of the study is to examine the necessity of taking into account not only the calendar age of a person, but also the level of their mental, intellectual, and social maturity when determining the age of criminal responsibility. The author reveals the close interrelation between medical-biological, socio-psychological, and legal criteria that determine the age of criminal responsibility and highlights their significance in shaping the concept of the subject of a crime. Based on the provisions of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, the article analyzes the general age threshold of criminal responsibility as well as special age limits established for certain categories of crimes, along with the procedure and procedural features of determining the age of minors. Through comparative legal analysis, the approaches of foreign states to the issue of the age of criminal responsibility are examined, and their positive aspects are identified. The article substantiates that a minor's ability to understand the social danger of their actions and to control them is of decisive importance in determining the existence of the subject of a crime. Based on the research results, scientific conclusions are drawn aimed at differentiating the criminal liability of minors and improving criminal legislation.

**Keywords:** subject of a crime, minor, age of criminal responsibility, age criterion, sanity, socially dangerous act, criminal law, criminal legislation, determination of age, comparative legal analysis.

Insonning ma'lum ruhiy-fiziologik xususiyati uning yoshi bilan ham bog'liq bo'ladi. Qonunda jinoiy javobgarlik yoshining belgilanishi birinchi navbatda shu bilan izohlanadiki, bu holat shaxsning aqliy rivojlanishi, uning o'z harakatlari yuzasidan hisob berishi va ularni boshqarish qobiliyati bilan bog'liq, shuning uchun ham har bir muayyan holatlar shaxsning yoshini aniqlash jinoyat qonunida

nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni jinoyat subyekti, deb topish uchun zarurdir.

Ma'lum yoshga to'lganlik – shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishning zarur shartlaridan biri. Qonunda belgilangan yoshga to'lmagan shaxslar jinoyatning subyekti bo'la olmaydilar, chunki ular o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydilar va ularni ongli ravishda boshqara olmaydilar.

Qonunda jinoiy javobgarlik yoshini o'z ixtiyoriga qarab emas, balki inson ongi, uning o'z qilmishlari xususiyatini tushunishi, shuningdek, o'z harakatlarini boshqarish qobiliyatining rivojlanishidan kelib chiqib belgilangan.

Yosh deganda keng ma'noda inson tug'ilgan vaqtdan istalgan boshqa xronologik davrgacha o'tgan kalendar davri tushuniladi. So'zning tor ma'nosida, yosh shaxs ruhiy-fiziologik rivojlanishining shunday bir kalendar davriki, u bilan shaxs huquqiy holatining biologik, ijtimoiy-psixologik va huquqiy oqibatlari bog'liq bo'ladi.

Turli (biologik, psixologik, ijtimoiy, xronologik) mezonlarga qarab, yoshning quyidagi turlari farqlanadi: a) biologik (sinonimlari – funksional, tibbiy, morfologik) yosh; b) kalendar (sinonimlari – pasport, xronologik) yosh; v) ijtimoiy-huquqiy (sinonimlari normativ, ijtimoiy-psixologik, sotsiologik) yosh. Biologik yosh mazkur davr, aholi, jug'rofiy va iqtisodiy yashash sharoitlarida mana shu yoshdagi sog'lom odamlarning tegishli ko'rsatkichlariga taqqoslaganda, inson organizmi holati ko'rsatkichlarining majmui bilan tavsiflanadi. Yosh o'zgarishlarining biologik tafovutlari ma'lum odamlarning o'z yoshidan katta, boshqalarning esa – kichik ko'rinishida namoyon bo'ladi. Insonning kalendar yoshi tug'ilgandan boshlab muayyan vaqtgacha o'tgan vaqt bilan (yillar, oylar, kunlar, ba'zan esa – soatlarda) o'lchanadi. Kalendar yoshi ma'lum hollarda biologik yoshdan ortda qolishi (organizmning sust o'sishi), ma'lum hollarda esa – o'sishning tezlashib ketishi (erta qarish) mumkin[1]. Ijtimoiy-huquqiy yosh o'ziga xos ijtimoiy-psixologik o'zgarishlar, shaxsning ijtimoiylashishi darajasi, uning fuqaro sifatidagi huquq va majburiyatlarining hajmi va mazmuni, shaxsning jamiyat oldidagi mas'uliyatining mazmuni va xususiyati bilan tavsiflanadi. Fuqaroning yuridik huquq va majburiyatlarini ro'yobga chiqarish, uning javobgarligi hajmi va xususiyati, ya'ni shaxsning huquqiy maqomi yuqorida zikr etilgan yoshning xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Amaldagi qonunda quyidagi yoshlar: fuqarolik-huquqiy layoqat va javobgarlik yoshi; jinoiy javobgarlik yoshi; ma'muriy javobgarlik yoshi; mehnat qilish mumkin bo'lgan yosh; konstitutsiyaviy yosh; harbiy xizmatga chaqirish yoshi; nikoh yoshi; pensiya yoshi[2] nazarda tutilgan. Huquqning muayyan sohasida yoshning quyi chegarasini belgilashda ikki mezon: birinchidan, tartibga solinuvchi ijtimoiy munosabatlarning xususiyati va, ikkinchidan, shaxsning ijtimoiy darajasi e'tiborga olinadi.

Jinoiy javobgarlik yoshining quyi chegarasi qonun chiqaruvchi organ tomonidan tibbiy-biologik (jismoniy va ruhiy rivojlanish darajasi va h.k.), ijtimoiy-psixologik (shaxsning aqliy, irodaviy va emotsional xususiyatlarining rivojlanishi darajasi va h.k.), sotsiologik (shaxsning ijtimoiylashishi darajasi) mezonlarning jami, shuningdek kriminologik ko'rsatkichlar (masalan, mazkur yoshdagi odamlar orasida ushbu jinoyat turining tarqalganligi, uning og'irligi, ijtimoiy xavfliligi va h.k.), jinoyat huquqi prinsiplari (masalan, jinoyat-huquqiy taqiqni belgilashning maqsadga muvofiqligi) dan kelib chiqib belgilanadi.

Voyaga yetmagan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishda tibbiy-biologik mezonlar (jismoniy va ruhiy rivojlanish darajasi va h.k.) haqida so'z ketganida, aybdorning yoshini (tug'ilgan kuni, oyi, yilini) to'g'ri aniqlashga katta e'tibor beriladi.

Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlikni sodir etgan o'smirning yoshi O'zbekiston Respublikasi JPKning alohida ish yuritishga bag'ishlangan 60-bobi qoidalariga asosan aniqlanadi.

Bunga muvofiq, tergov va sud jinoiy javobgarlikka tortilayotgan voyaga yetmagan shaxsning tugʻilgan kuni, oyi va yilini aniqlashi shart. Bunda shaxs tugʻilgan kundan keyingi nol soatdan eʼtiboran, yaʼni tugʻilgan kundan emas, balki keyingi kundan boshlab maʼlum yoshga toʻlgan deb hisoblanadi [3].

Shaxs oʻn olti yoshga (yoki oʻn toʻrt yoshga) toʻlgan kunda sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishlarga jinoyat deb qaralishi va uni sodir etgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Odatda shaxsning yoshi tegishli hujjat (pasport, tugʻilganlik toʻgʻrisida guvohnoma va boshqalar)ga asosan juda oson aniqlanadi. Agar yosh toʻgʻrisida hujjat mavjud boʻlmasa, boshqa dalillardan foydalaniladi. Bunda sud-tibbiyot ekspertizasi oʻtkazilishi ham mumkin. “Sud-tibbiyot ekspertizasi tomonidan yoshni aniqlashda ekspertlar xulosasida qayd etilgan yilning oxirgi kuni, yaʼni 31-dekabrni sudlanuvchining tugʻilgan kuni deb hisoblash zarur, yoshni minimal va maksimal yillar soni bilan aniqlashda sud ekspertizada taxmin qilingan shaxsning minimal yoshidan kelib chiqishi lozim” [4].

Voyaga yetmagan va voyaga yetgan shaxsning yoshini tasdiqlovchi hujjatlar boʻlmagan taqdirda, uning yoshi sud-tibbiyot ekspertizasi yordamida aniqlanadi. Bu holda ekspertiza xulosasida belgilangan yilning oxirgi kuni jinoiy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning tugʻilgan kuni deb topiladi. Voyaga yetmagan shaxsning aqli zaifligidan dalolat beruvchi maʼlumotlar boʻlgan taqdirda, sud jinoyat-protsessual qonun talablariga muvofiq, voyaga yetmagan shaxsning aqli zaifligi darajasini, u oʻz harakatlarining ahamiyatini qay darajada anglashi va boshqara olishi mumkinligini aniqlashi lozim [5]. Oʻzbekiston Respublikasi JPKning 73-moddasiga muvofiq, ish boʻyicha yuqorida zikr etilgan holatlarni aniqlash talab etilgan taqdirda, bolalar va oʻsmirlar psixologiyasi mutaxassisleri (psixolog-pedagoglar) tomonidan ekspertiza oʻtkazilishi lozim yoki mazkur masalalar ekspert-psixiatr tomonidan hal qilinishi mumkin. Voyaga yetmagan shaxsning aqli zaifligi aniqlangan taqdirda, u sodir etgan jinoyatning ijtimoiy xavfliligi xususiyatidan kelib chiqib, sud, JKning 87-moddasiga muvofiq, tarbiyaviy yoʻsindagi majburlov choralarini qoʻllash bilan cheklanishi mumkin.

Jinoiy javobgarlik yoshining quyi chegarasi qonunda ikki usul orqali tartibga solinishi mumkin: barcha jinoyatlarga nisbatan amal qiladigan umumiy norma koʻrinishida yoki umumiy norma bilan bir qatorda, jinoyatlarning maʼlum doirasiga nisbatan amal qiladigan jinoiy javobgarlikning yosh chegaralarini nazarda tutadigan maxsus norma qoʻllaniladi. Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligida ikkala usuldan ham foydalaniladi.

Oʻzbekiston Respublikasi JK 17-moddasi 1-qismiga muvofiq, jinoyat sodir etgunga qadar oʻn olti yoshga toʻlgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Oʻzbekiston Respublikasi JK 17-moddasi 2-qismiga muvofiq, jinoyat sodir etgunga qadar oʻn toʻrt yoshga toʻlgan shaxslar ushbu Kodeks 97-modda (qasddan odam oʻldirish), 98-moddasi (kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam oʻldirish), 104-106-moddalari (qasddan badanga ogʻir shikast yetkazish; qasddan badanga oʻrtacha ogʻir shikast yetkazish; kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga ogʻir va oʻrtacha ogʻir shikast yetkazish), 118-moddasi (nomusga tegish), 119-moddasi (jinsiy ehtiyojni zoʻrlilik ishlatib, gʻayritabiiy usulda qondirish), 126<sup>1</sup>-moddaning 4-8-qismlari (oilaviy (maishiy) zoʻravonlik), 137-moddasi (odam oʻgʻirlash), 164-166-moddalari (bosqinchilik; talonchilik; tovlamachilik), 169-moddasi (oʻgʻirlik), 173-moddasining 2 va 3-qismlari (mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish), 220-moddasi (ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish joylarining ishini izdan chiqaruvchi harakatlar), 222-moddasi (ozodlikdan mahrum qilish joylaridan qochish), 247-moddasi (oʻqotar qurol, oʻq-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash), 252-moddasi (radioaktiv materiallarni

qonunga xilof ravishda egallash), 263-moddasi (temir yo‘l, dengiz, daryo, havo transporti vositasi yoki aloqa yo‘llarini yaroqsiz holatga keltirish), 267-moddasi (transport vositasini olib qochish), 271-moddasi (giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash), 277-moddasi 2 va 3-qismlari (bezorilik)da nazarda tutilgan jinoyatlar uchun javobgarlikka tortiladilar.

Ushbu Kodeksning 122-moddasi (voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta‘minlashdan bo‘yin tovlash), 123-moddasi (ota-onani moddiy ta‘minlashdan bo‘yin tovlash), 127-moddasi (voyaga yetmagan shaxsni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish), 144-moddasi (fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish), 146-moddasi (saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o‘tkazish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish), 193-195-moddalari (ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish; atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko‘rsatish; atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralarini ko‘rmaslik), 205-210-moddalari (hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste‘mol qilish; hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish; mansabga sovuqqonlik bilan qarash; hokimiyat harakatsizligi; mansab soxtakorligi; pora olish), 225-moddasi (harbiy yoki muqobil xizmatdan bo‘yin tovlash), 226-moddasi (ma‘muriy nazorat qoidalarini buzish), 230-232-moddalari (aybsiz kishini javobgarlikka tortish; adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarish; sud qarorini bajarmaslik), 234-moddasi (qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki hibsga olish), 235-moddasi (ko‘rsatuv berishga majbur qilish), 279-302-moddalari (bo‘ysunmaslik; buyruqni bajarmaslik; boshliqqa qarshilik ko‘rsatish yoki uni xizmat vazifalarini buzishga majbur qilish; boshliqni qo‘rqitish; badanga shikast yetkazish; bo‘ysunuvchining o‘z boshlig‘ini yoki boshliqning o‘ziga bo‘ysunuvchini haqorat qilishi; bir-biriga tobe bo‘lmagan harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga oid ustav qoidalarini buzish; marodiyorlik; harbiy qism yoki xizmat joyini o‘z boshimchalik bilan tashlab ketish; dezertirlik; halok bo‘layotgan harbiy kemani tashlab ketish; o‘zining biron a‘zosini mayib qilish yo‘li bilan yoki boshqa usulda harbiy xizmatdan bo‘yin tovlash; qorovul xizmatini o‘tash qoidalarini buzish; ichki xizmatni o‘tash yoki garnizonda patrullik qilish qoidalarini buzish; jangovar navbatchilikni o‘tash qoidalarini buzish; chegara xizmatini o‘tash qoidalarini buzish; harbiy mulkni behuda sarflash, yo‘qotish yoki ishdan chiqarish; harbiy mulkni nobud qilish yoki unga shikast yetkazish; atrofdegilar uchun katta xavf manbai bo‘lgan qurol-yarog‘, shuningdek, modda va buyumlar bilan muomalada bo‘lish qoidalarini buzish; mashinalarni boshqarish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish; uchish yoki uchishga tayyorgarlik ko‘rish qoidalarini buzish; kemani boshqarish qoidalarini buzish; hokimiyatni suiiste‘mol qilish, hokimiyat vakolatidan tashqariga chiqish yoki hokimiyat harakatsizligi; xizmatga sovuqqonlik bilan qarash) nazarda tutilgan jinoyatlar uchun jinoyat sodir etilgunga qadar o‘n sakkiz yoshga to‘lgan shaxslar javobgarlikka tortiladilar.

Jinoyat sodir etgunga qadar o‘n olti yoshga to‘lgan shaxs ma‘lum hayot tajribasiga, o‘z qilmishlarining ahamiyatini anglash va xulq-atvorini tartibga solish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘n olti yoshga to‘lgan o‘smir sog‘lom aql-idrok asosida harakat qilishga, o‘z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglashga va ularning oqibatlarini tushunishga qodirdir.

Jinoyat javobgarlik yoshini belgilash uchun bo‘lib, voyaga yetmagan shaxsning ongliligi darajasi, uning sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni anglash va shunga muvofiq ongli harakat qilish qobiliyati xizmat qiladi. Shuning uchun ham bunday qobiliyatga ega bo‘lmagan o‘smirlar jinoyat subyekti deb topilmaydi. O‘z xulq-atvorining xavfliligini anglash qobiliyati asta-sekin, tarbiya va hayotiy kuzatishlar natijasida shakllanadi. Ba‘zi bir qilmishlarning ijtimoiy xavfliligini o‘smir ota-onasi, tarbiyachilari va boshqa kattalarning o‘g‘irlik qilmaslik, boshqalarga ozor yetkazmaslik, urishmaslik kerak degan va boshqa shunga o‘xshash o‘g‘itlariga qarab tushunib boradi. Bunday

foydali maslahatlar o'smirlarga o'g'rilik, bezorilik, odam o'ldirish singari jinoyatlarning xavfliligini anglab yetish imkonini beradi.

Voyaga yetmaganlarning 14 yoshdan boshlab jinoiy javobgarlikka tortilishi shu bilan izohlanadiki, bu yoshda ular shaxsga, o'zganing mulkiga va jamoat tartibiga daxl etish bilan bog'liq jinoyat huquqiy taqiqlarni yaxshi anglyadilar.

Huquqshunoslarning ma'lum qismi jinoyat qonunida o'n to'rt yoshdan boshlab jinoiy javobgarlik eng og'ir jinoyatlar uchun belgilangan, deb hisoblaydilar. Bu qarashni to'g'ri deb bo'lmaydi: birinchidan, O'zbekiston Respublikasi JK 17-moddasi 2-qismida zikr etilgan jinoyatlarning aksariyati og'ir va hatto o'ta og'ir jinoyatlar toifasiga kirsada, bu ustuvor ahamiyatga ega emas. Bir qator og'ir jinoyatlar JK 17-moddasi 3-qismida ko'rsatilgan jinoyatlar qatoriga kiritilmagan va ular uchun shaxs 16 yoshdan boshlab jinoiy javobgarlikka tortiladi; ikkinchidan, JK 17-moddasi 2-qismida ko'rsatilgan jinoyatlarning aksariyat qismi, masalan, O'zbekiston Respublikasi JKning 242, 243-moddalari og'ir jinoyatlar toifasiga umuman kirmaydi; uchinchidan, mazkur ro'yxatga faqat qasddan sodir etilgan jinoyatlar kiritilgan, degan qarash ham noto'g'ri, chunki yuqorida zikr etilgan ro'yxatda ehtiyotsizlik tufayli sodir etiladigan jinoyatlar, masalan, ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish (JK 102-moddasi) ham bor.

O'zbekiston Respublikasi JK 17-moddasi 2-qismida sanab o'tilgan jinoyatlar uchun o'n to'rt yoshga to'lgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilishini faqat shu bilan izohlash mumkinki, jinoyat qonuni mazkur qismga faqat yuqorida zikr etilgan shaxslarning o'zi sodir etgan harakatlarning ijtimoiy xavfliligini anglashga qodir bo'lganligi asos qilib olingan. Mutaxassislar va qonun chiqaruvchi organning fikriga ko'ra, o'n to'rt yoshga to'lgan shaxs yuqorida zikr etilgan jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi va ahamiyatini tushunishga qodir bo'ladi. JK 17-moddasi 2-qismida og'ir jinoyatlarning (qasddan odam o'ldirish va badanga og'ir shikast yetkazish, nomusga tegish, ashaddiy yoki o'ta ashaddiy bezorilik, o'qotar qurollar va giyohvandlik vositalarini egallash, bosqinchilik, talonchilik va javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda o'g'rilik sodir etish) ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo'lganligi tufayli emas, balki ularning xavfligi o'smirlarga tushunarli bo'lganligi sababli ro'yxatga kiritilgan. Ro'yxatga bezorilikning asosiy tarkibi (277-moddasi 1-qismi) kiritilmaganligini faqat shu bilan izohlash mumkinki, 14-15 yashar o'smir oddiy bezorilikni sho'xlikdan farq qilishga qodir bo'lmaydi. Oddiy bezorilikka xos bo'lgan jamoat joyida so'kinish, mushtlashish turli xil zo'rlik ishlatishni o'smirlar ba'zan o'zini ko'rsatishning bir usuli, deb qaraydilar, o'smir o'ziga bolaligidan singdirilgan taqiqlarni ongli ravishda buzadi.

Qonun chiqaruvchi jinoiy javobgarlik yoshini belgilar ekan, mazkur yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs o'z qilmishining ahamiyatini anglashga va shunga qarab ongli harakat qilishga qodir ekanligini nazarda tutadi. Voyaga yetmagan shaxs o'z ijtimoiy xavfli qilmishining ahamiyatini anglab, harakatlari yuzasidan o'ziga hisob berib va ularni boshqaribgina qolmasdan, qilmishning qonunda taqiqlanganligini ham tushunishi mumkin, degan qarash mavjud[6]. Ammo, 16 yoshga to'lmagan o'smirning o'z xulq-atvorining ijtimoiy xavfliligini anglashi va uni to'liq boshqarish imkonini beradigan darajada rivojlanganligi sinchiklab tekshirilishi lozim.

O'z xulq-atvorini ijtimoiy xavfli deb baholash imkoniyati o'smirning ma'lum hayotiy tajriba orttirishi bunday tajribaning shakllanishi yoki ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi, ya'ni ijtimoiylashish jarayoni bilan bog'liq bo'ladi. Shaxsning ijtimoiylashishi – "insonning o'zini qurshab turgan ijtimoiy muhitdagi odat va qadriyatlarni o'zlashtirishi, insonning ijtimoiy muhitga qo'shilishi... inson shaxsining shakllanishi jarayoni" [7] dir. Ammo, 16 yoshga to'lgan o'smirning ijtimoiy rivojlanishning ma'lum darajasiga yetganligi prezumpsiyasi sinchiklab tekshirilishi lozim, degan qarashni ilgari surishga turtki beruvchi bir nechta muhim holatlarni qayd etib o'tish zarur.

Birinchidan, ijtimoiy normalar va qadriyatlarni idrok etish va o'zlashtirish insonning ijtimoiy

munosabatlar tizimidagi ma'lum o'rni bilan bog'liqligi yuridik adabiyotlarda qayd etilgan [8]. Ijtimoiy munosabatlar tizimida o'smirlarning o'rni hali uzil-kesil belgilanmagan, ular jamiyatning ijtimoiy tuzilmasiga hali to'liq qo'shilmagan bo'ladi. Shuning uchun ham ular umume'tirof etilmagan qadriyatlar tizimini o'zlashtiradilar va o'z xulq-atvorida unga amal qiladilar, pirovard natijada bu ularni ba'zan g'ayriqonuniy qilmish sodir etishga olib keladi [9].

Ikkinchidan, "javobgarlikni rasman tushunish va xulq-atvor normalarini bilish o'smirning qilmishni sodir etayotganida jamiyatda belgilangan umumiy qoidalarga rioya qilishini kafolatlamaydi" [10]. O'smir o'z qilmishining ahamiyati, uning oqibatlari haqida o'ylashga, tasavvur qilishga qodir emas. Bundan tashqari, o'smirlar jinoyatlarni ko'pincha guruh tarkibida va dalolatchining ta'sirida sodir etadilar. O'smir "hamma qatori" ish tutadi va bu uni jinoyatga olib keladi [11]. O'smir o'zlashtirgan ijtimoiy qadriyatlar va normalar, hatto o'z qilmishining ijtimoiy xavfliligini anglashi ham o'z harakatlarini boshqarishi uchun yetarli bo'lmaydi.

Uchinchidan, o'smirning rivojlanish xususiyatlari ham uning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jadal jismoniy rivojlanish doim ham jadal ruhiy o'sish bilan birga kechmaydi. Bu voyaga yetmagan shaxs yashaydigan oilaning ijtimoiy beqarorligi, yaxshi tarbiya berilmaganligi, uzoq vaqt somatik kasalliklar bilan og'riqligi va h.k. bilan izohlanadi. G.I. Kurbatovning fikriga ko'ra, alkogoliklarning farzandlari ko'pincha ruhiy beqarorligi yoki hatto aqli zaifligi bilan tavsiflanadi va "birov (ba'zan, jinoyatchi)ning ta'siriga oson beriladi" [12]. Tug'ma yoki ilk bolalik davrida orttirilgan asab kasalliklari asosida, tashqi salbiy omillar ta'sirida "shaxsning tafakkuri nisbatan barqaror bo'lgani holda, uning sezgi va iroda xossalarining... nomutanosibliigi" bilan tavsiflanadigan psixopatiyalar shakllanadi [13]. To'g'ri, o'smirlikda faqat shaxsning psixopatik jihatlari haqida gapirish mumkin, chunki psixopatiya o'smirlik davrining oxiriga borib va hatto ancha keyin uzil-kesil shakllanadi [14].

Yuqorida bayon etilgan qarashlar jinoyat sodir etgan o'smirlarni javobgarlikka tortish shartlarini yanada chuqurroq differentsiatsiya qilish va ularga nisbatan tayinlanadigan jazolarni individuallashtirish zarurligini belgilaydi.

Jinoiy javobgarlik yoshi masalasi turli jinoyat-huquqiy tizimlarda har xil hal qilinadi. Jumladan, Oktabr to'ntarishidan oldingi davrda Rossiyada 1845-yilgi Jinoiy va tarbiyaviy jazolar to'g'risidagi Nizomda "yetti yoshga to'lmagan bolalar" jinoyat uchun javobgarlikka tortilmasligi belgilangan; ular ota-onalari, vasiylari yoki qarindoshlari ixtiyoriga tarbiyalab yo'lga solish uchun topshirilgan (94-moddasi). 1903-yilgi Jinoyat nizomida mazkur masala nisbatan mufassal hal qilingan. Uning 40-moddasida jinoyat sodir etgunga qadar o'n yoshga to'lgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilishi nazarda tutilgan, ammo o'n-o'n yetti yashar o'smirlar ota-onalari yoki vasiylarining nazoratiga berilgan, og'ir jinoyat sodir etgan taqdirda esa, axloq tuzatish-tarbiya muassasalariga joylashtirilgan [15].

Sovet davrida jinoiy javobgarlik yoshi turlicha bo'lib: o'n yetti yosh (1918-yil), o'n olti yosh va, agar tibbiy-tarbiyaviy yo'sindagi choralar bilan kifoyalanish mumkin bo'lmasa – o'n to'rt yosh (RSFSRning 1922- va 1926-yilgi Jinoyat kodekslari). Ammo, SSSR MIK va XKSning 1935-yil 7-aprel qaroriga muvofiq, "voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini tugatishni tezlashtirish maqsadida", o'g'rilik, zo'ravonlik, badanga shikast yetkazish, odam o'ldirish yoki odam o'ldirishga suiqasdni sodir etgan o'smirlarni o'n ikki yoshdan boshlab javobgarlikka tortish belgilangan [16], so'ng esa (1941 yilda) "shuningdek bu jinoyatlar ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan bo'lsa", degan qo'shimcha kiritilgan [17] edi.

Rossiya Federatsiyasining amaldagi Jinoyat kodeksiga muvofiq, jinoyat sodir etgunga qadar o'n olti yoshga to'lgan shaxslar javobgarlikka tortiladilar (RF JK 20-moddasi 1-qismi). JK 20-moddasi 2-qismida 14 yoshdan boshlab javobgarlikka tortiladigan jinoyatlar ro'yxati keltirilgan. Bunday

jinoyatlar jumlasiga quyidagilar kiradi: odam o'ldirish (105-modda), qasddan badanga og'ir va o'rtacha og'ir shikast yetkazish (111 va 112-moddalar), odam o'g'irlash (126-modda), nomusga tegish (131-modda), jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib qondirish (132-modda), o'g'rilik (158-modda), talonchilik (161-modda), bosqinchilik (162-modda), tovlamachilik (163-modda), avtomobil yoki boshqa transport vositasini o'g'rilik maqsadisiz g'ayriqonuniy egallash (166-modda), og'irlashtiradigan holatlarda mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish (167-moddaning 2-qismi); terrorizm (205-modda), shaxsni garovga olish (206-modda), terrorizm akti haqida bila turib yolg'on ma'lumot berish (207-modda), og'irlashtiradigan holatlarda bezorilik (213-moddaning 2 va 3-qismlari), vandalizm (214-modda), qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar va portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash yoki tovlamachilik yo'li bilan berishni talab qilish (226-modda), giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash yoki tovlamachilik yo'li bilan berishni talab qilish (229-modda), transport vositalari yoki aloqa yo'llarini yaroqsiz holatga keltirish (267-modda).

Rossiya jinoyat huquqida subyektning yosh alomatiga hamisha tabaqalashtirish asosida yondashilgan va jinoiy javobgarlik yoshining quyi chegarasi belgilangan. Bu chegara 12-17 yosh atrofida bo'lgan. 1960-yilgi RF Jinoyat kodeksining 10-moddasida mazkur prinsip saqlangan va subyektning ikkita yosh alomati ko'rsatilgan: barcha jinoyat turlari uchun o'n olti yoshdan, ba'zi bir jinoyatlar uchun esa – o'n to'rt yoshdan boshlab javobgarlik belgilangan. JK 10-moddasining ikkinchi qismida o'n to'rt yoshdan boshlab javobgarlikka tortish nazarda tutilgan jinoyatlar ro'yxati keltirilgan.

RFning 1996-yilgi JK jinoiy javobgarlik yoshini differentsiatsiya qilish prinsipi mustahkamlanib, o'n to'rt yoshdan boshlab javobgarlikka tortish nazarda tutilgan jinoyatlar ro'yxatiga jiddiy tuzatishlar kiritildi. Bu ro'yxat, 1960-yilgi JKdagi ro'yxatga taqqoslaganda, ancha toraydi: ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish, kuchli ruhiy hayajonlanish holatida yoki zaruriy mudofaa doirasidan chetga chiqib odam o'ldirish, jazoni yengillashtiradigan holatlarda badanga og'ir va o'rtacha og'ir shikast yetkazish, alohida qimmatga ega bo'lgan buyumlarni o'g'irlash, firibgarlik uchun jinoiy javobgarlik chiqarib tashlandi. Ammo, JK 20-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan ro'yxatga ikkita yangi jinoyat: jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib qondirish va vandalizm kiritildi [18].

Ozarbayjon Respublikasi JK 10-moddasining 1-qismiga muvofiq, jinoyat sodir etgunga qadar o'n olti yoshga to'lgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Ozarbayjon Respublikasi JK 10-moddasining 2-qismiga muvofiq, jinoyat sodir etgunga qadar o'n to'rt-o'n olti yoshga to'lgan shaxslar faqat odam o'ldirish (JKning 94-99-moddalari), qasddan badanga shikast yetkazilishi natijasida salomatlikning buzilishi (102-105-moddalar; 106-moddaning birinchi qismi; 108-moddaning ikkinchi qismi); nomusga tegish (109-modda), o'g'rilik (93-3-modda), talonchilik (93-4 modda); bosqinchilik (93-5 modda); tovlamachilik (93-6-modda), ashaddiy yoki o'ta ashaddiy bezorilik (207-moddaning ikkinchi va uchinchi qismlari); jazoni og'irlashtiradigan holatlarda mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish (93-9-moddaning ikkinchi va uchinchi qismlari); o'qotar qurol, o'q-dorilar yoki portlovchi moddalarni qonunga xilof ravishda egallash (220-1-modda); giyohvandlik vositalarini egallash (226-2-modda); aloqa yo'llari va transport vositalariga shikast yetkazish (79-modda) hamda terrorizm (212-3-modda) uchun javobgarlikka tortiladilar.

Xitoy Xalq Respublikasi JKning 11-moddasiga muvofiq, jinoyat sodir etgunga qadar o'n olti yoshga to'lgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Ayrim jinoyatlar uchun esa shaxslar hatto 14 yoshdan boshlab jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin [19].

Turkiya jazo qonunining 54-moddasiga muvofiq, 11-15 yashar shaxslar, agar ular o'zi sodir etgan qilmishning ijtimoiy xavfli xususiyatini anglay olmasalar, jinoiy javobgarlikka tortilmaydilar.

Ammo, mazkur (11-15 yashar) shaxslar o‘zi sodir etgan qilmishning ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan bo‘lsalar, jinoyat subyekti deb topiladilar va ularga jazo tayinlashda mazkur holatga javobgarlikni yengillashtiruvchi holat deb qaraladi. Bunday hollarda, agar modda sanksiyasida o‘lim jazosi nazarda tutilgan bo‘lsa, u 15 yildan ortiq muddatga qamoq jazosi bilan almashtirilishi, umrbod ozodlikdan mahrum qilish o‘rniga 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi lozim. Sodir etilgan boshqa jinoyatlar uchun jazo muddati yarmiga qisqartiriladi. So‘nggi holda sud tomonidan tayinlanuvchi jazo muddati 7 yildan oshmasligi kerak.

Turkiya jazo qonuniga muvofiq, voyaga yetmagan 15-18 yashar shaxslarga quyidagi jazo choralari qo‘llanilishi mumkin:

- o‘lim jazosi o‘rniga – 20 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish;
- umrbod ozodlikdan mahrum qilish o‘rniga – 15 yildan yilgacha ozodlikdan mahrum qilish;
- sodir etilgan boshqa jinoyatlar uchun jazo uchdan birga qisqartiriladi.

Turkiya Jinoyat qonunining 58-moddasiga muvofiq, 15 yoshga to‘lmagan kar va soqov shaxslar jinoyat subyekti deb topilishi mumkin emas. Jinoyat sodir etgan 15-24 yashar kar va soqov shaxslar davlatning maxsus tarbiya muassasalariga joylashtiriladi va ularga nisbatan jinoiy jazo hisoblanmaydigan tarbiyaviy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanadi [20].

Fransiyaning amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, jinoyat sodir etgunga qadar o‘n uch yoshga to‘lgan shaxslar javobgarlikka tortiladilar; ilgari yetti yoshga to‘lgan shaxslar ham javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lgan. Fransiyaning 1810-yilgi Jinoyat kodeksi voyaga yetmagan har bir sudlanuvchining ishini ko‘rishda u o‘z qilmishining ahamiyatini “tushunib” yoki “tushunmasdan” harakat qilganligi masalasini ko‘rib chiqishni nazarda tutilgan. Agar voyaga yetmagan shaxs “tushunmasdan” harakat qilgan bo‘lsa, u oqlanishi lozim bo‘lgan, ammo sud uni ota-onasining nazorati ostiga topshirishi yoki uni sudlanuvchi voyaga yetgunga qadar bo‘lgan vaqtdan oshmaydigan muddatga axloq tuzatish manziliga joylashtirishi ham mumkin bo‘lgan. O‘z qilmishining ahamiyatini “tushunib” harakat qilgan o‘smir esa jazolanishi lozim bo‘lgan, ammo uning voyaga yetmaganligi jazoni yengillashtiruvchi holat hisoblangan. Fransiyada voyaga yetmaganlarni javobgarlikka tortishning mazkur tartibi faqat ikkinchi jahon urushidan keyin o‘zgartirildi.

Angliyada jinoyat sodir etgunga qadar 8 yoshga, Gretsiyada – 13 yoshga, Shvetsiyada – 15 yoshga, Finlyandiyada – 16 yoshga, Misrda – 7 yoshga, Livanda – 7 yoshga, Iroqda – 7 yoshga, Isroilda – 9 yoshga, Eronda – 11 yoshga, AQShda – 7 yoshga to‘lgan shaxslar javobgarlikka tortiladilar.

AQShda bolalar jinoyatchiligi haddan tashqari ko‘payganligi natijasida, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga qarshi kurashning samaradorligini oshirish maqsadida, jahonda birinchi bo‘lib voyaga yetmaganlarning sudlari (yuvnal yustitsiya) tashkil etildi. Mazkur maxsus sudlar dastlab Chikago (1889-yil) va Nyu-Yorkda (1901-yil) tashkil qilindi. Mazkur amaliyotdan ruhanib, ko‘p o‘tmay butun mamlakat voyaga yetmaganlarning sudlari tarmog‘i bilan qoplandi. Bunday sudlarda 17 yoshgacha, ba‘zi bir shtatlarda – 18 va 19 yoshgacha, Arkanzas shtatida esa – 21 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan jinoyatchilarning ishlari ko‘rilar edi.

Jinoiy javobgarlik yoshi masalasi sovet jinoyat qonunchiligida ham har xil hal qilingan. SSSR – federativ tuzilishga ega bo‘lgan davlat tashkil topishi bilan jinoyat qonunchiligi sohasida ham tegishli o‘zgarishlar sodir bo‘ldi – SSSR va ittifoqdosh respublikalar jinoyat qonunchiligining Asoslari qabul qilindi.

O‘zSSRning 1926-yilgi Jinoyat kodeksida “Asoslar”dagi jinoiy javobgarlik yoshi (14 yosh) dastlabki hibsga olish vaqtini hisobga qo‘shish tartibi, ittifoqdosh respublikaning sud organlari tomonidan hukm etilgan shaxslarga nisbatan jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishni qo‘llashning shartlari va tartibi to‘g‘risidagi ko‘rsatmasi ro‘yobga chiqarildi.

Jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo‘lgan yosh (14 yoshdan boshlab) JK 14-moddasida

belgilandi. Ammo 1935-yil 7-aprelda bu yosh chegarasini 12 yoshga tushirgan “Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikka qarshi kurash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi bilan “Asoslar”ning ittifoqdosh respublikalarga jinoiy javobgarlik yoshini belgilash huquqini beruvchi 8-moddasi bekor qilindi. Shu bilan bir vaqtda 1926-yilgi O‘zSSR Jinoyat kodeksining 14-moddasi ham bekor qilindi.

Yuqorida zikr etilgan qonunga muvofiq o‘g‘rilik, odam o‘ldirish, odam o‘ldirishga urinish, zo‘rluk ishlatish, badanga shikast yetkazish jinoyatlarini sodir etgan shaxslar 12 yoshdan boshlab jinoiy javobgarlikka tortilar edi.

Sovet jinoyat huquqi kursining mualliflari qayd etishicha, “Alohida jinoyatlarni sodir etganlik uchun o‘smirlarni 12 yoshdan boshlab jinoiy javobgarlikka tortish tartibining joriy etilishiga o‘sha davrda hukm surgan majburlovga jinoyatchilikka qarshi kurashning universal vositasi sifatida qarash turtki bo‘ldi” [21].

O‘zSSR va boshqa ittifoqdosh respublikalar jinoyat kodekslari amalda bo‘lgan 1926-27-yillarda ularning Umumiy va Maxsus qismlari normalariga jiddiy o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi. Jumladan, surgun va badarg‘a qilish haqida batafsil ko‘rsatmalar ifodalangan (O‘zSSR Markaziy ijroiya qo‘mitasi 1931-yil 30-sentabr qarori bilan amalga kiritgan tahrirdagi) O‘zSSR JK 38-moddasida [22] bu jazo choralari qo‘llashni cheklovchi shartlar belgilab qo‘yildi va JKning surgun qilish jazosini qo‘llash mumkin bo‘lgan moddalari aniq ko‘rsatib berildi. Yoki bo‘lmasa, Butunittifoq markaziy ijroiya qo‘mitasi va RSFSR Xalq komissarlar sovetining 1929-yil 30-oktabr qarori bilan jinoiy javobgarlik yoshi oshirildi. Ushbu qarorga muvofiq, 1926-yilgi RSFSR JK 12-moddasining yangi tahririda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlik faqat 16 yoshdan boshlab qo‘llanishi mumkinligi belgilandi.

Ammo jinoyat qonun hujjatlariga kiritilgan bu o‘zgartish va qo‘shimchalarda jamiyat hayotida sodir bo‘lgan tub o‘zgarishlar to‘la hisobga olinmagan edi.

Jinoyat kodeksi loyihasini davriy matbuot sahifalarida muhokama qilish paytida deyarli barcha mualliflar jinoiy javobgarlik yoshini har xil qilib belgilash uchun jiddiy asoslar yo‘qligini qayd etib o‘tdilar [23]. Jinoyat qonun hujjatlari asoslari va 1959-yilgi O‘zSSR Jinoyat kodeksi shu tariqa voyaga yetmaganlarning jinoiy javobgarligi prinsipini tikladi va jinoiy javobgarlik yoshini ikki yoshga ko‘tardi, ya‘ni 16 yosh deb belgiladi. Jinoyat qonun hujjatlari asoslarining 10-moddasida keltirilgan alohida jinoyatlar Ro‘yxati (shu jumladan o‘g‘rilik) uchun, o‘smirlar rivojlanishining obyektiv qonuniyatlari tahlilidan kelib chiqib, jinoiy javobgarlik yoshi 14 deb belgilandi.

Agar ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sodir etilgan va voyaga yetmagan shaxsni jazolamasdan ham axloqan tuzalishi mumkin deb topilgan bo‘lsa, tarbiyaviy choralar 18 yoshga to‘lmagan har bir o‘smirga nisbatan qo‘llanishi mumkin edi.

Yuqorida aytilganlarga yana shuni qo‘shimcha qilishni istar edikki, ittifoqdosh respublikalarning ayrim jinoyat kodekslarida, Jinoyat qonun hujjatlari Asoslarining qoidalariga zid o‘laroq, jinoiy javobgarlik yoshi haqidagi moddaga o‘zgartishlar kiritildi. Vaholanki, respublika qonun hujjatlari ittifoq qonun hujjatlariga to‘la mos kelishi lozim edi. Afsuski, to‘qqiz ittifoqdosh respublikaning jinoyat kodekslari onaning o‘z chaqalog‘ini o‘ldirganligi uchun jinoiy javobgarlik yoshini belgilashda bu qoidadan chekindi. O‘zSSR JK bu normadan tashqari zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib sodir etilgan odam o‘ldirish va badanga og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish jinoyatlariga nisbatan ham shunga o‘xshash o‘zgartishlar kiritdi.

Bu o‘rinda bir qator jinoyatlar uchun shaxs harakatlarining xususiyatiga qarab, jinoiy javobgarlikka nisbatan katta yoshda tortilishi mumkinligini ham qayd etib o‘tish lozim. Jumladan, voyaga yetmaganlarni jinoiy yoki boshqa g‘ayriijtimoiy faoliyatga jalb qilgan voyaga yetgan shaxs jinoyatning subyekti bo‘lishi mumkin, shuningdek, faqat 18 yoshga to‘lgan shaxs harbiy

jinoyslarning subyekti bo'lishi mumkin. Kema kapitani, vrach, mansabdor shaxs kabi subyektlarga ham nisbatan 18 yoshga to'lganlik talab qilinadi.

Bizningcha, o'n to'rt yoshdan boshlab javobgarlik nazarda tutilgan jinoyatlar ro'yxatiga quyidagi jinoyatlar ham kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi: qo'poruvchilik; terrorizm; shaxsni garovga olish.

Shunday qilib, olib borilgan tadqiqotlarning jinoyat subyekti tushunchasi, alomatlari va yoshi masalalariga doir natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

Jinoyat huquqiga asosan, jinoyatning subyekti ikki asosiy alomatga ega bo'lishi lozim:

1) jinoyat sodir etgan vaqtida aqli raso bo'lganligi;

2) jinoyat sodir etgunga qadar qonunga muvofiq qilmishi uchun jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yosh, ya'ni o'n olti yoshga to'lgan shaxs jinoyat subyekti deb topilishi mumkin.

Jinoyat sodir etgunga qadar o'n to'rt yoshga to'lgan shaxslar qasddan odam o'ldirish; kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish; qasddan badanga og'ir shikast yetkazish; qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish; kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir va o'rtacha og'ir shikast yetkazish; nomusga tegish; jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish; odam o'g'irlash; bosqinchilik; talonchilik; tovlamachilik; o'g'rilik; mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish; ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish joylarining ishini izdan chiqaruvchi harakatlar; ozodlikdan mahrum qilish joylaridan qochish; o'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash; radioaktiv materiallarni qonunga xilof ravishda egallash; temir yo'l, dengiz, daryo, havo transporti vositasi yoki aloqa yo'llarini yaroqsiz holatga keltirish; transport vositasini olib qochish; giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda egallash; bezorilik uchun jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

JKning Maxsus qismida nazarda tutilgan alohida hollarda (masalan, bir qator mansabdorlik jinoyatlari, harbiy va boshqa jinoyatlar uchun) jinoyat sodir etilgunga qadar o'n sakkiz yoshga to'lgan shaxslar javobgarlikka tortiladilar.

Agar voyaga yetmagan 14-16 yoshga to'lgan, ammo ruhiy kasalligi sababli o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmagan yoki harakatlarini boshqara olmagan bo'lsa, u javobgarlikka tortilmaydi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, jinoyat huquqida voyaga yetmagan shaxsni jinoyat subyekti sifatida e'tirof etish, avvalo, uning yoshi va aqliy holati bilan uzviy bog'liqdir. Jinoiy javobgarlik yoshi qonun chiqaruvchi tomonidan ixtiyoriy tarzda emas, balki shaxsning o'z harakatlarining ahamiyatini anglash va ularni boshqarish qobiliyatining shakllanish darajasidan kelib chiqib belgilanadi. Shu ma'noda, yosh jinoyat subyekti majburiy belgilaridan biri sifatida huquqiy, tibbiy-biologik va ijtimoiy-psixologik mezonlar majmuida baholanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida jinoiy javobgarlik yoshining umumiy va maxsus chegaralar asosida differentsiatsiya qilinishi voyaga yetmagan shaxslarni javobgarlikka tortishda individual yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladi. Ayni paytda, 14-16 yoshli shaxslarning barchasi ham bir xil darajada onglilikka ega emasligi, ularning ijtimoiylashuv darajasi, hayotiy tajribasi va ruhiy rivojlanishi turlicha bo'lishi mumkinligi amaliyotda inobatga olinishi zarur.

Qiyosiy-huquqiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, xorijiy davlatlar qonunchiligida ham jinoiy javobgarlik yoshini belgilashda voyaga yetmagan shaxsning o'z qilmishining ijtimoiy xavfliligini anglash qobiliyatiga alohida e'tibor qaratiladi. Bu esa jinoyat subyekti aniqlashda faqat kalendar yosh bilan cheklanib qolmasdan, shaxsning aqliy va ijtimoiy rivojlanish darajasini kompleks baholash zarurligini tasdiqlaydi.

Shu munosabat bilan, voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikka tortishda sud-tergov amaliyotida psixologik va psixiatriya ekspertizalarining ahamiyatini oshirish, jinoiy javobgarlik

yoshini belgilashga doir normalarni takomillashtirish hamda jazo tayinlashda tarbiyaviy ta'sir choralarni kengroq qo'llash maqsadga muvofiq, deb hisoblanadi.

#### IQTIBOSLAR/CHOCKI/REFERENCES:

1. Кудрявцев В.Н., Келина С.Г. Уголовный закон. Опыт теоретического моделирования. М., 1987, -С. 65.
2. Кудрявцев В.Н., Келина С.Г. Уголовный закон. Опыт теоретического моделирования. М., 1987, 68-бет.
3. Постановления Пленума Верховного Суда СССР от 3 декабря 1976 г. // Бюллетен Верховного Суда СССР. 1977, №1, с. 19.
4. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Umumiy qism/M.Rustambayev.– Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish", 2024.–152 b. (lotin alifbosida yozing).
5. Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации. // Постатейный комментарий к УК РФ \ 2025-2024-2023 год \ Акты, образцы, формы, договоры \ КонсультантПлюс
6. Комментарий к Уголовному кодексу РСФСР / [Анашкин Г.З., Ахметшин Х.М., Бородин С.В. и др.]; Отв. ред. Ю.Д. Северин. — 2-е изд., доп. и перераб.. — М. : Юрид. лит., 1984. — с. 22.
7. To'rabaeva Z.Ya. Voyaga yetmagan shaxslarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish institutini takomillashtirish. Yuridik fanlari falsafa doktori ilmiy darajasi olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: 2025.-B.28.
8. Бобнева М.И. Социальные нормы и регуляция поведения. М., 1978, с. 55.
9. Бобнева М.И. Социальные нормы и регуляция поведения. М., 58-бет.
10. Руководство по судебной психиатрии. М., 1977, с. 380-381.
11. Карпец И.И. Наказание: Социальные, правовые и криминологические проблемы. М., 1973, с. 212.
12. Курбатова Г.И. Социально-физиопсихологические факторы формирования личности несовершеннолетнего правонарушителя // Вопросы повышения эффективности уголовного законодательства в современных условиях. Свердловск, 1979, с. 80.
13. Руководство по судебной психиатрии. М., 1977, с. 290.
14. Курбатова Г.И. Социально-физиопсихологические факторы формирования личности несовершеннолетнего правонарушителя // Вопросы повышения эффективности уголовного законодательства в современных условиях. Свердловск, 1979, с. 83.
15. Российское уголовное право. Общая часть. Учебник. Изд-во «Спарк». М., 2017, с. 121.
16. Российское уголовное право. Общая часть. Учебник. Изд-во «Спарк». М., 2017, с. 122.
17. Уголовное право. Част общая. М., 1948, с. 327-328.
18. Уголовное право Российской Федерации. Общая част. «Юристь», М., 2016, с. 211.
19. Семендеров Ф.Ж. Жинает хугуги. Умуми хиссе. Дерслик. Бақў Университети нешрияти. Бақў, 1999, с. 726.
20. Turk cesa kanunu ve ilgili mevzuat. Filiz kitab evi. Istanbul, 1992, s. 24-26.
22. Курс советского уголовного права. ЛГУ. Т. I. 1968. – С. 368.
23. СУ УзССР, 1931. - №33, ст. 279.
24. Загородников Н.И. О построении будущего уголовного законодательства, как единой системы // Советское государство и право. – 1958. - №8.

**GAFUROVA Shoira Baxodirovna**Toshkent davlat yuridik  
universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: [shgafurova707@gmail.com](mailto:shgafurova707@gmail.com)

## RAQAMLI DALILLARNI INSON HUQUQLARI VA XALQARO JINOIY ODIL SUDLOVDA QO'LLASH

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):** GAFUROVA SH.B. Raqamli dalillarni inson huquqlari va xalqaro jinoiy odil sudlovda qo'llash // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2026) B. 111-117.

### ANNOTATSIYA

Raqamli texnologiyalardan foydalanishning jadal rivojlanishi raqamli ma'lumotlar va dalillarga kirishni ancha osonlashtirdi. Bu ma'lumotlar va raqamli dalillar Internet, ijtimoiy tarmoqlar yoki sun'iy yo'ldoshlar orqali qo'lga kiritiladi. Ular inson huquqlari va xalqaro jinoyat huquqi buzilishlarini tergov qilishda qo'llanilishi mumkin. Shu bois, inson huquqlari va xalqaro jinoyat huquqi buzilishlarini tergov qilishda shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi bilan axborot va raqamli dalillardan foydalanish o'rtasidagi muvozanatni qayta ko'rib chiqish muammosi paydo bo'lmoqda. Maqolada inson huquqlari buzilishlarini hujjatlashtirish va xalqaro jinoyatlarni sud qilishda raqamli dalillarning o'zgarib borayotgan roli ko'rib chiqilgan. Unda xalqaro sudlar va inson huquqlari mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan holda, huquqiy asoslar, maqbullik mezonlari, uslubiy muammolar hamda axloqiy masalalar chuqur tahlil etiladi. Xalqaro va milliy odil sudlovni hamda jinoiy javobgarlikni ta'minlash, shuningdek, inson huquqlari va xalqaro jinoyat huquqining barcha buzilishlarini hujjatlashtirish maqsadida tahliliy yondashuv qo'llaniladi. Bu yondashuv inson huquqlari va xalqaro jinoyat huquqi buzilishlarini tergov qilishda raqamli ma'lumotlar va dalillardan foydalanish bo'yicha oldingi tadqiqotlarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

**Kalit so'zlar:** raqamli dalillar, inson huquqlari, shaxsiy daxlsizlik huquqi, xalqaro jinoyat huquqi, elektron dalillar, xalqaro jinoyat sudi, dalillarning maqbulligi, dalillarning ishonchliligi

**ГАФУРОВА Шоира Баходировна**Базовый докторант Ташкентского  
государственного юридического университета  
E-mail: [shgafurova707@gmail.com](mailto:shgafurova707@gmail.com)

## ПРИМЕНЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ В ОБЛАСТИ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА И МЕЖДУНАРОДНОГО УГОЛОВНОГО ПРАВОСУДИЯ

### АННОТАЦИЯ

Стремительное развитие использования цифровых технологий значительно облегчило доступ к цифровым данным и доказательствам. Эти данные и цифровые доказательства получают через Интернет, социальные сети или спутники. Они могут быть использованы при расследовании нарушений прав человека и международного уголовного права. В связи с этим возникает проблема пересмотра баланса между правом на неприкосновенность частной жизни и использованием информации и цифровых доказательств при расследовании нарушений прав человека и международного уголовного права. В статье рассматривается меняющаяся роль цифровых доказательств в документировании нарушений прав человека и судебном преследовании международных преступлений. В ней подробно анализируются правовые основы, критерии

приемлемости, методологические проблемы и этические вопросы, с особым вниманием к международным судам и правозащитным механизмам. Аналитический подход применяется для обеспечения международного и национального правосудия и уголовной ответственности, а также документирования всех нарушений прав человека и международного уголовного права. Этот подход реализуется путем анализа предыдущих исследований по использованию цифровых данных и доказательств в расследовании нарушений прав человека и международного уголовного права.

**Ключевые слова:** цифровые доказательства, права человека, право на неприкосновенность частной жизни, международное уголовное право, электронные доказательства, международный уголовный суд, допустимость доказательств, достоверность доказательств

**SHOIRA Gafurova Bakhodirovna**

PhD student at Tashkent State

University of Law

E-mail: [shgafurova707@gmail.com](mailto:shgafurova707@gmail.com)

## THE USE OF DIGITAL EVIDENCE IN THE FIELD OF HUMAN RIGHTS AND INTERNATIONAL CRIMINAL JUSTICE

### ANNOTATION

The rapid development of digital technologies has greatly facilitated access to digital data and evidence. This data and digital evidence can be obtained through the Internet, social networks, or satellites. They can be used in investigating violations of human rights and international criminal law. Consequently, a need has emerged to reassess the balance between the right to privacy and the use of information and digital evidence when investigating human rights violations and breaches of international criminal law. This article examines the evolving role of digital evidence in documenting human rights violations and prosecuting international crimes. It provides an in-depth analysis of legal frameworks, admissibility criteria, methodological challenges, and ethical issues, with particular focus on international courts and human rights mechanisms. An analytical approach is employed to ensure international and national justice, criminal accountability, and comprehensive documentation of all violations of human rights and international criminal law. This approach is implemented through the analysis of previous research on the use of digital data and evidence in investigating violations of human rights and international criminal law.

**Keywords:** digital evidence, human rights, right to privacy, international criminal law, electronic evidence, international criminal court, admissibility of evidence, reliability of evidence.

Raqamli ma'lumotlar va dalillar milliy va xalqaro darajada murakkab soha hisoblanadi. Yuqori tezlikda rivojlanayotgan zamonaviy texnologiyalar axborot va raqamli dalillarni kuzatish masalalarini yanada murakkablashtirmoqda. Bundan tashqari, jinoyatchilar inson huquqlarini va xalqaro jinoyat huquqini buzadigan faoliyatlarini yashirish uchun bir qator zamonaviy va ilg'or taktikalardan foydalanmoqdalar. Bu esa xalqaro jinoyatlar sodir etilganda raqamli ma'lumotlar va dalillarni aniqlashni yanada qiyinlashtiradi. Ba'zi amaliy holatlarda bu dalillarni shifrdan ochish zarur bo'lib, bu ekspertlar uchun raqamli ma'lumotlar va dalillarni to'plash hamda hisobga olishni yanada murakkablashtiradi [1, B.1-10].

Jahon mamlakatlarining uzluksiz texnik va texnologik taraqqiyoti natijasida davlatlar raqamli axborot va dalillardan keng foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Davlat jinoyatlarini tergov qilish jarayoni inson huquqlari va xalqaro jinoyat huquqi buzilishlarini tekshirish uchun axborot va raqamli dalillardan foydalanish mumkin bo'lgan sohalardan biri hisoblanadi. Texnologiyalar taraqqiyoti natijasida internet, ijtimoiy tarmoqlar yoki sun'iy yo'ldoshlar orqali olingan dalil va

ma'lumotlarga tayanish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu esa jinoyatchilar va gumonlanuvchilarni kuzatish, harbiy jinoyatlar, insoniyatga qarshi jinoyatlar va genotsidni hujjatlashtirish imkonini beradi. Natijada, ko'plab ma'lumotlar raqamli makonda saqlanib, inson huquqlari va xalqaro jinoyat huquqi buzilishi bilan bog'liq yangi turdagi jinoyatlarning yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Shu sababli, internet, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy yo'ldoshlar noqonuniy faoliyatni kuzatish sohasida keng qo'llanilmoqda. Ular inson huquqlari va xalqaro jinoyat huquqi buzilayotgan hududlarning yuqori aniqlikdagi fazoviy tasvirlarini taqdim etish, bunday ma'lumotlar va hujjatlarni qayd etish hamda shubhali faoliyatni aniqlash imkonini beradi [2, B.116-126].

Umumiy yurisdiksiya tamoyiliga asoslangan sud jarayonlari so'nggi yillarda izchil ravishda ko'payib bormoqda. Integratsiya tizimini o'rnatgan Rim statuti, shubhasiz, bu tarqalishga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Universal yurisdiksiya tarixi davlatning roli haqidagi ikki g'oya o'rtasidagi raqobat sifatida tushunilishi mumkin: *“global ijrochi”* yondashuvi va *“xavfsiz boshpana yo'q”* yondashuvi. Biz *“Global ijrochi”* strategiyasining namunasini butun Yevropa bo'ylab harbiy jinoyatlar bo'yicha guruhlarni tashkil etish bilan bir qatorda, Rim statutini milliy darajada qabul qilishda ko'rishimiz mumkin. Harbiy jinoyatlar bo'linmalarining tashkil etilishi va turli huquqiy tizimlarda jinoyatlarning asosiy toifalarining birlashtirilishi Rim Statuti tomonidan o'rnatilgan integratsiya tizimining muhim yutuqlari hisoblanadi [3, B.189-211].

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha sohalariga chuqur kirib borgan. Buning natijasida, jinoiy odil sudlov sohasida raqamli ma'lumotlar va dalillarning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Mobil telefonlardan tortib kompyuter tarmoqlarigacha bo'lgan insonning raqamli izlari xalqaro jinoyat ishlarini tergov qilish va sudda ko'rishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Raqamli ma'lumotlar va dalillar adolatli sudlovni ta'minlashga ko'maklashadi, shuningdek, an'anaviy tergov usullari bilan aniqlab bo'lmaydigan yoki ko'zga tashlanmaydigan hodisalarni hujjatlashtirish va faktlarni o'rnatishda muhim rol o'ynaydi [4, B.81-88].

Shu sababli, dunyoning turli mamlakatlaridagi sudlar texnik vositalarda saqlanayotgan axborot va raqamli dalillarning yaxlitligini tekshiradilar. Shu bilan birga, dunyo mamlakatlarining aksariyatida jinoyat qonunchiligi raqamli ma'lumotlar va dalillarning aniq ta'rifini o'z ichiga olmaydi. Bu esa inson huquqlari va xalqaro jinoyat huquqi buzilishlarini tergov qilishda bunday ma'lumotlar hamda raqamli dalillarni baholash, ulardan foydalanishda noaniqlikka olib keladi. Shuning uchun inson huquqlari va xalqaro jinoyat huquqi buzilishlariga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud jarayonlarida raqamli ma'lumotlar, dalillarning maqbulligi hamda o'rnililigini baholashda sud amaliyotini aniqlashtirish talab etiladi.

Shu bilan birga, ekspertlar xalqaro jinoiy sud jarayonlaridagi dalil manbalarida raqamli ma'lumotlar va dalillarning tushunilishi, xususiyatlari va roli bo'yicha yakdil fikrga ega emaslar. Qonunchilikka “elektron (raqamli) dalillar” atamasini kiritish taklif etilmoqda. Bu taklif “elektron” so'zi dalillarni yaratish va saqlash uchun ishlatiladigan qurilma turini anglatishi, “raqamli” so'zi esa ma'lum bir qurilmada ma'lumotni qayd etish usulini ifodalashi bilan asoslanadi. Bundan tashqari, Fransiya, Germaniya, Niderlandiya va Shvetsiya kabi ko'plab davlatlar o'z ichki qonunchiligiga Rim statutida belgilangan universal yurisdiksiyani amalga oshirish imkonini beruvchi qoidalarni kiritgan. Boshqa tomondan, davlatlar ko'pincha o'z hududlariga qaytayotgan chet ellik jangchilarning mavjudligi tufayli yuzaga kelgan milliy xavfsizlik muammolari sababli tergov ishlarini boshlaydilar. Bu “xavfsiz boshpana yo'q” siyosatini aks ettiradi [5, B.189-211].

Yevropa mamlakatlarining ichki sudlarida urush jinoyatlari bo'yicha sud jarayonlari soni tobora ortib bormoqda. Bu jarayonlar turli davlatlarga mansub jangarilar tomonidan sodir etilgan va o'zaro almashilgan vahshiyliklar haqidagi ma'lumotlar va dalillarga asoslanadi. Shu bois, mahalliy hokimiyat organlari foydalanuvchilardan olingan ma'lumotlar va dalillarni to'plash,

qayta ishlash, tahlil qilish va almashishning samarali usullarini ishlab chiqish borasida katta bosim ostida qolmoqda. Buning asosiy maqsadi fuqarolarni ekstremistik zo'rvonlikdan himoya qilishdir. Yevropa davlatlaridagi ichki sud jarayonlari turli xil yondashuvlarga misol bo'lsa-da, ular universal yurisdiksiya tamoyiliga asoslangan kelgusi sud jarayonlariga yo'l ochib bermoqda. Shu sababli, chegaralararo kiberjinoatchilik holatlari bo'yicha axborot almashish uchun xalqaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Kiberjinoatchilikning global xususiyati jinoatchi yoki jabrlanuvchining qayerda joylashganidan qat'i nazar, bunday jinoyatlarning davlat chegaralaridan tashqarida sodir etilishiga imkon yaratadi. Suverenitet va resurslar bilan bog'liq muammolarga duch kelgan davlatlar bu masalalarni mustaqil hal qila olmaganligi sababli, xalqaro jinoiy siyosat doirasidagi hamkorlik xalqaro va transchegaraviy jinoyatlarga qarshi kurashish uchun strategik jihatdan zarur va hayotiy ahamiyatga ega bo'lib qoldi [6, B.438-444].

Raqamli ma'lumotlar va dalillarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ushbu sohada to'liq o'rganilmagan ba'zi muammolar mavjud. Shu sababli, xalqaro tergovchilar raqamli ma'lumotlar va dalillarning ishonchliligi hamda haqiqiyiligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Bu jinoyat tekshiruvlarida ularning dalil sifatida qabul qilinishini kafolatlaydi. Raqamli ma'lumotlar va dalillarni to'plash hamda saqlash jarayonida ularning yaxlitligi tekshirilishi shart. Bunday ma'lumotlar va dalillarni to'plash hamda saqlash orqali ularning butunligi tasdiqlanishi kerak. Inson huquqlari kengashining 2023-yil 27-fevraldan 31-martgacha bo'lgan va 2023-yil 15-martda e'lon qilingan A/HRC/52/62-sonli (Ukraina bo'yicha mustaqil xalqaro tergov komissiyasining hisoboti) qaroriga asoslanib, quyidagilar ma'lum bo'ldi. Inson huquqlari bo'yicha dalillarni to'plash va faktlarni aniqlash missiyalari Ukrainaning turar-joy hududlarida (Mariupol shahrida) keng ko'lamlilayronagarchilikni hujjatlashtirish uchun sun'iy yo'ldosh tasvirlaridan foydalandi [7]. Bu paytda Inson huquqlari bo'yicha xalqaro komissiya urush holati tufayli shaharga kira olmagan edi. Shu sababli, sun'iy yo'ldosh tasvirlaridan foydalanish texnikasi inson huquqlari bo'yicha faktlarni aniqlash komissiyalari uchun juda foydali bo'lib, urush xavfiga duch kelmasdan xalqaro gumanitar huquqning har qanday buzilishini hujjatlashtirish imkonini beradi. Sun'iy yo'ldosh tasvirlarining so'nggi qo'llanishlari orasida 2023-yilda Isroil va HAMAS o'rtasidagi qayta boshlangan urush natijasida yuzaga kelgan G'azo mojarosi hududining yuqori aniqlikdagi sun'iy yo'ldosh tasvirlaridan foydalanish ham bor. Bunda ochiq manbali sun'iy yo'ldosh radar ma'lumotlaridan foydalangan holda zararni aniqlash uchun bir qator xaritalar ishlatildi. Shuningdek, G'azodagi vayronagarchiliklarni hujjatlashtiruvchi ko'p o'lchovli tasvirlar to'plami olindi [8].

O'tmishdagi amaliy tajribalardan ma'lum bo'lganidek, sun'iy yo'ldosh orqali olingan ma'lumotlar va dalillar Yerdagi obyektlarni, jumladan, barcha relyef, transport vositalari, uskunalar va insonlarni yuqori aniqlik bilan aniqlash va tasvirlash imkonini beradi. Muayyan hududda sun'iy yo'ldosh yordamida kuzatilgan o'zgarishlarning vaqt o'tishi bilan hujjatlashtirilishi inson huquqlari va xalqaro jinoyat huquqi buzilishlarini aniqlashda mustaqil dalil sifatida xizmat qilishi mumkin. Berkli protokoli geografik joylashuvning qiymati va ahamiyatini alohida ta'kidlab, vaqt va makon parametrlarini tasdiqlash uchun vaqt joylashuvini aniqlash usullarini ko'rsatadi. Biroq, Berkli protokoli majburiy protseduralardan ko'ra, ko'proq tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Shu bois, Xalqaro jinoiy sud prokuraturasidagi tergovchilar sun'iy yo'ldosh orqali olingan dalillar va ma'lumotlarning haqiqiyiligini ta'minlashga harakat qiladilar. Ba'zi hollarda esa, inson huquqlari va xalqaro jinoyat huquqi buzilishlarining geografik joylashuvini aniqlash uchun Xalqaro jinoiy sudning jinoiy ekspert-suratchi mutaxassisi tayinlanishi mumkin [9, B.749-769].

Xalqaro jinoiy dalillar ba'zan ko'plab audio bayonotlarni o'z ichiga oladi. Shu bois, Xalqaro jinoyat sudi o'z ko'rib chiqayotgan ayrim ishlar bo'yicha ochiq manbalardan olingan materiallarga yo'l qo'yib bo'lmasligini bildirgan. Bu materiallarga anonim audio bayonotlar kiradi. Masalan, nodavlat

notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalaridan olingan materiallar, jinoyat sodir etilgan joydan raqamli ma'lumotlar va dalillar bilan shug'ullanuvchi vakolatli organlarning nazoratisiz to'plangan sud-tibbiy dalillarning ishonchliligiga shubha uyg'otuvchi holatlar tufayli rad etilishi mumkin. Sud hokimiyati xalqaro jinoyatlar sodir etilishi bilan bog'liq vaziyatlarda mavjud bo'lgan eng ishonchli dalillarga tayanadi.

Shubhasiz, raqamli ma'lumotlar va dalillar xalqaro jinoiy adliya tizimi uchun huquqiy muammo hisoblanadi. Xalqaro jinoyat huquqida axborot va raqamli dalillarni tartibga soluvchi amaldagi huquqiy bazani tahlil qilganda, Xalqaro jinoyat sudining yuridik tashkiloti raqamli axborot va dalillar ta'rifiga e'tibor qaratmaganligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, Xalqaro jinoyat sudiga ma'lumotlar va dalillarni qabul qilish hamda chiqarib tashlash qoidalari, jinoyat ishlari bo'yicha raqamli ma'lumotlar va dalillarning ishonchliligi, ishonarliligi va isbotlovchi ahamiyati masalalari ham ko'rib chiqilmagan. Bundan tashqari, Xalqaro jinoyat sudining sud jarayonlarida raqamli ma'lumotlar va dalillarni qabul qilish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq potensial xavflar ham mavjud.

Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha kengashining 2019-yil 16-sentyabrdagi A/HRC/42/CRP.3 sonli hisobotida Myanma armiyasining iqtisodiy manfaatlari haqida ma'lumot berilgan. Myanma bo'yicha mustaqil xalqaro faktlarni aniqlash missiyasi tergov jarayonida ochiq manbalar, to'g'ridan-to'g'ri manbalar va boshqa ma'lumotlardan foydalanib, o'z xulosalarini chiqargan. Faktlarni o'rganish missiyasining yakuniy hisoboti Inson huquqlari bo'yicha kengashning Myanmada mustaqil tergov mexanizmini tashkil etishiga sabab bo'lgan omillardan biri edi. Bundan tashqari, faktlarni o'rganish missiyasi dalillar va ma'lumotlarni, shu jumladan ochiq manbali tergov natijalarini ham topshirishga majbur bo'ldi [10].

Raqamli platformalardagi vizual hisobotlar ko'rgazmali dalil sifatida ishlatilgan misollardan biri (Prokuror Ahmad Al-Faki Al-Mahdiga qarshi) ishi bo'lib, unda Xalqaro Jinoyat Sudi 2016-yil 24-martda yakuniy qaror chiqardi. Unda ta'kidlanishicha, "2012-yil 30-iyundan 11-iyulgacha Timbuktudagi binolarning vayron qilinishi va ularga yetkazilgan zarar bo'yicha prokuror tomonidan taqdim etilgan eng ishonchli dalillar quyidagilardan iborat: vayronagarchilik va uning oqibatlari aks ettirilgan videolavha, tegishli voqealar haqida yaxshi xabardor bo'lgan guvohlarning ko'rsatmalari, binolarning buzilishidan oldingi va keyingi tasvirlari, jumladan sun'iy yo'ldosh orqali olingan suratlar (qisman), moliya organlari tomonidan berilgan hujjatlar, ekspertlar tahlillari, ommaviy axborot vositalari xabarlari, shuningdek YUNESKO kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan bayonotlar va hisobotlar" [11].

Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi insonning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi. Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining muhim tarkibiy qismlaridan biri shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonunlarga muvofiq ravishda shaxslarning o'z ma'lumotlarini himoya qilish huquqidir. Bu qonunlar, ayniqsa raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi tekshiruvlar o'tkazilayotganda, tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu haqda BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 2018-yil 3-avgustda e'lon qilingan "Raqamli asrda shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi to'g'risida"gi A/HRC/39/29-sonli hisobotida ham ta'kidlab o'tilgan. Shu sababli, shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi ko'pincha insonning asosiy huquqi sifatida qaraladi. Garchi bu huquq to'g'ridan-to'g'ri tilga olinmagan bo'lsa-da, uni Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasidan anglash mumkin. Unda shunday deyiladi: "Hech kimning shaxsiy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashish mumkin emas". Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasining 6-moddasiga hamda Yevropa Ittifoqi Asosiy huquqlar xartiyasining 47 va 48-moddalariga ko'ra, "chegaralararo tekshiruvlar davomida olingan dalillarning adolatsiz yoki qonunga xilof ravishda ishlatilmasligini" ta'minlash zarurligi ham inson huquqlari himoyasining mustahkamligini ko'rsatadi.

Maxfiylik himoyasi va shaxsiy ma'lumotlar himoyasi o'rtasidagi munosabat huquqiy va ilmiy jihatdan murakkabliklar tug'diradi. Qonun shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishni o'z ichiga olgan maxfiylik huquqlariga an'anaviy monistik yondashuvdan maxfiylik himoyasi va shaxsiy ma'lumotlar himoyasini farqlovchi dualistik tizimga o'tdi. Biroq, maxfiylik sohasidagi xususiy ma'lumotlar shaxsiy ma'lumotlarga taalluqli bo'lsa, dualistik himoya to'liq emas, balki yanada nozikroq tusga ega. Shaxsiy hayot daxlsizligi o'z mohiyatiga ko'ra qadr-qimmat va erkinlikni himoya qiluvchi ajralmas huquqdir [12].

Ko'pincha davlatlar hukumatlari qonuniylik niqobi ostida shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini buzishi mumkin, shu sababli shaxsiy ma'lumotlar va axborotni nazorat qilish masalasi bir qator huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Shaxsga doir ma'lumotlar va axborotlarni senzura qilish ko'pincha davlatda jamoat tartibini saqlash va milliy xavfsizlikni ta'minlash bahonasi bilan oqlanadi. Davlat shaxsga doir ma'lumotlar va axborotni davlat doirasidagi shaxslar va muassasalarga o'z nazoratini kengaytirish maqsadida qasddan senzura qilishi mumkin. Shu sababli, shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi davlatlar hukumatlarining noqonuniy kuzatuv olib borishiga yo'l qo'ymaslik orqali o'zboshimcha davlat nazoratiga qarshi kafolat vazifasini o'taydi. Demokratik me'yorlarni mustahkamlash uchun shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi fuqarolik erkinliklarini saqlab qolishga yordam beradi. Shaxslarning ma'lumotlari va shaxsiy axboroti asosan texnologik taraqqiyot tufayli to'planadi va tarqatiladi. Shu bois, shaxslar o'z shaxsiy ma'lumotlari va axborotlarining buzilishi, noqonuniy raqamli kuzatuv va shaxsiy ma'lumotlar o'g'irlanishining oldini olish uchun shaxsiy hayotlarini himoya qilishlari zarur.

Aslida, insonlar raqamli vositalardan kundalik hayotlari haqidagi katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash uchun foydalanadilar. Raqamli qurilmalarning keng tarqalganligi sababli, huquqni muhofaza qilish xodimlari ko'pincha katta hajmdagi fayllar mavjud bo'lgan raqamli jinoyat sahnalariga duch kelishadi. An'anaviy ravishda, raqamli sud-tibbiyot sohasida barcha jismoniy xotira qurilmalarini musodara qilish va ulardan olingan tasvirlarni tekshirish keng tarqalgan amaliyot bo'lgan. Biroq, bu texnologiya ayblanuvchining shaxsiy hayotini nohaq buzishi va kompaniyalarning biznes faoliyatini izdan chiqarishi mumkinligi haqidagi xavotirlar tufayli tanqidga uchradi. Shu sababli, ayblanuvchi davlat xodimlari tomonidan o'tkaziladigan tintuvlar va musodara qilishlardan himoyalani huquqiga ega [13, 175-192].

So'nggi yillarda inson huquqlari buzilishi va xalqaro jinoyat huquqi bo'yicha tergov ishlarida raqamli ma'lumotlardan foydalanish sezilarli darajada kengaydi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy yo'ldosh tasvirlari kabi raqamli vositalar og'ir xalqaro jinoyatlarda gumon qilinayotgan shaxslarga qarshi ma'lumot va dalillarni to'plashda tobora ko'proq qo'llanilmoqda. Bunday jinoyatlar ko'pincha global miqyosda sodir etiladi, raqamli dalillar esa gumonlanuvchilarni aniqlash, ularni dalillar bilan yuzlashtirish va adolat o'rnatish maqsadida xalqaro sudlarga topshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli dalillarga tayanish kelajakda yanada kuchayishi kutilmoqda, chunki u xalqaro jinoyatlarni hujjatlashtirish va aybdorlarni javobgarlikka tortishning samarali hamda ishonchli vositasi hisoblanadi.

Biroq, raqamli dalillarga jinoyatlarni tergov qilish muammolarini hal etishning yagona yechimi yoki inson huquqlari buzilishini keng qamrovli bartaraf etishning o'rnini bosuvchi vosita sifatida qaramaslik kerak.

Ba'zi yurisdiksiyalardagi sudlar raqamli dalillarga asoslangan hisobotlarning haqiqiyliги va ishonchliligi bo'yicha shubha bildirmoqda, chunki ular yetarli darajada ilmiy jihatdan tasdiqlangan emas. Ushbu muammolarni hal qilish uchun tergovlarda raqamli dalillardan foydalanishni standartlashtirish, qonuniylikni ham, shaxsiy hayot daxlsizligini ham ta'minlash uchun xalqaro nizomlar zarur. Ushbu nizomlar insonning asosiy huquqlarini himoya qilgan holda genotsid, urush

jinoyatlari va insoniyatga qarshi jinoyatlar kabi jinoyatlarni kuzatish va hujjatlashtirish uchun raqamli dalillardan foydalanish mexanizmlarini belgilashi lozim.

#### IQTIBOSLAR/CHOCKA/REFERENCES:

1. Jan Gruber, Christopher J. Hargreaves, and Felix C. Freiling, "Contamination of Digital Evidence: Understanding an Underexposed Risk", *Forensic Science International: Digital Investigation*, 44 (2023), 1-10 <https://doi.org/10.1016/j.fsidi.2023.30150>
2. Graeme Horsman, "Digital Evidence Strategies for Digital Forensic Science Examinations", *Science & Justice*, 63.1 (2023), 116–126 <https://doi.org/10.1016/j.scijus.2022.11.004>
3. Karolina Aksamitowska, "Digital Evidence in Domestic Core International Crimes Prosecutions: Lessons Learned from Germany, Sweden, Finland and The Netherlands", *Journal of International Criminal Justice*, 19.1 (2021), 189–211 <https://doi.org/10.1093/jicj/mqab035>
4. Ivan Prysiazniuk, "Use of digital evidence in criminal process: some issues of right to privacy protection", *Visegrad Journal on Human Rights*, 5 (2023), 81-88 <https://doi.org/10.61345/1339-7915.2023.5.11>
5. Karolina Aksamitowska, "Digital Evidence in Domestic Core International Crimes Prosecutions: Lessons Learned from Germany, Sweden, Finland and The Netherlands", *Journal of International Criminal Justice*, 19.1 (2021), 189–211 <https://doi.org/10.1093/jicj/mqab035>
6. Widya Setiabudi Sumadinata, "CYBERCRIME and GLOBAL SECURITY THREATS: A CHALLENGE in INTERNATIONAL LAW", *Russian Law Journal*, 11.3 (2023), 438-444 <https://doi.org/10.52783/rlj.v11i3.1112>
7. A/HRC/52/62, Report of the Independent International Commission of Inquiry on Ukraine. Advance Unedited Version. Human Rights Council. Fifty-second session. 27 February–31 March 2023. Agenda item 4. Human rights situations that require the Council's attention. 15 March 2023. [https://www.ohchr.org/sites/default/files/documents/hrbodies/hrcouncil/coiukraine/A\\_HRC\\_52\\_62\\_AUV\\_EN.pdf](https://www.ohchr.org/sites/default/files/documents/hrbodies/hrcouncil/coiukraine/A_HRC_52_62_AUV_EN.pdf)
8. Max Tani, Satellite companies are restricting Gaza images. Updated Nov 6, 2023, 5:05am GMT+3. <https://www.semafor.com/article/11/05/2023/satellite-companies-are-restricting-gaza-images>
9. María De Arcos Tejerizo, "Digital Evidence and Fair Trial Rights at the International Criminal Court", *Leiden Journal of International Law*, 36.3 (2023), 749–69 <https://doi.org/10.1017/S0922156523000031>
10. A/HRC/42/CRP.3, Full report: the economic interests of the Myanmar military <https://www.ohchr.org/en/hrbodies/hrc/myanmar-ffm/economic-interests-myanmar-military>
11. Prosecutor v. Ahmad Al Faqi Al Mahdi at the International Criminal Court <https://www.icccpi.int/sites/default/files/CaseInformationSheets/Al-MahdiEng.pdf>
12. Zhilong Guo, Jie Hao, and Lewis Kennedy, "Protection path of personal data and privacy in China: Moving from monism to dualism in civil law and then in criminal law", *Computer Law & Security Review*, 52 (2024), 105928 <https://doi.org/10.1016/j.clsr.2023.105928>
13. Ilyoung Hong, Hyeon Yu, Sangjin Lee, and Kyungho Lee, "A New Triage Model Conforming to the Needs of Selective Search and Seizure of Electronic Evidence", *Digital Investigation*, 10.2 (2013), 175–92 <https://doi.org/10.1016/j.diin.2013.01.003>.

**ГАФУРОВА Нозимахон Эльдаровна**

И.о. профессора Института переподготовки  
и повышения квалификации юридических кадров  
при Министерстве юстиции Республики Узбекистан,  
доктор юридических наук (DSc)  
E-mail: [gafurovanozimakhon@mail.ru](mailto:gafurovanozimakhon@mail.ru)

## **ИНСТИТУТ ПРИНУДИТЕЛЬНОГО ЛИЦЕНЗИРОВАНИЯ КАК МЕХАНИЗМ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАВНОГО ДОСТУПА К ЛЕКАРСТВЕННЫМ СРЕДСТВАМ В УСЛОВИЯХ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ**

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):** ГАФУРОВА Н.Э. Институт принудительного лицензирования как механизм обеспечения равного доступа к лекарственным средствам в условиях чрезвычайных ситуаций // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2026) С. 118-127.

### **АННОТАЦИЯ**

В статье рассматривается институт принудительного лицензирования лекарственных средств как один из ключевых правовых механизмов обеспечения равного и недискриминационного доступа населения к жизненно необходимым лекарственным препаратам в период чрезвычайных ситуаций, включая пандемии и иные форс-мажорные обстоятельства. Анализируются международно-правовые основы принудительного лицензирования, в частности положения Соглашения ТРИПС, Дохинской декларации ВТО по общественному здравоохранению, а также документы Всемирной организации здравоохранения и Всемирной организации интеллектуальной собственности. Особое внимание уделяется зарубежному опыту правового регулирования и практики применения принудительного лицензирования в США, странах Европейского союза, Китае, Швейцарии, а также в развивающихся государствах. В статье выявляются проблемы и правовые пробелы в национальном законодательстве Республики Узбекистан в части отсутствия четко закрепленного понятия и механизма принудительного лицензирования лекарственных средств. Обосновывается необходимость нормативного закрепления данного института в системе законодательства о здравоохранении и интеллектуальной собственности Узбекистана с целью защиты права на здоровье и предотвращения дефицита и завышения цен на лекарственные средства в условиях чрезвычайных ситуаций. В результате сформулировано авторское определение принудительного лицензирования лекарственных средств и предложены направления совершенствования национального правового регулирования.

**Ключевые слова:** общественное здравоохранение, интеллектуальная собственность, равный доступ, принудительное лицензирование лекарственных средств, Всемирная торговая организация, Всемирная организация здравоохранения, Комитет по экономическим, социальным и культурным правам, Соглашение ТРИПС.

**G'AFUROVA Nozimaxon Eldarovna**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirliligi huzuridagi  
Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini  
oshirish instituti professori v.b., yuridik fanlar doktori (DSc)  
E-mail: [gafurovanozimakhon@mail.ru](mailto:gafurovanozimakhon@mail.ru)

## FAVQULODDA VAZIYATLARDA DORI VOSITALARIDAN TENG FOYDALANISHNI TA'MINLASHDA MAJBURIY LITSENZIYALASH INSTITUTI

### ANNOTATSIYA

Maqolada majburiy litsenziyalash instituti favqulodda vaziyatlar, jumladan pandemiyalar va boshqa fors-major holatlar davrida aholining hayot uchun zarur bo'lgan dori vositalariga teng va kamsitilmasdan kirishini ta'minlashga qaratilgan asosiy huquqiy mexanizmlardan biri sifatida tahlil qilinadi. Majburiy litsenziyalashning xalqaro-huquqiy asoslari, xususan, TRIPS bitimi qoidalari, JSTning jamoat salomatligi bo'yicha Doha deklaratsiyasi, shuningdek, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va Jahon intellektual mulk tashkilotining hujjatlari o'rganiladi. Maqolada AQSh, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Xitoy, Shveysariya hamda rivojlanayotgan davlatlarda majburiy litsenziyalashni huquqiy tartibga solish va uni amaliyotda qo'llash tajribasiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligida dori vositalarini majburiy litsenziyalash tushunchasi va mexanizmining aniq mustahkamlanmaganligi bilan bog'liq muammolar va huquqiy bo'shliqlar aniqlanadi. Favqulodda vaziyatlar sharoitida sog'liqni saqlash huquqini himoya qilish, dori vositalari tanqisligi va ularning narxlarining asossiz oshib ketishining oldini olish maqsadida mazkur institutni O'zbekistonning sog'liqni saqlash va intellektual mulk to'g'risidagi qonunchilik tizimida normativ jihatdan mustahkamlash zarurati asoslab beriladi. Natijada dori vositalarini majburiy litsenziyalashning mualliflik ta'rifi shakllantirilib, milliy huquqiy tartibga solishni takomillashtirish yo'nalishlari taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** sog'liqni saqlash; intellektual mulk; teng foydalanish; dori vositalarini majburiy litsenziyalash; Jahon savdo tashkiloti; Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti; Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar qo'mitasi; TRIPS shartnomasi.

**NOZIMAKHON Gafurova Eldarovna**

Professor of the Training Institute for  
Lawyers under the Ministry of Justice of the  
Republic of Uzbekistan, Doctor of Law  
E-mail: [gafurovanozimakhon@mail.ru](mailto:gafurovanozimakhon@mail.ru)

## THE INSTITUTION OF COMPULSORY LICENSING IN ENSURING EQUITABLE ACCESS TO MEDICINAL PRODUCTS DURING EMERGENCIES

### ANNOTATION

The article examines the institution of compulsory licensing of medicinal products as one of the key legal mechanisms for ensuring equal and non-discriminatory access of the population to essential medicines during emergency situations, including pandemics and other force majeure circumstances. It analyzes the international legal foundations of compulsory licensing, in particular the provisions of the TRIPS Agreement, the WTO Doha Declaration on Public Health, as well as documents of the World Health Organization and the World Intellectual Property Organization. Special attention is paid to foreign experience in the legal regulation and practical application of compulsory licensing in the United States, the countries of the European Union, China, Switzerland, and developing states. The article identifies problems and legal gaps in the national legislation of the Republic of Uzbekistan related to the absence of a clearly defined concept and mechanism of compulsory licensing of medicinal

products. It substantiates the necessity of normative consolidation of this institution within the system of health care and intellectual property legislation of Uzbekistan in order to protect the right to health and to prevent shortages and excessive pricing of medicines under emergency conditions. As a result, the author formulates an original definition of compulsory licensing of medicinal products and proposes directions for improving national legal regulation.

**Keywords:** public health, intellectual property, equal access, compulsory licensing of medicines, World Trade Organization, World Health Organization, Committee on Economic, Social and Cultural Rights, TRIPS Agreement.

Современные глобальные вызовы, связанные с пандемиями, стихийными бедствиями, техногенными катастрофами и иными чрезвычайными ситуациями, выявили высокую уязвимость национальных систем здравоохранения и фармацевтических рынков большинства государств мира. Пандемия COVID-19 наглядно продемонстрировала, что даже страны с развитой экономикой и мощной медицинской инфраструктурой столкнулись с острой нехваткой жизненно необходимых лекарственных средств, резким ростом цен и нарушением устойчивости цепочек поставок. В этих условиях особую значимость приобретают правовые механизмы, направленные на обеспечение равного и недискриминационного доступа населения к основным лекарственным препаратам.

Право каждого человека на наивысший достижимый уровень физического и психического здоровья закреплено в международных договорах и актах универсального характера, включая Международный пакт об экономических, социальных и культурных правах. Комитет по экономическим, социальным и культурным правам в своих Замечаниях общего порядка № 14 и № 3 подчеркивает, что государства обязаны принимать эффективные, в том числе законодательные, меры для обеспечения доступности медицинской помощи и лекарственных средств, особенно для наиболее уязвимых групп населения, даже в условиях ограниченных ресурсов. В этой связи обеспечение устойчивого доступа к жизненно важным лекарственным средствам рассматривается как одно из базовых обязательств государств в сфере реализации права на здоровье.

Одним из ключевых международно-правовых инструментов, направленных на достижение баланса между защитой прав патентообладателей и обеспечением общественных интересов в сфере здравоохранения, является механизм принудительного лицензирования лекарственных средств. Его нормативной основой выступают положения Соглашения ТРИПС, Дохинской декларации ВТО по вопросам общественного здравоохранения, а также соответствующая практика государств — членов Всемирной торговой организации. Принудительное лицензирование позволяет в исключительных обстоятельствах, включая пандемии и иные чрезвычайные ситуации, обеспечить легальное производство более доступных аналогов запатентованных лекарственных препаратов, тем самым предотвращая дефицит и необоснованный рост цен.

Особую актуальность данная проблематика приобретает для Республики Узбекистан в контексте проводимых реформ в системе здравоохранения, модернизации национального законодательства в сфере интеллектуальной собственности, а также в условиях подготовки к вступлению во Всемирную торговую организацию. Несмотря на наличие отдельных норм, допускающих использование объектов промышленной собственности в чрезвычайных обстоятельствах, в национальной правовой системе по-прежнему отсутствует комплексный, институционально оформленный механизм принудительного лицензирования лекарственных средств, что создает правовой пробел и снижает готовность государства к эффективному реагированию на кризисные ситуации в сфере здравоохранения.

В этой связи особую научную и практическую значимость приобретает комплексный анализ международно-правовых стандартов, зарубежного опыта правового регулирования и национальных особенностей внедрения механизма принудительного лицензирования лекарственных средств. Целью настоящего исследования является разработка теоретически обоснованных и практически применимых предложений по формированию национального правового механизма принудительного лицензирования лекарственных средств в Республике Узбекистан с учетом международных обязательств и лучших зарубежных практик.

В период пандемии, и других случаев чрезвычайной ситуации во весь мир стал свидетелем острой нехватки лекарственных средств, необходимых населению для выживания.

В условиях подобного кризиса особую роль начинают играть международные стандарты в области права на здоровье, определяющие пределы допустимого ограничения государственных обязательств и устанавливающие минимальные гарантии защиты населения. Особое значение приобретает международно-правовое закрепление позитивных обязательств государств по обеспечению доступности медицинской помощи и лекарственных средств, даже в условиях ограниченности ресурсов.

Комитет по экономическим, социальным и культурным правам, в Замечаниях общего порядка № 14, подчеркивает, что многие меры, например, большинство стратегий и программ искоренения дискриминации в сфере здравоохранения, могут осуществляться с минимальным объемом ресурсов путем принятия, изменения или отмены законодательства либо распространения информации [1]. Кроме того, в этом случае можно сослаться на пункт 12 Замечания общего порядка № 3, в котором подчеркивается, что даже в периоды острой нехватки ресурсов наиболее уязвимые члены общества должны быть защищены путем принятия сравнительно недорогостоящих целевых программ [2].

Нами предлагается внесение понятия «Принудительное лицензирование лекарственных средств» в Кодекс о здравоохранении Республики Узбекистан. Введение понятия «Принудительного лицензирования лекарственных средств» в предлагаемой нами редакции и механизма реализации послужит предотвращению резкого роста дефицита и цен на необходимые лекарственные средства, которые корректируются с большими трудностями во всем мире, в том числе в системе здравоохранения нашей страны, в условиях пандемии COVID-19. Равная доступность основных лекарственных средств для всех широко признается как неотъемлемая часть права на здоровье и входит в число минимальных базовых обязательств государств, и поэтому нельзя допускать прекращения действия этого права или его нарушения государствами из-за нехватки имеющихся ресурсов. И крайне необходимо, чтобы это право, особенно в случае пандемии или других форс-мажорных обстоятельств, было обеспечено государством. В соответствии с правом каждого человека на наивысший достижимый уровень физического и психического здоровья., в соответствии со статьей 12 Международного Пакта об экономических, социальных и культурных правах, международными документами, принятыми Всемирной организацией здравоохранения, рекомендациями Комитета по экономическим, социальным и культурным правам и другими международными организациями, государства обязаны обеспечивать наличие лекарственных средств по сниженным ценам, что, на основе недискриминации, дает возможность равного доступа для всех.

Кроме того, введение данной статьи в то время, когда Республика Узбекистан становится членом Всемирной торговой организации (ВТО), также будет осуществлено для выполнения одного из требований для вступления в организацию. Потому что ряд договоров требуют включения в законодательстве право на принудительное лицензирование лекарственных средств государств-членов.

Ряд соглашений ВТО, включая Соглашение ТРИПС (TRIPS) по торговым аспектам прав интеллектуальной собственности (15 апреля 1994 года), Декларация министров по общественному здравоохранению (Долинская декларация), принятая в Дохе 14 ноября 2001 года, укрепляет право государств-членов Всемирной торговой организации (ВТО) применять принудительные лицензии в секторе здравоохранения, тем самым служит международно-правовыми средствами обеспечения всеобщего равного доступа к качественным лекарственным средствам.

Из-за высокой стоимости и дефицита необходимых лекарственных средств, особенно в период пандемии и других чрезвычайных ситуаций, ВТО считает целесообразным использование специальных механизмов для обеспечения легального производства более дешевых аналогов. Таким механизмом стало принудительное лицензирование.

Например, Торговое представительство США определяет принудительное лицензирование как «разрешение, предоставляемое третьим лицам при особых обстоятельствах на использование запатентованной продукции без разрешения патентообладателя [3]. В таком случае патентообладателю выплачивается достаточная денежная компенсация, в результате чего, одному или нескольким лицам может быть выдана принудительная лицензия на использование запатентованной продукции без разрешения патентообладателя.

Соглашение ТРИПС [4] является одним из основных документов в области, и это был первый многосторонний договор определить основные критерии патентоспособности и подтвердить выдачи патентов на фармацевтические продукты. Соглашение по ТРИПС содержит ряд положений, которые государства-участники могут использовать при определенных условиях для обхода патентной защиты и, в частности, для расширения доступности лекарственных средств. Обычно называемые «гибкими правилами медицинского обслуживания ТРИПС», эти правила включают в себя ряд важных механизмов и гарантий, которые фармацевтические продукты в странах могут использовать для снижения цен и повышения их общей доступности. Раздел 31 Соглашения ТРИПС предусматривает, что процедура предоставления оснований, на основании которых могут выдаваться принудительные лицензии, не предусматривает каких-либо ограничений на это при соблюдении минимальных требований. Широко распространено мнение, что в случае чрезвычайной ситуации в стране выдается принудительная лицензия. Однако, Дохинская декларация устанавливает основания для предоставления права каждого государства самостоятельно выдавать принудительную лицензию, а также каждое государство может сформулировать критерии ситуации, которая признана аварийной или экстремальной ситуации необходимости. Согласно статье 31(f) Соглашения ТРИПС, сначала должны быть выданы принудительные лицензии для удовлетворения внутренних потребностей рынка страны, которая выдает такие лицензии. Странам с избыточными производственными мощностями, как правило, не разрешается экспортировать лекарственные средства, произведенные по принудительным лицензиям.

Одним из важнейших условий принудительного лицензирования, которое, несомненно введет патентообладателя в убыток, государство, которым вводится принудительная лицензирование должно выплатить ему достаточный объем компенсации. В то же время нужно иметь в виду, что в рамках ТРИПС отсутствуют критерии определения адекватной компенсации, что оставляет государствам возможность самостоятельно принимать решения. Решение о выдаче принудительной лицензии и размере компенсации может быть рассмотрено в порядке, установленном судом или другими государственными органами. Но в крайних случаях антиконкурентной практики, согласно разделу 31(k) Соглашения ТРИПС, компенсация может вообще не выплачиваться [5].

В тех случаях, когда судом принимается решение о предоставлении принудительной лицензии в отношении определенного лекарственного средства, суд сам должен определить и указать условия лицензионного договора, а заинтересованному лицу предоставляется право предварительного изложения в своем исковом заявлении предполагаемые условия предоставления принудительной лицензии, которые будут рассмотрены и утверждены судом.

Но в случаях, когда патентообладатель не давал разрешения использования патентуемого объекта, как справедливо отмечает Б. А. Шахназаров, ТРИПС апеллирует правом обязательной выплаты вознаграждения даже в контексте использования без разрешения патентообладателя (п. «h» ст. 31), что усиливает охраноспособность и право на вознаграждение [6].

При введении механизма принудительного лицензирования и иных механизмов ограничения прав правообладателей в сфере охраны лекарственных средств, необходимо учитывать некоторые особенности. Как отмечает Паземова Е.И., в соответствии с соглашением ТРИПС, использование может быть санкционированным исключительно при наличии предварительных попыток получить разрешение на использование (с предложением разумных коммерческих условий и периода времени), которые не увенчались успехом. Но при возникновении чрезвычайной ситуации или при других обстоятельствах крайней необходимости, например, пандемии, данное требование может быть аннулировано. Тем не менее, обязанность уведомления в короткие сроки со стороны предполагаемого пользователя в любом случае остается обязательной [7].

Для определения размера роялти патентообладатель должен использовать рекомендации, разработанные международными организациями.

Следует отметить, что соглашения ТРИПС предусматривают ряд ограничений на объем производства и продолжительность использования обязательной лицензии (статья 31(s)), а также аннулирование таких лицензий в разделе (Статья 31(g)). Право на использование патента не должно быть абсолютным (статья 31(D)) и не может быть предоставлено какой-либо третьей стороне (статья 31(E)). Патентообладатель имеет право подать апелляцию в суд или соответствующий административный орган с целью аннулирования принудительной лицензии (статья 31(g)).

Механизм принудительного лицензирования регламентирован в ряде законодательств некоторых государств и входит в практику США, Канады, Китая и ряда европейских стран, так, в раздел 28 Свода Законов США (United States Code) включена статья 1498 [8], предоставляющая патентообладателю право обратиться в суд за компенсацией в случае использования результата интеллектуальной деятельности без его согласия и в интересах Соединенных Штатов Америки [9].

Также в Китае принят специальный закон (Patent Law of the People's Republic of China, 1984 г.) [10], позволяющий использовать изобретение или полезную модель в случае возникновения чрезвычайной ситуации в государстве, или в случае введения чрезвычайного положения, или, когда того требуют общественные интересы. В настоящем законе вся Глава 6 посвящена принудительному лицензированию, а статья 52 гл. 6 регламентирует возможность выдачи принудительной лицензии в конкретных случаях.

В Швейцарии действует Федеральный закон о патентах на изобретения. Этот закон можно отнести к наиболее продвинутому закону: хотя он был принят еще в 1954 г. (Federal Act on Patents for Inventions) [11], он регламентирует наряду с «общими» основаниями выдачи принудительных лицензий, также и «специальные» основания, например для использования изобретения как инструмента проведения исследования в сфере биотехнологий (ст. 40b), для организации производства лекарственных средств, которые защищены патентом, в

целях экспорта в страны, не обладающие достаточными производственными мощностями в фармацевтическом секторе (ст. 40d) [12].

Практика использования принудительного лицензирования распространена в развивающихся странах (Индия, Бразилия, Россия), а также в странах с высоким уровнем экономического развития (Германия, Соединенные Штаты, Бельгия, Канада, Таиланд и др. В частности, в Соединенных Штатах принудительные лицензии выдаются в различных областях для устранения последствий антиконкурентной практики по различным причинам.

В том числе, практика принудительного лицензирования имеет место в законодательствах стран-членов ВТО, которые подпадают под действие соглашения ТРИПС, к таковым относятся, например, раздел 5 Директивы Малайзии 2011 года об эксклюзивности данных [13], статья 91 Закона Чили 19.996 с поправками, внесенными в 2012 году [14], статья 4 Декрета Колумбии 2085 от 2002 года об исключительности данных [15] и др.

В странах Европейского союза Торговые соглашения ЕС устанавливают права и обязанности для всех сторон соглашения и, следовательно, еще больше укрепляют аргументы в пользу регулирования явных исключений из данных и рыночной эксклюзивности в случаях, когда в ЕС или государствами - членами ЕС принимаются принудительные лицензии и/или другие меры в интересах общественного здравоохранения [16]. Регламенты и директивы ЕС о предоставлении принудительного лицензирования на экспорт содержат исключения в отношении данных и рыночной эксклюзивности: Регламент ЕС 726/2004 [17], Директива 2001/83/ЕС [18] и др.

Кроме того Постоянным комитетом по патентному праву WIPO (Всемирной организации интеллектуальной собственности), на 13 – сессии 24 – 27 июня 2019 г. был принят Проект справочного документа об исключениях для целей выдачи принудительных лицензий, в котором представлен механизм принудительного лицензирования, положения о принудительном лицензировании в документах региональных организаций, необходимая нормативно-правовая база исключения для целей выдачи принудительных лицензий, а также освещены проблемы применения принудительного лицензирования. Соответственно, можно утверждать, что документ является значимым источником для государств, для работы над данным вопросом.

Тем не менее, основываясь на изучении практики применения принудительного лицензирования в странах Европы, где данный институт существует уже не первый десяток лет, тем не менее, практика их применения в этих странах наблюдалась довольно редко до пандемии.

В период пандемии COVID-19, возникший острый дефицит лекарственных средств, вновь направил фокус внимания государств на этот международный инструмент, и заставил все же рассмотреть возможность внесения изменений в существующие нормы.

Так, Германия и Франция уже законодательно внесли нормы, регламентирующие режимы и механизмы принудительного лицензирования, путем внесения ряда поправок в национальное законодательство.

Например, во Франции законодательством предусмотрено несколько видов принудительного лицензирования, включая нормы об принудительных лицензиях, выдаваемых соответствующими государственными органами и должностными лицами, в ведении которых находится тот или иной объект промышленной собственности, так называемые лицензии *ex officio* или *la licence d'office*. В частности, в соответствии Кодексом интеллектуальной собственности Франции, ст. L613-16 предусматривается, что в случае отсутствия мирового соглашения с патентообладателем министр, отвечающий за

промышленную собственность, может по запросу министра, отвечающего за общественное здравоохранение, применить режим *la licence d'office*, если этого требуют интересы общественного здравоохранения (с соблюдением иных положений, установленных Кодексом интеллектуальной собственности).

Также нужно отметить, что в соответствии с положениями французского законодательства лицензии *ex officio* (вне зависимости от оснований их выдачи) не являются исключительными и предоставляются при конкретных условиях, определяемых судом.

При этом, в период пандемии, кроме существующих законов Франции, в Кодекс общественного здравоохранения [19] дополнительно была включена новая статья, согласно которой при чрезвычайной ситуации, связанной с в области здравоохранения с единственной целью обеспечения здоровья премьер-министр может постановлением, изданным на основании отчета министра здравоохранения, потребовать реквизицию любых товаров и услуг, необходимых для борьбы с болезнями, катастрофами в сфере здравоохранения. Статья была включена в Кодекс Законом № 2020-290 от 23.03.2020 «О чрезвычайных мерах по борьбе с пандемией COVID-19» [20], где ее применение рассчитано на период действия чрезвычайного положения.

С.Ж.Бостин (Bostyn S. J. R.) отмечает, что возможность отмены требования, закрепленная в ТРИПС, имеет место и определена она достаточно узким перечнем оснований, в которые входят, например, чрезвычайные ситуации в области здравоохранения. При этом он ставит акцент на том, что ситуация, вызванная распространением COVID-19, попадает в соответствующий перечень оснований [21].

Что касается законодательства Республики Узбекистан, то можно отметить, что имеется правовой пробел в этой области, и пока еще не разработаны необходимые нормы по принудительному лицензированию лекарственных средств, которые будут решать проблему доступа к ним в период чрезвычайных ситуаций, в том числе пандемии. Хотя, в новой редакции Закона Республики Узбекистан «Об изобретениях, полезных моделях и промышленных образцах», допускается применение принудительного лицензирования Статьей 12, где отмечается, что применение средств, содержащих объекты промышленной собственности, охраняемые патентами, при стихийных бедствиях, катастрофах, эпидемиях и других чрезвычайных обстоятельствах не признается нарушением исключительного права патентообладателя [22], при этом, нигде не раскрывается ни понятие, ни сам механизм принудительного лицензирования.

Здесь важным аспектом является расширение судебной практики, разработка национального механизма введения принудительного лицензирования лекарственных средств, так как вполне реальной проблемой является то, что некоторые зарубежные фармацевтические компании могут временно прекратить ввоз новые лекарственных средств на рынок Узбекистана.

Соответственно, можно сделать вывод, что применительно к принудительному лицензированию лекарственных средств (на национальном и международно-правовом уровнях) необходима выработка корректных, юридически точных подходов органов, регулирующих данный процесс. Параллельно с этим, необходимо проводить постоянный мониторинг современной практики принудительного лицензирования, выявления системных проблем, учитывая, насколько важное социально-экономическое значение имеют эти результаты интеллектуальной деятельности для обеспечения равного доступа к лекарственным средствам, особенно в период чрезвычайных ситуаций.

Исходя из изложенного, предлагаем внести в Кодекс о здравоохранении Республики Узбекистан понятие «Принудительное лицензирование лекарственных средств» изложив её в следующей редакции: «**Принудительное лицензирование лекарственных средств** – это государственная мера, которая позволяет местной компании производить запатентованный лекарственный препарат или совершенствовать технологический процесс без согласия первоначального владельца патента. Принудительное лицензирование лекарственных средств – это мера, при которой патентообладатели вынуждены отказаться от лицензии для осуществления своих прав в обмен на компенсацию, размер которой определяется действующим законодательством или арбитражным механизмом в данной стране. Принудительное лицензирование лекарственных средств может применяться только в случае чрезвычайной ситуации или крайней необходимости в стране».

Учитывая все нюансы, принудительное лицензирование лекарственных средств на территории Республики Узбекистан предлагается вводить только в случае чрезвычайной ситуации, в целях обеспечения равного к ним доступа. В этом случае, государство в лице антимонопольного органа получает инструмент защиты граждан в случаях возникновения проблемы с лекарствами, сопровождающимися завышенными ценами, монополией и т.д.

#### CHOCKI/IQTIBOSLAR/REFERENCES:

1. General comment no. 14 (2000), The right to the highest attainable standard of health (article 12 of the International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights) UN. Committee on Economic, Social and Cultural Rights (22nd sess. : 2000 : Geneva)<https://digitallibrary.un.org/record/425041>
2. Замечание общего порядка № 3: (Пятая сессия, 1990 год). <http://humanrts.umn.edu/russian/gencomm/Repcomm3.html>
3. Абашидзе А.Х., В.С. Маличенко. Применение принудительного лицензирования лекарственных средств в соответствии с международными и национальными правовыми нормами.// RUDNJOURNAL OF LAW. <http://journals.rudn.ru/law> DOI: 10.22363/2313-2337-2019-23-1-62-79
4. Соглашение ТРИПС. [https://wipolex-res.wipo.int/edocs/lexdocs/treaties/ru/wto01/trt\\_wto01\\_001ru.pdf](https://wipolex-res.wipo.int/edocs/lexdocs/treaties/ru/wto01/trt_wto01_001ru.pdf)
5. Приложение 1С. Соглашение по Торговым Аспектам Прав Интеллектуальной Собственности.
6. [https://wipolex-res.wipo.int/edocs/lexdocs/treaties/ru/wto01/trt\\_wto01\\_001ru.pdf](https://wipolex-res.wipo.int/edocs/lexdocs/treaties/ru/wto01/trt_wto01_001ru.pdf)
7. Шахназаров Б. А. Модернизация права интеллектуальной собственности РФ в условиях членства в ВТО // Lex russica (Русский закон). 2013. № 3. С. 295
8. Паземова Е.И. Особенности реализации механизма принудительного лицензирования и иных механизмов ограничения прав правообладателей в сфере охраны лекарственных средств. Актуальные проблемы российского права. 2022;17(5):103-115. <https://doi.org/10.17803/1994-1471.2022.138.5.103-115>
9. United States Code. <https://uscode.house.gov>
10. 7 Federal Act of Switzerland of June 25, 1954, on Patents for Inventions (status as of January 1, 2012) // URL:<https://wipolex.wipo.int/en/text/281156> (дата обращения: 17.07.2021).
11. Patent Law of the People's Republic of China [https://english.www.gov.cn/archive/laws\\_regulations/2014/08/23/content\\_281474983043612.htm](https://english.www.gov.cn/archive/laws_regulations/2014/08/23/content_281474983043612.htm)
12. Federal Act of June 25, 1954, on Patents for Inventions (status as of September 1, 2008) <https://www.wipo.int/wipolex/en/legislation/details/5255>
13. Federal Act of Switzerland of June 25, 1954, on Patents for Inventions (status as of January 1, 2012) // URL:<https://wipolex.wipo.int/en/text/281156> (дата обращения: 17.07.2021).
14. Malaysia National Pharmaceutical Regulatory Agency. Data Exclusivity. NPRA. 2015. <http://npra.moh.gov.my/index.php/regulatory-information/data-exclusivity>. Accessed 13 Mar 2017.
15. Chile Ministerio de Economía. Decreto con Fuerza de Ley 3: Fija texto refundido, coordinado y sistematizado de la ley de propiedad industrial. Biblioteca del Congreso Nacional de Chile. 2012.
16. Republica de Colombia Ministerio de Salud. Decreto Numero 2085 de 2002
17. Ellen F. M. 't Hoen, Pascale Boulet & Brook K. Baker. Data exclusivity exceptions and compulsory licensing to promote generic medicines in the European Union: A proposal for greater coherence in European pharmaceutical

- legislation. Journal of Pharmaceutical Policy and Practice volume 10, Article number: 19 (2017). <https://jopp.biomedcentral.com/articles/10.1186/s40545-017-0107-9>
18. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/LSU/?uri=celex:32004R0726>
  19. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/en/ALL/?uri=CELEX%3A32001L0083>
  20. The French Public Health Code. <https://www.lexology.com/indepth/the-life-sciences-law-review/france#:~:text=The%20French%20Public%20Health%20Code,2022%2D323%20of%204%20March%202022>
  21. French Law in Response to the COVID-19 Epidemic 25 March 2020 <https://www.debevoise.com/insights/publications/2020/03/french-law-in-response-to-the-covid19-epidemic>
  22. Bostyn S. J. R. Access to therapeutics and vaccines in times of health pandemics: how exclusivity rights can affect such access and what we can do about it // Intellectual Property Quarterly. 2020. 4. P. 227–270.
  23. Закон Республики Узбекистан «Об изобретениях, полезных моделях и промышленных образцах». [wipolex-res.wipo.int; https://nrm.uz/contentf?doc=29259\\_zakon\\_respubliki\\_uzbekistan\\_ot\\_06\\_05\\_1994\\_g\\_n\\_1062-xii\\_ob\\_izobreteniyah\\_poleznyh\\_modelyah\\_i\\_promyshlennyh\\_obrazcah\\_\(novaya\\_redakciya\\_utverjdena\\_zakonom\\_ruz\\_ot\\_29\\_08\\_2002\\_g\\_n\\_397-ii\)](https://nrm.uz/contentf?doc=29259_zakon_respubliki_uzbekistan_ot_06_05_1994_g_n_1062-xii_ob_izobreteniyah_poleznyh_modelyah_i_promyshlennyh_obrazcah_(novaya_redakciya_utverjdena_zakonom_ruz_ot_29_08_2002_g_n_397-ii))

**SULAYMANOV Odiljon Rabbimovich**  
Yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent  
E-mail: [odiljon.sulaymanov@gmail.com](mailto:odiljon.sulaymanov@gmail.com)

## ZAMONAVIY XALQARO HUQUQ TIZIMINING INQIROZI: INSTITUTSIONAL JIHATLARI VA ISLOHOTLARNING ZARURATI

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):** SULAYMANOV O.R. Zamonaviy xalqaro huquq tizimining inqirozi: institutsional jihatlari va islohotlarning zarurati // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2026) B. 128-135.

### ANNOTATSIYA

Taqdim etilgan ilmiy maqola jahon tuzilishining ko'p markazli modeliga o'tish sharoitida xalqaro-huquqiy tartibning tizimli inqirozini har tomonlama o'rganishga bag'ishlangan. Muallif xalqaro huquqning tub mohiyatiga daxldor xususiyatga ega tanazzulini chuqur tahlil qilib, uni oddiy texnik nosozlik emas, balki BMT Nizomining an'anaviy me'yorlari va zamonaviy davlatlararo munosabatlar amaliyoti o'rtasidagi tub ziddiyat sifatida ko'rib chiqadi.

Maqolada hududiy yaxlitlik tamoyillari va xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi o'rtasidagi me'yoriy qarama-qarshilik, shuningdek, o'zini himoya qilish va insonparvarlik maqsadida aralashish doktrinalarini keng talqin etish orqali kuch ishlatishni taqiqlash tushunchasining yemirilishi batafsil yoritilgan. Liberal huquqshunoslik, "qoidalarga asoslangan tartib" g'oyasi va huquqiy realizm maktabi qarashlarini tanqid qilishni o'z ichiga olgan keskin ilmiy bahslarga alohida e'tibor qaratilgan.

Maqolada BMT Xavfsizlik Kengashining institutsional samarasizligi va majburlash mexanizmlarining ishlamay qolishi tufayli tizimning ijtimoiy va ekologik taraqqiyotning e'lon qilingan maqsadlariga erisha olmasligi asosli ravishda isbotlangan. Inqirozdan chiqish yo'li sifatida muallif qarorlar qabul qilish jarayonlarini demokratlashtirish, mintaqaviy tashkilotlar rolini kuchaytirish va huquqning asosiy tamoyillari iyerarxiyasini rasmiylashtirish kabi tub islohotlarni taklif etadi. Maqolaning yakuniy qismida global xavfsizlik tizimini oldindan isloh qilishning hayotiy ahamiyati ta'kidlanadi, chunki bu tarixan institutsional o'zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan global harbiy to'qnashuvning oldini olishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** xalqaro huquq, BMT Ustavi, Xavfsizlik Kengashi, tizim inqirozi, suverenitet, institutsional islohotlar, insonparvarlik aralashuvi, huquqiy bahs-munozara, geosiyosiy keskinlik, majburlash mexanizmlari.

**СУЛАЙМАНОВ Одилжон Раббимович**  
Доктор юридических наук (DSc), доцент  
E-mail: [odiljon.sulaymanov@gmail.com](mailto:odiljon.sulaymanov@gmail.com)

## КРИЗИС СОВРЕМЕННОЙ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАВОВОЙ СИСТЕМЫ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ И НЕОБХОДИМОСТЬ РЕФОРМ

### АННОТАЦИЯ

Представленная научная статья посвящена комплексному исследованию системной деградации международно-правового порядка в условиях перехода к полицентричной модели мироустройства. Автор проводит глубокий анализ онтологического кризиса международного права, рассматривая его не как технический сбой, а как фундаментальное противоречие между классическими нормами Устава ООН и современной практикой межгосударственного взаимодействия.

В работе подробно освещается нормативная антиномия между принципами территориальной целостности и правом народов на самоопределение, а также эрозия запрета на применение силы

через расширительное толкование доктрин самообороны и гуманитарной интервенции. Особое внимание уделено острой научной полемике, включающей критику либерального легализма, концепции «порядка, основанного на правилах» и взгляды школы правового реализма.

В статье аргументированно доказывается институциональная неэффективность Совета Безопасности ООН и паралич механизмов принуждения, приводящий к неспособности системы достигать задекларированных целей социального и экологического прогресса. В качестве пути преодоления кризиса автором предложены концептуальные реформы, включающие демократизацию процессов принятия решений, усиление роли региональных организаций и формализацию иерархии базовых принципов права. Заключительная часть подчеркивает экзистенциальную значимость превентивного реформирования глобальной архитектуры безопасности как альтернативы глобальному военному столкновению, исторически выступавшему катализатором институциональных преобразований.

**Ключевые слова:** международное право, Устав ООН, Совет Безопасности, кризис системы, суверенитет, институциональная реформа, гуманитарная интервенция, правовая полемика, геополитическая напряженность, механизмы принуждения.

**ODILJON Sulaymanov Rabbimovich**

Doctor of Law (DSc), Associate Professor

E-mail: [odiljon.sulaymanov@gmail.com](mailto:odiljon.sulaymanov@gmail.com)

## CRISIS OF THE CONTEMPORARY INTERNATIONAL LEGAL SYSTEM: INSTITUTIONAL ASPECTS AND THE NECESSITY FOR REFORMS

### ANNOTATION

This research article presents a comprehensive study of the systemic degradation of the international legal order amidst the transition to a polycentric global model. The author conducts a profound analysis of the ontological crisis of international law, framing it not as a mere technical failure but as a fundamental contradiction between the classical norms of the UN Charter and contemporary practices of interstate interaction.

The study highlights the normative antinomy between the principles of territorial integrity and the right of peoples to self-determination, alongside the erosion of the prohibition on the use of force caused by the expansive interpretation of self-defense and humanitarian intervention doctrines. Particular attention is given to the intense scholarly polemics, including the critique of liberal legalism, the "rules-based order" concept, and the perspectives of the legal realism school.

The article argues that the institutional inefficiency of the UN Security Council and the paralysis of enforcement mechanisms result in the system's inability to achieve declared social and environmental progress goals. To overcome this crisis, the author proposes conceptual reforms, including the democratization of decision-making processes, the enhancement of regional organizations' roles, and the formalization of a hierarchy of core legal principles. The conclusion emphasizes the existential significance of preemptive global security architecture reform as an alternative to a global military conflict, which has historically served as a catalyst for institutional transformation.

**Keywords:** international law, UN Charter, Security Council, system crisis, sovereignty, institutional reform, humanitarian intervention, legal polemics, geopolitical tension, enforcement mechanisms.

Xalqaro-huquqiy tizimning hozirgi holati uning fundamental asoslarining jiddiy yemirilishga yuz tutgani bilan tavsiflanadi. 1945-yilda BMT Nizomi bilan mustahkamlangan klassik normalar bugungi kundagi mavjud geosiyosiy ziddiyatlarni jilovlashda va barqaror rivojlanish maqsadlariga

erishishda ojizligi yaqqol namoyon bo'lmoqda [1]. Mazkur inqiroz tizimning tub mohiyatiga daxldor xususiyatga ega bo'lib, xalqaro huquqning qonuniyligiga shubha tug'dirmoqda.

Ushbu muammoning dolzarbligi kollektiv xavfsizlik tartib-qoidalarini kuch ishlatish yo'li bilan mensimaslik amaliyotining tobora ko'payib borayotgani bilan tasdiqlanadi. Xususan, Yugoslaviyaga nisbatan amalga oshirilgan intervensiyalar, Iroqda Saddam Husayn rejimini ag'darish maqsadidagi harbiy harakatlar va Liviyada Muammar Qaddafiya qarshi qaratilgan amaliyotlar, shuningdek, AQSHning Afg'onistonga bostirib kirishi ("Sinmas erk" operatsiyasi) hamda Rossiyaning Ukrainadagi "maxsus harbiy operatsiya"si misollari, o'zini o'zi himoya qilish va "gumanitar intervensiya" konsepsiyalari BMT Xavfsizlik Kengashi mandatlarini chetlab o'tib, rejim almashinuvini qonuniylashtirish va milliy manfaatlarni ta'minlash maqsadida qanday qo'llanilayotganini yaqqol namoyon etadi [14, 15]. Mazkur pretsedentlar huquqiy nigilizmning xavfli inersiyasini keltirib chiqarmoqda, bunda kuch qonuniylikning asosiy manbaiga aylanib qolmoqda.

Zamonaviy xalqaro huquq tizimining inqirozi nafaqat institutsional darajada, balki xalqaro-huquqiy normalarning transformatsiyasida ham namoyon bo'lmoqda, bu esa ularning universallik va majburiylik xususiyatlarini yo'qotishiga olib kelmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan normativ-huquqiy asoslar xalqaro munosabatlarning nisbatan barqarorligi, kuchlar muvozanatining markazlashganligi hamda universal institutlarning muvofiqlashtiruvchi va barqarorlashtiruvchi funksiyalarni bajara olishiga oid prezumpsiyaga asoslangan edi. Bugungi kundagi mavjud geosiyosiy ziddiyatlar oldida ushbu normalar zaifligini namoyon etmoqda, bu esa xalqaro huquqiy tartibotning yemirilishiga (fragmentatsiyasiga) va jus cogens xarakterga ega bo'lgan imperativ normalarning ustuvorligi susayib, ularning tanlab qo'llanilishiga olib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida, xalqaro xavfsizlikning yagona huquqiy kafolatlarini yo'qqa chiqarib, global boshqaruv tizimining legitimlik inqirozini yanada chuqurlashtirmoqda.

Shu ma'noda kuch ishlatishni tartibga soluvchi normalar inqirozi (jus ad bellum) alohida ahamiyat kasb etadi. BMT Ustavining 2-moddasi 4-bandida mustahkamlangan BMTning barcha a'zolari o'zlarining xalqaro munosabatlarida har qanday davlatning hududiy daxlsizligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi kuch bilan tahdid qilish yoki uni ishlatishdan, shuningdek BMT maqsadlariga to'g'ri kelmaydigan boshqa biron-bir tarzda harakatlardan o'zlarini tiyishi lozimligi imperativ norma sifatida o'z kuchida qolganiga qaramay, zamonaviy amaliyot ushbu taqiqning turlicha va kengaytirilgan talqinlari paydo bo'layotganini ko'rsatmoqda [1].

Xususan, "insonparvarlik intervensiyasi", "oldini oluvchi zarba" yoki "terrorizmga qarshi global kurash" kabi tushunchalar niqobi ostida kuch ishlatish holatlari ko'paymoqda. Bu esa BMT Xavfsizlik Kengashining kollektiv xavfsizlik tizimidagi monopol mavqeini zaiflashtirib, kuch ishlatishni tartibga soluvchi huquqiy chegaralarning yemirilishiga va xalqaro tartibning "kuch ishlatish huquqi" tomon og'ishiga olib kelmoqda.

Inqirozning normativ sabablarini tahlil qilishda, avvalo BMT Ustavining o'zida mujassam bo'lgan fundamental prinsiplarga e'tibor qaratish lozim, ya'ni hududiy yaxlitlik prinsipi (2-modda 4-band) bilan xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilash prinsipi (1-modda 2-band) o'rtasidagi qarama-qarshilikka [1]. Ushbu prinsiplar o'rtasida aniq iyerarxiyaning mavjud emasligi "normativ noaniqlik" holatini yuzaga keltiradi va 1970-yilda qabul qilingan "Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiya"ning universal xususiyatini zaiflashtiradi.

Tizim tanazzulining muhim omillaridan biri BMT Ustavining 2-moddasi 4-bandida nazarda tutilgan kuch ishlatish taqiqining yemirilishidir. So'nggi o'n yilliklarda o'zini o'zi himoya qilish huquqi (51-modda) kengaytirilgan tarzda talqin qilinib, "himoya qilish mas'uliyati" kabi konsepsiyalar

davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipi (2-modda 7-band) bilan to'g'ridan-to'g'ri to'qnashuvga kelmoqda[1].

BMT Ustavining 51-moddasini kengaytirilgan tarzda talqin qilish, shu jumladan oldini oluvchi, zarbani qaytaruvchi va kollektiv o'zini o'zi himoya qilish konsepsiyalarini unga kiritish, aslida istisnoni qoidaga aylantirib yubormoqda. Bu esa tizimning normativ yaxlitligini izdan chiqarmoqda.

Germaniyalik olim, xalqaro sudning sobiq sudyasi B.Simmaning ta'kidlashicha, zamonaviy xalqaro huquq borgan sari "hamjamiyat huquqi" xususiyatini yo'qotib, normalarning qo'llanilishi subyektlarning siyosiy vazniga bog'liq bo'lgan tanlovchi bilateralizm (ikki tomonlama munosabatlar) mantig'iga qaytmoqda [7].

Xalqaro huquqning yemirilishi (fragmentatsiyasi) sohaviy avtonomlikka intiluvchi ixtisoslashgan rejimlarning – xalqaro jinoiy, ekologik, savdo va investitsiya huquqining jadal rivojlanishi natijasida yanada chuqurlashmoqda. Mazkur rejimlar nafaqat alohida normalar yig'indisi, balki mustaqil institutlar va nizolarni hal qilish mexanizmlariga ega bo'lgan "yopiq tizimlar" sifatida faoliyat yuritmoqda. Bu esa ular o'rtasida normativ ziddiyatlarni keltirib chiqarib, xalqaro huquqning universal tamoyillari ustuvorligiga va tizimning yaxlitligiga putur yetkazmoqda.

Ushbu rejimlar o'rtasida samarali muvofiqlashtirish mexanizmi mavjud bo'lmagan sharoitda, normalar to'qnashuvi va yurisdiksiyalar raqobati xavfi ortib bormoqda. Shartnomalar huquqining tizimlilikini ta'minlashga qaratilgan 1969-yilgi Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasi bunday tarkibiy ziddiyatlarni hal qilish vositalarini o'z ichiga olmaydi, bu esa uning tartibga soluvchi salohiyatini obyektiv ravishda pasaytiradi [10].

Inqirozning qo'shimcha omili sifatida xalqaro gumanitar huquq va xalqaro jinoiy huquq normalarining tanlab qo'llanilishi namoyon bo'lmoqda. Harbiy jinoyatlar va insoniyatga qarshi jinoyatlarga nisbatan universal yurisdiksiya rasman tan olingan bo'lsa-da, Xalqaro jinoiy sud amaliyoti xalqaro huquq subyektlariga nisbatan yondashuvlarda yaqqol nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatmoqda.

Bunday nomutanosiblik, o'z navbatida, BMT Xavfsizlik Kengashidagi veto huquqi instituti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, xalqaro sudlov tizimining siyosiy lashuviga olib kelmoqda. Xalqaro jinoiy sudning yurisdiksiyasi ko'pincha geosiyosiy jihatdan "zaif" subyektlar bilan cheklanib qolayotgani va yirik davlatlarning veto huquqi orqali javobgarlikdan himoyalaniishi xalqaro huquqning universallik tamoyilini shubha ostida qoldirmoqda.

Natijada, suveren davlatlar va xalqaro sudlov institutlari o'rtasida yurisdiksiyaviy to'qnashuvlar keskinlashib, inson huquqlarini himoya qilishning global mexanizmi sifatida shakllangan tizim "kuchlilar huquqi" mantig'iga bo'ysunuvchi vositaga aylanib bormoqda. Bu esa xalqaro huquqning normativ yaxlitligini yemiruvchi huquqiy nigilizmning yangi to'liqini keltirib chiqarmoqda.

Akademik doiralarda klassik pozitivizm tarafdorlari va "qoidalarga asoslangan tartib" (rules-based order) konsepsiyasi tarafdorlari o'rtasida keskin bahs-munozaralar avj olmoqda. Ushbu bahs-munozaralar universal huquqiy rejimni saqlab qolishga intilish hamda moslashuvchan, ammo ko'pincha subyektiv bo'lgan siyosiy vositalarni joriy etishga bo'lgan urinishlar o'rtasidagi fundamental ziddiyatni aks ettirmoqda.

Tanqidiy yondashuvning yorqin namoyandasi sifatida rossiyalik huquqshunos olim A.Kapustinni ko'rsatish mumkin. U universal normalarning "qoidalarga asoslangan tartib" konsepsiyasi bilan almashtirilishi huquqiy aniqlikning yo'qolishiga va xalqaro huquqqa bo'lgan ishonchning tizim sifatida yemirilishiga olib kelishini ta'kidlaydi [2, B.12-24]. Uning fikricha, bunday transformatsiya amalda huquqiy o'zboshimchalikni qonuniylashtiradi, ya'ni normalar siyosiy konyunkturaga qarab talqin qilinadi, bu esa xalqaro huquqni uning asosiy vazifasidan – davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni barqaror tarzda tartibga solish funksiyasidan mahrum etadi.

Ushbu fikr xorijiy doktrinada, xususan, tanqidiy huquqiy tadqiqotlar maktabi (Critical Legal Studies) tomonidan ham rivojlantirilmoqda. Jumladan, finlyandiyalik huquqshunos olim Martti Koskenniyemi shunga e'tibor qaratadiki, "qoidalar" haqidagi ritorika ortida ko'pincha gegemonlik manfaatlari yashiringan bo'ladi. Bu manfaatlar normalar yaratishning demokratik jarayonini davlatlarning tor doirasidan iborat guruhning xalqaro konsensusi bilan almashtirishga intiladi [3, B.45].

Koskenniyemining fikricha, xalqaro huquq doimo "suverenitet" va "universal qadriyatlar" o'rtasida tebranib turadi. U "qoidalarga asoslangan tartib" (rules-based order) tushunchasini tanqid qilgan ekan, bu atama huquqiy tizimni siyosiyashtirishga va kuchli davlatlar o'z irodasini "umumiy qoida" sifatida taqdim etishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Shunday qilib, huquqiy doktrinalarda "qoidalarga asoslangan tartib" konsepsiyasiga nisbatan jiddiy xavotirlar shakllanmoqda. A. Kapustin va M. Koskenniyemi kabi olimlarning qarashlari bir nuqtada kesishadi: universal xalqaro huquq normalarining subyektlarning siyosiy vazniga qarab o'zgaruvchi mavhum "qoidalar" bilan almashtirilishi xalqaro tizimni demokratik asoslardan mahrum etadi.

Bunday transformatsiya xalqaro huquqni barcha uchun teng va barqaror tartibga soluvchi vositadan, ayrim gegemon kuchlarning manfaatlarini qonuniylashtiruvchi siyosiy mexanizmga aylantirib qo'yimoqda. Natijada, huquqiy aniqlikning yo'qolishi va "huquqiy o'zboshimchalik"ning kuchayishi nafaqat xalqaro huquqning normativ yaxlitligiga putur yetkazadi, balki global boshqaruv tizimining umumiy qonuniyligini ham inqirozga uchratadi.

Shunday qilib, ilmiy bahs-munozaralar quyidagi dilemmaga olib kelmoqda: yo BMT Ustaviga va davlatlarning suveren tengligi tamoyiliga qat'iy rioya qilishga qaytish, yoki xalqaro huquqni "liberal legalizm"ning moslashuvchan vositasiga butunlay aylantirish. Ikkinchi holatda huquqiy norma siyosiy maqsadga muvofiqlik oldida ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib qoladi.

Shu bilan birga, munozaralarda ustuvor pozitsiyalardan birini neorealistik maktab egallab kelmoqda, uning vakillari xalqaro huquqning mustaqil normativ qiymatini inkor etadilar. Amerika realizm maktabining taniqli nazariyotchilari, jumladan J.Goldsmit va E.Pozner, xalqaro normalarga rioya qilish faqat davlatlarning milliy manfaatlarini bir-biriga mos kelgan sharoitdagina yuz berishini ta'kidlaydilar.

Ularning fikricha, global boshqaruv tizimida yagona oliy hokimiyat (suveren) yo'q ekan, xalqaro institutlar (tashkilotlar) orqali davlatlarga biror qarorni majburan qabul qildirishga bo'lgan har qanday urinish samarasiz bo'lib qolaveradi [4, B.108].

Shu nuqtayi nazardan, xalqaro huquqning hozirgi inqirozi g'ayrioddiy holat yoki vaqtinchalik tizimli nuqson emas, balki jahon sahnasidagi kuchlarning real muvozanatini aks ettiruvchi tabiiy holat sifatida qaraladi.

Ushbu yondashuvlarni sintez qilgan holda, o'zbekistonlik huquqshunos olim J.Rasulov ta'kidlaydiki, hozirgi voqelikda xalqaro-huquqiy tizimga bo'lgan ishonchni qayta tiklash faqat insoniyatning global manfaatlarini va an'anaviy davlat suvereniteti o'rtasidagi muvozanatni chuqur tarkibiy qayta anglash orqali mumkin.

Tartibsizlik kuchayib borayotgan sharoitda olim suverenitetni qotib qolgan mutlaq tushuncha sifatida dekonstruksiya qilish (suverenitet tushunchasini qayta ko'rib chiqish, uning eskirgan jihatlarni ajratib, zamon talablariga moslashtirish) va uni dinamik kategoriya sifatida talqin etish hayotiy zarurat ekanligini ta'kidlab o'tadi. Bunday o'zgarish xalqaro-huquqiy tizimga subyektlarning davlat-huquqiy o'zligini yo'qotmagan holda transmilliy muammolarga samarali yechim topish imkonini yaratishi, shu orqali global huquqiy tartibotning barqarorligini ta'minlashi lozim [13].

Xalqaro huquqdagi inqiroz bir qator G'arb huquqshunoslari tomonidan tanqid qilinishiga sabab bo'ldi. Jumladan, mashhur nemis faylasufi va sotsiologi Yu. Xabermas shuni ta'kidlaydiki, huquq neytral tartibga soluvchi vosita emas, balki ma'naviy-axloqiy bosim o'tkazish quroli sifatida qabul qilina boshlagan paytda xalqaro institutlarning qonuniyligiga putur yetadi. Uning fikricha, agar xalqaro huquq faqat bir guruh davlatlarning "axloqiy qarashlarini" himoya qilishga xizmat qilsa, u butun dunyo uchun o'zining betaraf va qonuniy kuchini yo'qotadi [6, B.115].

Yuqoridagi fikrlarga qarama-qarshi pozitsiyani normativ-institutsional maktab vakillari egallab kelmoqda, xususan, B. Simma va R. Goldstoun xavfsizlikni ta'minlashning jamoaviy mexanizmlarini kuchaytirish hamda xalqaro tinchlikni saqlashning asosiy organi sifatida BMT Xavfsizlik Kengashini isloh qilish zarurligini ta'kidlaydilar [7, B.230; 9, B.88]. Ushbu yondashuv doirasida inqiroz xalqaro huquqning layoqatsizligi isboti sifatida emas, balki institutsional turg'unlikning oqibati sifatida qaraladi.

Bu o'rinda xalqaro huquq inqirozi nafaqat institutsional, balki bahs-munozarali xarakterga ham ega bo'lib, huquqni talqin qilish uchun kechayotgan kurashni ham aks ettiradi. Ushbu yondashuv tizimning keskin zo'riqish ostida ekanligini, ya'ni huquq o'zining barqarorlashtiruvchi vazifasini yo'qotib, huquqiy mexanizmlarni manfaatlar yo'lida foydalanish maydoniga aylanib qolganini ta'kidlaydi.

Xalqaro huquqning xorijiy va milliy doktrinasida tizimli inqirozdan chiqish yo'llari borasida yagona kelishuv mavjud emas.

Shunday qilib, ilmiy munozaralar shundan dalolat beradiki, xalqaro huquq inqirozi faqatgina sof huquqiy muammo emas, balki xalqaro qonuniylik asoslarini, hokimiyatning taqsimlanishini va jahon tartiboti haqidagi konseptual tasavvurlarni qamrab oluvchi murakkab hodisadir.

Tizimni isloh qilish bo'yicha kelishilgan yagona yondashuv mavjud bo'lmagan sharoitda, huquqiy tartibotning yanada parchalanib ketishi va xalqaro huquqning o'z tartibga soluvchilik vazifasini butunlay yo'qotishi xavfi saqlanib qolmoqda.

**Xalqaro huquqning samarasizligi: ijro etish va maqsadlarni amalga oshirishdagi tizimli layoqatsizlik.** Xalqaro huquqning samarasizligi muammosi ikkita fundamental jihatdan namoyon bo'lmoqda.

**Birinchi jihati majburiy ijro etish mexanizmlarining zaifligi hisoblanadi.** Unga ko'ra, zamonaviy xalqaro-huquqiy tizimda markazlashgan imperativ (majburiy) ta'sir organi mavjud emas. BMT Nizomi qabul qilinishi bilan davlatlarning bir-biriga nisbatan qo'llaydigan an'anaviy "gorizontal majburlash" mantig'i o'z dolzarbligini yo'qotdi, bu esa huquqiy tartibot sifatining pasayishiga olib keldi. JARlik huquqshunos olim R. Goldstoun ta'kidlaganidek, inqirozning asosiy sababi – davlatlar o'z milliy manfaatlarini to'qnash kelgan vaziyatlarda xalqaro normalar ijrosini ta'minlash borasidagi siyosiy irodasining yetishmasligidir [9, B.88].

Ma'lumot uchun: *Gorizontal huquqiy tizim (xalqaro huquqda) – bu suveren tenglik va muvofiqlashtirish tamoyiliga asoslangan aloqalar modelidir. Bu tizimda "dunyo hukumati" yo'q. Barcha davlatlar teng huquqli hisoblanadi. Shu sababli majburlash gorizontal ko'rinishda bo'ladi. Bunda davlatlarning o'zlari bir-birini nazorat qiladi. Agar bir davlat qoidani buzsa, boshqa davlatlar unga nisbatan javob choralari (sanksiya, aloqani uzish va h.k.) qo'llaydi.*

*Vertikal huquqiy tizim (Milliy huquqda) – bu bo'ysunish (iyerarxiya) tamoyiliga asoslangan boshqaruv modelidir. Tizimning tepasida yagona kuch – hukumat turadi.*

Amaldagi xavfsizlik arxitekturasi doirasida bir qator tarkibiy ziddiyatlar yuzaga kelgan. Zamonaviy xalqaro huquq tizimida davlatlar qurolli kuch ishlatish borasidagi mustaqil huquqlaridan mahrum etilgan (BMT Nizomining 51-moddasida ko'zda tutilgan o'zini o'zi himoya qilish holatlari bundan mustasno) [1]. Shu bilan birga, kuch ishlatishning qonuniy huquqi BMT Xavfsizlik Kengashi

tomonidan monopollashtirilgan bo'lsa-da, bu monopoliya universal majburlash mexanizmi bilan ta'minlanmagan. Natijada, kuch ishlatishni normativ jihatdan taqiqlash hamda ushbu taqiqning ijrosini ta'minlashning real imkoniyati o'rtasida tarkibiy uzilish yuzaga kelmoqda.

Davlatlarning sudlarda o'z manfaatlarini samarali himoya qilish imkoniyatlari ham cheklangan, chunki xalqaro sudlar yurisdiksiyasi rozilik (konsensual) xarakterini saqlab qolmoqda. Hatto sud qarori mavjud bo'lgan taqdirda ham, u BMT Ustavining 94-moddasi 2-bandida nazarda tutilgan ijro mexanizmlarining falajligi – veto huquqi orqali to'sib qo'yilishi natijasida ko'pincha ijro etilmay qolmoqda [5, B.156].

**Ikkinchi jihati ijtimoiy taraqqiyot yo'lida belgilangan strategik maqsadlarga erishish borasidagi layoqatsizlik hisoblanadi.** Bu xalqaro huquqning ijtimoiy taraqqiyot maqsadlariga erishishni ta'minlash borasidagi ojizligida namoyon bo'ladi. AQSHning Afg'onistondagi yigirma yillik harbiy mavjudligi 2021-yilda aynan intervensiya boshlanishiga sabab bo'lgan kuchlarning hokimiyatga qaytishi bilan yakunlandi. Bu esa, amalda, ko'p yillik sa'y-harakatlar natijalarining butunlay yo'qqa chiqarilganini anglatadi [8].

Ekologik huquq sohasidagi vaziyat ham achinarli holatda. Sayyoramiz har yili taxminan 160 ming kvadrat kilometr o'rmonlarini yo'qotmoqda, so'nggi o'n yilliklarda biologik xilma-xillik esa 68 foizga qisqardi [16]. Yer yuzi aholisining 99 foizdan ortig'i havo ifloslanish darajasi Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti normalaridan yuqori bo'lgan hududlarda yashaydi. Iqtisodiy tartibga solish sohasi ham tizimli qashshoqlik va yangi kolonial qarzga qaramlik masalalari qarshisida o'z ojizligini namoyon etmoqda.

AQSHlik olim J. Trachtman ta'kidlaganidek, xalqaro huquq tobora aldamchi tinchlantirish vositasiga aylanib bormoqda. U mavjud ziddiyatlar go'yoki hal etilayotgandek taassurot uyg'otadi, biroq amalda muammoning bir qismiga aylanib qolmoqda.

#### **Xalqaro-huquqiy tartibotni isloh qilish bo'yicha konseptual takliflar.**

O'tkazilgan tahlillar asosida tizimning me'yoriy (normativ) falajligini bartaraf etish bo'yicha bir qator amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq ko'rinadi:

**Birinchiidan,** xalqaro huquqning fundamental prinsiplarini kompleks ravishda qayta ko'rib chiqish talab etiladi. Zamonaviy voqelik yangi imperativ normalarni (jus cogens) inkorporatsiya qilishni va ichki qarama-qarshiliklarni bartaraf etishni taqozo etmoqda. Xususan, davlatlarning hududiy yaxlitligi prinsipi hamda xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi o'rtasidagi ziddiyatni ularni qo'llashning aniq iyerarxiyasini yaratish orqali huquqiy jihatdan hal etish zarur. Ushbu ikki tushuncha o'rtasida "aniq iyerarxiya" (qaysi biri qaysi holatda ustun turishi) o'rnatish lozim. Bu xalqaro inqirozlarni huquqiy yo'l bilan hal qilishda "ikki yoqlama standartlar"ga chek qo'yishga xizmat qiladi.

**Ikkinchiidan,** xalqaro kollektiv xavfsizlikni ta'minlash hamda xalqaro global qarorlar qabul qilish jarayonini demokratlashtirish maqsadida BMT Xavfsizlik Kengashini tubdan isloh qilish zarur. Kengashni barcha a'zo davlatlarning "bir davlat – bir ovoz" prinsipi asosida to'laqonli ishtirokini ta'minlaydigan inklyuziv tuzilmaga aylantirish masalasini xalqaro kun tartibiga kiritish. Bunda qarorlarni ko'pchilik ovoz bilan qabul qilish tizimiga o'tish ko'zda tutilgan bo'lib, bu veto huquqining buzuvchi mexanizmini so'ndirish imkonini beradi.

**Uchinchiidan,** mintaqaviy tashkilotlarning mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi xalqaro-huquqiy maqomini kuchaytirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Aynan mintaqaviy tuzilmalar o'z mintaqalarida universal tartibga solish tanqisligining o'rnini to'ldirgan holda, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni yanada tezkor va munosib tarzda ta'minlashi mumkin.

**To'rtinchiidan,** xalqaro munosabatlarning gorizontol darajasiga urg'u bergan holda, dolzarb global va mintaqaviy ziddiyatlarni hal etishda ikki tomonlama (davlatlararo) formatning strategik

rolini tubdan oshirish taqozo etiladi. Bunda ko'p tomonlama deklarativ mexanizmlardan konkret davlatlararo kelishuvlarga o'tish huquqiy normalarning instrumental imkoniyatlarini kengaytiradi.

Global institutlar rivojlanishining qiyosiy-tarixiy tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro-huquqiy arxitekturaning tub o'zgarishlari tarixan keng ko'lamli dunyoviy to'qnashuvlar va ziddiyatlarning oqibati sifatida namoyon bo'lgan. Xususan, Birinchi jahon urushidan so'ng Versal-Vashington tizimining inqirozi Millatlar Ligasining tashkil etilishiga asos bo'ldi, Ikkinchi jahon urushining fojiviy yakunlari esa Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'sis etilishiga sabab bo'ldi.

Hozirgi tizimli inqiroz sharoitida xalqaro hamjamiyat o'ta muhim sivilizatsiyaviy tanlov oldida turibdi. Yangi va hayotchan xavfsizlik arxitekturasini shakllantirish uchun keng ko'lamli global qarama-qarshilik yagona mumkin bo'lgan katalizator bo'ladimi yoki insoniyat oldini oluvchi islohotlar salohiyatini amalga oshirishga qodirmi degan savol ochiqligicha qolmoqda?

Xalqaro-huquqiy tartibotni o'z vaqtida zamonaviylashtirish – bu shunchaki nazariy zarurat emas, balki voqealar rivojining halokatli ssenariysidan qochish imkonini beruvchi, global tinchlik va barqarorlikni ta'minlashning yagona mumkin bo'lgan yo'lidir. Ortib borayotgan tartibsizlik sharoitida mavjud holatni saqlab qolish, global to'qnashuv xavfini shunchaki ehtimol emas, balki muqarrarlikka aylantiradi.

#### IQTIBOSLAR/СНОСКИ/REFERENCES:

1. Устав Организации Объединенных Наций (принят в г. Сан-Франциско 26.06.1945). <https://www.un.org/ru/about-us/un-charter/full-text>
2. Капустин А. Я. Международное право и вызовы XXI века // Журнал российского права. – 2022. – № 5. – С. 12-24.
3. Коскенниemi М. Мягкая цивилизация: история международного права 1870–1960. – М.: Гайдара, 2023. – С. 45.
4. Goldsmith J., Posner E. The Limits of International Law. – Oxford University Press, 2005. – P. 108.
5. Лукашук И. И. Международное право. Общая часть: учеб. – 3-е изд. – М.: Волтерс Клувер, 2005. – С. 156.
6. Habermas J. The Divided West. – Polity Press, 2006. – P. 115.
7. Simma B. From Bilateralism to Community Interest in International Law. – Collected Courses of the Hague Academy of International Law, 1994. – P. 230.
8. World Bank Report 2021. Статистические данные по итогам миссии в Афганистане (2001–2021).
9. Goldstone R. The Crisis of Implementation in International Law. – Journal of International Justice, 2018. – P. 88.
10. Венская конвенция о праве международных договоров (Заключена в Вене 23.05.1969). <https://www.un.org/ru/documents>
11. WWF Living Planet Report 2022. Biodiversity and Climate Change.
12. Trachtman, J. P. (2011). The crisis of international law. Case Western Reserve Journal of International Law, 44(1).
13. Rasulov, J. (2025). XALQARO HUQUQ INQIROZI: ZO'RIQISH OSTIDAGI TIZIM. Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(S/6), 147–152.
14. Chesterman S. Just War or Just Peace? Humanitarian Intervention and International Law. – Oxford University Press, 2001.
15. Gray C. International Law and the Use of Force. – Oxford University Press, 2018.
16. Our World in Data. War and Peace. Based on UCDP/PRIО data (Peace Research Institute Oslo).

**ALLOBERDIYEVA Durdona O'ktamjon qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti

tayanch doktoranti

E-mail: [urdonallaberdieva@gmail.com](mailto:urdonallaberdieva@gmail.com)

## MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARDA TURIZMNING ROLI: BARQAROR RIVOJLANISH VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**  
**ALLOBERDIYEVA D.O'.** Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda turizmning roli: barqaror rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilish // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2025) B. 136-143.

### ANNOTATSIYA

Maqolada turizmning muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda barqaror rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilishga qanday hissa qo'shishi o'rganildi. Turizm va tabiatni muhofaza qilish o'rtasidagi bog'liqlik, shuningdek, ularning iqtisodiyot, jamiyat va atrof-muhitga ta'siri XXI asrda turizmning rivojlanishi va jahon tendensiyalari nuqtai nazaridan aniqlangan. Stokgolm konferensiyasi (1972), BM Tning Rio konvensiyalari (1992), 79/409/EEC va 92/43/EEC Direktivalari hamda Natura 2000 tarmog'i kabi xalqaro va mintaqaviy tartibga solish tizimlariga asoslanib, tadqiqotda muhofaza qilinadigan hududlarni yaratish va boshqarish ko'rib chiqildi. Bundan tashqari, maqolada turizm bilan bog'liq daromadlar yaqin atrofdagi jamoalarning ijtimoiy-iqtisodiy o'sishi va ekologik maqsadlarga erishishda qanchalik muhim ekanligi ta'kidlangan. Tadqiqotda axborot, bilim va aqlli boshqaruv barqaror turizmning muvozanatli o'sishiga qanday olib kelishi mumkinligi ko'rsatilgan. Maqola Bioxilma-xillik bo'yicha Kunming-Monreal global dasturining 30x30 3-maqsadi doirasida 2030-yilga kelib quruqlik va dengiz hududlarining kamida 30 foizini saqlab qolish, shuningdek, qo'shimcha muhofaza qilinadigan hududlarni yaratish va ularni boshqarish bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Ushbu maqola muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda turizmni boshqarish, barqaror rivojlanish rejalarini tuzish va mahalliy jamoalar bilan hamkorlikni rag'batlantirish uchun qimmatli ilmiy manba hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, turizm, barqaror rivojlanish, ekoturizm, atrof-muhitni muhofaza qilish, 30x30 maqsad, barqaror turizm, mahalliy jamoalar.

**АЛЛОБЕРДИЕВА Дурдона**Базовый докторант Ташкентского  
государственного юридического университетаE-mail: [urdonallaberdieva@gmail.com](mailto:urdonallaberdieva@gmail.com)

## РОЛЬ ТУРИЗМА В ОХРАНЯЕМЫХ ПРИРОДНЫХ ТЕРРИТОРИЯХ: УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ И ЗАЩИТА ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ

### АННОТАЦИЯ

В статье исследуется вклад туризма в устойчивое развитие и охрану окружающей среды в охраняемых природных территориях. Рассматривается взаимосвязь между туризмом и охраной природы, а также их влияние на экономику, общество и окружающую среду с точки зрения развития туризма и мировых тенденций XXI века. На основе международных и региональных систем регулирования, таких как Стокгольмская конференция (1972), Рио-конвенции ООН (1992), Директивы 79/409/ЕЕС и 92/43/ЕЕС, а также

сеть Natura 2000, исследование охватывает вопросы создания и управления охраняемыми территориями. Кроме того, в статье подчеркивается важность доходов от туризма для социально-экономического развития близлежащих сообществ и достижения экологических целей. В исследовании показано, каким образом информация, знания и разумное управление могут способствовать сбалансированному росту устойчивого туризма.

Статья акцентирует внимание на необходимости научно обоснованных решений по сохранению как минимум 30 % суши и морских территорий к 2030 году, а также созданию и управлению дополнительными охраняемыми территориями в рамках цели 3 глобальной программы Kunming-Montreal «30x30» по сохранению биологического разнообразия.

Данная статья является ценным научным ресурсом для управления туризмом в охраняемых природных зонах, разработки планов устойчивого развития и поощрения сотрудничества с местными сообществами.

**Ключевые слова:** охраняемые природные территории, туризм, устойчивое развитие, экотуризм, охрана окружающей среды, цель 30x30, устойчивый туризм, местные сообщества.

**DURDONA Alloberdieva**

PhD Student at Tashkent State  
University of Law

E-mail: [durdonallalberdieva@gamil.com](mailto:durdonallalberdieva@gamil.com)

## THE ROLE OF TOURISM IN PROTECTED NATURAL AREAS: SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND ENVIRONMENTAL CONSERVATION

### ANNOTATION

The article examines the contribution of tourism to sustainable development and environmental conservation in protected natural areas. The interrelationship between tourism and nature conservation, as well as their impacts on the economy, society, and environment, is analyzed in the context of 21st-century tourism development and global trends. Based on international and regional regulatory frameworks, such as the Stockholm Conference (1972), the UN Rio Conventions (1992), Council Directives 79/409/EEC and 92/43/EEC, and the Natura 2000 network, the study explores the establishment and management of protected areas. Furthermore, the article highlights the significance of tourism-generated revenues for the socio-economic development of surrounding communities and the achievement of ecological objectives. The research demonstrates how information, knowledge, and intelligent governance can contribute to the balanced growth of sustainable tourism.

The article emphasizes the necessity of scientifically informed decision-making for the creation and management of additional protected areas to achieve at least 30% coverage of terrestrial and marine areas by 2030, in line with Target 3 of the Kunming-Montreal Global Biodiversity Framework's 30x30 initiative.

This study serves as a valuable scientific resource for managing tourism in protected natural areas, developing sustainable development strategies, and promoting collaboration with local communities.

**Keywords:** protected natural areas, tourism, sustainable development, ecotourism, environmental conservation, 30x30 target, sustainable tourism, local communities.

XXI asr boshidan buyon turizm muhim evolyutsiyani boshdan kechirdi va bu holat davlatlar hamda turli tartibga soluvchi organlar va institutlarni yangi va kutilmagan vaziyatlarga moslashishga majbur qildi. Globallashuv jarayonlari, sayohat narxlarining arzonlashuvi, qulay joylashuv imkoniyatlari hamda yangi hamkorlikka asoslangan turistik xizmatlar tizimlarining rivojlanishi natijasida an'anaviy modellardan chetga chiqadigan turizm shakllari yuzaga keldi. Bu holat, ayniqsa, tabiat bilan bevosita bog'liq bo'lgan turizm turlarida, xususan qishloq, ekologik va barqaror turizmda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Ekoturizm barqaror rivojlanishning muhim tarkibiy qismiga aylanib, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqtisodiy o'sish va madaniy merosni saqlash o'rtasida muvozanatni ta'minlashga intiladi. Ko'pincha atrof-muhitning yemirilishi va madaniy qadriyatlarning yo'qolishiga olib keladigan ommaviy turizmdan farqli o'laroq, ekoturizm tabiiy hududlarga mas'uliyatli sayohatni targ'ib etadi. U atrof-muhitni asrashga, mahalliy aholining farovonligini qo'llab-quvvatlashga hamda tushuntirish va ta'lim jarayonlarini o'z ichiga olishga qaratilgan (TIES, 2015). Atrof-muhit muammolari bo'yicha global xabardorlikning ortishi va haqiqiy sayohat tajribalariga bo'lgan qiziqishning kuchayishi ekoturizmning jadal rivojlanishiga turtki bo'lib, uni turizm sanoatining muhim sohasiga aylantirdi.

Mazkur turizm turlari ko'pincha ikki xil, ammo o'zaro tutash sohalar turizm va atrof-muhitni muhofaza qilish kesishgan nuqtada yangi muammolarni yuzaga keltiradi. Ushbu sohalar, hech bo'lmaganda nazariy jihatdan, turli manbalar va yakuniy maqsadlarga asoslanadi. Yuqori iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan turistik faoliyatlar qishloq hududlarida iqtisodiy rivojlanish, yangi biznes muhitlari va startup tashabbuslarini shakllantirish uchun muhim imkoniyat hisoblanadi va buni inkor etib bo'lmaydi [1].

Biroq turistik xizmatlar muhofaza etiladigan hududlarda amalga oshirilganda, iqtisodiy faoliyat o'z ta'sirini alohida zaiflik xususiyatlariga ega bo'lgan va qonunchilik tomonidan maxsus muhofaza talab etiladigan jismoniy makonlarda namoyon etadi. Bunday hollarda turizmga oid tadbirkorlik faoliyati maxsus tartibga solish rejimiga bo'ysunadi va davlat boshqaruvi organlarining faol nazoratini talab qiladi. Ushbu ma'muriy vazifalar, bir tomondan, bozorga kirishni tartibga solish, ya'ni ushbu sohani kamyob resurslarni ma'muriy taqsimlashga bo'ysunadigan navbatdagi sektor sifatida shakllantirish [2] orqali, ikkinchi tomondan esa turistik faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini kuzatish va nazorat qilish orqali amalga oshiriladi [3].

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tushunchasining ma'muriy-huquqiy konsepsiyasi dunyo bo'ylab, asosan, ikki asosiy omil mavjudligini talab qiladi: birinchidan, muhofazaga loyiq yoki muhofazani talab qiladigan obyekt mavjud bo'lishi; ikkinchidan esa ushbu obyektning himoya qilish zarurati bo'lishi. Ushbu tushuncha huquqiy kategoriya sifatida ilk bor 1972-yilda bo'lib o'tgan Stokgolm konferensiyasida shakllandi. Aynan shu konferensiyada o'ziga xos tabiiy xususiyatlari, landshafti, flora va faunasi tufayli ayrim geografik hududlar davlatlar tomonidan kuchaytirilgan muhofazaga muhtoj ekanligi to'g'risida global miqyosda anglash yuzaga keldi va davlat boshqaruv organlarining nazorat qiluvchi subyekt sifatidagi faol roli ta'kidlandi.

Stokgolm konferensiyasi yovvoyi fauna va florani muhofaza qilish vositasi sifatida (4-prinsip), shuningdek sayyoraning genetik xilma-xilligini saqlashni ustuvor yo'nalish sifatida belgilash orqali (39- va 40-tavsiyalar) atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha xalqaro strategiyada tub burilish yasadi [4]. Shundan so'ng bir qator tashabbuslar ilgari surildi, jumladan: 1980-yilda Xalqaro Tabiatni Muhofaza Qilish Ittifoqi (IUCN), BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) va Butunjahon tabiat fondi (WWF) tomonidan FAO va UNESCO hamkorligida ishlab chiqilgan Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha global strategiya; 1982-yil 28-oktabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Tabiat xartiyasi (37/7-rezolyutsiya); shuningdek 1976-yilgi Barselona konvensiyasi (O'rta yer dengizini muhofaza qilish to'g'risida) va Ramsar konvensiyasi (xalqaro ahamiyatga ega botqoqliklar to'g'risida) kabi sohaviy xalqaro hujjatlar.

Atrof-muhitga bo'lgan e'tiborning rivojlanishi hamda ilmiy va intellektual qiziqishning ortishi natijasida 1992-yilda Biologik xilma-xillik, Iqlim o'zgarishi va Cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha Rio konvensiyalari qabul qilindi. Ushbu hujjatlarning asosiy maqsadlari biologik xilma-xillikni saqlash, uning tarkibiy qismlaridan barqaror foydalanish hamda genetik resurslardan foydalanish

natijasida olinadigan foydani adolatli va teng taqsimlashdan iborat bo'lib, bunga genetik resurslarga tegishli huquqlar va texnologiyalarni hisobga olgan holda tegishli moliyalashtirish orqali erishilishi belgilandi [5]. O'zining katta salohiyatiga qaramay, ekoturizm tashabbuslarining muvaffaqiyati asosan samarali boshqaruv, jamoatchilik ishtiroki va qo'llab-quvvatlovchi siyosatlarga bog'liq. Boshqaruv va siyosiy-huquqiy tizimlar ekoturizm amaliyotlarining Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) bilan uyg'unligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, tartibga soluvchi choralar va rag'batlar turizm operatorlari hamda mahalliy hamjamiyatlarni barqaror amaliyotlarni qo'llashga undashi mumkin.

Hozirgi kunda ham amal qilayotgan va 1995-yilda O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan ushbu konvensiya xalqaro darajada tabiatni muhofaza qilish siyosatini shakllantirishga asosiy e'tiborni qaratadi. Shu doirada bir qator huquqiy va ma'muriy vositalar joriy etilgan bo'lib, ular orasida ushbu tadqiqot uchun alohida ahamiyat kasb etadigan tushuncha "muhofaza etiladigan tabiiy hududlar", ya'ni aniq geografik chegaralarga ega, maxsus muhofaza maqsadlariga erishish uchun belgilangan va boshqariladigan hududlar tushunchasi mavjud. Konvensiya ishtirokchi davlatlarga muhofaza etiladigan hududlar tizimini shakllantirish majburiyatini yuklaydi, bu esa qaysi hududlar muhofazaga olinishi hamda ularni boshqarish uchun standartlar va tashkiliy mexanizmlarni belgilovchi ma'muriy tuzilmani talab etadi (8-a va 8-b-moddalar) [5]. Shu tariqa, ushbu konvensiya xalqaro nuqtai nazardan muhofaza etiladigan hududlarning qonuniyligi va legitimligini ta'minlovchi asosiy tayanch hujjat hisoblanadi.

Yevropa darajasida muayyan geografik hududlarni muhofaza qilishga oid dastlabki normativ-huquqiy hujjat 79/409/YEES-sonli Yovvoyi qushlarni muhofaza qilish to'g'risidagi Direktivadir. Ushbu hujjatning 3-moddasida a'zo davlatlarga muhofaza etiladigan hududlarni tashkil etish va ularning tegishli boshqaruvini ta'minlash majburiyati yuklangan [6].

Rio konvensiyasi va uning xalqaro miqyosdagi ta'siridan so'ng, xuddi shunday o'zgarish Yagona Yevropa akti qabul qilingandan keyin Yevropa Ittifoqida sodir bo'ldi, xususan, Komissiyaning 1988-yil 31-avgustdagi COM (88) 381-sonli taklifidan so'ng, sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Ushbu hujjat Yevropa Ittifoqi asosiy huquqini isloh qilib, ekologik siyosat sohasida Ittifoq institutlariga yagona bozor maqsadlaridan tashqarida vakolatlar berdi. Natijada 1992-yil 21-mayda 92/43/EES-sonli Tabiiy yashash muhitlari hamda yovvoyi flora va faunani muhofaza qilish to'g'risidagi Direktivasi qabul qilindi. Direktivani ishlab chiqish Yevropa Ittifoqi to'g'risidagi shartnoma (TEU) bilan parallel ravishda olib borildi va unda keyinchalik TEUda mustahkamlangan ayrim jihatlar, jumladan, birdamlik jamg'armalari orqali hamkorlikda moliyalashtirish mexanizmlari o'z aksini topdi.

92/43-sonli Direktivada joriy etilgan eng muhim yangiliklardan biri Natura 2000 tarmog'ining yaratilishidir [7]. Ushbu tarmoq kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlar uchun ko'payish va dam olish hududlari, shuningdek o'z-o'zidan muhofazaga loyiq bo'lgan ayrim noyob tabiiy yashash muhitlarini o'z ichiga oladi. Uning maqsadi a'zo davlatlar o'rtasida muhofaza tizimining izchilligi va yuqori himoya standartlarini ta'minlashdan iborat.

Yevropa Ittifoqi huquqidagi subsidiarlik prinsipiga muvofiq, Direktivada a'zo davlatlarga yuqori darajada erkinlik berilgan bo'lib, muhofaza etiladigan hududlar ro'yxatini shakllantirishda yetakchi rol aynan ularga yuklatilgan. Shu sababli, a'zo davlatlar Direktivaga ilova qilingan III-ilovada belgilangan mezonlarni inobatga olgan holda, Natura 2000 tarmog'iga kiritilishi lozim bo'lgan hududlarni Yevropa Komissiyasiga taklif etadi. Takliflar qabul qilingach, Komissiya tegishli a'zo davlat bilan hamkorlikda Yevropa miqyosida ahamiyatga ega tabiiy yashash muhitlari ro'yxatini shakllantiradi.

Shu bilan birga, a'zo davlatlar muayyan talablarga javob beradigan hududlarni maxsus muhofaza etiladigan hudud sifatida e'lon qilish majburiyatiga ega. "Buni 1993-yildagi Yevropa Ittifoqi Sudi qarori tasdiqlaydi. Mazkur qarorda sud Ispaniya 79/409/YES-sonli Direktivaga zid ravishda Santona botqoqliklarini maxsus muhofaza zonasi sifatida belgilamaganligi hamda ushbu hududda yashash muhitining ifloslanishi yoki buzilishining oldini olish uchun zarur choralarini ko'rmaganligi sababli Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan, degan xulosaga kelgan [8].

Hozirda 92/43-sonli Yashash joylari Direktivasi bo'yicha tartibga solinadigan 27 165 ta jamoat ahamiyatiga ega joylar (SCI) va 79/409-sonli Qushlar Direktivasi bilan tartibga solinadigan 5,616 ta maxsus muhofaza zonalarini (SPA) mavjud [9].

"Natura 2000" tarmog'ini tashkil etuvchi hududlarni boshqarish a'zo davlatlar vakolatiga kiradi. Shu bilan birga, Direktivaga muvofiq, a'zo davlatlarga tanlab olingan hududlarning yomonlashuvini va salbiy o'zgarishlarini oldini olish maqsadida zarur muhofaza choralarini qabul qilish majburiyati yuklatilgan. Ushbu choralar boshqaruv va rivojlanish rejaları, normativ-huquqiy, ma'muriy yoki shartnomaviy mexanizmlarni o'z ichiga oladi (6-modda).

Shuningdek, muhofaza etiladigan hududlarni boshqarish bilan bog'liq xarajatlarni, Yevropa Ittifoqi tomonidan hamkorlikda moliyalashtirish nazarda tutilgan ayrim istisno holatlarni hisobga olmaganda, asosan a'zo davlatlarning o'zlari zimmasiga olishlari belgilangan (8-modda).

Mamlakatimizda ham ilk muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sifatida birinchi Qo'riqxona 1929-yilda Turkistonning g'arbiy qismida tashkil etilgan [10].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida davlat atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlashni ta'minlashi lozimligi belgilangan. Shu tamoyilga asoslanib, Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunning 1-moddasi tabiatni muhofaza qilish va saqlab qolishni uning asosiy maqsadi sifatida belgilaydi. "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun esa ushbu sohadagi asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi va tabiiy komplekslarni muhofaza qilishning qonuniy asoslarini belgilaydi.

Yashil boshqaruv (green governance) ekoturizmning barqarorligi va muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshiradi. Bu samarali siyosiy-huquqiy tizimlarni rivojlantirish, jamoatchilik ishtirokini ta'minlash va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali amalga oshiriladi. Avstraliya va Kosta-Rika kabi kuchli yashil boshqaruv tizimiga ega mamlakatlar atrof-muhitni muhofaza qilish, iqtisodiy o'sish va madaniy merosni saqlash borasida sezilarli natijalarga erishganini namoyish etadi. Jamoatchilikning faol ishtiroki mahalliy aholining iqtisodiy va madaniy jihatdan foyda ko'rishini ta'minlaydi, qat'iy qoidalar va monitoring tizimlari esa turizmning ekotizimlarga salbiy ta'sirini minimallashtiradi. Huquqni ijro etishdagi muammolar va jamoalarning qarshiligi kabi qiyinchiliklarga qaramay, ularni salohiyatni oshirish va ta'lim orqali bartaraf etish ekoturizmning global miqyosdagi ijobiy ta'sirini yanada kuchaytirishi mumkin. Xalqaro hamkorlik ham barqaror turizm sohasida ilg'or tajribalarni almashish va sa'y-harakatlarni takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Samarali boshqaruv va qo'llab-quvvatlovchi siyosiy-huquqiy tizimlar ekoturizm tashabbuslarining muvaffaqiyatida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kuchli yashil boshqaruv va qat'iy me'yorlarga ega mamlakatlar ekoturizmga sezilarli ijobiy natijalarga erishmoqda. Barqaror amaliyotlarni rag'batlantiruvchi, tabiatni muhofaza qilishni qo'llab-quvvatlovchi va mahalliy jamoalarni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etuvchi siyosatlar muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, bu siyosatlarning ijrosi va barcha manfaatdor tomonlarning barqaror rivojlanish maqsadlariga sodiqligi muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, jamoatchilik ishtiroki muvaffaqiyatli ekoturizmning asosiy ustunlaridan biridir. Mahalliy aholini rejalashtirish va qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etish loyihalarning samaradorligini oshiradi va foydaning kengroq taqsimlanishini ta'minlaydi.

Shuni aytib o'tish lozimki, turizm va muhofaza etiladigan hududlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunish va boshqarish zaruratini kuchaytirayotgan uchta muhim global tendensiya bir vaqtda rivojlanmoqda. Birinchidan, xalqaro sayohat va turizm jadal sur'atlarda o'sib bormoqda, bu esa tobora ko'proq insonlarning tabiiy va madaniy merosni ko'rish, o'rganish va qadrlash istagini kuchaytirmoqda. Ikkinchidan, xalqaro tabiatni muhofaza qilish hamjamiyati biologik xilma-xillikning yo'qolishini sekinlashtirish yoki shu holatda to'xtatishda muhofaza etiladigan hududlarni asosiy tayanch mexanizm sifatida qaramoqda. Uchinchidan, butun dunyo xalqlarining muhofaza etiladigan hududlarga bo'lgan talablari nafaqat ortyapti, balki tobora murakkablashib bormoqda.

Talabning ortishi, bir tomondan, insoniyatning ko'payishi va qishloq xo'jaligi kabi yer foydalanish turlari orqali tabiiy hududlar va yovvoyi hayvonot bilan makon uchun raqobat kuchayishi bilan bog'liq. Talablarning xilma-xillashi esa muhofaza etiladigan hududlarning nafaqat tabiatni saqlash obyekti, balki daromad manbai, inson salomatligiga xizmat qiluvchi ekotizim foydalari, mahalliy aholi turmush darajasini oshirish vositasi, transchegaraviy miqyosda "tinchlik"ni mustahkamlovchi mexanizm va hatto boshqaruv modeli sifatida ko'rilishi bilan izohlanadi.

Mazkur uch tendensiyaning birlashuvi Jahon muhofaza etiladigan hududlar komissiyasi (World Commission on Protected Areas, 2012) ta'kidlaganidek, tashrif buyuruvchilarni va turizm rivojini boshqarish bo'yicha institutsional salohiyatni kuchaytirish zaruratini tezlashtiradi. Shu bilan birga, tashrif buyuruvchilarning afzalliklari, xulq-atvori, ehtiyojlari, xarajat odatlari hamda ularning ijtimoiy va ekologik ta'siri haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish ehtiyoji ham ortib bormoqda. Ushbu jarayonlar nafaqat tabiatni muhofaza qilish harakati, balki butun fuqarolik jamiyati uchun ham yangi muammolar va imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda.

2003-yilda Janubiy Afrikaning Durban shahrida bo'lib o'tgan Jahon bog'lari kongressida ishtirokchilar tashrif buyuruvchilarni boshqarish va turizmni rivojlantirishni samarali amalga oshirish uchun ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish zarurligini e'tirof etgan edilar. Kongressdan keyingi 23 yil davomida hamjamiyatlar va tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari turizmni jamoatchilikda tabiiy merosni anglashni oshirish va samarali muhofazani ta'minlash uchun zarur bo'lgan siyosiy harakatlarni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida tobora ko'proq qo'llay boshladilar.

Shuningdek, "turizm Yer yuzasining quruqlik qismining 17,5 foizdan ortig'ini va okeanlarning 8,4 foizini qamrab olgan muhofaza etiladigan hududlar tizimini boshqarish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarning kamida bir qismini ta'minlovchi manba sifatida ham qaralmoqda"[11]. Turizm sektori mahalliy aholi uchun iqtisodiy imkoniyatlar yaratish va tashrif buyuruvchilar uchun hayot sifatini oshirish salohiyatiga ega. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat, volontyorlik turizmi va qiymat zanjirlari orqali esa muhofaza etiladigan hududlar yaqinida yashovchi kambag'al aholi uchun sog'liqni saqlash va ta'limga kirish imkoniyatlari yaratilishi mumkin. Iqtisodiy foydaning eng katta ulushi ish o'rinlari yaratishga to'g'ri keladi. Mahalliy biznesni rivojlantirish va infratuzilmani yaxshilash ham muhim o'rin tutadi, bu esa ekoturizmning iqtisodiy diversifikatsiyadagi rolini ko'rsatadi.

Bioxilma-xillik bo'yicha Kunming-Monreal global dasturining 3-maqsadi (30x30) ya'ni 2030-yilgacha 30 % quruqlik, ichki suvlar, qirg'oqbo'yi va dengiz hududlari biologik xilma-xillikni saqlab qolish va ekotizim xizmatlarini ta'minlash uchun samarali muhofaza etilgan va boshqariladigan tizimlar orqali himoyalanihiga erishishga intilayotgan davlatlar sharoitida

ayniqsa yangi muhofaza etiladigan hududlarning ko'pchiligi allaqachon insonlar yashab kelayotgan yoki foydalanayotgan hududlarda tashkil etilishi kutilmoqda. Bunday hududlarni rasmiylashtirish resurslardan foydalanish va kirish imkoniyatlariga cheklovlar kiritadi, shu sababli turizm orqali olinadigan daromad mahalliy siyosiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlashda muhim omilga aylanadi.

Bu sharoitda ekologik faollar, mahalliy tadbirkorlar va rivojlanish agentliklari muvaffaqiyatli turizm faoliyatini yo'lga qo'yish uchun kengaytirilgan bilim bazasiga ehtiyoj sezadilar. Mahalliy jamoalar esa tashrif buyuruvchilar oqimiga tayyor bo'lishi, madaniy va tabiiy merosni asragan holda yuqori sifatli turistik tajribalarni ta'minlay oladigan iqtisodiy hamkorliklarni shakllantirishi lozim.

Mazkur jarayonlar axborot, bilim va aqlli boshqaruvni talab etadi. Axborot hududning qaysi resurslari sayyohlar uchun jozibador ekanini, qaysi bozor segmentlari mavjudligini va turizm faoliyati bilan bog'liq ijobiy va salbiy ta'sirlarni tavsiflaydi. Bilim esa marketing mexanizmlari, foyda taqsimoti, samaradorlik va tenglik masalalarini tushunishga yordam beradi. Aqlli boshqaruv esa turizm nimani barqaror saqlashi kerakligi, qaysi boshqaruv modellari samarali ekanligi va global bosimlar sharoitida hamkorlik qanday davom etishi mumkinligi kabi murakkab savollarga javob topishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida aytish lozimki muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda barqaror turizmni rivojlantirish xalqaro huquqiy tamoyillarni milliy qonunchilikka integratsiya qilishni talab etadi. Bunda ekologik sig'im prinsipi, zonalashuv, mahalliy hamjamiyat manfaatlarini himoya qilish, majburiy ekologik ekspertiza va turizm daromadlarining ekologik fondlarga yo'naltirilishi kabi mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi tahlillardan hamda xorijiy davlat tajribasidan kelib chiqib, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda barqaror turizmning standartlari va huquqiy kafolatlarini mustahkamlash uchun quyidagi tavsiyalarni milliy qonunchilikka iplementatsiya qilish taklif etiladi.

**Birinchiidan**, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO), Xalqaro Tabiatni Muhofaza qilish Ittifoqi standartlaridan kelib chiqib, "barqaror turizm" tushunchasini qonunchilikka kiritish lozim. Barqaror turizm – bu tabiiy ekotizimlarning yaxlitligi va bioxilma-xilligini saqlagan holda, mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olib, uzoq muddatli ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muvozanatni ta'minlovchi turizm faoliyati hisoblanadi.

**Ikkinchiidan**, majburiy ekologik baholash tizimini joriy etish taklif etiladi. Har qanday turistik loyiha ekologik ekspertizadan o'tmasdan amalga oshirilmasligi lozim. Muhofaza etiladigan hududlarda turizm infratuzilmasi faqat davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasi asosida quriladi.

**Uchinchiidan**, Qonunchilikka "eko-sertifikat" tushunchasini kiritish taklif etiladi. Ya'ni Muhofaza etiladigan hududlarda faoliyat yurituvchi mehmonxonalar, gidlar, transport xizmatlari uchun majburiy ekologik standartlar joriy etish lozim.

#### IQTIBOSLAR/CHOCKI/REFERENCES:

1. Villanueva Cuevas, A. (2012). Las nuevas formas de turismo como instrumento para lograr un desarrollo sostenible e integrador. *Actualidad Jurídica Ambiental*, vol. 2, 2012
2. Arroyo Jiménez, L. (2015). La adjudicación administrativa de recursos escasos. *Indret: Revista para el Análisis del Derecho*, vol. 1, pp. 1-45.
3. Rebollo Puig, M. (1999). La peculiaridad de la policía administrativa y su singular adaptación al principio de legalidad. *Revista Vasca de Administración Pública. Herri-Ar- dulararitzako Euskal Aldizkaria*, vol. 54, pp. 247-282.
4. BMT Inson va atrof-muhit bo'yicha Stokgolm konferensiyasi (1972): United Nations Conference on the Human Environment, Stockholm, 1972. – URL: <https://www.un.org/en/conferences/environment/stockholm1972>

5. Convention on Biological Diversity (CBD). — United Nations, 1992. — URL: <https://www.cbd.int/convention/text/>
6. Council Directive 79/409/EEC of 2 April 1979 on the conservation of wild birds (OJ L 103, 25.4.1979). — URL: <https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/1979/409/oj/eng>
7. Council Directive 92/43/EEC of 21 May 1992 on the conservation of natural habitats and of wild fauna and flora. — Official Journal of the European Communities L 206, 22.7.1992. — URL: <https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/1992/43/oj/eng>
8. Implementation of rulings for nature conservation: Court of Justice of the European Union case studies - EEB - The European Environmental Bureau. URL: <https://eeb.org/en/library/implementation-of-rulings-for-nature-conservation-court-of-justice-of-the-european-union-case-studies/> (дата обращения: 17.01.2026).
9. Natura 2000 sites designated under the EU Habitats and Birds Directives. 2025. URL: <https://www.eea.europa.eu/en/analysis/indicators/natura-2000-sites-designated-under> (дата обращения: 19.01.2026).
10. Qo'riqxonaning etnografik tarixi bepul yuklab oling! PDF kitoblar, dars ishlanmalar, referatlar va taqdimotlar pdfbox.uz. URL: <https://pdfbox.uz/doc/geografiya/25425-qoriqxonaning-etnografik-tarixi> (дата обращения: 19.01.2026).
11. WCMC. Beyond coverage: strengthening the quality of protected and conserved areas // UNEP-WCMC. URL: <http://production-wordpress.unep-wcmc.org/beyond-coverage-strengthening-the-quality-of-protected-and-conserved-areas/>

**YURIST AXBOROTNOMASI**

1-SON

**ВЕСТНИК ЮРИСТА**

НОМЕР 1

**LAWYER HERALD**

ISSUE 1

**ISSN 2181-9416**

**2026-YIL**